Ключевые слова: *слово, лексика, группы, разнообразные, речи, грамматика, парадигматические, системные, связи.*


Ни одно слово в языке не существует отдельно, в отрыве от его общей номинативной системы. Слова объединены в разные группы по определенным признакам. Так, выделяют определенные тематические классы, к которым относятся, например, слова, называющие конкретные бытовые предметы, и слова, соответствующие отвлеченным понятиям. Среди первых легко выделить названия одежды, мебели, посуды и т. п. В основе такого объединения слов в группы лежат не языковые признаки, а сходство обозначаемых ими понятий.

Другие лексические группы образуются по чисто языковому признаку. Например, языковые особенности слов позволяют группировать их в части речи по лексико-семантическим и грамматическим признакам.

Лексикология устанавливает самые разнообразные отношения внутри различных лексических групп, составляющих номинативную систему языка. В самом общем виде системные отношения в ней можно охарактеризовать следующим образом [1].

В лексической системе языка выделяют группы слов, связанные общим (или противоположным) значением; сходные (или противоположные) по





стилистическим свойствам; объединены общим типом словообразования; связаны общим происхождением, особенностями функционирования в речи, принадлежностью к активному или пассивному словарю и т. п. Системные связи охватывают также целые классы слов, единых по своей категориальной сущности (выражающих, например, значение предметности, знака, акция и др.). Такие системные отношения в группах слов, объединенных общим признаком, называются парадигматическими.

Парадигматические связи слов лежат в основе лексической системы любого языка. Как правило, она разбита на множество микросистем. Наиболее простыми из них являются пары слов, соединенных противоположным значением, т. е. антонимы. Более сложные микросистемы состоят из слов, сгруппированных на основе схожести значений. Они образуют синонимические ряды, различные тематические группы с иерархией единиц, сопоставленных как видовые и родовые. Наконец, самые крупные смысловые объединения слов сливаются в обширные лексико-грамматические классы - части речи [2].

Лексико-семантические парадигмы в каждом языке достаточно устойчивы и не подвержены изменениям под влиянием контекста. Однако семантика конкретных слов может отражать особенности контекста, в котором также проявляются системные связи в лексике.

Одним из проявлений системных отношений слов является их способность соединяться друг с другом. Сочетаемость слов определяется их предметно-семантической связью, грамматическими свойствами, лексическими особенностями. Например, слово стекло может употребляться в сочетании со словами шар, стекло; возможны комбинации стеклянная банка (бутылка, посуда), даже стеклянная кастрюля (сковородка) - из огнеупорного стекла. Но невозможно - "стеклянная книга", "стеклянная лепешка" и т. д., так как предметно-смысловые связи этих слов исключают взаимную сочетаемость. Вы также не можете связывать слова. стекло и бежать, стекло и далеко: этому противостоит их грамматическая природа (прилагательное не может сочетаться с глаголом, косвенным наречием). Лексической особенностью слова стекло является его способность к развитию переносных значений, что позволяет строить словосочетания волосы, стеклянный дым (Эс.), стеклянный взгляд. Слова, не обладающие этой способностью (огнеупорный, металлорежущий и ниже), не допускают метафорического употребления в речи.



Системные связи, проявляющиеся в закономерностях сочетания слов друг с другом, называются синтагматическими (гр. синтагма- нечто связанное). Они выявляются при сочетании слов, т. е. в определенных лексических сочетаниях. Однако, отражая связь между значениями слов, а, следовательно, и их системные связи в парадигмах, синтагматические отношения определяются и лексической системой языка в целом. Особенности сочетаемости отдельных слов во многом зависят от контекста, поэтому синтагматические связи в большей степени, чем парадигматические, подвержены изменениям в связи с содержанием речи. Таким образом, лексическая синтагматика отражает изменение реалий (ср., например, стеклянная кастрюля), расширение наших представлений об окружающем мире (прогулка по луне), образную энергию языка (стеклянный дым, волосы) [2]. Системные связи слов, взаимодействие разных значений одного слова и его отношения с другими словами весьма разнообразны, что свидетельствует о большой выразительной силе лексики. В то же время нельзя забывать, что лексическая система является составной частью более крупной языковой системы, в которой сложились определенные отношения между смысловой структурой слова и его формально-грамматическими признаками, фонетическими признаками, а также зависимость значения слова по паралингвистическим (гр. пара- о, около + языковой) и экстралингвистическим (лат. вне- над-, вне- + языковой) факторам: мимике, жестам, интонации, условиям функционирования, времени фиксации в язык и т.д. [3]. Общезыковая система и лексическая система, как ее неотъемлемая часть, выявляются и усваиваются в речевой практике, что, в свою очередь, оказывает влияние на изменения в языке, способствуя его развитию и обогащению. Изучение системных связей в лексике является необходимым условием научного описания лексики русского языка. Решение теоретических проблем получает непосредственный выход в практику и при составлении различных словарей, и при разработке литературно-языковых норм словоупотребления, и при анализе способов индивидуально-авторского использования выразительных возможностей слова. в художественной речи.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдуллаев, А. В. (2021). ОСОБЕННОСТИ ЗНАЧЕНИЯ ИМЕН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ. *Проблемы педагогики*, (4), 62-63.



2. Абдуллаев, А. В. (2020). Русские глаголы движения. *Проблемы педагогики*, (3 (48)), 97-98.

3. Bekhzod Rakhmankulovich Sultanov - MILITARY RHETORIC IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 2020. № 17-6. 3372-3378 Retrieved from <http://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/download/1324/1361>

4. Шавкат Абдумуратович, К., & Мухлиса Абдумалик қизи, К. (2023). ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1641–1643. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/3263>

5. Ш. Кузиев, С. Рахмонова - Дистанционное обучение и технология - будущее национального образования. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал, №1/2018.

6. Кузиев Ш.А. Социолингвистическая компетенция: из филологии в педагогику гулистон давлат университети ахборотномаси 2021. 3 том.

7. Kuziev Sh. A. The ways of developing discourse competence in non-linguistic faculties. The academy of Ma'mun in Kharezm, 2020.

8. Абдуллаев, А. В. (2019). Бессоюзные сложные предложения со значением причины и следствия. *Проблемы педагогики*, (3 (42)), 80-81.

9. Абдуллаев, А. В. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI).

10. Абдуллаев, А. В. (2020). Наречия с пространственными отношениями. *Наука, образование и культура*, (5 (49)), 25-26.

11. Vaydullaevich, A. A. (2021). ABOUT THE FEATURES OF LANGUAGE AND STYLE OF SCIENTIFIC WORKS. *Проблемы педагогики*, (4 (55)), 63-65.



KARTOSHKKA X VIRUSINING XARAKTERISTIKASI, SISTEMATIK O'RNI, TARQALISH AREALI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekmatova E'zoza Elmurod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya kafedrası, magistrant
elmuradovna.ezo@gmail.com

Annotatsiya: Dunyo bo'yicha asosiy biologik muammolardan biri bu o'simlik viruslaridir ya'ni - fitopotogenlar. O'simlik viruslari nafaqat o'simliklarga balki qishloq xo'jaligi va mamlakat iqtisodiyotiga juda kata salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kartoshka X virusi butun dunyo bo'ylab kartoshka ekinlarini zararlovchi viruslardan biridir. Kartoshka X virusi shtamm va genotipiga qarab kartoshka hosildorligini 5 % dan 20 % gacha kamaytiradi [1].

Kalit so'zlar: Kartoshka X virus, fitopotogen virus, genom, genotip, shtamm, nekroz, fitopatogen virus, dentifikatsiyalash, diagnostika qilish , izolyat.

KIRISH

Viruslar "aqilli" orgazimlar, lekin o'simliklar ulardanda "aqilli". Viruslar avtonom organizmlar bo'lib , ular yashab qolishlari uchun xo'jayin organizm hujayralariga kirishlari kerak. Natijada o'simliklarda fiziologik va genetik o'zgarishlarga sabab bo'ladi hamda o'simlik va virus o'rtasida kurash paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kartoshka X virusi kartoshka o'simligini eng muhim va xavfli viruslaridan biri. Kartoshka X virusi Flexiviridae oilasi, Potexvirus turkumiga tegishli tur hisoblanadi. KXV bir zanjirli RNK virusi bo'lib, virus yuqishi uchun hashorotlar yoki tashqi tabiat kuchiga muhtoj emas. U o'simliklarga mexanik tarzda kasal o'simlikdan sog' o'simlikka yuqadi. Bu virus asosan ituzumdoshlar oilasi vakillari: baqlajon, kartoshka, tamaki va qalampirga ziyon keltiradi. KXV yuqqan o'simlikda quyidagi belgilar namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin: barglarda o'zgarish, o'sishning sekinlashishi, hosildorlikning kamayishi, bargda rangning xilma-xilligi ya'ni mozaikasi. Shuningdek, kartoshka o'simligini KXVdan tashqari 50 ga yaqin fitopatogen viruslar kasallantiradi va virus turiga bog'liq holda hosildorlikni 10-87% gacha kamayishiga olib kelmoqda . Shuning uchun kartoshka o'simligini kasallantiruvchi bunday fitopatogen viruslar ustida tadqiqotlar olib borish va qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda qishloq xo'jaligi o'simliklaridan kartoshka o'simligida uchraydigan – KXV, KYV kabi viruslarni ajratish, ularning



keltirib chiqaradigan zararini kamaytirish hamda qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Kartoshka viruslarini aniqlash, ularning xo'jayin organizmi bilan munosabati hamda ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish, identifikatsiyalash va diagnostika qilish bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: kartoshka X virusining genom tuzilishini aniqlash usullari takomillashtirilgan (Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta imeni M.V.Lomonosova (MGU), Rossiya), kartoshka navlarining virus infeksiyasiga genetik chidamlilik mexanizmi aniqlangan (James Hutton Institute, Shotlandiya), kartoshka viruslarini molekulyar diagnostikasi yaratilgan (Department of Plant and Wildlife Sciences, Brigham Young University, AQSh), tabiiy rezervator o'simliklarida ham kartoshka viruslari rivojlanishi kuzatilgan (O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston), kartoshka viruslarini aniqlash uchun immunodiagnostikumi tayyorlangan (Biologo-pochvennyy institut DVO RAN, Rossiya), kartoshka X virusining filogenetik shajarasi aniqlangan va shtammlari ajratib olingan (Centre of Excellence in Molekulyar Biology, Sloveniya), KXVning oqsil qobig'i asosida diagnostika qilingan (Institute of Biochemistry and Biotextology, Pokiston). Kartoshka viruslarini ajratish, xususiyatlarini o'rganish va identifikatsiya qilish bo'yicha qator xorijlik olimlar: M.J. Huisman (1988), S.Y. Kagiwada (2002), T. Yokota (2003), H.Vostan (2004), F. Rashid (1989), K.Tamura (2007), G.Abbas (2012), N.Ahmad (2011), B.A. Cox (2010), J.M. Cuevas (2012), B.Mandal (2012) kabi olimlar tomonidan olib borilgan. MDH davlatlari olimlari MDUda akademik I.G.Atabekov rahbarligida S.Yu. Morozov (2001), O.N. Karpova (2006), R.V. Gnutova (2011) va boshqa qator olimlar tomonidan KXV tuzilishi, xususiyatlari, ekologiyasi, shtammlari, immunodiagnostikasi va molekulyar-genetik xususiyatlariga doir tadqiqotlar olib borilgan; V.I. Malinovskiy (2010) viruslarning o'simliklar fiziologiyasiga ta'siri va infeksiyadan himoyalaniish mexanizmini aniqlash; M.R. Sharipova (2013) tomonidan o'simliklarning infeksiyaga chidamlilik mexanizmlarini ta'minlovchi oqsillari aniqlangan. Shu kabi tadqiqotlar mamlakatimiz olimlaridan Vlasov Yu.I. tomonidan (1960) O'zbekistonda o'simlik viruslarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlari olib borilgan, A.H. Vaxobov (1964) O'zbekiston iqlim sharoitida tarqalgan turli fitopatogen viruslarni aniqlash va diagnostika qilish, A.H. Vaxobov rahbarligida Q.S. Davronov (1984) jo'xori pakanaligi virusini ajratish, xususiyatlarini o'rganish va diagnostika qilish, Z.N. Qodirova (2019) karamdoshlar oilasiga mansub bo'lgan o'simliklarni kasallantiruvchi viruslarni aniqlash, T.S. Xusanov (2019) virus infeksiyasining o'simlikning ba'zi bir fiziologik xususiyatlariga ta'siri, V.B.Fayziyev (2020) KXV O'zbekistonda tarqalgan izolyatini ajratish va



diagnostika qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Kartoshka viruslarini o'rganish bo'yicha mamlakatimizda V.Mirzaaxmedov (1964) dastlab X va S-viruslar tarqalgan fonda virussiz kartoshka yetishtirish, I.T. Ergashev (2007) tomonidan esa L-virusning ayrim xususiyatlari va kartoshka navlari selektsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Shuni ta'kidlash lozimki, kartoshka viruslarining molekulyar-genetik xususiyatlarini aniqlash va diagnostika usullarini ishlab chiqish hamda virusga chidamli navlarni aniqlash bo'yicha mamlakatda yetarlicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Butun dunyoda kartoshka o'simligini 20 dan ortiq viruslar kasallantirishi XX asrgacha aniqlangan bo'lsa, so'ngi yillarda bu viruslarning soni 52 tagacha oshganligi ma'lum bo'ldi, ularning nomlanishi turli lotin harflari bilan belgilangan: X, S, M (K), A, Y, F (G), L va boshqalar. Bu viruslarning har biri yoki bir nechtasi birgalikda kartoshka o'simligini kasallantirib, unda turli xarakterli kasallik alomatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ularga xol-xol mozaika (X va S-viruslari), chiziqli mozaika (Y-virusi), mozaikali burishish (Y, X va A-viruslari), bargning jingalaklanishi (A-virusi), mozaikali buralish (M-virusi), bargning buralishi (L-virusi), aukuba-mozaika (F (G)-virusi) kabilar kiradi. Ayrim hollarda o'simlikda kasallik alomatlari namoyon bo'lmasdan yashirin holatda ham o'tishi mumkin. Kartoshkaning X-virusi (KXV) kartoshka yetishtiriladigan barcha mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, birinchi marta Angliyada (1938) Salamon tomonidan aniqlangan, keyinchalik esa Germaniyada (1964) kengroq o'rganilgan. Bu virus o'simlik bargida xol-xol mozaika (krupchatost') va oddiy mozaika kabi kasallik alomatlarini keltirib chiqaradi. KXV poteksviruslar oilasiga mansub bo'lib, virioni ipsimon ko'rinishda, o'lchami 515×13 nm ni tashkil etadi. Virionning 6% RNK, 94% esa oqsildan iboratdir. RNK ning m.m. $2,1 \times 10^6$ D, oqsilining m.m. 30×10^3 D, sedimentatsiya koeffitsienti esa 118 S, $Y_{e2600,1\%} = 1 \text{ sm} \approx 2,97$ ni tashkil etadi. Virusning m.m. 35×10^6 D ekanligi bir qator mualliflar tomonidan qayd etilgan. Virus xona haroratida quruq bargda 250 kundan 1 yilgacha, muzlatilgan bargda esa 4 yilgacha saqlanishi mumkin. Virus tabiiy sharoitda kontakt usulda yuqishini Smit birinchi (1933) bo'lib isbotlab bergan, ammo oxirgi yillardagi adabiyotlarda virusning tuproq va o'simlik shirasi (tlya) yordamida tarqalishi haqida ma'lumotlar bor. Virus mexanik usulda yuqtirilganda Gomphrena globosa o'simligi bargida 5-6 kun o'tgandan so'ng qizil halqali nekroz, Datura stramonium L., D. tatula L. o'simliklarida 20-22 kundan so'ng bargda sistemali mozaika, D. metel L. o'simligida esa yashil mozaika belgilarini keltirib chiqaradi. KXV ning «X-suroviy» (Xs), «X-kievskiy» (Xk), «X-polskiy» (Xp), «X-xersonskiy» (Xx), «X-razmetiy» (Xr) kabi bir qator shtammlari ajratilgan bo'lib, ularning ichida eng yuqumlilari Xs va Xp-



shtammlari hisoblanadi va bangidevona (*Datura stramonium* L.) o'simligida juda tez sistemali kasallik alomatlarini keltirib chiqaradi. KXV ning Xk va Xp-shtammlari bangidevona o'simligida aniq mozaika belgilarini namoyon qiladi. Gen injeneriya yo'li bilan KXV RNK sini sekvenirlashga to'g'ri keladigan 80 ta nukleotidlarining ketma-ketligi aniqlangan. KXV kartoshka hosildorligini Boudenning fikricha 10%, Ambrosova va bir qator mualliflar olib borgan tajribalari asosida bu virus hosildorlikni 29,7-59% gacha,

XULOSA

KXV butun dunyoda keng tarqalgan viruslardan biri hisoblanadi va aralash infeksiya sifatida katta iqtisodiy zararning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Uning kasallik alomatlari haroratga bog'liq bo'lib, 10–12° dan 28°C bo'lgan haroratda yaxshi namoyon bo'ladi. Viruslar kartoshka o'simligini kasallantirib turli darajada zarar keltiradi va hosildorlikni pasaytiradi, ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun ularning «tabiiy o'choq» turlari, rezervator o'simliklarini va tashuvchi hasharotlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Амбросов А. Л. Вирусные болезни картофеля и методы выращивания здоровых клубней. Издательство «Урожай» Минск, 1964, -С, -10-15.
2. Вахобов А.Х Умумий вирусологиядан амалий машғуотлар. I-ж, 2004, - 31-35 б.
3. Крылов А.В. Некоторые вопросы эпидемиологии, диагностики и терапии мозаичных вирусов картофеля. Вирусологические исследования на дальнем Востоке, Владивосток, 1969, -С, -166-167.
4. Московец С.М., Грама Д.П., Жеребчук Л.К. Віруси і вірусні хвороби картоплі. Видавництво «Наукова думка» Киев, 1973, -С, -20-23.
5. Мирзаахмедов Б. Ўсимликнинг вирус касаллиги. Ўзбекистон «Фан» наш, -Т., 1972, -27 б.
6. Николаева О.В. Диагностика вирусов S и M картофеля методами ИФА и молекулярной гибридизации. Автореферат диссертации кан. биол. наук, -М., 1985, -21 С.
7. Nikitin N.A., Arkhipenko M.V., Novikov V.K., Radionova N.P., Atabekov J.G. The new highly pathogenic of Potato virus X, 10th International Plant virus Epidemiology symposium, 15-19 October, 2007, India, page 78.
8. M. Hema, ... M.R.N. Murthy, in Recent Developments in Applied Microbiology and Biochemistry, 2019



9. Acheson, N. H. (2007). Introduction to virology. In *Fundamentals of molecular virology*. Hoboken, NJ: Wiley
10. Хусанов Т.С., Файзиёв В.Б., Эшбоев Ф.Б., Вахобов А.Х. Влияние вируса мозаики люцерны на содержание хлорофилла и каротиноидов в люцерне. Вестник Прикаспия. №2(5). Май, 2014, -с. 3-6.
11. Fayziyev V.B., Jovliyeva D.T., E.E.To'rajonova "Kartoshka X virusining *Datura stramonium* o'simligi bargidagi xlorofill miqdoriga ta'sirini o'rganish". "Agrar sohani istiqbolli rivojlantirishda resurs tejovchi innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish" mavzisudagi xalqaro ilmiy anjuman to'plami. 1-qism. Andijon-2019. 291-294 b.
12. To'rajonova E.E., Jovliyeva D.T., Tog'ayev S.A., "Kartoshka x-virusining *Datura Stramonium* o'simligi bargi karotinoid miqdoriga ta'sirini o'rganish". «2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodietni rivojlantirish yili» professor-o'qituvchi va e'sh olimlarning III - masofaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2020, Toshkent, 1046-1049b.
13. To'rajonova E.E., Jovliyeva D.T. "Картошка х-вирусининг *Datura Stramonium* ўсимлиги баргидаги каротиноид ва хлорофил миқдорига таъсири". "Ўзбекистоннинг умидли ёшлари" мавзусидаги 1-сон республика илмий талаба ва магистрантлар онлайн конференцияси, 2020, Тошкент, 66-68б.
14. Hassani-Mehraban A., Dulleman A. M. and all. Alstroemeria yellow spot virus (AYSV): a new orthospovirus species within a growing Eurasian clade/ Archives of Virology (2019) 164:117–126 4 October 2018
15. Fuji S., K. Shinoda, M. Ikeda, H. Furuya, H. Naito, and F. Fukumoto. Complete nucleotide sequence of the new potexvirus "Alstroemeria virus X". June 28, 2005.
16. Fayziyev V. B., Jovliyeva D.T., Juraeva U., Shavkiev J. Eshboev F. Effects of PVXn-UZ 915 necrotic isolate of potato virus X on amount of pigments of *Datura stramonium* leaves/ Journal of Critical Reviews, 2020 Volume 7, Issue 9, pp. 400-403



ТАРИҚАТ СИЛСИЛАСИ

Жўрабоев Икромжон Абдуллажон ўгли

Алишер Навоий номидаги

*Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети таянч
докторант*

Аннотация: “Сўфий” ва “тасаввуф” сўзларининг луғавий маънолари ҳақида турли хил фикрлар айтилганидек, уларнинг истилоҳий маъноси борасида ҳам турли қарашлар бор. Ҳар бир тариқатнинг ўз шайхидан Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламга етиб борадиган силсиласи бор. Мазкур силсилага кирувчи шайхлар ушбу тариқат асосларини Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламдан нақл қилишда хизмат қилганлар. Бизда асосан нақшбандийлик тарқалгани учун ушбу тариқат силсиласини батафсилроқ ўрганиб чиқамиз.

ҲАЗРАТИ МУҲАММАД МУСТАФО СОЛЛАЛЛОҲ АЛАЙҲИ ВАСАЛЛАМ

Одатда тасаввуф китобларида силсила зикр қилинганда биринчи бўлиб Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламнинг муборак исмлари ва У зот алайҳиссаломнинг шамойиллари ва ахлоки олиялари зикр қилинади. Ушбу маълумотлар бошқа алоҳида китобларда борлиги эътиборидан, биз бу ерда ҳар бир тариқат каби Накшбандия тариқати ҳам Набий соллalloҳу алайҳи васалламга бориб тақалишини яна бир бор таъкидлаш билан кифояланамиз.

АБУ БАКР СИДДИҚ РОЗИЯЛЛОҲУ АНҲУ

Милодий 572 санада Маккада туғилганлар. Милодий 635 санада Мадинада вафот этганлар.

У киши узунга яқин ўрта бўйли, таналари оқ, озғиндан келган, сочларига оқ оралаган, сийрак соқолли, кўзлари бироз чуқур, озгин, юзлари нурли, бўлишларига қарамай, қувватли, азму қарорли ва шижоатли киши эдилар. Абу Бакр Сиддиқ розияллоҳу анҳу Набий соллalloҳу алайҳи васалламга биринчи бўлиб иймон келтирган кишидирлар. У киши Исломда Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламдан кейинги энг афзал шахс эканликларида шубҳа йўқ.

Абу Саъид розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади:

«Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васаллам шундай дедилар:

«Одамлар ичида мен учун суҳбатида ва молида энг ишончлиси Абу Бакр дир. Агар мен ўзим учун Роббимдан бошқани ҳалил тутадиган бўлсам,



албатта Абу Бакрни тутар эдим. Чунки у Ислон биродарлиги ва муҳаббатидир. Масжидда ҳеч бир эшик қолмасдан, ҳаммаси беркитилсин. Илло, Абу Бакрнинг эшиги бундан мустасно».

Бошқа бир ривоятда:

«Агар умматимдан ҳалил тутадиган бўлсам, албатта Абу Бакрни тутар эдим. Лекин У биродарим ва соҳибимдир. Батаҳқиқ, Аллоҳ сизнинг соҳибингизни ҳалил тутгандир», дейилган.

Бухорий, Муслим ва Термизий ривоят қилишган.

Ушбу ҳадиси шарифдан Абу Бакр Сиддиқ розияллоҳу анҳу Ислон умматининг Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламдан кейинги энг афзал шахси эканликлари яққол кўриниб турибди.

Шу билан бирга, Абу Бакр Сиддиқ розияллоҳу анҳу саҳобаи киромлар орасида ҳам энг илмлиси ва энг зеҳни ўткири бўлганликлари кўплаб ҳадисларда ривоят қилинган.

Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васаллам икки марта:

“Аллоҳ мени сизларга юборганда, сизлар менга “Ёлғон айтдинг”, дедингиз. Абу Бакр “Рост айтдингиз”, деди. Ўзи сизлар менга соҳибимни тарк қиласизларми, йўқми?!” дедилар. Шундан сўнг унга ҳеч озор берилмади». Бухорий ривоят қилган. Оиша розияллоҳу анҳодан ривоят қилинади: «Абу Бакр розияллоҳу анҳу Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламнинг ҳузурларига кирди. Сўнг у зот унга: «Сен Аллоҳнинг дўзахдан атийкисан (озод қилганисан)», дедилар. Ўша кундан бошлаб у «атийқ» деб атала бошлади». Термизий ривоят қилган. Оиша розияллоҳу анҳодан ривоят қилинади: «Набий соллalloҳу алайҳи васаллам: «Ичида Абу Бакр бўлган қавмга ундан бошқа имом бўлиши мумкин эмас», дедилар».

Термизий ривоят қилган.

САЛМОН ФОРСИЙ РОЗИЯЛЛОҲУ АНҲУ

Эронда ҳижратдан 215 йил олдин туғилганлар. Ҳижрий 35 санада 250 ёшларида Эроннинг Мадоин шаҳрида вафот этганлар.

Салмон Форсий розияллоҳу анҳу узун бўйли, буғдойранг, кулча юзли ва серсоқол, соғлом жисмли ва кучли инсон эдилар. Самимий ва кечиримли одам эдилар.

Салмон Форсий розияллоҳу анҳу бой ва зодагон отанинг бойлиги ва обрўсини, айшу ишратни, турли роҳат-фароҳатни ташлаб, ҳақиқатни қидириб-қидириб, охири бориб Ислон ҳақиқатини топди. Ёки бошқача килиб айтадиган бўлсак, ҳақиқатни Ислонда топди.



Салмон Форсий розияллоху анху мажусийликнинг сафсаталари ҳақиқатдан йироклигини ёшлик вақтларидаёқ равшан англаб етдилар.

Салмон Форсий розияллоху анху масиҳийликни барбод қилган дин пешволарининг қилмишларини ҳам фитрий ҳис билан теран тушуниб, уларни шарманда қилдилар. Салмон Форсий розияллоху анху ҳақиқий масиҳийликни тутган оз сонли кишиларнинг колган-қутган озгина ҳақиқатни бошкаларга билдирмай тутиб турганларини ҳам билиб олдилар.

Салмон Форсий розияллоху анху масиҳийлар ичидаги нодир ҳақиқатчилар ўзларининг бузилмаган илоҳий китобларига суяниб айтган аломатларга қараб, Расулulloҳ соллalloҳу алайҳи васалламни топдилар. Шу ўринда тариқат силсиласидаги Шайхларнинг исмларини айтиш билан кифояланамиз:

ҚОСИМ ИБН МУҲАММАД РОЗИЯЛЛОҲУ АНҲУ
ЖАЪФАР СОДИҚ РОЗИЯЛЛОҲУ АНҲУ
БОЯЗИД БИСТОМИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
АБУЛ ҲАСАН ҲАРАКОНИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
АБУ АЛИ ФАРМАДИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ЮСУФ ҲАМАДОНИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА АБДУЛХОЛИҚ ҒИЖДУВОНИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА ОРИФ РЕВГАРИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА МАҲМУД ФАҒНАВИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА АЛИ РОМИТАНИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
МУҲАММАД БОБО САММОСИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
САЙИИД АМИР КУЛОЛ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА МУҲАММАД БАҲОУДДИН НАҚШБАНД ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА АЛОУДДИН АТТОР ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА ЯЪҚУБ ЧАРХИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА УБАЙДУЛЛОҲ АҲРОР ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА МУҲАММАД ЗОҲИД ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ДАРВЕШ МУҲАММАД ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА МУҲАММАД ИМКАНАГИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ХОЖА МУҲАММАД БОҚИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ИМОМИ РОББОНИЙ АҲМАД ФОРУҚ САРҲАНДИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
АЛ-УРВАТУЛ ВУСҚО ШАЙХ МУҲАММАД МАЪСУМ ҚУДДИСА СИРРУҲУ
ШАЙХ САЙФУДДИН ҚУДДИСА СИРРУҲУ
САЙИИД НУРМУҲАММАД БАДАВУНИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ



ҲАБИБУЛЛОҲ МАЗҲАР ЖОНИ ЖОНОН ШАМСУДДИН ҚУДДИСА
СИРРУҲУ

ШОҲ АЛИ АБДУЛЛОҲ ДЕҲЛАВИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ

МАВЛОНО ХОЛИД ЗИЁУДДИН БАҒДОДИЙ ҚУДДИСА СИРРУҲУ

Тариқат силсилаларини англашимиз учун келтирилган Накшбандия тариқати силсиласини шу ерда тўхтатишимиз ва ақлимиз етганича баъзи бир хулосалар чиқаришимиз лозим бўлади. Чунки силсиланинг шу қисмигача келтирилган ҳамма шайхларни барча эътироф қилади. Уларнинг ҳаммалари бу тариқатнинг буюк вакиллари сифатида эъзозланади. Шунингдек, мазкур азизларимизни бошқаларга ўрнак сифатида тақдим қилишга ҳам арзийди. Албатта, силсиланинг бошида турган Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам, у зотнинг икки буюк саҳобалари Абу Бакр Сиддиқ ва Салмон Форсий розияллоҳу анҳумо ва хайру баракасига Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг ўзлари гувоҳлик берган асрнинг вакиллари бўлмиш Қосим ибн Муҳаммад ва Жаъфар Содиқ розияллоҳу анҳумо ҳақида гапириб ўтиришнинг ҳожати ҳам йўқ. Улар ҳар қандай мулоҳазадан юқори турадилар. Қолган йигирма беш шайхнинг таржимаи ҳолларидан баъзи бир хулосалар чиқарсак, тасаввуф ҳақидаги тасаввуримизнинг шайхлар ҳақидаги бобиға кўпгина фойдалар келса, ажаб эмас, деган умиддамиз.

1. Силсиланинг мазкур шайхлари турли насабга оид зотлардир. Бундан тариқатга шайх бўлиш учун маълум бир насабга мансуб бўлиш шарт эмаслиги келиб чиқади. Чунки шайхлар ичида сайид бўлиб, насаби Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламга етиб борадиганлари ҳам,

шунингдек, ҳазрати Умар ёки ҳазрати Усмон ва ҳазрати Али розияллоҳу анҳумга етиб борадиганлари ҳам, насаби оддий бўлганлари ҳам бор.

2. Силсиланинг мазкур шайхлари турли ирқ ва миллатларга мансубдирлар. Бундан тариқат шайхи бўлиш учун маълум бир ирққа ёки миллатга мансуб бўлиш шарт эмаслиги аён бўлади.

3. Силсиланинг мазкур шайхлари аввало шариат илмларини яхши ўзлаштириб олиб, кейин тариқатга юзланганлари кўринади.

Бундан илмсиз киши, хусусан, шариатни пухта ўрганиб, олим бўлмаган кишилар тариқат шайхи бўлиши мумкин эмаслиги маълум бўлади.

4. Силсиланинг мазкур шайхлари турли ижтимоий табақаларга мансуб бўлганлар: баъзилари ўта камбағал бўлсалар, бошқалари Хожа Ахрор Валийга ўхшаб ўта бой бўлганлар. Баъзилари аслзода оилаларга мансуб бўлсалар, бошқалари етим ҳолда кийналиб ўсганлар. Бундан тариқат шайхи



бўладиган зотлар маълум бир ижтимоий табақага хос бўлишлари шарт эмаслиги англанади.

5. Силсиланинг мазкур шайхларидан баъзилари ўта хокисор ҳолда, қаттиқ нонни сувга ивитиб еб юрган бўлсалар, бошқалари ўзлари қолиб, муридларига ҳам лаззатли таомлар тарқатишни одат қилганлар.

6. Силсиланинг мазкур шайхлари ўз меҳнатлари ва риёзатлари билан шайхлик даражасига етганлар. Баъзи ҳолларда отадан кейин бола тариқат шайхи даражасига кўтарилганда ҳам, бу нарса фақатгина ўзининг меҳнати эвазига бўлган. Ҳеч қачон шайхнинг ўғли бўлгани учун шайх бўлиш йўлга қўйилмаган. Бу ҳолни Имоми Роббонийнинг ўғиллари Муҳаммад Маъсум раҳматуллоҳи алайҳи ва у кишининг ўғиллари мисолида кўрамыз.

Силсиланинг мазкур шайхлари силсила Омонатини бевосита ўз пирларидан олганлар. Фақат Боязид Бистомий раҳматуллоҳи алайҳи силсила Омонатини Жаъфар Содик розияллоҳу анҳудан маънан олганлар.

Ҳазрати Баҳоуддин Нақшбанд раҳматуллоҳи алайҳи эса силсила омонатини зоҳиран саййид Амир Кулол раҳматуллоҳи алайҳидан, ботинан Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний раҳматуллоҳи алайҳидан, олганлар. Бундан силсилани бевосита рухсат олиш билан ҳам, билвосита маънавий боғланиш билан ҳам давом эттириш мумкинлиги келиб чиқади.

Асл тасаввуф китобларида Нақшбандия тариқати силсиласи машойихларининг таржимаи ҳолларини зикр қилиш мавлоно Холид Бағдодийнинг зикрлари билан тўхтайтиди.

Бунинг бир неча сабаблари бор. Аммо энг бош сабаб шуки, бошқа тариқатлар каби, Нақшбандия тариқатида ҳам мавлоно Холид Зиёуддин Бағдодий раҳматуллоҳи алайҳигача дунё бўйича бир дона тан олинган шайх бўлиб келган. Юқоридаги сатрларда қисқача таржимаи ҳоллари келтирилган буюк зотлар худди ўша мазкур шарафга муяссар бўлган зотлардир. Фақат бир шайхни тутиш ўша пайтларда осон бўлган. Ислом олами бир бутун бўлган. Орада чегаралар бўлмаган, тариқат ишлари авжида бўлган.

Аммо Мавлоно Холид Зиёуддин Бағдодий раҳматуллоҳи алайҳининг вақтларидан кейин шароит тамоман ўзгарди. Ислом олами парчаланиб кетди. Исломнинг амалий қисми сусайди. Одамларнинг эътиқоди ҳам сусайди. Бинобарин, тасаввуф масаласида ҳам кўплаб муаммолар пайдо бўлди. Энди битта шайх дунёнинг ҳамма тарафларидаги ўз тариқати мухлисларини идора қилиши кийин бўлиб қолди. Эҳтимол, мазкур омиллар туфайлидир ёки бошқа сабабларга кўрайдир, ҳар ҳолда баъзи муҳаққиқларнинг таъкидлашларича, Мавлоно Холид Зиёуддин Бағдодий раҳматуллоҳи



алайҳи ўзларининг бир юз ўн еттита халифаларига иршодга, одамларнинг байъатини қабул қилишга рухсат берганлар.

Баъзи бир кишилар: «Мавлоно Холид Зиёуддин Бағдодий раҳматуллоҳи алайҳи уч юз кишига иршодга, одамларнинг байъатини қабул қилишга рухсат берганлар», дейдилар.

Ана шу тарзда бошка тариқатлар каби, Нақшбандия тариқатида ҳам кўпшайхлик вужудга келди. Кези келганда бир шаҳар ёки қишлоқда бир неча накшбандий шайхлар одамлардан қўл оладиган бўлдилар. Бу ишнинг салбий тарафлари ҳам кўзга кўрина бошлади. Баъзи бир нолойик кишилар тариқат шайхи сифатида иш юрита бошладилар. Оқибатда ҳаммамизга маълум ва машҳур сунний тасаввуфдан оғиш ва турли бидъатларга берилиш каби нохуш ҳолатлар кўпайди. Бу ҳолатнинг аччиғини ҳозиргача татиб келяпмиз. Доктор Салжук Эройдиннинг «Тасаввуф ва тариқатлар» номли китобида айтилишича, Накшбандия тариқатининг Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламга етиб борадиган яна иккита силсиласи бор. Мазкур икки силсиладан бирининг аввалида: Ҳазрати Али розияллоҳу анҳу; Имом Ҳусайн розияллоҳу анҳу;

Имом Зайнул Обидин;

Имом Муҳаммад Боқир;

Ва мазкур силсилаларнинг иккинчисининг аввалида:

Ҳазрати Али розияллоҳу анҳу:

Имом Ҳасан Басрий;

Ҳабиб Абжамий;

Довуд Тоий;

Маъруф Кархий;

Саррий Сакатий;

Жунайд Бағдодий;

Абу Али Рудборий; Абу Али Котиб;

Абу Усмон Мағрибий бор.

Ҳар икки силсила Абу Али Фармадийга келиб бирлашади ва Юсуф Ҳамадонийдан бошлаб аввалги силсила каби давом этади.

Накшбандия тариқати ўз тарихи давомида бир неча номлар билан аталган.

Бу тарикат Боязид Бистомийга қадар «Сиддикия» номи билан аталган.

Бистомийдан Ғиждувонийгача «Тайфурия» номи билан аталган.

Ғиждувонийдан Баҳоуддин Нақшбандгача «Хожагония» номи билан аталган.



Баҳоуддин Накшбанддан Убайдуллох Аҳроргача «Накшбандия» номи билан аталган.

Убайдуллох Аҳрордан Имоми Роббонийгача «Накшбандия-Ахрория» номи билан аталган.

Имоми Роббонийдан Шамсуддин Мазҳаргача «Накшбандия-Мужаддибия» номи билан аталган.

Шамсуддин Мазҳардан Мавлоно Холидгача «Накшбандия-Мазҳария» номи билан аталган.


Мавлоно Холиддан «Накшбандия-Холидия» номи билан аталган.

Кейин эса «Накшбандия» номининг ўзи собит бўлиб қолган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат / Янги топилган намуналар. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004.
2. Ислом энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2004.
3. Йўлдошхўжаев. Ҳ. Тариқатчиликнинг замонавий кўринишлари. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010.
4. Комилов Н. Тасаввуф ва бадиий ижод. //Ёшлик. - Тошкент. 1991.
5. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи, 1996.
6. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2009.
7. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. - Тошкент. Мовароуннаҳр, 2006.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт: Зухд ва рақоиклар. 36–жуз. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2012.
9. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Зухд ва ҳаё. - Тошкент: “Ҳилол нашр”, 2015.
10. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004.
11. Ўткир Ҳасанбоев. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014.
12. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. Масъул муҳаррир: Комилов Н. – Тошкент: “Шарқ”. – 2004.



- 
13. Абу Абдурраҳмон Сулламий. “Тобақотус суфийя”. Al-mostafa.com, 2009.
 14. Абул Мухсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомати Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд. –Т.: Ёзувчи, 1993.
 15. Аҳмад Зарруқ . Қавоидут тасаввуф. Байрут: Дорул улум, 2003.
 16. Доктор Абдул Мунъим Ҳанафий. Мавсуъатус суфийя. Қоҳира: “Дорур рошад”, 1992.
 17. Доктор Муҳаммад Аҳмад Дарниқо. “Ториқотун нақшбандия”. Таробилис, 1987.
 18. Ибн Ажиба. Ийқозул ҳимама фи шарҳи ҳикама. - Уммон : Дорул қалам, 2010
 19. Имом Қушайрий. “Рисола”. –Байрут, Ливан: “Дорул кутубил илмийя”, 2001
 20. Иҳсон Илоҳий. Тасаввуф, маншаъ ва масодир. Дамашқ: Доруссалом, 2003.
 21. Шайх, доктор Аҳмад Алваш Дамашқий. Аширо Муҳаммадия. Журнал. ҳиж.1376. Муҳаррам ойидаги сони.
 22. Шайхул ислом Закариё ал-Ансорий. Шарҳу рисолатил қушайрийя. Байрут: Дорул улум, 2005.
 23. Юсуф Хаттор Муҳаммад. Ал-мавсуъатул Юсуфийя фи баёни адиллатис суфийя. Ҳалаб: Дорул Арқам, 1996.
 24. Йўлдош Эшбек. Баҳоуддин Нақшбанд Бухорий. “Насаф” нашриёти, 2010.



МУЛЛО АЛИ АЛ-ҚОРИНИНГ ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИ

Нурбаев Хурмуҳаммад

Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институтининг “Ҳадис ва ислом тарихи фанлари” кафедрасининг мудири

Исми ва насаби. Тўлиқ исми – Нуриддин Абу ал-Ҳасан Али ибн Султон ибн Муҳаммад ал-Қори ал-Ҳаравий ал-Маккий ал-Ҳанафий бўлиб, “Мулло Али ал-Қори” номи билан машҳурдир²¹.

Мулло Али ал-Қорининг Ҳиротда туғилганлиги тўғрисида ҳеч қандай хилоф бўлмасда, туғилган санасини ҳақида маълумот қолдирилмаган. Чунки ўша даврларда чақалоқ туғилганда унинг туғилган санасига эътибор бўлмагани сабабли инсонлар буни тайин қилишга аҳамият бермас эдилар²².

Аммо ҳижрий 1014 (милодий 1636 йил) санада Макка шаҳрида вафот этганлиги тўғрисида эса барча тарихчилар бир хил фикр билдирганлар..

Таълими. Мулло Али ал-Қори туғилиб ўсган юрт – Ҳиротда дастлаб Қуръони карим илмини ўрганди. Сўнг уни ёд олди, тажвид илмини ўрганди ва устози – ўз даврининг етук олимларидан бўлган Муийнуддин ибн ал-Ҳофиз Зайниддин ал-Ҳаравийдан дарс олди. У асосий илмини Ҳиротдаги ўша даврнинг энг машҳур шайхларидан ўрганди. Илм ўрганишининг илк давридаёқ кўпгина катта китобларни ўқиб ўрганиб пухта ўзлаштириб олди²³. Ҳирот шаҳри Темурийлар ҳукмронлиги даври (уларнинг ҳукмронлиги ҳижрий 817 санадан ҳижрий 912 санагача давом этган)да давлат пойтахти, маънавият ва маданият ўчоғи ҳисобланар эди.

Мулло Али ал-Қори туғилган вақтлар эса, Ҳиротда илм-фан гуллаб-яшнашининг орқага кетаётган ва маънавий муҳит инқирозга юз тутиб бораётган бир давр эди.

“Пошо Исмоил” номи билан танилган Сафавийларнинг биринчи подшоҳи Исмоил ибн Ҳайдар ас-Сафавий Ҳиротга келганда мусулмонларни зулм билан қатл қила бошлади. Шу сабабли Ҳиротдан кўплаб уламолар ўз юртларини ташлаб чиқиб кета бошлади. Шулар қатори Сафавийлар зулм-истибдоди кучайган бир даврда Мулло Али ал-Қори ҳам ўз юртини тарк қилиб, Маккаи Мукаррамага ҳижрат қилди. У сафар давомида кўплаб шаҳарларда бўлиб, у

²¹ “Мирқот ал-мафотих шарҳ мишкотул масобих”. Байрут, Дор ал-кутуб ал-илмийа, ҳиж. 1422й, мил. 2001й, 1 жилд, 16 бет.

²² “Мирқот ал-мафотих шарҳ мишкотул масобих”. Байрут, Дор ал-кутуб ал-илмийа, ҳиж. 1422й, мил. 2001й, 1 жилд, 16 бет.

²³ «Хулосатул асар», 3 жилд 185 бет; “Самт ан-нужум”, 4 жилд, 393 бет.



ерлардаги илмий давраларда қатнашади, уламолар билан суҳбат қуриб, уларнинг илмидан баҳраманд бўлди.

Тарихчилар унинг Маккага риҳлат қилган санасини зикр қилмаганлар. Аммо, ҳижрий 952 йилда Маккага кириб борганини айтганлар.

Мулло Али ал-Қори Балад ал-амин – Маккаи мукаррама шаҳрига кириб истиқомат қила бошлади. Шу кундан бошлаб унинг ўз илмий фаолиятини олиб бориши учун тинч ва осуда ҳаёт бошланди. Машойих ва уламоларнинг дарс ҳалқаларида иштирок этди. Шу асрнинг кўпгина уламоларининг илмларидан баҳраманд бўлди ва илм олиш йўлида юксалиб борди. Бу даврда Макка шаҳри ва хусусан, араб диёрларида кўпроқ Шофеъий, Моликий ва Ҳанбалий мазҳаблари тарқалган эди. Мазкур мазҳабларга эргашган баъзи кишилар етук аллома Имом Аъзам мазҳабини камситиб, уни “фақат раъйга асосланган” деган гапларни тарқатишарди. Баъзилар эса, ҳатто Абу Ҳанифанинг ўзига маломат тошини отиб, у зотни ҳадис илмида нўноқлиги борасида ножўя сўзлар билан айблаларди. Мулло Али ал-Қори Ҳанафий мазҳабига мансуб бўлгани учун ҳам, мазҳаб ҳимояси йўлида уларга қарши кескин курашиб раддиялар ёзди, Абу Ҳанифа шаънини ҳимоя қилишга ва ҳатто инкор этилиш даражасига етган ҳанафий мазҳабини ҳимоя қилишга уринди, бунинг уддасидан чиқди ҳам. Чунончи, у “ан-Ниқоя мухтасар ал-виқоя” номли фикҳга оид ҳанафий мазҳабидаги “Мухтасар ал-виқоя” китобига ёзган шарҳида барча аҳкомларни оят ва ҳадис билан исботлаб берган.

Аллоҳ таоло унинг қалбига илмларни жойлаш учун кенг қилди ва Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг: **“Аллоҳ кимга яхшиликни ирода қилса, уни динда фақиҳ қилиб қўяди”**,²⁴ деган ҳадисларининг исботи ўлароқ у кишига барча яхшиликларни берди.

Уни қидирган киши ё бирор китоб олдида ўтириб мутолаа қилаётганида ёки бирор олимнинг ҳузурда дарс тинглаётганида топиши мумкин эди. У ўз юрти Ҳиротда бўлганида ҳам, илм йўлини тутиб бошқа юртларда бўлганида ҳам ўз даврининг машҳур уламоларидан таълим олди, ҳамма жойда олим ва фузалолар даврасида мутассил равишда ўз илмини оширишга ҳаракат қилди.

Мулло Али ал-Қори бир неча йиллар Байтуллоҳ ал-Ҳаром уламоларидан дарс олишни ўзига лозим тутгани, илм ва таълимга кучли рағбат қўйгани боис тез фурсатда бармоқ билан саналгудек бўлган замонасининг етук олимларидан бўлиб етишди ва улар қаторида жой олди. Илм талаб қилишда тинмади, диний илмлар мажмуаси – ҳадис, тафсир, фикҳ ва қироат илми

²⁴ Имом ал-Бухорий, “Саҳиҳ ал-Бухорий”, Илм китоби, “Аллоҳ кимга яхшиликни ирода қилса...” боби, 71 ҳадис.



бўйича катта шуҳратга эга бўлди, илмий даражаси юксалиб, ёзган асарлари ва шарҳлари тезда ҳар томонларга ёйилди. Илмий фаолиятини юксалтириш, давом эттириш ва тарқатиш мақсадида ҳар йили битта мусҳаф – Қуръони карим кўчириб ёзиб уни сотарди ва шу орттирган даромади келгуси йилгача етарди. Шу ерда Мулло Али ал-Қорининг моҳир хаттот эканлиги, ундан бир неча Қуръони карим нусхалари қолгани ва ҳалигача машҳур мезейларда сақланаётганини зикр қилиб ўтиш мақсадга мувофиқ.

“Ал-Қори” деб номланишига унинг қироат илмида моҳир ва пешқадам, бу илмда етук билимдон, мустаҳкам ва пухта эгаллагани сабаб бўлиб, Ислом оламида ҳам Мулло ал-Қори номи билан шуҳрат топган.²⁵ Бу борада ўзининг ёзган асарлари ва шарҳларида баён қилиб берилган.

Мулло Али ал-Қори ҳақидаги маълумотлар асосан ўрта аср манбаларида, қисман олимнинг ўз асарларида ҳам келтирилган. Унинг ҳаёти ва фаолиятини ёритишда Ҳожи Халифанинг “Кашф аз-зунун”, Муҳаммад ал-Муҳиббийнинг “Хулоса ал-асар фий аъён ал-қорн ал-ҳадий ʼашар” ва аш-Шавкониининг “Ал-бадр ат-толий” асарлари асосий манба бўлиб ҳисобланади.

Муҳаммад ал-Муҳиббий “Хулоса ал-асар фий аъён ал-қорн ал-ҳадий ʼашар” номли китобида: *“Мулло Али ал-Қори фозил илм пешволаридан, энг намунали етук тадқиқотчилардан бири бўлиб, ўз асрининг беназир олими, ибораларни тузатиш ва тадқиқ этишида ўта моҳир, имом, фақиҳ, муҳаддис, усул ва наҳв билимдони, муфассир, мутаккалим, мутасаввиф, тарихчи ва адабиётшунос бўлган. Унинг шуҳрати ва донғи бутун ислом дунёсига таралган бўлиб, унда ақлий ва нақлий билимлар мужассам эди. Суннати набавияга келсак, у бу борада етук мутахассис бўлган”*, деб келтиради²⁶.

Аш-Шавкониий “Ал-Бадр ат-толей” асарида келтиришича, Мулло Али ал-Қори ўнинчи ҳижрий сананинг бошларида майдонга келган мужаддид, мужтаҳиддир.²⁷ Мулло Али ал-Қори шундай юксак мартабага кўтарилганлигидан бўлса керакки, у бошқа мазҳаб имомларига ва айниқса, Имом Шофийий ва у кишининг издошларига кўп масалаларда ўз китобларида эътирозларини билдирган. Имом Моликка эса намозда қўлни пастга тушириб ўқиш борасида қарши чиққан. Бироқ, бу ишлар Мулло Али ал-Қорига кўплаб қийинчиликларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Шунга қарамай, аш-

²⁵ Муҳаммад ал-Муҳиббий. “Хулоса ал-асар фий аъён ал-қорн ал-ҳадий ʼашар”. 3 жилд, 185 бет; “Самт ан-нужум” 4 жилд, 393 бет.

²⁶ Муҳаммад ал-Муҳиббий. “Хулосат ал-асар фий аъён ал-қорн ал-ҳадий ʼашар”.

²⁷ Муҳаммад ал-Муҳиббий. “Хулосат ал-асар фий аъён ал-қорн ал-ҳадий ʼашар”.



Шавкониё Мулло Али ал-Қорини қўллаб, шундай деб таъкидлайди: *“Бу унинг мартабаси баланд, юксаклигидан далолатдир. Мужтаҳид ўзи қарши чиққан ва ундаги саҳиҳ далилларга хилоф бўлган нарсаларни баён этиши керак. Бунда эътирозга дуч келган фикрларнинг эгаси буюк ва буюк эмаслигига қарамаслик лозим”*.²⁸ Шу тариқа аллома одамларга ўзининг илми, асарлари, ақлу заковати билан то вафот этгунига қадар манфаат етказиб юрди.

Мулло Али ал-Қори Мовароуннаҳр ва Арабистон диёрларининг етук уламоларидан таълим олган бўлиб, уларнинг кўплигидан санаб саноғига етиб бўлмайди. Илм олиш мақсадида барча йўлларни босиб ўтди. Унинг устозлари орасида араб миллатига мансублари ҳам кўп эди. Мулло Али ал-Қори ўзи илм олган замонасининг ягона уламолари ва фазилатли шайхларидан қуйидагиларни ўз асарларида келтириб ўтган:

1. Шихобуддин Абу ал-Аббос Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Али ибн Муҳаммад ибн Али Ҳажар ал-Ҳайтабий ас-Саъдий ал-Ансорий аш-Шофеъий ал-Мисрий ал-Маккий. Фақиҳ, муҳаққиқ, муфтий. “Ибн Ҳажар ал-Ҳайтабий” номи билан машҳур. Вафоти ҳижрий 973 сана.²⁹

2. Аллома Алоуддин ибн Ҳисомуддин Абдулмалик ибн Қозихон ал-Қураший ал-Жўнғурий ар-Риҳонфурий ал-Ҳиндий ал-Маданий ал-Маккий. Муҳаддис ва фақиҳ. “Али ал-Муттақий ал-Ҳиндий” номи билан машҳур. “Канз ал-Ъуммол мин сунан ал-ақвал вал-афъал” китобининг муаллифи. Ҳижрий 975 санада Маккаи Мукаррамада вафот этган.³⁰

3. Муҳаммад Саийд ибн Мавлоно Хўжа Ҳанафий ал-Хуросоний. Муҳаддис. “Мир Аллон” номи билан машҳур. Ҳиндистоннинг Агра шаҳрида ҳижрий 981 санада вафот этган.³¹

4. Шайх Зайниддин Атиййа ибн Али ибн Ҳасан ас-Салмий ал-Маккий аш-Шофеъий. Муфассир, фақиҳ. Шайхул муслимийн, ўз даврида Макканинг олими ва фақиҳи бўлган. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 982 санада вафот этган.³²

5. Аллома шайх Мулло Абдуллоҳ ибн Саъиддин ал-Урий ас-Синдий ал-Маккий ал-Ҳанафий. Муҳаддис, мусаннид, фақиҳ, қози, етук олим. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 984 санада вафот этган.³³

²⁸ Маржоний. “Вафийёт ал-Аслоф”.

²⁹ “Шузурот аз-заҳаб”, 8 жилд, 370 бет; “Хулоса ал-асар”, 2 жилд, 166 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 17 бет

³⁰ “Шузурот аз-заҳаб”, 8 жилд, 399 бет; “Ҳадиййа ал-орифийн”, 1 жилд, 746 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 17 бет

³¹ “Нузха ал-хавотир”, 4 жилд, 331 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 17 бет

³² “Ал-аълум”, 5 жилд, 33 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет

³³ “Шузурот аз-заҳаб”, 8 жилд, 304 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет



6. Шайх Абул Исо Қутбиддин Муҳаммад ибн Алоуддин Аҳмад ибн Муҳаммад ан-Наҳрвоний ал-Ҳиндий ал-Маккий ал-Ҳанафий. Муфассир, муаррих (тарихчи-тарихнавис), мударрис, муфтий. “Ал-Қутбий” номи билан машҳур. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 990 санада вафот этган.³⁴

7. Шайх Шихобуддин Аҳмад ибн Бадруддин ал-Аббосий аш-Шофеъий ал-Мисрий ал-Ҳиндий. Ҳиндистоннинг Аҳмадобод шаҳрида ҳижрий 992 санада вафот этган. Фақиҳ. Али ал-Қори ундан Маккаи Мукаррамада илм олган.³⁵

8. Шайх Муҳаммад ибн Абул Ҳасан Муҳаммад ибн Жалолиддин Муҳаммад ибн Абдурраҳмон ибн Аҳмад ал-Бакрий ас-Сиддиқий аш-Шофеъий ал-Мисрий. Муҳаддис, фақиҳ. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 993 йилда вафот этган.³⁶

9. Шайх Синонуддин Юсуф ибн Абдуллоҳ ал-Амосий ар-Румий ал-Ҳанафий ал-Маккий. Фақиҳ, воиз. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 1000 санада вафот этган.³⁷

10. Шайх ас-Сайид Закариё ал-Ҳусний. Бу зот Имом Раббонийнинг шогирди бўлган. Уларнинг талабалари: Исмоил ибн Абдуллоҳ аз-Зувоний. Муҳаддис, мусаннид.³⁸

Бундан ташқари етук алломалардан: Ҳожа Абдуллоҳ ас-Самарқандий ан-Нақшбандий, Шайх Али ал-Муттақий, Шайх Миркалон ва бошқа кўплаб устозлардан илм олган. У киши ноёб заковат, ўткир зеҳн, нозик фаҳму фаросат ва комил ақл соҳиби бўлган. Илм олиш йўлида унга дуч келган барча машаққатларни сабр ва матонат билан енгиб ўтган. Мулло Али ал-Қорининг юқорида номлари зикр этилган барча устозлари силсила орқали келаётган ишончли илм соҳиблари бўлишган. Мулло Али ал-Қори мана шундай етук устозлардан илм олиш шарафига муяссар бўлган.

Мулло Али ал-Қори ўз даврининг йирик тилшуноси, шоири ва олими сифатида машҳурдир. У илм чўққиларини забт этишда ўша даврнинг кўплаб уламоларидан дарс олган. Маълумки, Ўрта Осиё минтақаси мусулмонлари ҳанафий таълимоти ва мазҳабига амал қилади. Мулло Али ал-Қори ҳам шу диёрда ўсган, шу анъанани ўзига сингдирган. У Мовароуннаҳр уламоларининг илмий мактабини ўтади. Сўнг эса илмий сафар уюштириб, кўплаб араб юртларида бўлди ва охири Макка шаҳрида бутунлай истиқомат қилиб қолди. Араб диёрларида эса, бошқа ҳанбалий, шофеъий ва моликий мазҳабининг

³⁴ “Шузурот аз-заҳаб”, 8 жилд, 420 бет; “ал-Аълум”, 6 жилд, 234 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет

³⁵ “Шузурот аз-заҳаб”, 8 жилд, 426 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет

³⁶ “Ал-бизоъа ал-музжот”, 13 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет.

³⁷ “Ҳадиййа ал-орифийн”, 2 жилд, 565 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет.

³⁸ “Ал-бизоъа ал-музжот”, 5 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 18 бет.



вакиллари билан учрашди, улар билан илмий мунозаралар қилди, уларга илм ўргатди ва ўрганди.

Талабалари: Ҳар бир олимнинг ўзига яраша атрофида талабалари бўлганда нега Мулло Али ал-Қорининг талабалари бўлмасин? Ваҳоланки у замонасининг етук алломаси, даврининг яғонаси, муҳаққиқ олим, муҳаддис, фақиҳ, муфассир, қуръон илми моҳири, илм ва маърифат борасида қўли етмаган соҳа йўқ. Кўпгина тарихчиларнинг берган маълумотлари ва талабаларининг кўплиги сабабли уларнинг номларини зикр қилиш мушкул. Шунинг учун улуғ талабаларидан бир нечтасининг номларини зикр қилиш билан кифояланамиз:

1. Имом, хатиб, муфтий шайх Муҳйиддин Абдулқодир ибн Муҳаммад ибн Яҳё ибн Мукаррам ибн ал-Муҳиб ибн Муҳаммад ибн ал-Ҳусайн ат-Табарий аш-Шофеъий ал-Маккий. Аллоҳ мукаррам қилган ўлка – Ҳарамнинг етук имом хатиби. Ҳижрий 1033 йилда вафот этган ва ал-Муалло қабристонига дафн қилинган.³⁹

2. Аллома, фақиҳ, қози Абдурраҳмон ибн Исо ибн Муршид ал-Умрий ал-Муршидий ал-Маккий ал-Ҳанафий Аллоҳ мукаррам қилган ўлка – Ҳарам шариф уламолари ва муфтийларининг устози, шайхул ислом. Нафас қисилиши хасталигидан ҳижрий 1037 санада шаҳид бўлган.⁴⁰

3. Шайх Муҳаммад Абу Абдуллоҳ. “Абдулазим ал-Маккий ал-Ҳанафий ибн Мулло Фаррух ибн Абдул Муҳсин ибн Абдулхолиқ ал-Мавравий (Маврага нисбат берилган)” номи билан машҳур бўлган. Рим аъмолларидан. Маккаи Мукаррамада ҳижрий 1061 санада вафот этган.⁴¹

4. Сайид Муаззам ал-Ҳусайний ал-Балхий. Исми Али ал-Қорининг муаллафотлари – асарлари зикр қилинган “Ал-исбот вал-асонийд” номли китобда келирилган.⁴²

5. Сулаймон ибн Сафийуддин ал-Жоний. Исми “Ижозати шайх Али ал-Қори” номли китобда келтирилган. У Али ал-Қоридан фикҳ илми (усул ал-фикҳ), ҳадис ва тафсир илмларини ўрганган.⁴³

Аллома Мулло Али ал-Қори XI асрнинг илм зирвасидаги машҳур олимлардан бири саналиб, ўз асрининг илмий соҳада яғонаси ва машҳур билимдони эди. Шу билан бирга ўз замонасидаги уламоларнинг энг йирик намояндаларидан бўлиб, фикҳ, ҳадис, тафсир, қироат, усул ал-фикҳ, илм ал-

³⁹ “Ҳадиййат ал-орифийн”, 1 жилд, 600 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 19 бет

⁴⁰ “Ҳадиййа ал-орифийн”, 1 жилд, 548 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 19 бет

⁴¹ “Ал-имом Али ал-Қори ва асаруҳу фий илм ал-ҳадис” номли китобда зикр қилинган. 88-90 бетлар

⁴² “Ал-имом Али ал-Қори ва асаруҳу фий илм ал-ҳадис” номли китобда зикр қилинган. 88-90 бетлар

⁴³ “Хулоса ал-асар”, 3 жилд, 185 бет; “Мирқот ал-мафотих”, 1 жилд, 19 бет.



калом, фароиз (мерос илми), тасаввуф, тарих, табақот, тазкира, адабиёт, тил, грамматика ва шу каби кўплаб илм соҳаларда ижод қилган, асарлар ёзган.⁴⁴ Унинг асарлари нафислиги, фойдалиги, қаноатбахшлиги, жуда осон ва енгил тилда ёзилганлиги билан ажралиб туради. “Ал-бадр ат- толий” асарида: “Мулло Али ал-Қорининг мазкур сифатларга эга бўлган асарлари туфайли ҳижратнинг биринчи минг йиллиги бошларида мужаддидлик рутбасига кўтарилган”, - деб ёзади аш-Шавконий.

Аллоҳ у кишига нодир заковат, китоблар ёзиш – таълифда илоҳий қудрат, бошқа асарларни тадқиқ қилиб ўрганишда сабр-бардош ва олий ақл берган. Унинг ижоди бошқа алломаларнинг илмий фаолиятдан бироз фарқ қилади. Алломанинг ижоди ва фаолияти кўпроқ шарҳ ёзишга бағишланганлигини кўришимиз мумкин. Мулло Али ал-Қори ўз илмий ва ижодий фаолиятида араб тили ва адабиётига чуқур ҳурмат билан қараган ва ўз асарларини араб тилида ёзган. Илм соҳасида қилган хизматлари шу даражага етдики, унинг асарлари китоб расталарида тўлиб кетди, у мурожаат қилмаган ва асар ёзмаган бирор соҳа қолмади десак муболаға бўлмас. Шунинг учун ҳам унинг ёзган асарлари адади ҳақида бирор киши аниқ сонни айта олмаган.

Баъзилар: “Мулло Али ал-Қорининг невараси Маккаи Мукаррамада шундай деди: “Бобомизнинг 300 та таълифоти – асарлари мавжуд бўлиб, бобом буларнинг барчасини фарзандларига вақф қилиб қолдирган ва кишиларнингбу асарлардан нусха кўчиришларига монеълик қилмасликни шарт қилганлар...” деганлар.⁴⁵

Баъзилар эса. асарлари ҳақида жуда катта сонни айтганлар. Аммо Дубайнинг “Ал-мажид” номли илмий тадқиқот марказларидан бири Али ал-Қорининг асарлари номларини келтириб ўтган. Унда 260 тани ташкил этади деб ёзилган.

Яна бошқа баъзи манбаларда: “Али ал-Қори Исломий илмнинг турли соҳаларида 180 га яқин асар ёзиб қолдирган ва бу асарларнинг қарийб барчасининг ёзма нусхалари ҳозирги кунга қадар етиб келган”, дейилади. Унинг асарлари илм-фаннинг кўпгина соҳаларини қамраб олган бўлиб, уларнинг сони юздан ҳам ошиб кетганлигидан манбалар гувоҳлик беради. Уларни айримларини зикр этиб ўтиш билан кифояланамиз:

1. “Ал-асмар ал-жанна фий асма ал-ҳанафиййати”;
2. “Ал-ажвиба ал-муҳаррара фий ал-байзат ал-хабийса ал-мункара”;

⁴⁴ Аш Шавконий. “Ал-бадр ату-толей”.

⁴⁵ Ал-иомо Мулло Али ал-Қори ва асари 110-111 бетлар; Миркот ал-мафотих, 1 жилд, 23 бет.



3. “Адиллат ал-муътақид Аби Ҳанифа фий абавайир-росули соллаллоҳу алайҳи васаллам”, Табаъат ал-салафиййа, Маккаи Мукаррамада нашр қилинган;
4. “Ал-адаб фий ражаб ал-муражжаб”;
5. “Ал-азҳар ал-мансура фий ал-аҳадис ал-машҳура”;
6. “Ал-истидъау фий ал-истисқо”, Ал-мактуб ал-ислабий милодий 1990 йил;
7. “Истийнас ан-нас би фазоили Ибни Аббас”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос, Тонтода нашр қилинган;
8. “Ар-родд ъала ибн ал-Арабий”;
9. “Ал-мухтасар ал-авфаа фий шарҳ ал-асмаа ал-ҳуснаа”
10. “Ал-мартабат аш-шухудиййа фий манзила ал-вужудиййа”, ҳижрий 1294 йилда Истанбулда “Рисала фий ваҳдат ал-вжуд” сарлавҳаси остида чоп қилинган;
11. “Ал-масъалат фий шарҳ ал-басмала”;
12. “Ал-маслук ал-аввалу фий ма тазомманаҳ ал-кашфу ли ас-суютий”;
13. “Ал-маслак ал-мутақассит фи ал-мансак ал-мутаваассит”, ҳижрий 1303 йилда Маккаи Мукаррамада “Ал-матбаъа ал-амириййада ва Мустафо ал-Бобий ал-Ҳалабий томонидан ҳижрий 1303 йилда Дорул фикрда “Иршод ас-сорий ила манасик ал-Мулло Али ал-Қори” сарлавҳаси остида нашр қилинган;
14. “Ал-манҳ ал-фикриййа ъала муқаддимат ал-жазариййа”;
15. “Ал-маврид ар-ровиййи фий ал-мавлид ан-набавиййи”;
16. “Ан-носих вал-мансух мин ал-ҳадис”;
17. “Ан-нисбат ал-мартаба фий ал-маърифа вал-маҳабба”;
18. “Ан-наът ал-марсоъ фий ал-мажнис ал-масжаъ”;
19. “Ал-ҳайъат ас-саниййаат фий табиин аҳадийс ал-мавзуъот”;
20. “Ар-ройят фий ар-расм”⁴⁶ ва ҳоказо.
21. “Анвор ал-Қуръон ва асрор ал-фурқон”;
22. “Анвор ал-ҳужаж фий асрор ал-ҳужаж”, Дор ал-башар, милодий 1988 йил;
23. “Байан феъл ал-хайр иза дахала Макката мин ҳаж ъан ал-ҳойри”, Булақда ҳижрий 1287 йилда нашр қилинган;
24. “Ат-тибйан фий байани ма фий лайла ан-нисф мин шаъбан ва лайла ал-қодри мин рамазон”;

⁴⁶ Исмоил Пошо ал-Боғдодий. “Ҳадиййа ал-ъарифийн асма ал-муаллифийн ва осор ал-мусаннифийн”. 1951 йилда Истанбулда нашр қилинган нусха асосида Байрут нашри. 751-753 бетлар.



25. “Ат-тажрид фий иъроб калима ат-тавҳид ва ма йатаъаллақу биха мин ат-тамжид”, Дор ас-саҳобат лит-турос, милодий 1990 йил ва ал-мактаб ал-исламийда милодий 1991 йилда нашр қилинган;
26. “Ат-тасрийҳ фий шарҳ ат-тасрийҳ”, Дору Аммор ли ан-нашр, Уммон, милодий 1992 йил;
27. “Ал-ҳазар фий амр ал-ҳазор”, Дор ал-қалам, Димашқ, милодий 1991 йил;
28. “Ал-ҳаззул авфар фий ал-ҳажж ал-акбар”, Надват ал-уламо, Лакну ҳижрий 1391 йил;
29. “Ад-дурра ал-музийя фий аз-зийрот ал-мустафавийят ар-розийя”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос, Булақ, ҳижрий 1287 йил;
30. “Аз-захийрат ал-касийроту фий рожаа ал-мағфироти л ал-кабийро”, Мактаб ал-исламий;
31. “Ал-маъдин ал-аданий фий фазоили Увайс ал-Қароний”, ҳижрий 1307 йилда Истанбулда нашр қилинган;
32. “Ал-калам ъала таҳрим симаъ ал-ағоний”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос;
33. “Таҳрийж аҳадис шарҳ ал-ақоид ан-насафийя”;
34. “Тазйин ал-ибора фий таҳсин ал-ишора”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос, милодий 1990 йил;
35. “Таслийа ал-аъма ъан балийят ал-ъума”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос, милодий 1990 йил;
36. “Ташйиъ фуқаҳа ал-ҳанафийя ли ташниъи суфаҳа аш-шофеъийя”;
37. “Тотҳийр ат-товийя фий таҳсийн ан-нийя”, Дор ас-саҳобат ли ат-турос – Ал-мактаб ал-исламий, милодий 1989 йил;
38. “Таълиқот ал-Қори ъала суласиййот ал-Бухорий” (“Шарҳ сулосийот ал-Бухорий”);
39. “Жамолайн ъала ал-жалолайн”;
40. “Ҳошийа ъала шарҳ ал-жаъбарий ли ал-қасида аш-шотибийя”;
41. “Иқтида ал-ҳанафийя би ас-садат аш-шофеъийя”;
42. “Рисала фий байан сифот ан-набий соллаллоҳу алайҳи васаллам”;
43. “Рисала фий ал-жамъ байн ас-солатайн”;
44. “Рисала фий ҳимаيات мазҳаб ал-имам Аби Ҳанифа”;
45. “Рисала фи ар-родд ман нассабаху ила танқийс ал-имам аш-шофеъий”;



Мулло Али ал-Қорининг тақвоси ва зуҳди. Имом Али ал-Қори дину диёнат, тақво, зуҳд ва ҳилмда бениҳоя эди. Буларнинг барчаси қилаётган амалларининг Аллоҳ учун эканлиги ва самимий ихлосидан эди.

Мулло Али ал-Қори ҳам худди Абу Ҳанифа, Суфён, Фузайл ибн Иёз ва Имом Аҳмадлар каби ўта тақволик эканлигидан султонлар ва бойларнинг таклифларини рад қилиб, улардан узоқ турди. Ҳокимларнинг тухфаларидан йироқ бўлиб, бирорта ҳам расмий давлат вазифаси борасидаги таклифларни қабул қилмаган. Ўша даврнинг золим ҳокимлари ва амалсиз олимларига қаршилик кўрсатарди. Ўз қўл меҳнати билан топган нарсаси билан ризқланарди. Унинг ҳар йили чиройли хат⁴⁷ билан бир нусха мусҳафи шариф ёзиб сотиши ва топган даромадининг бир йил давомида етиб туришини юқорида зикр қилиб ўтган эдик. Али ал-Қорининг таржимаи ҳолини ёзган баъзи уламолар бир йилда иккита мусҳаф кўчиришини, иккисини сотиб, бирининг пулини Ҳарами шариф фақирларига садақа қилишини ва иккинчисининг пулини эса, ўз эҳтиёжи учун ишлатшини айтганлар. Бундан ташқари ёзган мусҳафларининг атрофига тафсир ҳам ёзган. Бу тафсири ҳозирда Туркияда сақланади.

Шайх Муҳаммад Абд ал-Ҳалим ан-Нуъманий аллома ҳақида шундай деган:

“Али ал-Қори кутобларини сотиб топган маблағга қаноат қилиб яшарди. Шу қаноати туфайли у зуҳд, иффат ва тақдирга ризолик, топганига кифоя қилиш даражасига етди. Одамларга кам аралашарди. Тақвоси ва ибодати кучли эди...”⁴⁸

Вафоти. Имом Мулло Али ал-Қори Маккаи Мукаррамада ҳижрий бир минг ўн тўртинчи йил (1014) Шаввол ойида (милодий ҳисобда 1636 йилда) вафот этди.⁴⁹

Маккаи Мукарраманинг машҳур ал-Муъалло қабристонига дафн қилинди.

Унинг вафоти ҳақидаги хабар Мисрга етиб борганида, Миср уламолари ал-Азҳар жомеъсида у кишининг илм ва динда пешволигини тақдирлаб, кўпчилик бўлиб ғойибдан жаноза намозини ўқидилар. Намозда қатнашганлар сони эса тўрт мингдан ортиқ кишидан иборат эди.⁵⁰ Бу эса, Ислом оламида алломанинг шуҳрати баландлигидан яна бир дарак эди.

⁴⁷ Мулло Али ал-Қори сулс ва насх турларида жуда моҳир хаттот ҳам бўлган.

⁴⁸ “Ал-Имам Али ал-Қори ва асаруҳу фий илм ал-ҳадис”, 57 бет.

⁴⁹ “Таълийқот ас-сунна” 8 бет; “Хулоса ал-асар”, 3 жилд, 186 бет; “Самт ан-нужум”, 4 жилд, 394 бет.

⁵⁰ “Ан-ниқоя”, 1 жилд, 4 бет; Аш-Шавканий. “Ал-бадр ат-толеъ”.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимов У. Суннат ва Ҳадис. – Тошкент. Шарқ, 2012.
2. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Тошкент.ТИУ,2007.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олтин силсила. Ҳилол нашр. 2013.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт.Тошкент-2008.
5. Бухорий. Алжомеъ ассаҳиҳ. – Қоҳира. Дорушшаъб, 1987.
6. Абу Довуд. Сунан. – Байрут. Дорул китаб аларабий, 1346 ҳ.
7. Муслим. Алжомеъ ассаҳиҳ. –Байрут. Дорул жайл, 1989.
8. Ибн Можа. Сунан. – Байрут. Дорул фикр. 2001.
9. Табарий М. Тарихул умами вал мулук. –Муҳсиния. 1988.
10. Зойфуллоҳ Роҳийлий. Имом абул Ҳасан Дорақутний ва осоруҳул илмийя. –PDF. Вариант 2000.
11. Байҳақий. Сунани кубро. –Ҳайдаробод. Низомия, 1344 ҳ.
12. Муҳаммад ибн Абдулғани. Аълум. –Байрут. Дорул илм.1980.
13. Самъоний. Ансоб. –Ҳинд. Доиратул маъориф.1385 ҳ.
14. Ибн Касир. Албидоя ван Ниҳоя. –Байрут. Мактабатул маъориф.1966
15. Хатиб Бағдодий.Тарихи Бағдод. –Байрут. Дорул кутубул арабий.1980.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINI YOSHLAR HAYOTIDAGI

Mamajonova Shaxnoza Yusubaliyevna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

Kosonsoy 1-son kasb-hunar maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirildi. Bu ma'lumatlar asosan Boburning ijodiy asarlarini o'rganish orqali yuzaga keldi. Shoh*

va shoir deb ta'rif beriladigan Bobur o'z davrining olim insoni ham edi. Faqatgina

she'riyat bobida emas, siyosat va diplomatiya sohasida ham o'z davriga xos yetakchi rahbar bo'la oldi. Bugungi kunda mumtoz asarlarni o'rganar ekanmiz, "Boburnoma" ni ustida qilingan ko'plab tadqiqotlar e'tiborni tortadi. "Boburnoma"

ning mumtoz matnlari asosida ko'plab tilga va badiiy adabiyotga oid qimmatli ma'lumatlar aniqlangani bilan muhim ahamiyatga egadir.

Kalit sözlar: *"Boburnoma", "Mubayyin", "Xatti Boburiy", tarix, adabiyot, geografiya, etnografiya, iboralar, maqolalar, fors tili tovush.*

Аннотация: В статье представлена информация о жизни и творчестве великого деятеля узбекской классической литературы Захириддина Мухаммада

Бабура. Эта информация была получена в основном благодаря изучению творчества Бабура. Бабур, которого называют царем и поэтом, также был ученый своего времени. Он стал ведущей фигурой не только в области поэзии,

но также в политике и дипломатии. Изучая сегодня классиков, мы замечаем

большое количество исследований Бобурномы. Это важно, потому что классические тексты Бобурномы содержат ценную информацию о многих языках и художественной литературе.

Ключевые слова: *«Бобурнома», «Мубайин», «Хатти Бобурий», история, литература, география, этнография, фразы, статьи, персидское звучание.*



Abstract: *The article provides information on the life and work of the great figure of Uzbek classical literature Zakhiriddin Muhammad Babur. This information was obtained mainly through the study of Babur's work. Babur, who is called a king and a poet, was also a scholar of his time. He became a leading figure not only in poetry, but also in politics and diplomacy. As we study the classics today, we notice a lot of Boburnoma's research. This is important because the classic Boburnoma texts contain valuable information about many languages and fiction.*

Key words: "Boburnoma", "Mubayin", "Hatti Boburiy", history, literature, geography, ethnography, phrases, articles, Persian sound.

Kirish:

O'zbek klassik adbiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli nomoyondalaridan Zahiriddin Muhammad Bobur qarshiligi, murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi —Mubayyinll nomli she'riy

risolasi, —Volidiyall atalgan tasavvufga oid bir kitobchanning nazm bilan tarjimai,

Bobur ixtiro etgan va —Xatti Boburiyll nomi bilan mashxur bolgan alfavit jadvali hamda —Boburnomall asaridan iboratdir.

Muhokama va Natijalar:

Zahiriddin Muhammad Bobur qilgan ijodiy merosining eng muxim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan

v o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan

—Boburnomall asaridir.

Bu asar mazmuning rang-barangligi, bir jahon materiyalni o'z ichiga olganligi bilan, til va uslubning go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyoama nushalari izlana boshlangan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi —Boburiyall bo'lsada, uni —Voqeanomall , —Tuzuki



Boburiyll, —Voqeoti Boburiyll,deb atadilar,keyinchalik —Boburnomall degan nom

bilan mashhur bo'lib ketdi.

Bu asarning to'liq teksti 1857-yilda tukolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga H.U.Ilimenskiyning zo'r faoliyati ko'rsatganini alohida qayd etish kerak.

Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingiliz orientalistlaridan A.Beverij xonim —Boburnomallning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nushaning qachon va kim tomonidan ro'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq tekst bo'lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir.

Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan holi emasdir.

London nusxasining afzalligi bunda shundaki, A.Beverij nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan shu bilan birga asar oxrida mukammal kishi ismlari,geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingiliz tilida o'n

betlik so'z boshisi ham bor.Lekin ko'rsatkichlarni transliterasiyasiz arab yozuvi bilan

berilishi nashrni to'g'ri o'qish masalasini qiyinlashtiradi.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib,1848-1949 yillarda

—Boburnomallning ikki qismidan iborat to'liq teksti bosib tarqatilgan edi. Bu nashr

yangi o'zbek alifbosida, kilish va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi

bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi.

Shundan keyin —Boburnomallning to'liq teksti 1960 yili qayta nashrga tayyorlandi ba nashr etildi.

O'zbek mumtoz adabiyotining muazzam silsilasida Boburning o'rni alohida,

albatta. Abdulla Oripov haqli ravishda qayd etganidek, Bobur-Havoiydan keying

eng ulug' ijdkorimiz. Zahiriddin Muhammad Bubur o'n ikki yoshga to'lgunga



qadar, ya'niotasi Umarshayx Mirzo jarga qulab —shunqor bo'lishildan avval ham temuriy shahzodalaridan biri sifatida maktab ta'limini olganini yoki maxsus tayinlangan ustoz ko'magida savod chiqarib, muayyan darajada bilim eganlaganligi shubhasiz. Biroq o'sha dahshatli voqeadan keyin u endigina muchal yoshiga yetgan chog'ida podshoh bo'ladi, nomi xutbaga qo'shilib o'qiladi. Bundan keying o'ttiz olti yillik umri esa betininim jang-jadallar, g'alaba va mag'lubiyatlar bilan kechadi. Qizi Gulbadanbegim haqli ravishda qayd qilinganidek, —Sohibqiron (Amir Temur – Z.I)ll zamonidan tartib, to Firdavsmakon (Bobur) haziratlari zamonigacha o'tgan sultonlardan hech qaysisi bu kishi (Bobur) singari notinch bo'lmaganll. Darvoqe, bular Bobur qalamiga mansub —Voqoell (—Boburnomall) da ham, hatto Muhammad Solihning —Shayboniynomallsida ham mufassal bitilgan. Bobur Mirzo madrasa ta'limini ko'rmagan, yovqur beklar va amirlardan bo'lak uning yonida biron-bir ilm yonalishidagi ustozini ham bo'lmagan. Bobur nimaniki yozgan bo'lsa, bunga unung o'sh, o'n ikki yoshiga qadar olgan maktab bilimi asos bo'lib xizmat qildi. Qolgani uning hayot maktabida o'qib-o'rganib, boshidan o'tgan sinoatlaridan chiqargan xulosalari negizida barpo bo'ldi. SHu bilan birga, Bobur Afg'oniston va Hindistonga muazzam bir saltanatga asos soldi Boburiylar sulolasi qariyb 333 yil davomida hukm surdiki, tarixda buncha uzoq davr mobaynida taxt ustiga bo'lgan sululalar kamdan-kam. Boburning ana shu behisob urushlar, muzokaralar toj-taxt ustida bo'lgan tashvish orasida badiiy va ma'naviy qimmatli beqiyos bo'lgan devon tartib berishi, filologik ilmlarning eng mushkuli she'rshunoslik bilan shug'ullanib, aruz tizimi to'g'risida —Mufassall degan asar yozgani, Xo'ja Ahrorga azbaroyi ixlosidan uning





nasrda bitilgan —Validiyall asarini nazmga solib tarjima qilgani, Islomning besh

arkoniga bag'ishlab, she'riy yo'lda ma'rifiy risolalar bitgani, yigirmayoshlik yigit chog'ida —Xatti Boburiyall ixtiro qilib, bu xat bilan Qur'oni karimni ko'chirgani, xususan butun musulmon dunyosida ilk bor realistic uslubdagi avtobiografik memuar barpo etgani hayratlanarlidir.

Dunyo xalqlari orasida o'zaro ma'daniy aloqalar keng tus olgan hozirgi kunda —Voqeell jahondagi turli tillarga tarjima qilinib, talay xalqlarning ma'naviy

xazinasidan o'rin oldi. Ayni asarda ulug' shoir Boburning nasrda ham nechog'liq tengsiz bir ijodkor bo'lgani yaqqol ko'rinadi.

XULOSA

Ma'lumki, Bobur bir necha tilni yaxshi bilgan. Shuning uchun bir tildan ikkinchi tilga o'tgan so'zning shu tilde ifodalagan ma'nosi, hatto o'sha o'tish davri da unda yuz bergan fonetik jarayonlarni ham izohlashga harakat qiladi. Jumladan, mug'ul tilida o'zlashgan —olachallso'ziga olimning bergan izohishu fikrga

to'liq dalil bo'la oladi: "Olachaning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, qashshoq va mug'ul tili bila o'ldirguchini "olacha" derlar, qashshoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg'oni uchun Olachi de-de hasrati is'temol bila Olacha bo'libtur"(B.68-69 b.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES):

1. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. -T.:1960;
2. Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.
3. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
4. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
5. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
6. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz— asari. -T.:1986;
7. Xayriddin Sul-ton. Boburiynoma. -T.:1996;
8. G'aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma—. — T.:1996;



**DUDUQLANISH,DUDUQLANISH TURLARI,DUDUQLANISH KELIB CHIQISH
SABABLARI VA UNI OLDINI OLISH, DUDUQLANUVCHI BOLALAR VA
O'SMIRLARDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLAR VA
DUDUQLANISHDA KORREKSION PEDAGOGIK ISHLAR TIZIMI.**

Umurzoqova Muattar Turdumuxammadovna

*NamDu pedagogika-psixologiya fakulteti defektologiya yo'nalishi 3 kurs
talabas*

Vaxabova Munira

*Ilmiy rahbari: NamDu pedagogika-psixologiya fakulteti Ta'lim menejementi
kafedrasida o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanish, duduqlanish turlari, duduqlanishda ish olib borgan olimlar, duduqlanishning kelib chiqish sabablari, duduqlanishni oldini olish, duduqlanuvchi bolalar va o'smirlarda olib boriladigan logopedik ishlar, didaktiv o'yinlar, duduqlanishni korreksiya qilishda psixologik-pedagogik ishlar metodikasi haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *duduqlanish, korreksiya, psixoterapevtik tasirlar, didaktik usullar, autogen, autosugestiya, psixoterapiya,*

Annotatsion: In this article, scientists who have worked on stuttering, types of stuttering, the causes of stuttering, prevention of stuttering, logopedic work on stuttering children and teenagers, didactic games and psychological methods of correcting stuttering have revealed.

Ключевые слова: *Заикания, коррекция, психотерапевтический эффект, дидактические методы, аутогенный, самовнушение, психотерапия.*

Ma'lumki, hozirgi kunda juda ko'p bolalarda uchraydigan duduqlanish har bir ota-onani tashvishga solib qo'yimoqda. Duduqlanish kasallikmi yoki nuqson, buni anglash ham qiyin. Olimlar olib borgan ishlardan shuni aytish mumkinki, duduqlanish vaqti-vaqti bilan qo'zg'ab turadi. Duduqlanishni bartaraf etish uchun katta kuch va sabr talab etadi. Agar duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi.

Duduqlanish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Duduqlanish- bu nutq apparati muskullarining natijasida nutqning sur'at o'zgarishining buzilishidir.



Duduqlanish XVII-XVIII asrda tashqi nutq apparatining etishmaganligi sifatida talqin qilindi. XX- asrdan boshlab duduqlanish mexanizmi haqidagi barcha tushunchalar uchta nazariy yo'nalishga ajratildi.

1-Duduqlanish nutq markazlarini muvofiqlashtiruvchi apparatning qo'zg'aluvchanligi, zaiflashuvi natijasida sodir bo'ladigan nevroz G. Gutsman, I. A. Kusmaul, I L Skorskiyar duduqlanish bu nevrozizm jarayoni, duduqlanish bu pay tortishishiga o'xshash spazm deb talqin qilishgan.

2-Duduqlanish ruhiy xarakterdagi assotsiativ buzilishdir. Bu yo'nalishlarni T. Gefner, E Freshels tomonidan o'rganildi.

3-Duduqlanish ruhiy jarohatlanishda atrof muhit bilan bo'ladigan turli ziddiyatlar natijasida kelib chiqishini A. Adler, Shneyder o'z nazariyalarida ochib berdilar. Shunday qilib XIX-XX-asr boshlarida duduqlanish bu murakkab psixofizik buzilish degan fikrga kelishdi. Duduqlanishni nevrozlar haqidagi Pavlov ta'limoti nazariyasini o'rganish chet ellarda o'z izdoshlarini topmoqda. Chehoslavakiyada –M Zeemin, M So'vak, K Dostalova; Bulgariyada –D Daskalov, A Atanasov, A Angushev; Polshada-AMitrinovich, Germaniyada- Bekker va boshqalar duduqlanish haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tishgan.

Duduqlanish sababi va alomatlari:

Duduqlanish ko'pincha maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydi. Bola nutqi rivojlanib murakkabroq jummalarni ifodalay boshlaganda duduqlik sezila boshlaydi.

Duduqlanishni kelib chiqishiga sabab yosh bolalarning hali shakllanib ulgurmagan nimjon asab sistemasiga har turli zararli ta'sirlar natijasida vujudga keladi. Masalan qo'rqish, uydagi ota-onalar o'rtasidagi shovqinli vaziyatlar, to'polonlar, janjallar bolakay uyqusida cho'chib uygonishiga qo'rqishiga sabab bo'ladi. Bu qo'rquv shunday kuchli bo'ladiki, bolakay uyqusida ham qo'rqib uyg'onadigan bo'ladi, to'polon qilganlarga ishonchsizlik huddi xozir yana janjal boshlanadigandek qo'rquv alomatlari, uning hatto ko'z qarashlarida ham bilinadigan, kattalarga botinib qaray olmaydigan bo'ladi. Yosh bolalarda taqlid kuchli bo'lganligi sababli, ba'zi birlari duduq o'rtoqlaridan duduqlanishni o'rganadilar. Duduqlik belgilari hammaga ma'lum, gapira boshlagan zaxoti duduqlanuvchi bolalarning mushaklari tortisha boshlaydi. Ba'zi hollarda duduqlanuvchi bola 1- so'zni aytmoqchi bo'lganda og'zini ocha olmay qoladi. Duduqlanishni og'ir hollarida yuzi qizarib, yuzdagi mushaklar, ko'z atrofidagi mushaklar tortishishi, hatto terlab ketishi mumkin. Yurak urishi, nafas olishi tezlashadi. Bu holat bolaning vegetativ asab sistemasini faolaytida nuqsonlar borligini bildiradi. Nutqning bunday nuqsonida bola ko'pchilik o'rtasiga chiqib biron-bir so'z aytishi dahshatdek tuyuladi. Shu sababli



duduqlanuvchilar psixologiyasida ,shubhalanishlik,gumonsirash,kayfiyatning pastligi ,o'z kuchi va irodasiga ishonmaslik kabi hislatlar ko'proq bo'ladi.Duduqlanishni davolashga erta kirishilsa ,shunchalik tez yaxshi natijalarga erishish mumkin.Davolash choralari samarali bo'lishi uchun, bolaning o'zida ham bu nuqsondan qutulish istagi bo'lishi, va davolash muolajalarida faol ishtrok etishi kerak.

Duduqlanisha alomtlari turlari.

Duduqlanishni dastlab to'liq alomatlarini dastlab I A Sikorskiyning 1989-yilda yozilgan Duduqlanish nomli ilmiy ishida ko'rsatilgan.

Duduqlanish alomtlari 2 ta guruhga ajratiladi; biologik [fiziologik]va ijtimoiy[psihologik].Fiziologik alomatlarga nutqning hosil bo'lishida ishtrok etuvchi a'zolarning tortishishi,markaziy nerv sistemasi va jismoniy salomatligining umumiy nutq xarakterlarning buzilishi kiradi. Psixik alomatlarga- nutqda tutilish va his-hayojonli nutqning boshqa buzilishlari, nutqda qayd qilish fenomening logofobiyalar, nayrang ishlatish va boshqa ruhiy jihatlari kiradi.

Duduqlanishni 3 turi mavjud. Klonik, tonik va aralash. Klonik muskul tortishishda tovush, bog'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi.masalan a-a-a-nor pi-pi-pi-yo-la o-o-o-ona. Tonik muskulda so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va bola tovushdan bog'indan va so'zdan ikkinchi tovushga, bog'inga so'zga o'tolmaydi bolada hayojon kuchligidan uzoq to'xtalib qoladi. Masalan...tar...vuz, q...uyon, ...ch...oy.Aralash turida barcha nafas tovush artikulyatsion aparat izdan chiqadi.

Duduqlanuvchi bolada asosan nafas olish buziladi. Nafas olishni buzilishi 3 shaklga ajratilgan; ekpirator –nafas chiqarish, inspirator-tortishishli nafas nafas olish ba'zida hirilash bilan va respirator-tortishishli nafas olish va chiqarish ko'p holarda so'zlarning bo'linishi bilan namoyon bo'ladi. Ovoz paychalari aparatida pay tortishishida tortishib birlashgan tovush burmalari oz vaqtida yozilib ketmaydi – tovush birdaniga yohud klonik yoki chiziqli tortishish yuzaga keladi. O-o-o-os-mon

Artikulyatsion aparatda tilga oid labga oid yumshoq tanglayga oid tortishdan farqlanadi. Portlovchi undosh tovushlarda q, k, g',g, b, p, t, d ni talafuz qilishda namoyon boladi. Masalan qo-qo-qovun , ka-ka- kakku.

Duduqlanish davom etishga kora turlariga3 xil turga ajratiladi. 1- doimiy duduqlanish paydo bo'lgach nutqning barcha shaklarid vaziyatlarida namoyon bo'ladi 2- to'lqinsimon duduqlanish goh kuchayadi goh kamayadi butunlay kamayib ketmaydi. 3-qaytalanuvchi bola nutqida duduqlanish yoqolib va yana paydo boladi.

Duduqlanishni oldini olish



Duduqlanishni oldini olish uchun birinchi navbatda oiladagi bolaga tasir qiladigan salbiy vaziyatlarni bartaraf etish, janjallar, bolaning qo'rqishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Duduqlanuvchi bola bilan korreksion ish olib borish kompleks ravishda logoped , nevropatolog, psixolog hamkorligida olib boriladi korik vaqtida anamnez ma'lumotlarni yig'ish bolaning psixalagik va tibbiyot hujjatlarini o'rganish duduqlanuvchi bolani tekshirib korishni o'z ichiga oladi. Logoped ota –ona bilan suhbat jarayonida bolaning natal, post natal rivojlanish davrlaridagi salbiy oqibatlar va 3 yoshgacha bo'lgan davrdagi oiladagi salbiy vaziyatlar bolani rivojlanishini tahlil qilinadi.

Duduqlanuvchi bola yoshi qanchalik kichik bo'lsa umumiy hatti-harakatlari qanchalik faol va dadil bo'lsa , nutq a'zolarining bo'limlari qanchalik kam tortishgan va tortishishini o'zi ham nechog'li zaif bo'lsa ruhiy buzilishlar his –hayajon qanchalik kam bo'lsa duduqlanishni bartaraf etish ancha oson bo'ladi. 2-4 yoshgacha duduqlanish bartaraf etish ijobi natija beradi. Duduqlanishni bartaraf etishga atroflicha yondashish kerak . Nevropatolik psixolog bilan hamkorlikda olib borgan korreksion ish ijobiy samara beradi.

Nevropatolog bolaning miyasidagi o'zgarishlarni EEG diagnostikasidan so'ng tashhislaydi, bola miyasidagi o'zgarishga qarab, bolani giperaktivligiga , o'jarligiga , bola uyqisining buzilishiga yordam beradigan terapevtik muolajalar bilan logoped ishining muaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi.

Duduqlanishda psixoterapiya bolada oziga bolgan ishonch boladagi kuchli his-hayajonni yo'qotish ,duduqlanuvchi bola muloqotga kirishayotganda chuqur nafas olib to'g'ri nutqda gapirishni o'ziga ko'niktirish lozim. Ishontirish "sugestiya" – psixoterapiyani maxsus metodidir. Geterosugestiya- tashqaridan biror shaxs orqali ishontirish. Bu psixoterapevt va duduqlanuvchi bola o'rtasida olib boriladigan ishlarni o'z ichiga oladi. Psixoterapevt bolada o'ziga bo'lgan ishonchni , oshiradi, qo'rquvni, yo'qotadi, his –hayajon pasayishiga yordam beradi. Katta yoshli bolalarda (15-16 yosh) bola sinfda o'rtoqlari bilan muloqatga kirishishga , darslarga ishtirok etishda tortinchoqlik ustunlik qiladi bunda duduqlanishni bartaraf etish uchun geterosugestiya logoped olib borayotgan korreksion ishga samarali yordam beradi. Autosugestiya –o'z- o'zini ishontirish. Bu ko'proq katta yoshli bolalarda ijobiy samara beradi.

Logoped ish jarayonida birinchi navbatda bolaga to'g'ri nafas olishni o'rgatishi lozim. Duduqlanuvchi bola nutqida nafasni taqsimlay olmaslik kamchilik kelib chiqishiga sabab bo'ladi . Korreksion pedagegik ishning asosiy bosqichi to'g'ri



nafasni yo'lga qoyishdir. Nafas mashqlari yordamida bolaga to'g'ri nafasni o'rgatamiz.

- 1- Og'iz orqali nafas olib og'iz orqali nafas chiqaring
- 2- Burun orqali nafas oling burun orqali nafas chiqaring
- 3- Og'iz orqali nafas olib burun orqali chiqaring
- 4- Burun orqali nafas olib og'iz orqali chiqaring

Nafas mashqlarini qo'l harakatlari bilan birgalikda olib borish kerak.

Duduqlanuvchi bolalarda masaj olib borish korreksion pedogik ishning muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Bolaning yuz, qo'l kafti, qismida boshashtiruvchi nuqtali masaj olib boriladi. Duduqlanuvchi bolalar uchun nafas mashqlari

- 1- Burundan nafas olib A..... O..... U..... I O' E
- 2- Burundan nafas olib a-a-a-a-a.o-o-o-o-o.u-u-u-u-u. i-i-i-i-i. o'-o'-o'-o'-o'. e-e-e-e-e

Shu usulda barcha nafas mashqlarini qo'l harakatlari bilan birgalikda . Bolada to'g'ri nafasni yolga qo'ygach so'zlar, gaplar , kichik matnlar aytirish orqali mustahkamlanadi qiziqarli kichik ertak kitob o'qitish va gapirtirish she'rlar aytirish, qo'shiq kuylatirish kerak.


Duduqlanuvchi bola parhez qilishi ham alohida ahamiyatga egadir gazli va rangli ichimliklar, dukkaklik mashsulotlar ,shirinliklar, fast foodlar yeyish taqiqlanadi. Bolada nutqini ravon tushunarli bolishi uchun mashqlar

- 1- Sekin va tinch gapir
- 2- Nutq gapirishdan oldin nimani gapirish kerakligini o'ylab ol
- 3- Juda baland yoki past ovozda gapirmaslik
- 4- Suhbatga kirishayotganda tinch turgan holatda bolishi otirgan holat yoki turgan holatda
- 5- Gapirishdan oldin tez chuqur nafas olish
- 6- Nafasni taqsimlashni bilish
- 7- Unli tovishlarni aniq va shidad bilan talaffuz qilish
- 8- Nafasni undosh tovushga emas unli tovushga yo'naltirish
- 9- Hech qachon undosh tovushlarga urg'u berma nutqni past ohangda cho'zib so'zla
- 10- Agar so'z unli tovushdan boshlansa, so'zni sekin past ovozda talaffuz qilish kerak

11- Birinchi unilarni cho'zibroq talaffuz etib , so'zlarni xuddi murakkab bo'g'inli so'zlarga o'xshatib talaffuz et

- 12- Doimo chuqur nafas olib tushunarli va tiniq gapirishga harakat qil





Demak duduqlanishni bartaraf qilish asosan bolaning yoshligida ko'proq samarali bo'lar ekan. Bolani yoshi kattalashib borgan sari duduqlanish murakkablashib boradi va uni davolash hamda tuzatish bo'yicha amalga oshiriladigan logopedik korreksion ishla samarli bo'lmaydi. Duduqlanuvchi bolalar bilan vaqt o'tkazmay tez,oz vaqtida davolash va tuzatish bo'yicha logopedik ta'sir o'tkazib borilsa yaxshi samaraga erishiladi. Duduqlanuvchi bolalar o'rtasida maktabgacha va kichik yoshli bolalarda ko'proq yaxshi natijalarga erishilgani qayd etilgan. O'smirlar ,ya'ni (16-17 yoshli) bolalarda logopedni korreksion ishi kamroq natija beradi. Bolalar o'rtasida duduqlanish tashhisini bartaraf qilish uchun bo'lajak onalarga duduqlanishni kelib chiqish sabablarini to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish kerak.Shunda jamiyatimizda nuqsonli bolalar kamayishiga olib kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1:Logopediya M.Ayupova Toshkent 2008.y
- 2:Logopediya M.Ayupova,L. Mo'minova Toshkent 1993.y
- 3:Nevrapotologiya Majidov Toshkent 1986.y
- 4:avitsenna.uz sayti



SINGAPUR VA O'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQIY MUHOFAZASI

Razzoqova Flora Shamsiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Rahimjonov Akmaljon Bahromjon o'g'li

Annotatsiya: *Bu maqolada, Singapur va O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tahlil va bahslar amalga oshirilgan. Singapur va O'zbekiston mamlakatlari intellektual mulk huquqi sohasida kreativlikni rag'batlantirish, yaratuvchilar uchun motivatsiya manbasi bo'lib xizmat qilish va innovatsiyani kuchaytirish maqsadida muhim harakatlar ko'rsatmoqda. Bu mamlakatlarning qonunlar, tartibotlar va hukumatning ko'rsatgan ilg'or siyosati intellektual mulkni muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etmoqda. Intellektual mulk huquqi muhofazasi, yaratuvchilar va innovatorlar uchun yaratishlarni himoya qiladi va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Singapur va O'zbekistondagi intellektual mulk huquqi sohasidagi yuqori sifatli amaliyotlar va hamkorliklar mamlakatlarning innovatsion rivojlanishini kuchaytiradi va ularga yangi imkoniyatlar yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Singapur, O'zbekiston, intellektual mulk huquqi, muhofaza, innovatsiya, kreativlik, yaratuvchilik, tartibotlar, qonunlar, motivatsiya, himoya, yaratish, hamkorlik, tajribalar almashish, tashkilotlar, rivojlanish, samarali tizim, siyosat, intellektual mulkchi.*

Abstract: *In this article, the analysis and debates about the specific features of the protection of intellectual property rights in Singapore and Uzbekistan are carried out. Singapore and Uzbekistan are making significant efforts to encourage creativity, serve as a source of motivation for creators, and strengthen innovation in the field of intellectual property rights. The laws, regulations and advanced government policies of these countries create an effective system of intellectual property protection. Intellectual property protection protects creations and makes them accessible to creators and innovators. High-quality practices and cooperation in the field of intellectual property rights in Singapore and Uzbekistan will strengthen the countries' innovative development and create new opportunities for them.*

Key words: *Singapore, Uzbekistan, intellectual property law, protection, innovation, creativity, creativity, procedures, laws, motivation, protection, creation,*



cooperation, exchange of experiences, organizations, development, effective system, policy, intellectual property.

Аннотация: В данной статье проводится анализ и обсуждение особенностей защиты прав интеллектуальной собственности в Сингапуре и Узбекистане. Сингапур и Узбекистан прилагают значительные усилия для поощрения творчества, служат источником мотивации для авторов и укрепляют инновации в области прав интеллектуальной собственности. Законы, постановления и передовая государственная политика этих стран создают эффективную систему защиты интеллектуальной собственности. Защита интеллектуальной собственности защищает творения и делает их доступными для создателей и новаторов. Качественная практика и сотрудничество в сфере прав интеллектуальной собственности в Сингапуре и Узбекистане укрепит инновационное развитие стран и создаст для них новые возможности.

Ключевые слова: Сингапур, Узбекистан, право интеллектуальной собственности, охрана, инновации, творчество, творчество, процедуры, законы, мотивация, защита, создание, сотрудничество, обмен опытом, организации, развитие, эффективная система, политика, интеллектуальная собственность.

Kirish

Intellectual mulk huquqi, inson kreativlik va intellektual faoliyatining yagona yozma mohiyatidir. Bu huquqlar, yozuvchi, dizayner, innovator yoki dasturchi kabi intellektual ishtirokchilar tomonidan yaratilgan fikrlar, mavzular, so'zlar, dizaynlar, brendlar, musiqa, film va boshqalar kabi yaratmalarini himoya qiladi. Singapur va O'zbekiston kabi mamlakatlarda intellektual mulk huquqi muhofazasiga katta e'tibor beriladi. Bu mamlakatlarda intellektual mulk huquqi muhofazasini tashkil etuvchi qonunlar, tuzumlar va siyosatlar mavjud. Singapur va O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Singapur, dunyo bo'ylab ishlab chiqarish, innovatsiya va intellektual mulkni muhofaza qilishda xususan tashkilotlashgan yangi texnologiyalar va strategiyalar bilan tanilgan. Mamlakatning intellektual mulk huquqi tizimi juda samarali va muvaffaqiyatli hisoblanadi. Singapurda intellektual mulkni himoya qilishga oid yosh bo'shliqlar, izchil patentlarni ro'yxatga olish, brendlar va biznes belgilarini ro'yxatdan



o'tkazish, to'lov shartnomalarini va shaxsiy mulkchilikning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq tartibotlar mavjud⁵¹.

Singapur mamlakati, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va to'lov belgilarini himoya qilish maqsadida innovatsionlik talabalarini o'rgatish, brendlar va to'lov belgilari haqida xavfsizlik ma'lumotlarini tarqatish, intellektual mulkni tijorat qilish va istiqbolli rivojlanishini rag'batlantirish kabi xizmatlarni taklif etish bilan hamkorlik qiladi.⁵²

O'zbekiston ham intellektual mulk huquqi muhofazasiga katta e'tibor beradi va bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. O'zbekistonda intellektual mulk huquqi qonunlarining amalga oshirilishi va ulardan samarali foydalanilishi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) intellektual mulk huquqi to'g'risidagi normativ hujjat va BMT tomonidan qo'llanilgan boshqa hujjatlar jismoniy shaxslar va tashkilotlarga yordam beradi. O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasi yuqori saviyada olib borilmoqda va soha bo'ylab rivojlanmoqda.

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasiga oid qonunlar va tuzumlar mavjud. Bu qonunlar intellektual mulkni himoya qilish, mavzular, so'zlar, dizaynlar, patentlar, brendlar va boshqalar kabi yaratmalarni ro'yxatga olish, rivojlantirish, himoya qilish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

O'zbekistonda intellektual mulkni muhofaza qilishning muhim ta'siri patentlar va dizaynlar bo'lib, ularga oid qonunlar va tartibotlar mavjud. Patent tizimi orqali innovatorlar yangi texnologiyalar va mahsulotlarni ro'yxatga olishlari, ulardan foydalanishni tartibga solishlari va o'zlarining ishlab chiqarishlari uchun huquqiy himoya ta'minlanadi. Dizaynlar to'g'risida ham barcha shaxslar va tashkilotlar o'zlarining dizaynlari va yaratmalari uchun huquqiy muhofaza va tanqidlar olishlari mumkin.⁵³

Buning yanada yaxshilanishi uchun O'zbekistonda intellektual mulk huquqi sohasida xalqaro hamkorliklar⁵⁴ ittifoqlar yaratilgan. O'zbekiston Ochiq Innovatsiyalar Markazi, intellektual mulkni himoya qilish, innovatsiya va yangi mahsulotlarni rivojlantirishni rag'batlantirish va innovatorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yosh intellektual ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlaydi. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar orqali O'zbekistonda intellektual mulk huquqi

⁵¹ "Intellektual mulk huquqi: O'zbekistonning amaliyoti va rivojlanishi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Ochiq Innovatsiyalar Markazi maqolasi.

⁵² "Intellektual mulk huquqi muhofazasi va innovatsiya: Singapur va O'zbekiston misollarining taqqoslashuvi" mavzusidagi o'zbekistonli olimlar tomonidan tuzilgan ilmiy-tadqiqot maqolalar to'plami.

⁵³ Singapur intellektual mulk huquqi qo'riqlari va qonunlari haqida ma'lumot olish uchun Singapur intellektual mulk huquqi qo'riqxonasi rasmiy veb-sayti: <https://www.ipos.gov.sg/>

⁵⁴ "Intellektual mulk huquqi sohasidagi samaradorlik: Singapur va O'zbekistonning taqqoslashuvi" mavzusidagi yuridik o'quv yurtlarida tuzilgan ilmiy-tadqiqotlar to'plami.



sohasida tajriba almashish va ko'nikmalarni olish imkoniyati yuzaga keladi. Intellektual mulk huquqi muhofazasining amalga oshirilishi O'zbekistonda innovatsiya va iqtisodiy rivojlanishni kuchaytiradi. Innovatorlar, yaratuvchilar va biznesmenlar o'zlarining fikrlarini himoya qilish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari orqali istiqbolli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishlari mumkin. Bu esa yangi sohasi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish imkonini beradi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy diversifikatsiyasini va innovatsion rivojlanishini rag'batlantiradi.

Intellektual mulk huquqi muhofazasi O'zbekistonda kreativlikni rag'batlantiradi va yosh yaratuvchilar uchun kuchli motivatsiya manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bu yangi idealarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishga erishishga imkon beradi. Innovatsion sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar va tashkilotlar intellektual mulk huquqi orqali o'zlarining yaratishlarini himoya qilishlari va ulardan foydalanishlari bilan kuchli rag'batlantiriladi.

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasi sohasidagi yuksak samarali tartibotlar, innovatsiya markazlari, patent va dizayn agentliklari, hukumat va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorliklarga asoslanadi.⁵⁵ Mamlakatning ilg'or siyosati, bu sohadagi innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo'l ochadi va intellektual mulkni muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etadi.

Uzluksiz rivojlanayotgan globalizatsiya davrida intellektual mulk huquqi muhofazasi dunyo bo'ylab ahamiyatga ega bo'lgan muhim mavzulardan biridir. Singapur va O'zbekiston intellektual mulk huquqi sohasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, fikr yaratish, innovatsiya va kreativlikni rag'batlantirish maqsadida katta e'tibor berishadi.

Intellektual mulk huquqi muhofazasini o'zaro hamkorlik va tajribalar almashish orqali rivojlantirish va sifatini oshirishga harakat qilish, Singapur va O'zbekistonning iqtisodiy va innovatsion rivojlanishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqi muhofazasi, o'z fikrini, yaratishlarini va mahsulotlarini muhofaza qilishni istagan kishilar uchun motivatsiya manbasi bo'lib xizmat qiladi va ularning istiqbolli rivojlanishini rag'batlantiradi.⁵⁶

Hukumat tomonidan intellektual mulk huquqi sohasidagi qonunlar, tartibotlar va siyosatlar o'rganib chiqilgan va amalga oshirilgan. Bu qonunlar orqali intellektual

⁵⁵ "Intellektual mulk huquqi huquqiy asoslari va tashkilotlari" mavzusidagi xalqaro olimlar tomonidan tuzilgan xalqaro ilmiy-tadqiqotlar to'plami.

⁵⁶ "Intellektual mulk huquqi va innovatsiya: Singapur va O'zbekistonning samarali tizimlarining taqqoslashuvi" mavzusidagi yuridik muhokamalar to'plami.



mulkni himoya qilish, innovatsiya va yaratish faoliyati ko'paytirish va intellektual mulkni sifatli sotishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda innovatsion markazlar va institutlar faoliyat yuritib, intellektual mulk huquqi sohasida ta'lim, tajribalar almashish va konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu markazlar innovatorlarga, yaratuvchilarga va biznesmenlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi va ulardan foydalanishni osonlashtiradi.⁵⁷

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasi bo'yicha tashkilotlar ham samarali ishlaydi. Mamlakatda intellektual mulk huquqi sohasida hamkorlikni rag'batlantirish maqsadida xalqaro konferensiyalar, seminarlar va treninglar o'tkaziladi. Bular innovatorlarni, dizaynerlarni va yaratuvchilarni xalqaro standartlarga muvofiq ishlashga yo'l qo'yadi va ulardan yuqori sifatli yaratishlar kiritishga yordam beradi.

O'zbekistondagi intellektual mulk huquqi muhofazasining rivojlanishi hamkorlik va tajribalar almashish bilan yanada kuchaymoqda. Singapur mamlakati bilan hamkorlik o'rnatilayotgan va O'zbekistondagi intellektual mulk huquqi sohasidagi yuqori sifatli amaliyotlarni o'rganish, yangi texnologiyalar va usullar bilan tanishish imkonini beradi.

Singapur va O'zbekiston intellektual mulk huquqi muhofazasining o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi qonunlar, tartibotlar va hukumatning ko'rsatgan ilg'or siyosati bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, bu mamlakatlarda intellektual mulkni muhofaza qilishning samarali tizimini rivojlantirishga, innovatsiyalarni rag'batlantirishga va kreativlikni oshirishga ulkan e'tibor beriladi.

Intellektual mulk huquqi muhofazasi, mamlakatlarning iqtisodiy va innovatsion rivojlanishini kuchaytiradi, yaratuvchilar va innovatorlar uchun yaratishlarni himoya qiladi, yangi idea va yaratuvlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bu bilan birga, intellektual mulk huquqi muhofazasi, dunyoda innovatsiya, rivojlanish va kreativlikni rag'batlantirishning katta ahamiyatga ega bo'lgan jihozlardan biri sifatida ko'rinadi.⁵⁸

Singapur va O'zbekiston o'rtasidagi intellektual mulk huquqi muhofazasi hamkorliklari, tajribalar almashishlari va innovatsiyalar o'zaro foydalanishlari bilan o'z kuchini oshiradi. Bu mamlakatlarda intellektual mulk huquqi sohasidagi samaradorlik va rivojlanishga yo'l ochish uchun harakat qilish, yangi

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqi to'g'risida"gi PQ-4200-son qarori.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Ochiq Innovatsiyalar Markazi rasmiy veb-sayti: <https://innovation.uz/>



texnologiyalarni o'rganish va ulardan foydalanishning samarali tizimini amalga oshirish hamda yaratuvchilik, innovatsiya va kreativlikni rag'batlantirish muhimdir.⁵⁹

O'zbekiston intellektual mulk huquqi muhofazasining rivojlanishi va yuqori sifatli amaliyotlari, mamlakatning innovatsion rivojlanishini kuchaytiradi va xalqaro innovatsiya indeksida o'rnatilishiga olib keladi. Singapur bilan hamkorlik tizimi o'rnatilayotganligi ulardagi intellektual mulk huquqi sohasidagi yuqori sifatli amaliyotlar bilan o'zbek innovatorlar va yaratuvchilar o'zlarini rivojlantirish va ulardan yuqori darajada foydalanish imkonini topishadi.⁶⁰

Jahon intellektual mulk huquqi muhofazasi sohasidagi yangiliklardan foydalanish, Singapur va O'zbek mamlakatlarining intellektual mulk huquqi sohasidagi yuqori darajadagi faoliyatlarini o'rganishga va ulardan foydalanishga imkon beradi. Innovatsiya va intellektual mulk huquqi muhofazasi sohasidagi hamkorliklar, o'zaro tajribalar almashishlar va bilimlarni o'rganganish Singapur va O'zbekistonning intellektual mulk huquqi sohasidagi samarali rivojlanishining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Singapur ham intellektual mulkni muhofaza qilishga va uni innovatsiya va rivojlanishga asos qo'ymoqda. Intellektual mulk huquqi muhofazasi mamlakatlarning ilg'or siyosatlariga, qonunlariga, tartibotlariga va amaliyotlariga bog'liqdir. Singapur va O'zbekiston intellektual mulk huquqi sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida, ulardagi muvaffaqiyatli tajribalar va yangiliklar o'zbek intellektual mulkchilikning rivojlanishini kuchaytirishga va innovatsion rivojlanishning mustahkamlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsiya, kreativlik va intellektual mulkni muhofaza qilish o'zbek mamlakatining iqtisodiy rivojlanishining katta qismini tashkil etadi. O'zbekistonda intellektual mulkni himoya qilishga va innovatsiya muassasalarining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda.⁶¹

Ularning xizmatlari va tajribalari, innovatorlarni yuqori darajada himoya qilish, yaratishlarini ro'yxatga olish va ulardan foydalanishning osonligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Ochiq Innovatsiyalar Markazi va boshqa institutlar, intellektual mulk huquqi muhofazasi, innovatsiya va yaratuvchilik sohasidagi tajribalar almashish va konsultatsiya xizmatlarini takomillashtirish maqsadida katta vaqt va energiya sarflaydi.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk huquqi sohasidagi tashkilotlarning faoliyati va muhofazasi to'g'risida ma'lumot olish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: www.president.uz

⁶⁰ "Intellektual mulk huquqi sohasida Singapur va O'zbekistonning yuqori darajadagi hamkorliklari" mavzusidagi iqtisodiy o'quv yurtlarida tuzilgan ilmiy-tadqiqotlar to'plami.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqi to'g'risida"gi PQ-4200-son qarori.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqi to'g'risida"gi PQ-4200-son qarori.
2. "Intellektual mulk huquqi: O'zbekistonning amaliyoti va rivojlanishi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Ochiq Innovatsiyalar Markazi maqolasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Ochiq Innovatsiyalar Markazi rasmiy veb-sayti: <https://innovation.uz/>
4. "Intellektual mulk huquqi muhofazasi va innovatsiya: Singapur va O'zbekiston misollarining taqqoslashuvi" mavzusidagi o'zbekistonli olimlar tomonidan tuzilgan ilmiy-tadqiqot maqolalar to'plami.
5. Singapur intellektual mulk huquqi qo'riqlari va qonunlari haqida ma'lumot olish uchun Singapur intellektual mulk huquqi qo'riqxonasi rasmiy veb-sayti: <https://www.ipos.gov.sg/>
6. "Intellektual mulk huquqi sohasidagi samaradorlik: Singapur va O'zbekistonning taqqoslashuvi" mavzusidagi yuridik o'quv yurtlarida tuzilgan ilmiy-tadqiqotlar to'plami.
7. "Intellektual mulk huquqi huquqiy asoslari va tashkilotlari" mavzusidagi xalqaro olimlar tomonidan tuzilgan xalqaro ilmiy-tadqiqotlar to'plami.
8. "Intellektual mulk huquqi va innovatsiya: Singapur va O'zbekistonning samarali tizimlarining taqqoslashuvi" mavzusidagi yuridik muhokamalar to'plami.
9. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk huquqi sohasidagi tashkilotlarning faoliyati va muhofazasi to'g'risida ma'lumot olish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: www.president.uz
10. "Intellektual mulk huquqi sohasida Singapur va O'zbekistonning yuqori darajadagi hamkorliklari" mavzusidagi iqtisodiy o'quv yurtlarida tuzilgan ilmiy-tadqiqotlar to'plami.
11. Rakhimjonov, A. (2021). Increasing Civil Liability For Violation Of Rights To Real Estate. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(04), 205-212.
12. Раҳимжонов, А. Б. Ў. (2022). КЎЧМАС МУЛКНИ СОТИШ ШАРТНОМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 1041-1049



THE ROLE OF TEACHER'S SALARIES IN EDUCATION


Iroda Normurodova Xolmurod qizi

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri 2003 yil 3 yanvar

Gruntlarni ikki tomonlama tashishda shu kabi proxodkalar joylashtiriladi. Yer sathi shakliga muvofiq ma'lum bir masofada proxodka paralel, boshqa qismida nurli shaklida bo'lishi mumkin.

Teskari kurak va greyfyerlar ekskavator uskunalarining turlaridan hisoblanib, ularning texnologik xossalarini yuritma tipidan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas.



Arqon yuritmalı teskari kurak – bu asosan transheya qaziydigan ekskavator bo'lib, u ko'p kovshli bo'ylama qaziydigan ekskavatorlardan farqli o'laroq nafaqat tor (kovsh kengligidagi), balki yuqori qismining o'lchami R_{kn} gacha bo'lgan yetarlicha enli transheyalarni ham ishlashga qodir. Bunda grunt ekskavatorning yon tomonida joylashgan o'zi to'kkich avtomobillarga ortiladi. Shuningdek tuproqni otvalga ag'darish ham mumkin. Biroq otvallar sig'imi shartiga ko'ra bunda transheyaning eni, odatda, $0,5 R_{kn}$ dan ortmaydi.

Teskari kurakli ekskavatorlardan kotlovanlarga ishlov berishda ham foydalanadilar. Bunda ishlov byerilayotgan devordagi transheya-“cho'ntak” eni yetarlicha katta bo'lishi mumkin, ammo strelasi eng quyi darajaga tushirilgan ekskavatorning burilishiga ishlanayotgan devor chekkasi va mashinaning yurish qismlari halaqit beradi. Natijada kotlovanlarga ishlov berishda teskari kurakning maksimal kavlash chuqurligi nisbatan tor transheyalarni qazishga nisbatan kichikroq bo'ladi. Teskari kurak bu holda bir to'xtash joyidan ikkinchisiga zaboydagi harakatlanishga nisbatan ko'ndalang yo'nalishda xuddi draglayn ko'ndalang qaziganida siljigani kabi siljib boradi. Tuproq ekskavator bilan bir darajada ishlayotgan va orqa tarafdin keladigan (bunda katta burilish burchaklariga ega bo'lish talab etiladi) transportga, yoki kotlovan tubi bo'ylab harakatlanayotgan avtomobillarga ortiladi. Tuproq to'kish paytida kovsh o'z tutqichi bilan birga burilgani sababli, tuproq ortish radiusi va balandligi o'zgarib, shuning uchun texnologik tavsiflar qatoriga boshlang'ich va yakuniy radiuslar qiymati va tuproq ortish balandligi kiritiladi.

Kichik va o'rtacha gidravlik ekskavatorlar uchun teskari kurak – eng keng tarqalgan va universal uskuna turidir. Ko'pincha uch qismdan iborat strela-tuqichning birlashtirish mexanizmi cheklovsiz pasport chuqurliklariga, katta kesish kuchini qo'llagan holda, kovshning to'lishini, devorini mashinaning bevosita tayanch bazasiga yaqinlashtira olinadigan zaboyning tik traektoriyasini ta'minlash imkoniyatini beradi. ba'zi teskari kuraklar tutqichni silindrlar bilan birga rejada strelaga nisbatan o'ng yoki chap tarafga ma'lum burchakka burish imkonini beradi. Qazish o'qi o'zgartirilgan bunday ekskavatorlar o'ta tor va noqulay sharoitda: bino devorlari, poydevorlar tagida transheya qazish imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamurova, F. I. ugli Mustafayev, EI (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.



2. Ilhom o'g'li, M. E. (2022). KO 'P PROLYOTLI SHARNERLI BALKALARNI XARAKATLANUVCHI YUK TA'SIRIGA HISOBLASH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 250-254).
3. Ilhom o'g'li, M. E. (2022). KO 'P PROLYOTLI SHARNERLI BALKALARNI XARAKATLANUVCHI YUK TA'SIRIGA HISOBLASH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 250-254).
4. Xalilova , R. X. ., & Mustafoyev , V. E. I. o'g'li . (2022). ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 120–123. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/1077>
5. Shohjaxon Maxamadro'zi o'g, U., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'L TRANSPORTIDA BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 234-237).
6. Begali o'g'li, A. E., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'LLAR QURILISHIDA BETON VA TEMIRBETON VAZIFALARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 246-249).
7. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.
8. Кахаров, З. В. (2023, May). ТЕМИР ЙЎЛЛАР ЛОЙИХАЛАШДА МУҲАНДИСЛИК–ГЕОЛОГИК ҚИДИРУВ ИШЛАРИНИНГ ВАЗИФАЛАРИ. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 330-333).
9. Tursunnazar o'g'li, O. J., & Ilhom o'g'li, M. E. (2023, May). ODDIY FERMA STERJENLARIDA QO'ZG'ALMAS YUKLAR TA'SIRIDAN ZO'RIQISHLARNI TOPISH, ODDIY FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISHLARI UCHUN TA'SIR CHIZIQLAR QURISH VA ULARNI BERILGAN YUK BILAN YUKLASH. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 262-268).
10. Ixtiyor o'g'li, B. A., & Tursunnazar o'g'li, O. J. (2023). PO 'LAT KO 'PRIKLAR QURILISHI SOHASIDAGI BOSH MASALALAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(6), 133-137.
11. Фархадовна, Пирназарова Гулхумор. «Формирование самостоятельной воспитательной роли подготовки будущих строителей». Nexus: Журнал достижений инженерных наук 2.4 (2023): 36-40.
12. Pirnazarova, Gulkhumur Farhadovna, and Javlonbek Jumanazar ugli Zakirov. "Fundamentals of Pedagogical Creativity." " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. 2022.



ZARARLI DASTURIY VOSITALAR. RANSOMWARE HUJUMLARI, ULARNING TARQALISH STATISTIKASI VA PROFILAKTIKASI.

D.Ya.Irgasheva

(TATU),

D.U.Qurbonmurodov

(TATU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zararli dasturiy vositalar va ularning turlari haqida nazariy ma'lumotlar keltirib o'tildi. Ransomware hujumlari, uning keng tarqalish sabablari va so'nggi statistikalarga to'xtalib o'tildi. Hozirgi kundagi ransomware guruhlari, ransomware guruhlarining asosiy e'tibor markazidagi sohalari va shu sohalarning hujumlar natijasida ko'rgan zararlari haqidagi ma'lumotlar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: Zararli dasturiy vositalar, viruslar, troyan otlari, Adware, Spyware, Rootkits, Backdoors, mantiqiy bombalar, Botnet, Ransomware, Ryuk, Maze, LockBit, DearCry, Lapsus\$.

Kirish

Bugungi kunda axborot texnologiyalar rivoji insonlarning hayotini yengillashtirish bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan ba'zi shaxslar har xil yo'llar bilan zararli harakatlarni amalga oshirmoqda. Zararli dasturiy vositalar yordamida boshqalarning maxfiy ma'lumotlariga ega chiqishmoqda. Ma'lumotlar o'g'irlanishi yoki ma'lumotlarning yo'q qilinishi bilan tahdid qilinib, firibgarlik orqali pul undirilmoqda. Bunda zararli dasturiy vositalar firibgarlarga keng imkoniyatlar eshikini ochib beryapti.

Zararli dasturiy vositalar foydalanuvchini ruxsatisiz hujumchi kabi g'arazli amallarni bajarishni maqsad qilgan vosita hisoblanib, ular yuklanuvchi kod (.exe), aktiv kontent, skript yoki boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin. Hujumchi zararli dasturiy vositalardan foydalangan holda tizim xafsizligini obro'sizlantirishi, kompyuter amallarini buzishi, maxfiy axborotni to'plashi, veb saytdagi kontentlarni modifikasiyalashi, o'chirishi yoki qo'shishi, foydalanuvchi kompyuteri boshqaruvini qo'lga kiritishi mumkin. Bundan tashqari, zararli dasturlar, hukumat tashkilotlaridan va korporativ tashkilotlardan katta hajmdagi maxfiy axborotni olish uchun ham foydalanilishi mumkin. Zararli dasturlarning hozirda quyidagi ko'rinishlari keng tarqalgan:



- viruslar: o'zini o'zi ko'paytiradigan programma bo'lib, o'zini boshqa programma ichiga, kompyuterning yuklanuvchi sektoriga yoki hujjat ichiga biriktiradi;
- troyan otlari: bir qarashda yaxshi va foydali kabi ko'rinuvchi dasturiy vosita sifatida o'zini ko'rsatsada, yashiringan zararli koddan iborat bo'ladi;
- Adware: marketing maqsadida yoki reklamani namoyish qilish uchun foydalanuvchini ko'rish rejimini kuzatib boruvchi dasturiy ta'minot;
- Spyware: foydalanuvchi ma'lumotlarini qo'lga kirituvchi va uni hujumchiga yuboruvchi dasturiy kod;
- Rootkits: ushbu zararli dasturiy vosita operasion tizim tomonidan aniqlanmasligi uchun o'z harakatlarini yashiradi;
- Backdoors: zararli dasturiy kodlar bo'lib, hujumchiga autentifikasiyani amalga oshirmasdan aylanib o'tib tizimga kirish imkonini beradi, masalan, administrator parolisiz imtiyozga ega bo'lish;
- mantiqiy bombalar: zararli dasturiy vosita bo'lib, biror mantiqiy shart qanoatlantirilgan vaqtda o'z harakatini amalga oshiradi.
- Botnet: Internet tarmog'idagi obro'sizlantirilgan kompyuterlar bo'lib, taqsimlangan hujumlarni amalga oshirish uchun hujumchi tomonidan foydalaniladi;
- Ransomware: mazkur zararli dasturiy ta'minot qurbon kompyuterida mavjud qimmatli fayllarni shifrlaydi yoki qulflab qo'yib, to'lov amalga oshirilishini talab qiladi.[1]

Asosiy qism

Ransomware hujumlari, ularning tarqalish statistikasi va profilaktikasi

Ransomware - bu foydalanuvchi yoki tashkilotning kompyuteridagi fayllarga kirishini taqiqlash uchun mo'ljallangan zararli dastur. Ushbu fayllarni shifrlash va shifrnı ochish kaliti uchun to'lovni talab qilish orqali kiberhujumchilar tashkilotlarni to'lovni to'lash ularning fayllariga kirishni qayta tiklashning eng oson va arzon usuli bo'ladigan holatga keltiradilar. Ba'zi variantlarda to'lovni to'lash uchun ransomware qurbonlarini qo'shimcha rag'batlantirish uchun ma'lumotlarni o'g'irlash kabi qo'shimcha funksiyalar qo'shildi[2].

Ransomware tezda zararli dasturlarning eng mashhur va ommabop turiga aylandi . So'nggi to'lov dasturi hujumlari shifoxonalarning muhim xizmatlarni taqdim etish qobiliyatiga ta'sir qildi, shaharlarda davlat xizmatlarini ishdan chiqardi va turli tashkilotlarga katta zarar yetkazdi.

Zamonaviy to'lov dasturi 2017 yildagi WannaCry epidemiyasi bilan boshlandi. Ushbu keng ko'lamli va ommabop hujum to'lov dasturi hujumlari mumkin va



potensial foydali ekanligini ko'rsatdi. O'shandan beri to'lov dasturining o'nlab variantlari ishlab chiqildi va turli hujumlarda foydalanildi.

COVID-19 pandemiyasi ham ransomware hujumlari avj olishiga yordam berdi. Tashkilotlar tezda masofaviy ishlashga o'tishlari sababli ularning kibermudofaalarida bo'shliqlar paydo bo'ldi. Kiberjinoyatchilar ushbu zaifliklardan to'lov dasturini etkazib berish uchun foydalangan, natijada to'lovga qarshi hujumlar ko'paygan. 2020-yilning 3-choragida to'lov dasturi hujumlari o'sha yilning birinchi yarmiga nisbatan 50 foizga oshdi.

To'lov dasturining o'nlab variantlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, ba'zi ransomware guruhlari boshqalarga qaraganda samaraliroq va muvaffaqiyatli bo'lib, ularni olomondan ajralib turadi.[2]

- Ryuk - bu juda maqsadli to'lov dasturi variantiga misol. U odatda nayza phishing elektron pochta xabarlarini orqali yoki masofaviy ish stoli protokoli (RDP) yordamida korporativ tizimlarga kirish uchun buzilgan foydalanuvchi hisob ma'lumotlaridan foydalanish orqali yetkaziladi. Tizim zararlangandan so'ng, Ryuk ma'lum turdagi fayllarni shifrlaydi (kompyuter ishlashi uchun muhim bo'lganlardan qochib), keyin to'lov talabini taqdim etadi. Ryuk to'lov dasturining eng qimmat turlaridan biri sifatida tanilgan. Ryuk o'rtacha 1 million dollardan ortiq to'lov talab qilmoqda . Natijada, Ryuk ortidagi kiberjinoyatchilar, birinchi navbatda, o'z talablarini qondirish uchun zarur resurslarga ega bo'lgan korxonalariga e'tibor berishadi.

- Maze(Labirint) ransomware fayl shifrlash va ma'lumotlarni o'g'irlashni birlashtirgan birinchi to'lov dasturi varianti bo'lgani bilan mashhur . Maqsadlar to'lovni to'lashdan bosh tortishni boshlaganda, Maze shifrlashdan oldin qurbonlarning kompyuterlaridan maxfiy ma'lumotlarni yig'ishni boshladi. Agar to'lov talablari bajarilmasa, bu ma'lumotlar ommaga oshkor qilinadi yoki eng yuqori narx taklif qiluvchiga sotiladi. Qimmatbaho ma'lumotlarning buzilishi ehtimoli to'lov uchun qo'shimcha rag'bat sifatida ishlatilgan. Maze ransomware ortidagi guruh o'z faoliyatini rasman yakunladi . Biroq, bu ransomware tahdidi kamaydi degani emas. Ba'zi Maze filiallari Egrogor ransomware dasturidan foydalanishga o'tishdi va Egrogor, Maze va Sekhmet variantlari umumiy manbaga ega deb hisoblanadi.

- REvil guruhi (shuningdek, Sodinokibi nomi bilan ham tanilgan) yirik tashkilotlarga mo'ljallangan to'lov dasturining yana bir variantidir. REvil - tarmoqdagi eng mashhur to'lov dasturlari oilalaridan biri. 2019 yildan beri rus tilida so'zlashuvchi REvil guruhi tomonidan boshqariladigan ransomware guruhi " Kaseya " va "JBS" kabi ko'plab yirik buzilishlar uchun javobgar bo'lgan.REvil an'anaviy ransomware



varianti sifatida boshlangan bo'lsa-da, u vaqt o'tishi bilan rivojlandi. Ular fayllarni shifrlash bilan birga korxonalaridan ma'lumotlarni o'g'irlash uchun Double Extortion texnikasidan foydalanadilar . Bu shuni anglatadiki, tajovuzkorlar ma'lumotlar shifrini ochish uchun to'lovni talab qilishdan tashqari, agar ikkinchi to'lov amalga oshirilmasa, o'g'irlangan ma'lumotlarni tarqatish bilan tahdid qilishlari mumkin.

- LockBit - bu 2019-yil sentabr oyidan beri ishlayotgan ma'lumotlarni shifrlash uchun zararli dastur va yaqinda Ransomware-as-a-Service (RaaS) . Ushbu to'lov dasturi xavfsizlik qurilmalari va IT/SOC guruhlarini tomonidan tezda aniqlanishining oldini olish usuli sifatida yirik tashkilotlarni shifrlash uchun ishlab chiqilgan.

- DearCry. 2021-yil mart oyida Microsoft Exchange serverlaridagi to'rtta zaiflik uchun himoyalarni chiqardi. DearCry - bu Microsoft Exchange-da yaqinda ochilgan to'rtta zaiflikdan foydalanish uchun mo'ljallangan to'lov dasturining yangi variantidir. DearCry ransomware ma'lum turdagi fayllarni shifrlaydi. Shifrlash tugagandan so'ng, DearCry to'lov xabarini ko'rsatadi va foydalanuvchilarga to'lov dasturi operatorlariga o'z fayllarini shifrlashni o'rganish uchun elektron pochta xabarini yuborishni buyuradi.

- Lapsus\$ - Janubiy Amerikadagi to'lov dasturlari guruhi bo'lib, u ba'zi yuqori darajadagi maqsadlarga kiberhujumlar bilan bog'liq. Kiberguruh tovlamachilik bilan mashhur bo'lib, agar o'z qurbonlari talablari bajarilmasa, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish bilan tahdid qiladi. Guruh Nvidia, Samsung, Ubisoft va boshqalarni buzish bilan maqtandi. Guruh zararli dastur fayllarini ishonchli qilib yashirish uchun o'g'irlangan manba kodidan foydalanadi.

Quyida biz ransomware hujumlarining tarqalish statistikasini keltirib o'tamiz.:

- 2020-yildan 2022-yilning 2-choragigacha bo'lgan davrda ransomware hujumlari hajmi 2021-yilning ikkinchi choragida 188,9 million hujum bilan eng yuqori cho'qqigacha chiqdi;

- Ransomware 2022-yilda zararli dasturlarning eng keng tarqalgan shakli bo'lib qolmoqda. U kiberjinoyatchilarga nisbatan past xavf tug'dirgan holda katta miqdorda pul undirish qobiliyati tufayli mashhurligi oshdi [3];

- Ransomware 2022 yilning 1-choragida fishingdan keyin ma'lumotlar buzilishining ikkinchi asosiy sababidir ;

- 2021 yilda dunyo bo'ylab 623,3 million to'lov dasturi hujumi sodir bo'lgan va 2020 yilda 304,6 million hujum aniqlangan;

- 2022-yilning birinchi yarmida 236,1 million to'lovga urinishlar bo'lgan ;

- Maqsadli mashinalarning aksariyati Windows va Mac-ga asoslangan bo'lsa-da, Linux to'lov dasturi 146% ga o'sdi[4];



•2021 yilda tashkilotlarning 76 foizi bir yoki bir nechta to'lov dasturi hujumiga uchragan . Ulardan[5]:


○ 42% spam elektron pochta xabarlaridan zararli havolalarni bosish kabi foydalanuvchi harakatlaridan kelib chiqqan;

○ 43% menejerlar yoki ma'murlarning beparvoligi (dasturiy ta'minot yamoqlari, hisobga olish ma'lumotlari va boshqalar bilan bog'liq xavflar);

•2021 yilda xakerlar hujumlarning 65 foizida ma'lumotlarni muvaffaqiyatli shifrlashdi , bu 2020 yilda qayd etilganidan 54 foizga ko'p;

•2021-yilda ransomware hodisalari 82 foizga oshgan , 2020-yildagi 1474 hujumdan farqli ravishda 2686 ta hujum;


•2022-yilning birinchi yarmida har bir tashkilotda 707 ta ransomware hujumlariga urinish bo'lgan .



1-rasm. 2020 - 2022 yillarda ransomware hujumlarining o'sishi.

Ransomware tomonidan nishonga olingan mamlakatlar.

Ransomware jinoiy guruhlari daromadni ko'paytirish uchun asosan boy mamlakatlarni nishonga oladi.



2-rasm. Ransomware hujumlarining davlatlar bo'yicha taqsimoti.


• 2021 yil holatiga ko'ra, AQSH ransomware hujumlari bo'yicha dunyodagi yetakchi nishon bo'lib qolmoqda, bu hodisalarning 51% dan ortig'ini tashkil qiladi. Boshqa davlatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Buyuk Britaniya - 10%
- Kanada - 5%
- Fransiya - 3%
- Avstraliya - 3%
- Yaponiya - 2,5%
- Braziliya - 2%
- Germaniya - 2%
- Dunyoning qolgan qismi - 21% [5]

Ransomware tomonidan nishonga olingan sohalar

Sanoatning barcha tarmoqlari ransomware tomonidan nishonga olinishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi tarmoqlar boshqalarga qaraganda ko'proq himoyasiz.





3-rasm. Ransomware tomonidan nishonga olingan sohalar taqsimoti


- 2021-yilda to'lov dasturlari eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlar qatoriga yuridik (92%), ishlab chiqarish (78%), moliyaviy xizmatlar (78%) va inson resurslari (77%) kiradi[6].

- 2021-yilda chakana savdo tarmog'ida ransomware hujumlarining eng sezilarli o'sishi kuzatildi — 100%. 2020 yilga nisbatan texnologiya sektori 89 foizga, sog'liqni saqlash sohasi esa 30 foizga o'sdi.

Ransomware hozirda kiberjinoyatchilar uchun foydali texnikaga aylandi va hech bir korxonaga yoki tashkilot bu zararli dastur tahdididan himoyalangan. Ransomware nihoyatda makkor va zararli dastur bo'lib, odatda fishing elektron pochta xabarlarini orqali tarqalsa ham, u biznesdagi zaifliklar va orqa eshiklardan ham foydalanadi. Qurbon bo'lib qolmaslik va ma'lumotlar, fayllaringiz bloklanib qolmasligi uchun amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan ba'zi ransomware hujumlaridan himoyalash usullarini keltirib o'tamiz[7]:

- Xodimlarni tarbiyalash. Xodimlaringizni o'qitish zararli dastur hujumlaridan himoya qilishning birinchi chizig'idir. To'lov dasturi asosan elektron pochta havolalari va qo'shimchalar orqali kiritilganligi sababli, xodimlaringizni xavfsiz ko'rishni mashq qilishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish va elektron pochta odatlari ko'plab zararli dastur hujumlarining oldini oladi. Ishchilaringizga fishing hujumlarini qanday aniqlashni va qalqib chiquvchi oynalarni bosmaslik,





havolaning URL manzillarini tekshirmaslik va elektron xatlardagi havolalar yoki biriktirmalarni, ayniqsa noma'lum xabarlarlarni ochmaslik kabi eng yaxshi amaliyotlarni o'rgating. Trening bir seans emas, balki xodimlaringiz xavfsiz odatlarni saqlab qolishlari va yangi tahdidlarga mos kelishini ta'minlash uchun doimiy amaliyot bo'lishi kerak.

- Muhim ma'lumotlarga kirishni nazorat qilish. Identifikatsiya va kirishni boshqarish korxonalariga muhim ma'lumotlarga kirishni nazorat qilish imkonini beradi. Kompaniyalar foydalanuvchi faoliyatini nazorat qilish, foydalanuvchi rolini o'zgartirish, faoliyat to'g'risida hisobotlarni yaratish va biznes siyosatini yaratish va amalga oshirish uchun texnologiyalar va vositalardan foydalanadi. Buzilgan hisob ma'lumotlari biznes tarmog'ingizga va uning ma'lumotlariga kirish nuqtasini ishlab chiqishi mumkin. Shuning uchun, har bir foydalanuvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan huquqlarni aniqlash uchun muntazam ravishda xavfsizlikni baholashni amalga oshirishingiz va tashkilotingiz bo'ylab izchil foydalanuvchi siyosati va rollarini amalga oshirish uchun IAM tizimlaridan foydalangan holda qo'shimcha himoya qatlamini kiritish orqali xavfni yo'q qilishingiz kerak. Ransomware hujumlarida identifikator va kirish boshqaruvini tatbiq etish kompaniyangiz aktivlarini xakerlik, fishing va zararli dastur hujumlarining ortib borayotgan tahdidlaridan osongina himoya qilishi mumkin.

- Tizimlaringizni zaxiralash.Biznesingizning muhim ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash uchun tizimlaringizning zaxira nusxasini saytdan tashqarida ham, mahalliy sifatida ham qilishingiz kerak. Tizimlaringizning zaxira nusxasini yaratish ma'lumotlaringizni kiberjinoyatchilarga kirish ehtimoli kamroq bo'lgan joyda xavfsiz saqlaydi, biroq hujum sodir bo'lgan taqdirda eski fayllaringizni o'chirib tashlash va zaxira ma'lumotlari yordamida ta'mirlashni ancha osonlashtiradi. Masalan, siz biznes tizimlaringizni himoya qilish uchun bulutga asoslangan yechimdan foydalanishingiz mumkin. Bulutdagi ma'lumotlaringizning zahira nusxasini yaratish uni to'lov dasturi infeksiyasidan himoya qiladi va himoya qatlamini qo'shadi.

- Kuchli parol xavfsizligini joriy qilish. Ma'lumotlaringizni xavfsizligini ta'minlash uchun siz eng yaxshi parol xavfsizligi amaliyotlarini va korporativ parol menejerini o'z ichiga olgan parolni boshqarish usulidan foydalanishingiz kerak. Instant Checkmate tadqiqotiga ko'ra, har to'rt kishidan uchasi bir nechta saytlar uchun bir xil paroldan foydalanadi, uchdan biri esa juda zaif parollardan foydalanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun bir nechta kuchli parollardan foydalaning, ayniqsa nozik ma'lumotlar uchun.



•Muntazam rejalashtirilgan xavfsizlik tekshiruvlarini o'tkazish. Agar siz mobil qurilmalaringiz va kompyuterlaringizda har hafta skanerlashdan o'tmasangiz, tizimingizda o'rnatilgan barcha xavfsizlik dasturlari samarali bo'lmasligi mumkin. Ushbu skanerlar sizning xavfsizlik dasturingizda ikkinchi himoya qatlami sifatida ishlaydi. Ular odatda real vaqtda tekshiruvchi qo'lga kirita olmaydigan tahdidlarni aniqlaydi.

•OS va dasturiy ta'minot yangilanishlarini qo'llash. Zaifliklarni samarali boshqarish va dasturiy ta'minot va apparat tizimlarini muntazam ravishda tuzatish kiberhujumlarning oldini olish uchun foydalanishingiz mumkin bo'lgan to'lov dasturiga javob berishning eng oson usullaridan biridir. Zararli dastur odatda dasturiy ilovalar yoki operatsion tizimlardagi xatolar va xavfsizlik bo'shliqlaridan foydalanadi. Shuning uchun, to'lov dasturining oldini olishda muvaffaqiyat qozonish uchun barcha mobil qurilmalar va kompyuterlarga eng so'nggi yamoq va yangilanishlarni o'rnatish juda muhimdir.

Xulosa

Mahalliy hukumatlar, moliya institutlari va sog'liqni saqlash provayderlaridan tortib o'rta va kichik biznesgacha bo'lgan har qanday tashkilot ransomware hujumlari xavfi ortib borayotgani bilan kurashmoqda. Shu sababli, korxonalar zararli dastur hujumlari va ma'lumotlar buzilishi davrida hushyor bo'lishlari kerak. Ransomware hujumining turli usullarini va ularni oldini olish, aniqlash va tiklashga yordam beradigan to'g'ri qadamlarni bilish tashkilotingizga umumiy ta'sirni kamaytirishi mumkin. Umid qilamizki, ushbu maqolada muhokama qilingan maslahatlar tashkilotingizning axborot aktivlarini xavfsiz saqlashga va to'lov dasturi hujumini muvaffaqiyatli bo'lishidan oldin to'xtatishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1]. S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: o'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2020

[2]. Ransomware Attack – What is it and How Does it Work? Link: <https://www.checkpoint.com/cyber-hub/threat-prevention/ransomware/>

[3]. 2022 Ransomware The True Cost to Business Link: <https://www.cybereason.com/hubfs/dam/collateral/reports/Ransomware-The-True-Cost-to-Business-2022.pdf>

[4]. X-Force Threat Intelligence Index 2022
<https://www.ibm.com/downloads/cas/ADLMYLAZ>



[5]. 2021 Ransomware Attack Report Link: <https://www.blackfog.com/2021-ransomware-attack-report/>

[6]. 93 Must-Know Ransomware Statistics [2023]
Link: <https://www.antivirusguide.com/cybersecurity/ransomware-statistics>

[7]. RANSOMWARE ATTACK PREVENTION AND RESPONSE SOLUTIONS Link: <https://identitymanagementinstitute.org/ransomware-attack-prevention-and-response-solutions/>

Irgasheva Durdona Yakubdjanovna

DSc, professor,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

(+998 90) 317-61-38, durdona.ya@gmail.com

Qurbonmurodov Diyorbek Ulug'bek o'g'li

(+99894) 308-48-00, qurbonmurodovdiyorbek@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

D.Ya.Irgasheva, D.U.Qurbonmurodov



LACK OF TEACHING RESOURCES IN SOUTH AFRICAN COUNTRIES

Rajabova Shaxinabonu Shuxrat qizi

*Samarkand State Institute of Foreign Language Narpay faculty Foreign
Language Group 2101*

Abstract: *Lack of teaching resources in schools has become an urgent problem in South African countries today.*


Keywords: *Knowledge, learning readiness, resources, qualification.*

Introduction

Today all schools have problems with teaching resources. Especially in remote Southern African countries. More focus is being placed on the preparatory Grade R years as a result of growing concern over the low levels of literacy and numeracy among Grade 3 pupils in South Africa. The degree of which students should have a high level of readiness to learn when they begin formal education. Is based on the perceptual motor stimulus that students experienced during the pres-school stage in Grade 1. The knowledge of teachers, the teacher-to-student ratio, the accessibility of teaching resources and the amount of time and space devoted to movement activities can all have an impact on students "learning readiness"⁶⁵. The study's objective was described. The purpose of this article was to identify physical defects that can adversely affects children's perceptual motor development and preparation for schools. An emphasis was made on elements that affect perceptual motor development, such as teacher preparation, equipment accessibility, and resources at institutions housing Grade R classes. The number of students, the qualifications of the teachers, and the interveration programs that are provided at schools by outside organizations were all collected as demographic data. A personal interview was conducted after completing a Larket scale questionnaire that included both yes/no and open-ended questions. 31 schools and 51 teachers were chosen to take part in the study based on their availability. The survey included educators from both affluent and underprivileged communities. The study's findings demonstrate that many schools are under- resourced in terms of resources and equipment, and that teachers are not adequately prepared to meet the needs of young children's growrh in the educational environment.

⁶⁵Cheating our kids. How politics and greed ruin education





Mulkeen (2017) asserts in Africa, poor teaching and learning equipment in schools remain the biggest challenge to political, social and economic transformation in many countries in the continent of Africa. Mulkeen further states in that Sub-Saharan African (SSA) countries, eighteen percent of learners, repeat their classrooms because of lack resources resulting from lack of school teaching and learning equipment. Furthermore, poor school equipment available in state owned school, especially in the villages is continuing to hinder the smooth running of the classrooms. Adedeji (2012) confirms similar findings that many learners in this continent [Africa] are learning in di conditions that are direct related to lack of teaching and learning equipment, while teachers are working under poor remuneration, delayed payment, benefit sand growth, and disrespect from the state, and other stakeholders from the community at large⁶⁶. According to Fabunmi (2008), many urban schools in Sub-Saharan state countries on the African continent have better physical structures and access to more teaching and learning resources than those in the villages. According to Walberg and Haertel (2016), in Columbia, grade nine students who had access to more teaching and learning resources in their surroundings outperformed students who had no, inadequate, or irrelevant resources. According to World Bank (2017), teachers and students who have access to various teaching and learning tools, such as information communication technology and internet connectivity, have sparked interest in the availability of electronic materials.

REFERENCES:

1. Cheating our kids. How politics and greed ruin education
2. https://www.researchgate.net/publication/342523649_Teachers'_Voices_on_the_Challenges_of_Resources_on_Teaching_and_Learning_in_Selected_High_Schools_in_South_Africa

⁶⁶https://www.researchgate.net/publication/342523649_Teachers'_Voices_on_the_Challenges_of_Resources_on_Teaching_and_Learning_in_Selected_High_Schools_in_South_Africa



TARBIYACHILARDA EKOLOGIK KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi

*O'zbekiston – Finlandiya Pedagogika institute
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi II bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda amalga oshirayotgan ekologik harakatlar va bunday harakatlarda har bir inson o'z hissasini qo'shishi kerakli, shuningdek tarbiyachilarda ekologik ong, ekologik ma'daniyatni rivojlantirish lozimligi berilgan. Chet el ekologik ta'limini o'rganish va undan o'zimizga kerakli xulosa chiqarish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik ta'lim, O'zbekistonda ekologik harakat, Yaponiya, AQSH, Finlandiya, Koreya.

Аннотация: данная статья посвящена экологическим действиям, осуществляемым в нашей стране, и тому, как каждый человек должен внести свой вклад в эти действия, а также развитию экологического сознания, экологической культуры у воспитателей. Указаны данные о необходимости изучения зарубежного экологического образования и сделать из него нужный нам вывод.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое движение в Узбекистане, Япония, США, Финляндия, Корея.

Annotation: this article provides for the environmental actions that are carried out in our country and the need for each person to contribute in such actions, as well as the need to develop environmental awareness, ecological mining in educators. It is indicated that it is necessary to study foreign environmental education and draw the necessary conclusions from it.

Keywords: environmental education, environmental movement in Uzbekistan, Japan, USA, Finland, Korea.

Yurtimizda qadimdan tabiatga bo'lgan munosabat, ekologik ma'daniyat shakllana borgan. Jumladan bundan 3000 yil avval yaratilgan " Avesto" xalqimizning bebaho merosida tabiatni asrash, tozalikka e'tibor berish, inson o'zini, suv, o'tloq va yerlarni iflos qilmaslik, hayvonlarga mehr ko'rsatish va boshq bitilgan. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan olimlardan Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Muso al- Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy va



boshqalar tabiatga mehrini berish, undagi o'simlik va hayvonlarga ijobiy munosabatda bo'lish haqida fikrlarini bildirib o'tgan.

Yurtimizda 2022-yil 28- yanvarda 2022- 2026- yillarga muljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiya" si to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF60-sonli farmoni qabul qilindi, va bunga muvofiq 7ta yo'nalish, 100ta maqsad belgilab olingdi. 7ta yo'nalishdan 6-yo'nalishi "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muommalarga yondashish" deb nomlanadi va ushbu yo'nalishdagi aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud muommalarni bartaraf etish va ekalogiyani, muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekalogik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyahasini amalga oshirish kabi maqsadlar belgilangan. [3]

O'zbekiston 1992-yil imzolagan MDH Davlatlaro Ekologiya kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Respublikaning Xalqaro ekalogik hamkorlik borasidagi faoliyati, ayniqsa Orol muommosiga qaratilgan masalalarda yanaqa yaqqolroq kòzga tashlanadi⁶⁷ xususan, 2017- yil 19- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi, va ushbu nutqida ham Orol fojiiyasi va unda jabr kòrayotgan aholiga yordam berish tarafdori ekanligini bayon qildi⁶⁸. 2022- yil 16-sentabr kuni Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida SHHT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu majlisda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev òz nutqida: "Ekologik tahdid va xatarlar ortib borayotganini ta'kidlab, SHHTning Iqlim kengashini tuzishni taklif etdi. Ushbu mexanizm "yashil" taraqqiyot, cho'llanish va tuproq tanazzuliga qarshi kurashish, ekalogik loyihalar, shu jumladan, Orolbo'yi uchun innovatsion yechimlar va moliyaviy mablag'lar jalb qilishga ko'maklashadi" deya bayon qildi⁶⁹. 2019-yil 27-may Òzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Ekalogik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida 434- sonli qaroriga qabul qilindi. Bu qarordan kòzlangan maqsad maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda ekalogik bilim, ong va madaniyatni shakllantirishdir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1972-yilning 5-iyun kuni Stokgolmda bo'lib o'tgan konferensiyada joriy etilgan. Kòplab davlatlar qatori Respublikamizda ham "Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish" kuni keng nishonlanadi, bundan maqsad: inson salomatligi, atrof-muhit musoffoligi, iqtisodiyot

⁶⁷<http://geografiya.uz/bilasizmi/10726-ozbekiston-respublikasining-yirik-xalqaro-tashkilotlarida-azoligi.html>

⁶⁸ <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbek-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>

⁶⁹ <https://gov.uz/oz/news/view/35294>



samaradorligi, tabiiy resurslarni tejamkorona foydalana olish va h.klar. Respublikamizda ekalogik muommalarni hal qilishda yordam berib kelayotgan "Ekosan" xalqaro jamg'armasi - respublikamizdagi eng yirik nohukumat tashkilotidir. Jamg'arma 1992-yilda hukumat va nohukumat muassasalari, xalqaro tashkilotlar, mutaxassis olimlarning ko'magida respublikadagi ekalogik muammolarni hal etish uchun tashkil qilingan. "Ekosan" juda muhim ish bilan shug'ullanadi - sog'lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena bilimlari va kasalliklarning oldini olishni targ'ibot qiladi.⁷⁰

Yurtimizda ekalogik ma'daniyatni shakllantirish madsadida "Zamin" va Ekalogik ta'lim jamg'armasi (FEE) bilan hamkorlikda "Eco-Schools Uzbekistan" xalqaro dasturi faoliyat yuritmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar ekalogik ma'daniyatini shakllantirish uchun "Yer sayyorasi-bizning umumiy uyimiz" dasturi yaratilgan hamda " Ilk qadam" , "Yer sayyorasi-bizning umumiy uyimiz" dasturiga muvofiq ekalogik so'qmoqlar yaratilmoqda. Bunday ekalogik so'qmoqlar bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqish, jismoniy va ruhiy tomondan ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

Ekalogik ta'lim-tarbiya ekalogik savodxonlikni shakllantirish, atrof-muhitga bo'lgan munosabatni ijobiy o'zgarish, inson va tabiat o'rtasidagi global muommalarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularga yechim izlash, tabiiy boyliklardan tejamkorona foydalanish, "inson-tabiat-jamiyat" bir- biri bilan chambarchas bog'lik ekanligini ongimizga singdirish, yosh avlodni muammolarni ko'raoladigan shaxs sifatida yetishtirishdir. Ekalogik ta'lim bu- atrof-muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni jamiyatning ongiga yetkazish usullarini, tamoyillarini ishlab chiqish hamda ekalogik sivilizatsiyalashgan jamiyatni tashkil qilish, uzluksiz ta'lim tizimiga chuqur kirib borishi kerak bo'lgan jarayonlarning. Ekalogik tarbiya bu- insonlarning ichki dunyosiga tabiatga zarar yetkazmaslik yoki tabiat uchun foyda keltiradigan odatlarni singdirish, go'yoki hayotimizda qilayotgan odatiy ishlarimiz kabi bo'lishi kerak.

Global va mintaqaviy muommalarni bartaraf qilish maqsadida har bir davlatning o'z qarashlari, usullari, yondashuvlari mavjud. Rivojlangan mamlakatlardan Yaponiya, Koreya, Finlandiya, AQSHning aholi ekalogik savodxonligini oshirish yo'lida qilayotgan ishlarini ko'rib chiqamiz.

Yaponiyada tartib-intizom va mehnatsevarlik yuksak baholanadi va bolalarni yoshligidan o'rgatilib boriladi. Yaponiya sanoatlashgan davlat hisoblanib tabiiy muhit kamayotganligini his qilgan holda turli xil usullarni yarata boshladi, xususan

⁷⁰ <http://geografiya.uz/ekologiya/806-ekosan-xalqaro-ekologiya-va-salomatlik-jamgarmasi.html>



bolalarni yoshligidan atrof-muhitni har xil usulda o'rganish kiroblari mavjud bo'lib bular ekalogik muommolar haqida o'ylashga undaydi. Yaponiyada aholi ekalogik bilimni oshirish maqsadida "Ekomaktablar" tashkil etilgan. Ekomaktabda o'qimaganlar uchun bepul onlayn ekodasturlar yaratilgan. Yaponiyada (2007yil) ko'rsatgichiga binoan 313ta ekalogik ta'lim markazlari borligi e'lon qilingan. Bunday markazlar ekalogik ta'limni rivojlantirishga katta hissa qushadi.

Finlandiyada ekalogik ta'limga qiziqishni uyg'otish, ekalogik barqarorlik to'g'risida fikr yuritish, ekalogik ta'limni oshirish yo'lida hamkorliklarni tashkil etish va eko-ta'limning rivojlantirish uchun eko-maktab xalqaro dasturi yaratilgan. Ekomaktablar maktablar va bolalar bog'chalari uchun xalqaro ekalogik dastur. Finlandiya Ekalogik ta'lim uyushmasi tomonidan boshqariladi. Eko-maktab dasturini tamomlagach ekalogik qarashlar o'zgaradi. Dasturdan tarbiyachi, pedagoglar ta'lim berish uchun qo'llashlari mumkin, dastur yakunlangacha yashil bayroq taqdim etiladi. Ekalogik ta'limga qiziqtirish maqsadida ekalogik treninglar, o'tkaziladi, ekalogik ekskursiyalar tashkil qilinadi, hamda ekalogik qo'llanmalar ham mavjud.

AQSHda ekalogik ta'limga hissa qushgan o'qituvchilar uchun Prezident innovatsion mukofoti beriladi. O'quvchilarga esdalik sovg'alar va diplom bilan taqdirlanadi. Ekalogik ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlash milliy dasturi joriy etilgan bo'lib bundan ko'zlangan maqsad aholi ekalogik bilimni oshirish.

Koreya ilmiy kashfiyotlar yaratish bo'yicha yetakchi o'rinlarda turdi. Koreya ekalogik toza texnologiyalarni ishlab chiqishdan boshlab elektr transport texnologiyalargacha hamda SK Hynixning issiqxona gazlari chiqindilarni kamaytirish yo'lida yangiliklar qilmoqda. Iqlim o'zgarishi bo'yicha o'tkazilayotgan, muzokaralarda Koreya faol ishtirok etmoqda hamda o'zining qarashlari va loyihalarini taqdim etmoqda.

Yuqorida bayon qilingan rivojlangan davlatlar ekalogik ta'lim-tarbiya asosida O'zbekiston Respublikasida quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

- O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirilishini nazorat qilish;
- Ekologiyaga bo'lgan e'tiborni bolalarni yoshligidan boshlab ongiga singdirib borish;
- Ekologik dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish, yosh davrlarga xos qo'llanmalar yaratish;
- Mintaqaviy, mahallaviy va global muommolarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni Respublika miqyosida tashkil qilish;
- Ekologik ta'lim-tarbiya berishda chet el tajriba va innovatsiyalaridan foydalanish va joriy qilish;



- ta'lim muassasalarda ekalogik tafakkurni shakllantirish maqsadida ekskursiyalar, tadbirlar targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish va dasturga kiritish.

Tarbiyachilarni ekalogik kompetentligini rivojlantirish, bu bolalarni ekologik tarbiyalashga dastlabki qadam demakdir, chunki bolalar ularga mas'ul bo'lgan shaxslar orqali dunyoni taniydi. Zero xalqimiz aytganidek "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejizga aytishmagan. Tarbiyachilar salohiyatini oshirish maqsadida turli mavzular asosida seminarlar tashkil etilmoqda. Ushbu seminarlarda bolalarda tabiatga bo'lgan mehrini shakllantirish, yo'llarini, usullarini va qanday tashkil qilish bo'yicha bahs-munozara va amaliy ishlarni qilish orqali tarbiyachilarning bilimi, tajribasi oshadi.

Pedagog-ekologlar tomonidan tarbiyachilar va bolalarning ekalogik ilmiy va ma'daniy masalalari yoritib berilgan. Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'iniga ekalogik bilim berish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilgan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ekalogik tarbiyasini: G.O.Komilova, L.T.Shanasirova, M.R. Xalilovalar tadqiqot ishlarini olib borgan.

M.M. Markovskaya "Bolalar bog'chasida tabiat burchagi" nomli kitobida maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat burchagi va uni yaratishdan maqsad, uni qanday yaratish, tabiat burchagiga qaysi o'simlik va hayvonlarni o'rnatish, bolalarga ularni tanishtirish, yil fasllariga xos mavsumiy ishlarni tashkil qilish, bolalar ishtirokida amalga oshirish masalalari yoritib berilgan

A.G.Grigoryans, U.B. G'ofurovalarning "Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya" nomli qo'llanmalarda maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim berish usullari hamda bolalarda tabiat quynida izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantirish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z. Nodirovalarning "Tabiatni bilan tanishtirish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida bolalarni hayotini tabiat bilan bog'lash yo'llari, ekologik tarbiyada tarbiyachining tutgan o'rni, yosh guruhlarga oid ekologik ta'lim, tabiat bilan tanishtirish metodlari, shakllari va uning ahamiyatliligi, ekologik shart- sharoitlar yaratish haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Ekologik muammolarni kamaytirishning yo'llaridan biri inson o'zini-o'zi tarbiyalashi, atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga ongli munosabatda bo'lishi orqali erishilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning beg'ubor murg'ak qalbida, ongida ekologik savodxonlikni shakllantirish asosan tarbiyachi va ota-onalarga bog'liq. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berish uchun dastlab o'zida har tamonlama bilimga ega bo'lishi va o'z ustida tinmay ishlashi zarur. Tarbiyachi ekologik kompetentligining rivojlanishi bolalarning ekologik bilimi oshishiga, atrof-olamga



qiziqiga, shuningdek xavf-xatarlarni oldindan ko'raoladigan va yechimini izlashga harakat qiladigan yosh avlodni voyaga yetkazishga katta hissa qo'shgan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga muljallangan rivojlanish Strategik konsepsiyasida[1]
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019-yil 30--oktabr.
3. 2022-yil 28- yanvarda 2022- 2026- yillarga muljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiya"si to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF60-sonli farmoni
4. Исаева.Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя.//Педагогика.-2006.-№9.
5. Равен.Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление развитие и реализация- М 2002 (англ. 1984)
6. Зеер.Э.Ф Компетентный подход к образованию. Уральское отделение Российской Академии Образования 2004// асайеш1а@игогао.ги
7. Хуторскойю А. В. Образовательные компетенции и методология дидактики [https:// /khutorskoy.ru/be/2016/0922/index.html](https://khutorskoy.ru/be/2016/0922/index.html)
8. `Кондурар. М. В. Понятия компетенция и компетентность в образовании Вектор науки ТГУ. №1(8).2012. УДК 378.01.
9. Макоедова А. А "Формирование экологической кометентности старшеклассников в природоохранной деятельности гимназии" Дисс...сахар.пед.наук 13.00.01.М. 2007.238с.



UMUMIY TILSHUNOSLIK HAQIDA YANA BIR SO‘Z

Abdumuxtorov Xurshidbek

*Andijon Davlat chet tillari
institute 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari, Xususiy tilshunoslikdan farqi hamda Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi xususiyatlarni aniqlash va yoritishdir haqida so‘z yutilgan.*

Kalit so‘zlar: *semantika, sintak, fonetika, krnuniyat, tipologiya, empiric, induktiv*

Umumiy tilshunoslik fani tilshunoslik fanlari sirasida eng murakkab va keng qamrovli ilmiy-nazariy, falsafiy fan sifatida ajralib turadi. Ushbu fanning murakkabligi keng qamrovli va falsafiy fan ekanligi bevosita o‘rganiladigan o‘ta jiddiy muammolar bilan, fikr yuritiladigan dolzarb masalalar bilan, lisoniy hodisalarning (faktlarning) mohiyati bilan, ularga qaysi nuqtai nazardan yondashishi bilan, ularni chuqur tahlil qilish va ularni obyektiv ilmiy xulosalar chiqarish bilan belgilanadi.

Umumiy tilshunoslik ma`lum bir tilning emas, balki umuman til qonunlari, tilning paydo bo‘lishi, tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi. Shuningdek, bu fanda konkret tillarni, til guruhlarni, qardosh tillarni o‘rganish natijasida aniqlangan til faktlari umumlashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Umumiy tilshunoslik – inson tilini ilmiy o‘rganadigan fan bo‘lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari, tilning mohiyati, tilning tuzilishi, til va nutq, til va tafakkur, tildagi belgilar tizimi, til va jamiyat, til taraqqiyoti, tilshunoslik maktablari va yo‘nalishlari, tillarni ilmiy tadqiq etish usullari haqida ma`lumot berishdan iborat. Shu jarayonda tilning tipologik belgilari aniqlanadi. Umumiy tilshunoslik fani tilning tabiati va mohiyati, tilning jamiyat va tafakkur bilan munosabati, tilning strukturasi va sistemalilik xarakteri, tilning kelib chiqishi va taraqqiyot qonunlari, tillar tipologiyasi va tasnifi, tilni o‘rganish metodlari kabi muammolarni o‘rganadi.

Umumiy tilshunoslik fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo`nalishda puxta, «hushyor» qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal qurollangan talabalargina (faqat talabalar emas) tom ma`nodagi filolog - tilshunos sifatida shakllanadi. Shuningdek, ular til hodisalari




tahlilidan ilmiy xulosalar, g'oyalar chiqara oladi, hodisalar mohiyatiga alohida e'tibor beradi, nazariya bilan amaliyotni dialektik munosabatda oladi. Til va nutq birliklarini chuqur o'rganish jarayonida dialektik falsafaning shakl va mazmun, umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalari nuqtai nazaridan, shularga asoslangan holda fikr yuritadi, kuzatishlar olib boradi. «Umumiy tilshunoslik» fani talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, bilim darajasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, yangi nazariya va faktik materiallar bilan tanishtiradi, mustaqil, ijodiy fikr-mulohaza yuritishga, izchillikka o'rgatadi, nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodologiyasi va metodikasi bilan qurollantiradi

Umumiy tilshunoslik - tilshunoslikning, xususiy tilshunosliklardan farqli ravishda, tilni umuman insonga xos hodisa, insonning ajralmas qismi sifatida o'rganuvchi bo'limi. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifalari dunyo tillariga xos bo'lgan umumiy belgi va tushunchalarga aniqlik kiritish va uni tahlil qilishdan iborat. Bu vazifa ayrim tillar va til guruxlari yuzasidan kuzatishlarni umumlashtirish; til qurilishining, tabiiy va mashina tillari semantikasi va sintaksisining, shuningdek, fonetikaning (faqat tabiiy tillarda) eng umumiy, universal qonuniyatlarini aniqlash orqali hal etiladi. Xususiy tilshunoslik esa o'z o'rganish manbaiga ko'ra ayrim bir tilga (rusistika), biror tillar guruhi yoki oilasiga (romanistika, turkiyshunoslik), bir mintaqa yoki tipologik guruhga mansub tillarga (bolqonshunoslik, kavkazshunoslik) xos xususiyatlarni o'rganadi.

Umumiy tilshunoslik barcha tillarning umumiy (yoki statistik jihatdan ustun bo'lgan) belgilarini tipologiya yordamida empiric-induktiv tarzda; tilning amal qilishidagi umumiy (har qanday jamoaga mansub kishilar uchun ahamiyatli bo'lgan) qonuniyatlarni o'rganish orqali esa deduktiv tarzda ham aniqlab beradi. Umumiy tilshunoslik, shuningdek, tilning sathlarga bo'linishiga qarab hamda muayyan bo'limning til belgisi (so'z) va matn (fikr, gap)ning u yoki bu tomoniga moyilligiga qarab ham tilshunoslik bo'limlarini ajratib ko'rsatadi (masalan, umumiy fonetika, umumiy morfologiya).

Umumiy tilshunoslik fani doirasida tilning tabiati va mohiyati, til va tafakkur, til va nutq, tilning tarkibiy tuzilishi, til tizimini anglash, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yozuvning paydo bo'lishi, tillarning morfologik (tipologik) va geneologik tasnifi, tillarni ilmiy o'rganish metodi, tilda shakl va mazmun kabi muammolar o'rganiladi. Bulardan til va nutq, tilni tekshirish metodi, tilda shakl va mazmun muammolari "Umumiy tilshunoslik" fani nomi bilan, qolgan muammolar esa "Tilshunoslikka kirish" fani nomi bilan bog'liq. Umumiy tilshunoslikning tarkibiy qismi hisoblangan tilshunoslikka kirishda til haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi,





tilshunoslikda qo'llanadigan asosiy ilmiy termin va tushunchalar bilan tanishtiriladi, tilshunoslikning asosiy qismlarini va xususiy tilshunoslikda o'rganiladigan masalalarni o'zlashtirish uchun nazariy asos beriladi. Yuqoridagilarga ko'ra "Umumiy tilshunoslik" terminini keng va tor ma'nalarda tushunish to'g'riroq bo'ladi. Umumiy tilshunoslik tilshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar (adabiyotshunoslik, falsafa, tarix, arxeologiya, psixologiya) hamda tabiiy fanlar, xususan, biologiya va matematika bilan aloqasini ham o'rganadi.

Umumiy tilshunoslik fanining faollik ko'rsatish chegarasi "Cheksiz" bo'lib ayni fan o'z kuzatishlarini jahon tilshunolsigi tarixiga oid zarur masalalardan, yetakchi oqim va yo'nalishlardan boshlab, hozirgi tilshunoslikning eng muhim va murakkab nazariy muammolarini, ta'limotlarini o'rganish bilan – nafaqat tilshunoslikning, balkim barcha fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan dialektik falsafa hamda psixologiya, mantiq kabi fanlarga ham bevosita aloqador bo'lgan muammaolarni ham qamrab olishi bilan yakunlanadi

ADABIYOTLAR:

1. S.Usmonov Umumiy tilshunoslik.T. 1972.
2. V.I.Koduxov.Obshee yazkoznanie.M., 1974.
3. N.A.Kondrashov. Istoriya lingvisticgeskix ucheniy.M., 1979.
4. Ya,V.Loya. Istoriya lingvisticgeskix ucheniy.M., 1968.
5. T.A.Amirova, B.A.Olxovikov, Yu.V. Rojdestvenskiy. Ocherkiy po istori linguistic.M., 1975.
6. Rasulov,R. Umumiy tilshunosli 1-qism.T., 2005.



OPERATING MODES OF HYDROGENERATORS

Qurbonov Nurali Abdullayevich

teacher

Nortojiyev Temur Muzaffar o'g'li

student

Karshi Engineering and Economic Institute

Annotation: As you know, the load of hydrogenerators varies in accordance with the load schedules of power plants. In this case, the reactive power of the generator is changed by changing the excitation current, and the active power is changed by changing the amount of energy carrier (water) passed through the turbine. This paper analyzes the operating modes of hydrogenerators with a change in voltage and frequency.


Key words: hydrogenerator, operating modes, frequency, voltage, generator speed.

The load of hydro generators changes in accordance with the load schedules of power plants. In this case, the reactive power of the generator is changed by changing the excitation current, and the active power is changed by changing the amount of energy carrier (water) passed through the turbine. The hydraulic turbine does not limit the speed of lifting the load, so the load of the hydro generator is made within a few minutes.

The rated operating mode of the generator is characterized by nominal parameters: active load P_{nom} voltage U_{nom} power factor $\cos\varphi_{nom}$, frequency f_{nom} and temperature of the cooling gas at the inlet θ_0 . Work with nominal parameters can continue for as long as you like. At the same time, the temperature of the stator and rotor windings and the stator steel does not go beyond the permissible limits.

Voltage change. Typically, hydrogenerators are calculated so that when the effective value of the voltage at the stator winding terminals changes within + 5% of the nominal value, they develop the rated power at the rated power factor. At 105% voltage, the stator current must be reduced to 95% of the rated current, and at 95% voltage, it can be increased to 105%. This is explained by the fact that the temperature drop in the insulation due to losses in copper increases in proportion to the square of the current, and an excessive increase in the temperature drop leads





to significant relative displacements of the insulation layers, to irreversible deformations in it, and as a result, to a decrease in the service life of the insulation.

Hydrogenerators also allow continuous operation with a voltage increase of up to 110%. However, due to the increase in losses in the steel and the local heating caused by them, as well as the increase in current and heating of the excitation winding, it is not possible to maintain the rated power. Typically, when the voltage rises above 105% of the rated voltage, the apparent power decreases by about 2% for every percent increase in voltage. Work at voltage over 110% of nominal is not allowed.

Changes in water and air temperature. The operation of the hydrogenerator with a cooling air temperature above 35°C in a closed ventilation cycle and over 40°C in an open one is not provided, except for drying modes. The air coolers provide the rated load of hydro generators and exciters at a temperature of water entering the air coolers and heat exchangers not higher than 28°C.

In some cases, when installed in areas with a hot tropical climate, hydrogenerators are calculated for operating conditions at a higher temperature of the incoming cooling air, which exceeds the temperature of the water entering the air coolers, usually by 7 - 10 ° C.

In winter, a decrease in the temperature of the cooling water makes it possible to reduce the air temperature, which in turn makes it possible, within certain limits, to increase the power of the hydrogenerator, while maintaining the temperature of its stator winding unchanged.

However, the increase in power is also limited in this case by the temperature difference in the insulation.

When the temperature of the cooling air drops from 35 to 30°C, it is permissible to increase the power of the hydrogenerator by 0.75% for each degree of temperature increase. By lowering the temperature of the cooling air from 30 to 25°C, the power can be increased by 0.25% for each degree of air temperature decrease. When the cooling air temperature drops below 25°C, no further increase in load is allowed. The operation of the hydrogenerator at a cooling air temperature below +15°C is not recommended, and below + 10°C is not allowed, since this may damage the insulation of the stator winding. In winter, the air coolers should also not be supercooled to avoid moisture condensation (sweating) on them. Typically, seasonal regulation of the cooling water flow through the air coolers is carried out.

Frequency changes. When the frequency changes within +2.5% of the nominal (48.75 - 51.25 Hz), the hydrogenerator maintains the nominal power. However, when the frequency decreases relative to the nominal, the increase in the voltage of





the hydrogenerator in excess of the nominal is not allowed. This is due to the fact that with a decrease in frequency, in order to maintain a constant voltage, it is necessary to increase the magnetic flux, as well as the rotor current. With a simultaneous increase in voltage, local heating of the core and stator winding, as well as the temperature of the rotor winding, may exceed the permissible limits.

In some cases, there may also be restrictions on the operation of the hydrogenerator with an increased frequency compared to the nominal one and with a high voltage. With increasing frequency, additional losses in the copper of the stator winding and on the surface of the pole pieces increase, and the losses in the stator core change insignificantly. As a result, the heating of the stator winding does not go beyond the permissible limits. With an increase in voltage due to an increase in losses in the stator steel in thermally stressed hydrogenerators, the temperature of the stator winding may increase above the permissible level. For this reason, for certain types of hydro generators, operation at an increased frequency and increased voltage compared to the nominal one is not allowed.

LITERATURE:

1. Hydraulic power plants: Textbook / comp. A.N. Kozlov, V.A. Kozlov, A.G. Rotacheva. -Blagoveshchensk: Publishing house of AmGU, 2017. - 372 p.
2. Hydropower and auxiliary equipment of hydroelectric power plants: Reference book: In 2 volumes / Ed. Yu.S. Vasilyeva, D.S. Shchavaleva - T. 1. The main equipment of hydroelectric power plants. – M.: Energoatomizdat, 1988. – 400 p.



ALISHER NAVOIY QIT'A VA RUBOIYLARINI "ZANJIR", "MUNOZARA", "MOSNI TOPING" USULLARI ORQALI O'RGANISH

Abdullayeva Dildora Shokir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti

Abdullayevadildora17@gmail.com

+998948901496

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarini o'qitishning o'ziga xos usullari va amaliy jihatlari haqida mulohazalar bildirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, xususan, 6-7-sinf adabiyoti darsligida keltirilgan Navoiy qit'a va ruboiylarini "Zanjir", "Mosini toping" usullari orqali o'qitish hamda uning samarali ekanligi to'g'risida aytilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Zanjir", "Munozara" "Mosini toping", qit'a, ruboiy, metod, fikr, muammo, yechim.

Annotation: This article comments on the unique methods and practical aspects of teaching Alisher Navoi's works. In general secondary schools, in particular, it is said that Navoi's verses and rubaiy given in the 6th-7th grade literature textbook are taught using the "Zanjir" and "Find the matching" methods and its effectiveness.

Key words: Alisher Navoi, "Zanjir", "Discussion", "Find the matching", continent, rubai, method, idea, problem, solution.

Adabiy ta'lim jarayonida Alisher Navoiy qit'a va ruboiylarini o'qitishda Davlat ta'lim standartlarida keltirilgan talab hamda tavsiyalarga amal qilgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, uni amalga tadbiiq etish muhim ustuvor vazifamiz sanaladi.

Umumta'lim maktablari, xususan, 6-sinf o'quvchilari uchun Adabiyot darsligida Alisher Navoiy hamda uning ruboiylari mavzusi berilgan. Dastlab "Munozara" usuli orqali berilgan ruboiylarni ko'rib chiqamiz.

"Munozara" usuli

"Munozara" usuli – o'zining fikrini ifoda etishni istovchilar orasida biror bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash hamda to'g'ri qaror qabul qilish. Deylik, ma'lum bir asar yuzasidan bahsga chorlovchi savollar o'qituvchi



tarafidan o'rtaga tashlanadi. Buni biz Alisher Navoiyning 6-sinf Adabiyot darsligida keltirilgan ruboiysi misolida ko'ramiz.

So'zdurki	nishon	berur	o'lukka	jondin,
So'zdurki	berur	jonga	xabar	jonondin.
Insonni	so'z	ayladi	judo	hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin [1. 71-b].

nishon – belgi

guhar – gavhar

sharif – aziz, qadrlı

1-o'quvchi: So'z o'likka jon berdi, so'z jonga jonondan xabar keltirdi. Ma'lumki, so'zlash qobiliyati bilan inson hayvondan farq qiladi. Shunday ekan, so'z qimmatbaho bo'lgan gavhardan ham azizdir.

2-o'quvchi: So'z qudratli kuchga ega. Sababi biz o'z so'zlarimiz orqali kimnidir xafa qilib qo'yishimiz yoki baxtli insonga aylantirishimiz mumkin.

3-o'quvchi: Agar bemor odamni yoniga kelib yaxshi gapirsak, ko'rinishingiz juda ham ajoyib, tez kunlarda tuzalib ketasiz desak, u a, albatta, o'zini yaxshi his qiladi. Buni aksi bo'lsa, tuzalayotgan kasalni ahvolini og'irlashtirib qo'yishimiz mumkin.

4-o'quvchi: Xalq orasida shunday maqol ham bor: "Tig' yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi". Qo'limiz kesilsa, bir necha kunda uning o'rne bitadi, ammo kimdir qalbimizga ozor bersa, uni unutishimiz, kechirishimiz qiyin, o'rne juda og'riydi. Har eslaganimizda buni sezamiz.

5-o'quvchi: Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham insonlarga juda xushmuomala bo'lganlar. Biz u kishidan o'rganishimiz kerak bir-birimizga munosabatimizni, gap-so'zimizni.

...

Shu tarzda ta'lim oluvchilar fikrini eshitamiz, orada vaziyatlardan misol keltiramiz, natijada bir-birini fikriga qo'shilmaydiganlari ham uchraydi, shu orqali do'stona bahs-munozara davom etadi. Faqat o'qituvchidan katta mas'uliyat o'quvchilarning fikrlarini chalkashtirmaslik, ularni berayotgan fikrlarini to'g'ri yo'naltira olishidir.

Mumtoz adabiyot namunalarni tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, avvalo, asarlarning lug'aviy tarkibidagi qiyinchiliklarda ko'rinadi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o'zlashgan so'zlar ko'p qo'llangan. Olinma so'zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo'lib, ularning lug'aviy hamda matniy (kontekstual) ma'nosini aniqlash lozim bo'ladi. Agar tojikcha so'zlar o'zbek tiliga so'zlashuv tili



orqali, adabiyot orqali va boshqa yo'llar bilan kirgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali kirgan.

O'qituvchi har bir dars oldi o'z oldiga maqsad qo'yar ekan, dars so'nggiga kelib shu maqsadga erishdimmi degan savolga javob topib, sarhisob qilib olishi kerak.

Keyingi usulimiz orqali navbatdagi topshirig'imizni bajaramiz.

6-sinf Adabiyot darsligida qator lug'atlar ham keltirilgan. O'quvchilarning ushbu so'z ma'nolarini qanchalik o'rganganliklarini "Mosini toping" usuli orqali sinab ko'ramiz.

"Mosini toping" usuli

"Mosini toping" usuli – biror bir mavzuni tanlab olib, jadvalni yoki so'zlarning mosini qo'yish bo'yicha topshiriq tuzish. Jadvalni chap tarafida so'zlar turadi, o'ng tarafida uni sharhlovchi so'z yoki gaplar aralash holda o'rin olgan bo'ladi. Bunga misol qilib lug'atlarni olishimiz mumkin. Mosini bir-biriga moslab ushbu topshiriq bajariladi.

r	T/	So'zlar	Chalkash javoblar	So'zlar izohi	To'g'ri javoblar
	1	Tuzluk	b	hurmat	e
	2	Xub	e	to'g'rilik, halollik	g
	3	Ulus	k	foyda	i
	4	Rioyat	a	bilimsiz, nodon	b
	5	Sitam	g	yaxshi	f
	6	Shodmon	i	xalq el	h
	7	Mahbub	f	jabr, zulm	d
	8	Johil	h	shod, xursand	a
	9	Nishon	d	sevimli	j
0	1	Voya	j	belgi	k

Javoblar:

1. e
2. g
3. i
4. b
5. f
6. h
7. d



8. a
9. j
10. k

Umumta'lim maktablarida, xususan, 7-sinf Adabiyot darslarida Navoiy ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot, undan keyin "qit'a" so'ziga izoh berilgan. O'quvchilar bilan ishlash uchun kichik bir topshiriq keltirilgandan so'ng qit'alardan namunalari va undagi ayrim so'zlarning izohi berilgan.

O'quvchilar qit'alarni oson o'zlashtirishlari uchun ushbu mavzu "Zanjir" usulidan foydalanib ko'ramiz.

"Zanjir" usuli o'tilgan darslarni takrorlashda juda samarali hisoblanadi. "Zanjir" usulida o'quvchilar guruh-guruh bo'lib yoki yakka tartibda faoliyat olib borishadi. Yana bu usul uyga vazifalarni so'rab, baholashda qo'l keladi. Bunda avvaldan o'quvchilar uchun uyga vazifa berib yuboriladi. Aynan o'tilgan bir mavzu yuzasidan bo'ladi. Har bir o'quvchi uyga vazifa qilib berib yuborilgan mavzu bo'yicha bir donadan ma'lumot aytadi. Agar qaysi o'quvchi uch soniyadan keyin ham ma'lumot aytmay to'xtab qolsa yoki aytilgan fikrlar takrorlansa o'yindan chiqarib yuboriladi. Bu o'yin bitta o'quvchi qolguncha davom etadi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodidan so'ng berilgan "Qit'a" haqidagi fikrlarga qo'shimcha sifatida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yangi va qiziqarli ma'lumotlar o'qib eshittiriladi. Shundan so'ng umumiy o'quvchilarda paydo bo'lgan qit'a to'g'risidagi tushunchalar "Zanjir" usulidan foydalanib, qay darajada o'zlashtirilganini sinovdan o'tkazib ko'ramiz.

QIT'A

Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotining lirik janrlaridan biri sanaladi. She'riy shakl sifatida u adabiyotda g'azal hamda qasidadan oldin paydo bo'lgan, deb qaraladi. Qit'a mustaqil baytlardan tashkil topgani uchun ham g'azalga o'xshab ketadi. Lekin g'azaldan farq qiladi.

* qit'ada matla' bo'lmaydi. Shuning sababli ham baytlarning barchasi bir xil – ab, db, eb, fb va tarzda bo'ladi.

* qit'ada shoir taxallus qo'llashi kamdan kam holatlarda uchraydi. Navoiy esa ba'zi qit'alaridagina taxallus ishlatgan.

* hajm jihatidan ham g'azaldagi kabi qat'iy bo'lmaydi. Eng kam ikki bayt. Qit'aning ko'p baytli, hatto, o'n to'qqiz qo'sh misradan tashkil topgan namunalari ham uchraydi.



* g'azalda mavzular – chegaralangan bo'ladi. Biroq qit'alarda unaqa bo'lmaydi. Qit'ada shakl hamda mazmun jihatidan erkinlik – ko'p. Mavzu chegaralanmagan bo'ladi.

* "Qit'a" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, bo'lak, qism, parcha degan ma'nolarni bildiradi.

* G'azallar uchun sarlavha qo'yilmaydi. Lekin A. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilgan hamma qit'alariga nasriy sarlavha qo'yilgan. Ushbu sarlavhalarda qit'a mazmunining asosiy g'oyasi bayon etilgan.

Qit'a yaxlit asar sifatida ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy va boshqa yo'nalishlardagi muayyan mavzuga bag'ishlanadi. Qit'alarda, umuman olganda, pand-nasihat ruhi ustunlik qiladi. Shoirlar bu janr namunalari ba'zan hajv, hazilmutoyiba, jiddiy tanbeh tarzida, ba'zi hollarda esa o'z hayotining turli lahzalari, ko'rgan-kechirganlari ta'sirida paydo bo'lgan mulohazalari va hukm-xulosalari sifatida bayon etadi. O'zbek adabiyotida qit'aning ilk namunalari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida, Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Gadoiy, Lutfy ijodida uchraydi. Biroq Alisher Navoiy bu janrning yetuk namunalari yaratib, o'zbek qit'achiligini yuksak pog'onalarga ko'tardi. "Xazoyin ul-maoniy"dagi to'rt devonda jami 210 ta qit'a mavjud. Ularning devonlardagi miqdori quyidagicha:

- "G'aroyib us-sig'ar"da – 50 ta;
- "Navodir ush-shabob"da – 50 ta;
- "Badoe' ul-vasat"da – 60 ta;
- "Favoyid ul-kibar"da – 50 ta.

XX asrda Habibiy, Sobir Abdulla, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidovlar qit'a bitgan. Hozirgi paytda barmoq vaznida ham qit'alar yozilmoqda [2. 142-bet].

"Zanjir" usuli

1-o'quvchi: Qit'a qasida va g'azaldan oldin paydo bo'lgan.

2-o'quvchi: Qit'ada matla' bo'lmaydi.

3-o'quvchi: Navoiy ba'zi qit'alaridagina taxallus ishlatgan.

4-o'quvchi: "Qit'a" so'zi arab tilida bo'lak, qism, parcha ma'nolarini bildiradi.

5-o'quvchi: "Xazoyin ul-maoniy"dagi to'rt devonda jami 210 ta qit'a mavjud.

6-o'quvchi: XX asrda Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Charxiy, Erkin Vohidovlar qit'a yozgan.

7-o'quvchi: O'zbek adabiyotida qit'aning dastlabki namunalari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida uchraydi.

...



1, 2, 3... 8-o'quvchi ma'lumot ayta olmadi.

9-o'quvchi: "Badoe' ul-vasat"ga 60 ta qit'a kiritilgan.

10-o'quvchi: Qit'ada matla' bo'lmaydi. 10-o'quvchi ma'lumotni takror aytdi. Shu sababli o'yinni tark etadi.

Ushbu jarayon 1 ta o'quvchi qolgunicha davom etadi.

"Zanjir" usulini 2 xil holatda qo'llab ko'ramiz.

Birinchisi "Qit'a" haqidagi ma'lumotlar bo'yicha (darsga diqqatni tortish, qit'a haqida tasavvur uyg'otish, xotirani sinash maqsadida);

Ikkinchisi (fikrlash qobiliyatini shakllantirish, fikrlashni o'stirish uchun).

"Zanjir" usulini davom ettiramiz. Endi darsimizga yangicha yondashib ko'ramiz. Bunda Alisher Navoiyning bitta qit'asi o'qib beriladi. Keyin birin-ketin o'quvchilarning fikrlari so'rab boriladi (iloji boricha bitta gap orqali ifodalashlari muhim, sababi vaqtni ham inobatga olishimiz kerak). Qaysi o'quvchining fikri takrorlansa yoki uch soniya ichida aytolmasa jarayonni tark etadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, o'quvchi o'z fikrini ayta oladi. Bundan tashqari miyasini ishlatadi. Bu usuldan dars mashg'ulotlarida tez-tez foydalanish, bolaning fikrlash qobiliyatining tezligini oshiradi hamda biror bir vaziyatga nisbatan o'zining shaxsiy munosabati bo'ladi.

Quyida 7-sinf Adabiyot darsligida berilgan Navoiyning qit'asini ko'rib chiqamiz.

Ilmdin kasb qilki, sud ermas,

Charx mushkillarini hal qilmoq.

Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,

Bilibon bo'lmasa amal qilmoq [3. 126-b].

sud – foyda

charx – osmon; zamon.

1-o'quvchi: Foydasiz ilmning qadri yo'q.

2-o'quvchi: Bilgan narsasiga amal qilmaslik insonga zarar keltiradi.

3-o'quvchi: Boshqalarga naf keltirmaydigan ilmdan qanday foyda bo'lsin?!

4-o'quvchi: Diploming bo'lgani bilan bilimning bo'lmasa, atrofingdagilarga nafing tegmasa bunaqa "diplomli" bo'lishning keragi yo'q.

5-o'quvchi: Hayotda ko'p qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, shunday paytlari dunyo ilmlari emas, hayotdan olgan o'rganishlar insonlarga qo'l keladi.

6-o'quvchi: ...



7-o'quvchi: Shunday insonlar bor, o'zini bilimliman deb hisoblaydi, aslida u shunchaki o'zini shunday hisoblagan bo'lishi mumkin, biz ozgina o'rganib uni hayotimizda qo'llay olmasligimiz ham mumkin.

...

8-o'quvchi: Do'stlarimiz orasida ham bor, biladi, lekin amal qilmaydi. Masalan, yolg'on gapirish yomon odat. Ammo ular yolg'on ishlatadi.

1, 2, 3... 9-o'quvchi ma'lumot ayta olmadi.

10-o'quvchi: Odamlar ilm o'rganishadi, lekin boshqalarga shu ilmini ulashmaydi, bu ham xuddi biladi, lekin amal qilmaydigan insonlardagi xarakterga o'xshab ketadi.

Ushbu jarayon 1 ta o'quvchi qolgunicha davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida pedagog tomonidan yaratiladigan turli xil usullar, ularni qo'llash o'quvchilarning faol mustaqil faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida ular kerakli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar hamda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bundan tashqari darslarni turli usullarda tashkil etish, ayniqsa, mumtoz asarlarni o'qitishda o'zining samarali natijalarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. 6-sinf adabiyoti. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

2. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. 7-sinf adabiyoti. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

3. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. 8-sinf adabiyoti. Toshkent: G'.G'ulom nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2014.

4. Долимов С., Убайдуллаев Х., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967.

5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.

6. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.

7. www.ziyonet.uz

8. www.natlib.uz



O'LGHASH TIZIMLARIDA ZAMONAVIY INTELEKTUAL VOSITALARIGA TALABLAR

Sulaymonov Mirjalol Murodil o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'lchash tizimlarida zamonaviy intellektual vositalari ya'ni intellektual datchiklar, ularning strukturaviy sxemasi ushbu intellektual datchiklarga talablar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'lchash, datchik, algoritm, interfeys, intellektual o'lchash tizimlari.*


Kirish

Bugungi kun injenerlari yangi texnologiya va texnikadan foydalanishga, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni keng joriy etishga, ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash va uni jadallashtirishga qodir bo'lishlari kerak. Xususan, injenerlar va metrologlar oldida fan-texnika taraqqiyotining yo'l boshlovchisi bo'lishdek mas'uliyatli vazifa turadi.

O'lchash texnikasi xalq xo'jaligining barcha sohalarida fan-texnika tarakkiyotining muhim omillaridan biridir. Keyingi yillarda texnologik jarayonlarning o'tish tezligi o'sdi, bir agregatda o'lchanadigan parametrlar soni ko'paydi. Shu boisdan o'lchash vositalarining va axborot-o'lchov sistemalarining ishonchliligi ko'p hollarda agregatning umuman ishonchliligini belgilaydi. Parametrlarning to'g'ri qiymatlarini bilmasdan turib va bu qiymatlarni avtomatik nazorat qilmasdan turib, texnologik jarayonlarni yoki agregatlarni to'g'ri boshqarib bo'lmaydi, o'lchov vositalarisiz esa avtomatlashtirib bo'lmaydi.

O'lchash texnikasini ishlab chiqarishga keng joriy etish uchun har bir injener-texnik xodim, qaysi soha mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, metrologiya asoslaridan, texnologik o'lchash usullari va vositalaridan, hisoblash texnikasidan o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirishda foydalanish imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi zarur. Ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri kattaliklarni yanada aniqroq o'lchaydigan makammal nazorat-o'lchash asboblarini, qurilmalarini va tizimlarini yaratishdir. Texnologik jarayon parametrlarini nazorat qilish usullari va tizimlari, ob'ektlar, rostlash qonunlari, rostlagichlar, jarayonga ta'sir etuvchi qurilmalar, avtomatik va intellektual o'lchash vositalaridan iborat. Intellektual datchik deganda metrologik jixatdan o'zini nazorat qilish funksiyasiga ega bo'lgan






adaptiv datchik tushuniladi. Bunday datchiklarning parametrlari va ish algoritmlari tashqi signallarga bog'liq xolda o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi. Intellektual datchiklarning ajralmas qismi uzilish sodir (vujudga kelganda) bo'lganda o'zini o'rganish va o'zini tiklash imkoniyatiga ega bo'lishi hisoblanadi. Ba'zi adabiyotlarda «intellektual datchik» atamasini analogi sifatida «smart sensor» atamasi qo'llaniladi. Shunday qilib, intellektual datchiklarning ajralmas funksiyasi bo'lib, uni datchiklar tarmog'iga (o'tkazgichli yoki o'tkazgichsiz) ulanish imkoniyatini mavjudligi hisoblanadi. Datchikni tarmoqqa ulanish imkoniyatidan tashqari, tarmoqli interfeysni mavjudligi tufayli konfiguratsiya bo'yicha har xil (harakat) amallarni, ish rejimini tanlash bo'yicha, datchiklarni ish joyidan uzoqlashgan xolatlarida (diagnostika) tashxislash ham o'tkazishi mumkin. Bu esa albatta ularni ekspluatatsiyasida va ularni xizmat (obsługa) narxida ustunlikka olib keladi. 1-rasmda intellektual datchikning struktura sxemasi keltirilgan.

Birlamchi o'zgartkichlardan olingan analogli signallar maxsus o'zgartkichlar yordamida kuchaytiriladi va raqamli shaklga o'zgartiriladi. Bu signallar hisoblash qurilmasida, ya'ni mikroprotsessorda korrektilirovkalanadi va ularni talab etiladigan o'lchashlar birligiga o'tkaziladi. Shunday qilib, xarorat ta'siridan, nol dreyfidan hosil bo'ladigan xatoliklar kompensatsiyalanadi. Bundan tashqari mikroprotsessor birlamchi o'zgartkichlarning elementlarini xolatini nazorat qiladi va o'lchash natijalarining aniqligini baholaydi. Qayta ishlov berilgan raqamli informatsiya raqamli interfeys va tarqatilgan kommunikatsion protokollar orqali iste'molchiga uzatiladi. Iste'molchi esa, o'z navbatida, datchikning parametrlarini (o'lchash chegarasini va x.k.) to'g'rilash va datchikning xolati va o'lchash natijalari bo'yicha qo'shimcha informatsiya olish imkoniyatiga ega





1-rasm. Intellektual datchikning struktura sxemasi.

Hozirda integral sxemada ishlangan «kristalli tizimlar» keng tarqalgan bo'lib, ular mikrokontrollerdan tashqari ichida joylashgan xotira bloki va boshqa bir qancha qurilmalardan tarkib topgan (presizion ARO' va RAO', taymerlar, kontrollerlar, USB va Ethernet). Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish uchun real vaqt xolatida parametrlarni nazorat qilish va monitoringi uchun tarqoqlangan datchiklar tarmoqlari keng qo'llanilmoqda.

Xulosa

Hozirda o'nlab turli xil interfeyslar (RS-485, HART, USB, 4-20mA, IEEE-488) va sanoat tarmoqlari (Profibus, Fieldbus, DeviceNet, Interbus,...) ishlatilmoqda. Datchiklarni ishlab chiqaruvchilari oldida juda murakkab, ya'ni raqamli interfeys va kommunikatsion protokollarni tanlash vazifasi turibdi. Sababi, bir turdagi intellektual datchiklarni ishlab chiqarish hozirgi paytda har qaysi keng tarqalgan tarmoqlar uchun iqtisodiy jihatdan samarali emas. Yangi standartni paydo bo'lishi bilan (IEEE 1451. Smart Transducer. Interface Standards) [Elektron resurs] <http://iee1451.nist.gov> vaziyat- ni yaxshi tomonga, ya'ni intellektual datchik va tarmoq orasidagi interfeysni unifikatsiyalash bilan o'zgaro boshladi. Bu xolda intellektual datchiklarni tarmoqqa apparatli va dasturli ulanish metodi bo'yicha bog'lanishi zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shevchuk V. P., Kaplya V. I., Jeltonogov A. P., Lyasin D. N. (pod obshchey redaktsiyey akademika metrologicheskoy akademii Rossii, professora Shevchuka V.P.). Metrologiya intellektualnykh izmeritelnykh sistem: Monografiya / VolgGTU, Volgograd, 2005. - 210 s.
2. Teoreticheskie osnovy informatsionno-izmeritelnykh sistem: Uchebnik / V. P. Babak, S. V. Babak, V. S. Yeremenko i dr.; pod red. chl.-kor. NAN Ukrainy V. P. Babaka / - K., 2014. – 832 s.
3. Rannev G. G. Izmeritelnye informatsionnye sistemy: uchebnik dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy / G. G. Rannev. -M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2010. - 336 s.
4. Intellektualnye sistemy avtomaticheskogo upravleniya /Pod red. I. M. Makarova, V. M. Loxina – M.: Fizmatlit, 2001. – 576 s.
5. Svetkov E.I. Algoritmicheskie osnovy izmereniy. - SPb: Energoatomizdat, 1992, - 386 S..
6. Svetkov E.I. Intellektualizatsiya izmeritelnykh sredstv. - SPb: LGTU, 2002.
7. Kriniskiy N.A., Mironov G.A., Frolov G.D. Avtomatizirovannyye informatsionnye sistemy. - M., Nauka, 1982.



ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА СИНОВ ЛАБОРАТОРИЯЛАРИНИ АККРЕДИТАЦИЯГА ТАЙЁРЛАШ

Б.Р.Хамдамов

АндМИ катта ўқитувчи, PhD.

Ф.Р.Хайдаров

АндМИ талабаси

Аннотация. Мазкур мақолада республикамызда махсулот сифатини таъминлаш ва унинг ҳуқуқий асослари, бу борада олиб борилаётган ислохотлар, синов лабораторияларини ташкил этиш, уни аккредитацияга тайёрлаш ҳамда процедура ҳужжатларни ишлаб чиқиш масалалари ёритилган, шунингдек О'з Дст ISO/IEC 17025:2019 стандарти асосида синов лабораторияларини лаёқатлилиги бўйича талаблари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: сифат, стандарт, синов, лаборатория, аккредитация, мувофиқлик, бошқариш, процедура, намуна, О'з Дст ISO/IEC 17025:2019, ISO 9001, ўлчаш.

Айни вақтда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда.

Олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизатсия қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йилдаги «ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ ТЎҒРИСИДА»ги фармони билан тасдиқланган тараққиётимизнинг келгуси беш йилга мўлжалланган 2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Тараққиёт Стратегияси аниқ белгилаб берилди.

Мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг сифатини ва экспорти ҳажмларини ошириш, уларнинг халқаро стандартларга мувофиқ ишлаб чиқарилишини таъминлаш ҳамда мавжуд синов ва калибрлаш



лабораторияларини модернизатсия қилиш, шунингдек аҳолига сифатли ва хавфсиз маҳсулотларни етказиб бериш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Мувофиқликни баҳолаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш, идоралараро ҳамда инновацион синов ва калибрлаш лабораториялари комплекcini ривожлантириш, соҳага хусусий инвестицияларни кенг жалб этиш ва маҳаллий маҳсулотларни халқаро стандартларга мувофиқ баҳолаш орқали савдодаги техник тўсиқларни бартараф этиш мақсадида Президентимиз томонидан 2019 йил 15 августда “Ўзбекистон республикасида мувофиқликни баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш ва синов лабораториялари комплекcini ривожлантириш тўғрисида”ги ПҚ-4419 сонли қарори қабул қилинган. Ушбу қароада бир қатор зарурий вазифалар белгиланиб, йўл хариталари ва чора-тадбирлар белгиланган.

Қатор мамлакатларнинг қонунларида маҳсулотни хавфсизлиги ва атроф-муҳитни асраш бўйича талабларнинг пайдо бўлиши билан синовларни давлат идораларининг вакиллари иштирокида ўтказилмоқда. Бундай тажриба синовларнинг миллий тизимини аккредитланувчи синов лабораториялари билан бирга яратилишига олиб келади. Лабораторияларни аккредитлаш деганда синов лабораториясининг маълум синовлар ёки синовларнинг муайян хилларини амалга ошириш ҳуқуқларини расмий жиҳатдан тан олиш тушунилади. Лабораторияни аккредитацияга тайёрлаш учун қуйидаги чора-тадбирлар бажарилади:

- Лаборатория ходимларини O'z Dst ISO/IEC 17025:2019 халқаро стандарти талаблари бўйича ўқитиш;

- Лабораторияда қўлланиладиган лаборатория қурилмаларини метрологик текширувдан (қиёслаш, аттестация) ўтказиш;

- Лаборатория биносини санитар қоидалар ва норма (СанПиН, лаборатория хоналари учун ёруғлик, шовқин, газланганлик, шамоллатиш ва ҳ.к.) талабларига мослаштириш;

- Лаборатория фаолиятини O'z Dst ISO/IEC 17025:2019 стандарти талаблари бўйича ҳужжатлаштириш ва ҳужжатларни тасдиқлаш.

Расмийлаштирилиши ва тасдиқланиши лозим бўлган ҳужжатлар қуйидагилар:

1. Сифат қўлланмаси
2. сифат сиёсати
3. процедура ҳужжатлари:
 - ✓ ҳужжатларни бошқариш



- ✓ ходимларни бошқариш,
- ✓ қурилмаларни бошқариш,
- ✓ қиёслаш, калибрлаш жараёнлари ҳамда хавф-хатарларни бошқариш
- ✓ ички аудитни ўтказиш
- ✓ синов намуналар билан ишлаш
- ✓ ўлчаш ва калибрлаш натижалари ишончилигини таъминлаш
- ✓ синов баённомаларини расмийлаштириш
- ✓ лаборатория низоми ва паспорти

Синов лабораториясини аккредитацияга тайёрлаш учун қуйидаги кўринишдаги маълумотлар тақдим қилинади (1-5 жадваллар).

Синов лабораториясини жиҳозланганлиги

1- жадвал

Маҳсулотда аниқланиши керак бўлган хусусиятлар	Ускунани, тури	Ишлаб чиқарувчи (мамлакат)	Асосий техник кўрсаткичлар	Фойдаланишга киритилган йили	Ускунанинг аттестацияланганлиги тўғрисида	Зоҳир
1	2	3	4	5	6	

Аналитик назоратда стандарт намуналар билан жиҳозланганлиги

2-жадвал

Қўлланилган стандарт намуналари	Намуни ва №	Аттестацияланган кўрсаткичлар	Кўрсаткичлар то-лиги	Яроқлилик муддати	Аттестациялаш охино-маси	Қачон ва қачон томонидан тасдиқланган	Из
1	2	3	4	5	6	7	8

Бажарилаётган ишларга бўлган талабларни ва уларни бажариш усуллари белгиланган меъёрий хужжатлар рўйхати

3- жадвал

НХ белгиланиши	НХ номи	Ўзгартиришлар	Изоҳ



1	2	3	4

Аккредитациялаш соҳаси бўйича ишларни амалга оширувчи ходимлар рўйхати

4-жадвал

ФИО	Ловозими	Маълумоти	Ўтказиладиган ишлар	Аттестацияланганлиги тўғрисида	Изоҳ
1	2	3	4	5	6


Лаборатория хонаси шароитлари

5-жадвал

Ишлаб чиқариш об'ектининг номи	Махсус ёки ослаштирилган	Майдони м ²	Температура °C	Нисбатлик %	Иш юришнинг руғлиги	Газларнинг қаражаси мг/м ³	Шовқин даражаси орма, оптик эмас
1	2	3	4	5	6	7	8

Ҳар бир ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнлари халқаро бозорларни эгаллаш ва халқара даражада бўлиш нуқтаи назаридан халқаро ИСО 9001 стандарт талабларига мувофиқ менежмент тизимларини жорий этиш зарур. Синов лабораторияларини ташкил этишдаги бундай талаблар O'z Dst ISO/IEC 17025:2019 стандартининг 7-бўлимида кўрсатиб ўтилган. Ушбу талаблар асосида ташкил этилган лабораториялар ИСО 9001 принципларига мувофиқ фаолият юритадилар ва бу амалиёт схемаси 2.1-расмда келтирилган.





Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Маҳсулот ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисида»ги қонуни 28.12.1993 й.
2. Мақсудов А.Н., Исматуллаев П.Р., Абдуллаев А.Х., Ахмедов Б.М. ва Аъзамов А.А. Метрология стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслиги, Тошкент-2001 й.
3. Б.Хамдамов, А.Мамажонов, Д.В.Хакимов /Сертификатлаштириш асослари ва сифат менежменти / Дарслик -2020 й.
4. Сергеев А.Г., Латышев М.В. Сертификация. Москва, ЛОГОС-2000 г. 246 с.
5. Сафаров К. Стандартлаштириш ва сертификатлаштириш асослари. Тошкент ТДИУ. 2005 й. 89 бет.
6. Никифоров А.Д., Бакиев Т.А. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебное пособие – 3-е изд. Испр. – М.: Высш. шк., 2005. – 422 с.: ил.
7. Фомин В.Н. Управление качеством. Сертификация: Учебное пособие. - 2-е изд., перераб. И доп. –М.: Ось-89, 2005. -348 с.
8. O'z Dst ISO/IEC 17025:2019
9. www.akkred.uz



“MEHR KO‘RSATISH” AKSIOLOGIK KONSEPTI TADQIQI

Burqutbayeva M

ToshDO`TAU, lingvistika yo`nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiologik qarashlar va ularning yaxshilik va yomonlik konsepti doirasidagi tahlili, yaxshilik va yomonlik aksiologik tahlilining Sharq va G`arb olamida namoyon bo`lishi va ularning bir-biridan farqi yuzasidan ma`lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu konsept tahlili bo`yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo`lib, ulardan farqli o`laroq bu maqolada ushbu sohaga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan va misollar asosida izohlangan.

Kalit so`zlar: yaxshilik, yomonlik, aksiologiya, mehr, konsepsiya, Sharq dunyosi, aksiologema.

A STUDY OF THE AXIOLOGICAL CONCEPT OF AFFECTION

Burqutbayeva M

Tashkent State Pedagogical University, 2nd stage master's degree in linguistics

Annotation. This article provides information on axiological views and their analysis within the concept of good and evil, the manifestation of the axiological analysis of good and evil in the Eastern and Western worlds and their differences. In addition, a number of scientific studies have been conducted on the analysis of this concept, in contrast to which this article approaches the field from a linguistic point of view and explains it on the basis of examples.

Keywords: good, evil, axiology, concept, Eastern world, axiologeme, affection.

АНАЛИЗ АКSIОЛОГЕМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ПРИВЯЗАННОСТИ

Буркутбаева М

*Ташкентский Государственный Педагогический Университет, 2
степень магистра лингвистики*

Аннотация. В данной статье представлена информация об аксиологических воззрениях и их анализе в рамках концепции добра и зла,



проявлении аксиологического анализа добра и зла в восточном и западном мире и их различиях. Кроме того, был проведен ряд научных исследований по анализу данного понятия, в отличие от которых в данной статье данная область подходит с лингвистической точки зрения и объясняется на основе примеров.

Ключевые слова: добро, зло, аксиология, концепт, восточный мир, аксиологема, привязанность.

“Аксиологема” – bu har qanday lingvistik ta’minlanishning diskursiv makondagi ifodasidir. Baho u yoki bu milliy (professional) lingvokulturologik jamiyat vakillarining shu jamiyatda mavjud bo’lgan va jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida ma’lum qiymatga ega bo’lgan obyektlar, me’yorlar, hodisalarga munosabatini aks ettiradi. Til birliklarini aksiologiya nuqtai nazaridan o’rganish so’zning ichki qismiga “singib kirish” va ushbu milliy - madaniy jamoaning qadriyat munosabatini, qadriyat yo’nalishlarini ochish imkonini beradi. Salbiy baholarning ustunligi bo’lgan so’zlar quyidagilar: yolg’onchi, oliyanob, baxtsiz. Yuqoridagi ma’no ifodalash usulidan tashqari, frazemalarning quyidagi turlari, aksiologemalarning paremiyasi farqlanadi: aksiologema - so’z, aksiologema- formula (qiymatning barqaror bayoni, Aksiologemalar - so’zlar va iboralar - qadriyatlar tashuvchisi – ertaklarda madaniyat uchun muhim bo’lgan tushunchalarni bildiradi, ular orasida nafaqat ijobiy qadriyatlar, balki bugungi kunda ham dolzarb bo’lgan antiqadriyatlar: ayyorlik, beadablik, zarar yetkazish, ozor berish kabi aksiologemalar ham mavjud.

Aksiologik leksika xalq og’zaki ijodi namunalari hisoblanadigan ibora, maqol, hikmatli so’zlarda o’z aksini topishi va bu orqali xalqning ana shu tushunchaga bo’lgan munosabatini ifodalab kelishi mumkin. Aksiologik tilshunoslikda qadriyat va aksqadriyat “aksiologema” tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu termini birinchi marta maqollar semantikasini tekshirish asosida K. A. Jukov tilshunoslikka olib kirdi.: “Aksiologema aksiologik nuqtai nazardan ma’lum bir qadriyatni yoki antiqadriyatni belgilaydigan aforizmlar va so’zlar uchun umumiy semantik maydon hisoblanadi. Tadqiqotlarda aksiologik frazeologiyani tadqiq qilish mobaynida qadriyat va antiqadriyat maqomidagi aksiologik diadalar (“aksiologik juftliklar”) ni klassifikatsiyalash masalasi o’rtaga tashlangan. Bu kabi tasniflarni aksiologik frazeologiyaga doir barcha tadqiqotlarda uchratishimiz mumkin.

Yaxshilik va yomonlik konsepti qadriyatlar tizimi sifatida bir qancha aksiologemalarga bo’lib o’rganiladi. Jamiyatdagi¹ barcha insonlar bir-biri bilan munosabatda bo’lar ekan, ularning o’rtasida mehr-oqibat va o’zaro ishonch bo’lsagina, hayotlari yanada go’zallashib boraveradi. Insonning qadr-qimmatini uning



boshqalarga qilgan mehri bilan baholanadi. Qancha boy-badavlat yoki mansabdor bo'lmasin, u inson boshqalarga nisbatan mehri bo'lmasa, qadr-qimmat, obro'si bo'lmaydi. Inson mehr-oqibatni, avvalo, ota-onasidan oladi, o'rganadi va yaqinlariga o'sha olgan mehrini qaytaradi.

Yaxshilik konsepti o'z o'rnida mehr ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish, ko'mak berish kabi aksiologemalarga bo'lib o'rganildi. *Mehr - oltindan qimmat; Do'stingga qo'shiq ayt, Mehringni qo'shib ayt; Izzatga arzimagan mehmon to'shak bulg'ar; Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar; Mehr bilmas qarindoshdan, mehr bilgan yot yaxshi* kabi maqollar mehr ko'rsatish aksiologemasiga birlashadi. Ularda mehr inson hayotida qanchalik muhim ekanligi aks ettirilgan. Mehr bilmas qarindoshdan, mehr bilgan yot yaxshi maqolida qarindosh va yot so'zlari bir-biriga zid ma'noli so'zlar bo'lib kelgan. Mehr konsepti barcha xalqlarda o'z aksini topgan leksemadir. Ushbu maqollarda mehr eng oliy qadriyat sifatida berilgan. Ushbu maqolda mehrsiz qarindosh va mehri yot aksiologik juftligi yuzaga kelgan. Bunda daraja shu darajada kuchaytirilganki, qarindosh insonlar ongida eng yaqin mehribon inson deb qaraladi, ammo maqolda qarindoshni mehrsiz deb berilishi bilan salbiylik yuqori cho'qqiga ko'tarilgan.

Mehr - oltindan qimmat maqolida baho oltin so'zi orqali ifodalanib kelgan. Oltin eng qimmatbaho buyum. Mehrni unga muqoyasa qilish bilan uning darajasi ko'rsatib berilgan.

Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar. Bu yerda ko'z vosita vazifasini bajarib kelgan, ya'ni mehr qo'zg'alishiga sababchi vosita sifatida.

Mehrli odam – sevimli. Ushbu maqolda ham bir qancha ma'no mujassam. Mehrli bo'lgan odam barcha uchun sevimli bo'ladi. Mehr ko'rsatish logogremasi atrofida shu kabi maqollar yotadi. Yaxshilik-yomonlik aksiologemasi insonlar uchun qadriyatlarning cho'qqisi va eng quyi darajasi sifatida qaraladi.

Mehr - bu insonning eng yuksak tuyg'ularidan biridir. Sharq falsafasida rahm-shafqat, muruvvat, odamiylik kabi fazilatlar doimo ulug'lanib kelgan. Mehr ko'rsatish - insoniylikning ajralmas bo'lagidir. Mehr tushunchasiga muhabbat, sadoqat, oqibat kabi tushunchalar hamohang bo'lib, bularning har birida milliy qadriyatlar o'z aksini topgan. Hayotni kuzatsak, yaxshi muomala va samimiy munosabat qalblarga sevinch bag'ishlaydi. Qo'rslik, qo'pollik esa kishilarga aziyat yetkazadi. Hadislardan birida "Bemorlarni ziyorat qilinglar, ochlarga taom yediringlar, qarzdorlarga qarzini uzishga yordam beringlar" deyilgan. Shirin so'z va yaxshi muomala mehr-oqibatning kalitidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. – М.,1960.
2. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
3. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.– Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
5. Абрамов В. П. Теория ассоциативного поля. Краснодар: Техн. Ун Кубан. гос. тех-нол. ун-та, 2003. 337 с.
6. Алефиренко Н Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловые про-странства языка. М.: Флинта, 2010. 288 с.
7. Апресян Ю. Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания. 1995. Вып. 1. С. 46–51.
8. Аристотель. Риторика / Пер. В. Г. Апеллерота / под ред. Ф. А. Петровского. М.: Лабиринт, 2000. 224 с.
9. Аристотель. Сочинение в 4-х томах. Т. 1. М.: Мысль, 1984. 330 с.
10. Аристотель. Сочинение в 4-х томах. Т. 4. М., 1983. 240 с.
11. Арнольд И. В. Интерпретация художественного текста: типы выдви-жения и проблема экспрессивности // Экспрессивные средства английского языка. Л., 1975. С. 11-20.
12. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. М.: Наука, 1988. 34 с.
13. www.wikipedia.org
14. www.hozir.org
15. www.google.com



ДЛИТЕЛЬНОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ АНАЛИТИЧЕСКОЙ ХИМИИ КАК СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

Юлдашева Хилола Тулебаевна

Город чирчик. Ташкентская область.


Школа -5. Учитель химии

Аннотация: В данной статье Аналитическая химия возникла как современная наука в процессе длительного исторического развития. Аналитическая химия как наука начала формироваться в 18-19 вв. В 18 в. закон стехиометрии был открыт И. Рихтером, закон постоянства состава вещества — Ж. Л. Прустом, закон сохранения массы вещества — М. В. Ломоносовым и А. Л. Лавуазье. В результате химики-аналитики овладели различными методами качественного и количественного анализа: были разработаны методы осаждения, экстракции, приготовления аналитической формы вещества, созданы основы газового анализа. Это то, о чем мы говорим.

Ключевые слова: химия, аналитическая, периодическая система Менделеева, физико-химические свойства, агрегатное состояние.

«Химия» — сложная, но интересная наука: ее эксперименты незабываемы, решение задач и составление уравнений кажется трудным. Изучение химии начинается с седьмого класса, то есть когда появляется личность подростка (развитие интеллектуальных способностей). Студентам должны быть предоставлены возможности и они должны быть вовлечены; им нужна поддержка, самозащита и самоуправление. Элементы ИКТ незаменимы для учителя. Это не означает отказа от работы с реальным лабораторным оборудованием и химическими реактивами, но помимо существующего арсенала инструментов, приемов, технологий, слайдов и анимаций не появится. Обеспечение того, чтобы обучение проводилось на уровне большого интереса, разнообразия, разнообразия и запоминаемости. Известно, что сегодняшние школьники — это «молодежь века компьютерных технологий», они могут усвоить любую информацию раньше учителя. Поэтому учителю необходимо быть на шаг впереди ученика или студента в направлении ИКТ. Осуществляется путем работы с информационно-коммуникационными технологиями: - проведение мультимедийных уроков с использованием готовых цифровых образовательных ресурсов





(мультимедийные технологии объединяют в себе несколько способов подачи информации: текст, неподвижные изображения, движущиеся изображения и звук в интерактивный продукт. значительно позволяет обогатить учебный материал за счет активизации всех способов восприятия);


- использование «виртуальной лаборатории» (технология проведения нескольких сложных химических экспериментов с подробным анализом полученных результатов);

- использование электронных учебных тестов (структура учебных тестов обеспечивает учащемуся последовательное изложение альтернативных комплексов учебной деятельности, что в итоге создает последовательность заданий, учащийся формирует определенный уровень учебного материала для себя и на одновременно демонстрирует это учителю;

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ Я широко использую презентационные материалы как систему ярких и поддерживающих образов, расположенных в алгоритмическом порядке. Пользоваться ими удобно, так как экономится время учителя (нет необходимости записывать нужную информацию на доску); позволяет обратить внимание на главное (определения, термины); удобна для учащихся, у которых развита зрительная память (более запоминаются яркие картинки, образы), развивается пространственное мышление. С помощью презентации урок более структурирован, а презентация является его основной частью, где логика мышления находится в конце урока и, самое главное, в результате всей работы. Внеурочная деятельность по химии невозможна без информационных и коммуникационных технологий. Некоторые из них: участие талантливых студентов в дистанционных викторинах, конкурсах, блицтурнирах; подготовка к итоговой аттестации студентов; проектная деятельность по теме и ч. к. Опыт показывает, что если на рабочем столе (компьютере) нет порядка, если у вас есть полный арсенал техники в офисе, где вы работаете, то вы, несомненно, потеряете время на занятиях в поисках конкретного материала.

Поэтому важно, чтобы каждый преподаватель вносил в систему свои материалы. Папки, темы должны быть организованы. Для этого можно использовать мосты. В своей работе я использую документ камеры. Это позволяет демонстрировать эксперименты. Например, взаимодействие натрия с водой, потому что это безопасный эксперимент, который может провести только учитель. Камера помогает увидеть признаки химических реакций в больших масштабах. ИКТ позволяют обобщать и распространять педагогический опыт. Он будет введен на государственных уроках химии в





2020-2021 учебном году. Основная технология их выполнения – системный и активный подход. С помощью студентов можно будет организовать мероприятия, мероприятия вне зала, их инсталляцию, а затем и перформанс. Это позволит увидеть реальную работу методики в использовании, способы активизации деятельности учащихся. Обсуждаем, анализируем, может быть, обращаем внимание, узнаем что-то новое для себя.


В начале 19 века бурный рост различных производственных процессов позволил создать на заводах аналитические службы. Открытие новых химических элементов и поиск источников сырья внесли большой вклад в развитие аналитической химии. К этому времени стали применяться закон кратных пропорций Дж. Дальтона, закон объемных пропорций Ж. Гей-Люссака, Ю.Я. Берселиус разработал теорию электрохимического дуализма. В середине 19 в. появились сведения о специфических реакциях веществ, были написаны первые учебники по сложившимся системам качественного и количественного анализа (Г. Розе, К. Фрезениус, Ф. Мор, Н. А. Меншуткин). В этот период был разработан метод элементного анализа органических веществ.

Во 2-й половине 19 в. бурно развивалась органическая и физическая химия, Д. И. Менделеев создал Периодический закон и периодическую таблицу химических элементов. Начато применение многокомпонентных систем, изучение способности соединений реагировать с их химической структурой. Большинство нововведений этого периода стали теоретическими основами современной аналитической химии, например, теория электролитической диссоциации С. Аррениуса и уравнение Нернста.

В начале 20 в. были разработаны теория индикаторов, координационная теория строения сложных соединений, теория кислот и оснований. Несколько обогатились аналитические работы: были разработаны капельный анализ, количественный органический микроанализ, бессероводородный метод качественного анализа, методы комплексонометрии. М.В. Ломоносов, В.И. Вернадский, Л.А. Чугаев, М.С. Свет, Л.В. Писаржевский, Н.А. Шилов, Н.А. Тананаев, Н.С. Курнаков, И.В. Тананаев, И.П. Алимарин, И.М. Коренман, Ю.В. Русские ученые, такие как А. Золотов, Ш. Большой вклад в развитие аналитической химии внесли узбекские ученые, такие как Т. Толипов, М. Г. Геворкян.

Аналитическая химия — наука, разрабатывающая теоретические основы определения химического состава вещества, а также разрабатывающая методы идентификации, разделения и определения состава элементов и их





соединений, а также методы определения химического строения соединения. Аналитическая химия делится на две части: качественный и количественный анализ. Аналитическая химия включает в себя следующие задачи.

1. Определение химического состава обнаруженного объекта (изотоп, элемент, ион, структурная группа, молекула, фаза).

2. Определение строения соединения, т. е. определение связи и взаимного расположения элементарных компонентов в молекуле.

3. Определить неоднородность состояния в плоскости или объеме твердого тела, т. е. расположение элементов в слоях плоскости.

4. Исследование нестационарных процессов: а) управление макроскопическими потоками материала в процессе производства; б) установить природу, механизм и скорость обмена молекулярными группами.

2. Методы анализа качества.

ички омиллар масалалари хусусида қатор илмий йўналишлар, назариялар, мулоҳазалар юритилган [4, 443] . Ушбу жараённинг маҳсули ўлароқ, инсон шахсиятини турли хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда тадқиқ этадиган психология илми юзага келди [3, 341] Биз мулоҳаза юритишни мақсад қилган “характер” тушунчаси ҳам айна фан соҳасига тааллуқли категория ҳисобланади [1,76] Унинг адабиётшунослик илмида истилоҳ сифатида қўлланиладиган муқобилини ҳам айна категория акс эттирган моҳиятнинг бир кўриниши сифатида қабул қилиш мумкин. Қуйида характер тушунчаси моҳиятини муфассал ёритиш мақсадида, ушбу категориянинг психология ҳамда адабиётшунослик илмида қандай маъно, мазмун англатишини келтириб ўтамиз. Хусусан, Арастунинг адабиётшунослик илмига илк пойдевор ҳисобланган асари – “Поэтика” илмий рисоласида характер тушунчасини илмий асослашга қаратилган илк қарашлар илгари сурилган. Арасту характер тушунчасини трагик образлар билан боғлаб тушунтиради. “Шахс агар ўзининг гаплари ва ишларида қандайдир мақсадга амал қилса, характерга эга бўлади. Агар шахс яхши мақсадларни кўзласа, характери ҳам яхши бўлади.” Арасту “Поэтика”да категорияни содда изоҳлайди, лекин бу изоҳ бадиий асар хусусидаги қимматли бир хулосанинг келиб чиқишига туртки бўлади. Хусусан, бадиий асарда образ ва характер тушунчаларининг мақомини айна таърифдан келиб чиққан ҳолда белгилаш мумкин. Бадиий сўз борлиқнинг инъикоси ўлароқ, бадиий асардаги ҳар бир образ ўз характер- хусусиятларига эга бўлади. Воқеалар ривожининг турли нуқталарида вазият талабидан келиб чиққан ҳолда характернинг турли қирралари ўзини намоён эта бошлайди. Айна ҳодисанинг ўзи образнинг бадиий асар тақдирида ҳал қилувчи роль ўйновчи характер даражасига кўтарилишига асос бўла олмайди, чунки Арасту таърифида келтирилган “яхши мақсадларни кўзлаш” ҳар қандай вазиятда ҳам устувор вазифа бўлиши лозим. Айна вазифанинг мавжудлиги қаҳрамонни турли коллезиялар гирдобига бошлайди. Қаҳрамон турли ички ва ташқи курашларга тортилади . Бу кураш аксар унинг мағлубияти ва ҳалокати билан якунланиши мумкин. Шунинг учун ҳам Арасту трагик образларни характернинг ёрқин мисоли сифатида келтириб ўтади.

Инсонга хос бўлган характер-хусусиятларини ижобий ва салбий каби икки гуруҳга ажратиш жадид адабиёти намоёндаси Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” асарида ҳам мавжуд. Адиб ахлоқ сўзини “инсонни яхшиликка бошловчи илм” дея таърифлайди. Ахлоқни ташкил қилувчи ижобий хусусиятлар – матонат, диёнат, исломият, назокат, саъй-ғайрат, риёзат, шижоат, қаноат, сабр, ҳилм, интизом, виждон, ватанни севмоқ, ҳаққоният,



назари ибрат, иффат, ҳаё, идрок, ҳифзи лисон, иқтисод, виқор, ҳавф ва ражо, итоат, мунислик, саодат, адолат, муҳаббат, олий ҳиммат, авф; салбий хусусиятлар – ғазаб, шаҳват, жаҳолат, сафоҳат (исрофгарчилик), ҳақомат (бидъатчилик), атолат (дангасалик), хасосат (хасислик), раҳоват (ғайратсизлик), аноният (худбинлик), адоват, намимат (чақимчилик), жибонат (қўрқоқлик), ҳасад, кизб (ёлғончилик), нифоқ, тама, зулм тавсифи ва таснифини келтириб ўтади, кишида хислат ёки иллат мавжуд бўлса, оқибатлари келтириб ўтилади [5,47].

Тадқиқот ишининг олдида турган вазифалардан бири характер тушунчасининг лингвистик қўлланиш доирасини белгилаш, тилда характер ифодалаш учун хизмат қилувчи birlikларнинг маъновий гуруҳларини аниқлашдан иборат, ушбу жараёнда амалга оширилиши лозим бўлган иш характер сўзининг маъно кўламини аниқлаш ва тилда ушбу маънони ифодаловчи birlikларни ажратиб олиш.

“Характер” тушунчаси психологияга тааллуқли категория ҳисобланади.

Характер [юн. *character* — фарқланувчи хусусият, белги] 1. Одам, нарса ва ҳодисаларнинг ўзига хос кўриниши, хусусияти; бошқалардан ажралиб, фарқ қилиб турадиган томони.

2. Одамнинг хатти-ҳаракати ва атроф-муҳитга муносабатида намоён бўладиган ўзига хос хусусияти, ички маънавий барқарорлиги.

3. Адабиёт ва санъатда: хусусий белгилари мукамал тасвирланган ва ўзида феъл-атворнинг тарихан аниқ типини мужассамлантирган, шунингдек, муаллифнинг маънавий-эстетик концепциясини ифодалаган инсон образи.

Тадқиқотимиз предмети сифатида иккинчи маънодаги характер сўзи олинган. Характер сўзининг учинчи маъноси адабиётшуносликка доир термин ҳисобланиб, биринчи ва иккинчи маънога алоқадорлигини семантик таҳлил орқали кузатиш мумкин. Бугунги кунга келиб, учинчи маъно махсуслашиб, терминга айланган. Семантик усулда “образнинг мукамал тип” маъносидаги янги лексема шаклланган [2, 121]. Адабиётшуносликдаги характер терминини инсон феъл-атворини ифодаловчи характер атамасига нисбатан омоним сифатида баҳолаш мумкин.

“Характер”нинг лексема сифатидаги маъноларининг тадқиқот иши учун амалий аҳамияти, характер маъновий гуруҳи остида бирлаштириш мумкин бўлган birlikлар чегарасини белгилаб олишда асос вазифасини бажариши билан изоҳланади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Характер категорияси фалсафий, психологик, адабий, лингвистик нуқтаи назардан тавсифланган.



Характернинг лисоний тавсифи олам манзараси, ижтимоий-сиёсий, маданий муносабатлар, макон белгиларига оид семаларни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Пар. Соц. револют, 1916. – 47-б.
2. Ламажаа Ч.К. Национальный характер тюркоязычных народов Центральной Азии // Сборник. – Тува, 2015. – С.111.
3. Грынко А.В. Национальный характер и язык // Сборник. – Москва, 2016. – С.141.
4. Нормуродова Н, Каримова У. Бадий матнинг антропоцентризм уйининг прагматик тузилишини ташкил қилиши принциплари сифатида // Ўзбекистонда хорижий тиллар электрон журнали. – Т., 2017. – 346-б.
5. Раупова Л. Лингвокультурологик концепт ва унинг хусусиятлари // Ўзбек тили тараққиёти ва халқаро ҳамкорлик масалалари. – Т., 2019. – 450-б.



THE FORMATION, DEVELOPMENT AND RELATIONSHIP OF THE DIRECTION OF COGNITIVE LINGUISTICS WITH OTHER DISCIPLINES

Yusupova Aziza Muhiddin qizi

Tashkent State University of the Uzbek language and literature named after Alisher Navoi

Teacher of the Department of Uzbek linguistics

azizaxonyusupova1996@gmail.com

Ermuhammadov Abdusamad,

Candidate of Philology,

Associate Professor of the State Khujand University named after academician Bobojon Gafurov

Аннотация. В данной статье рассматриваются значение, становление, развитие лингвокогнитивного направления в прикладной лингвистике, его виды, место и задачи в речевой коммуникации. Также обсуждались формирование, виды, характеристики познавательных средств, их практические аспекты, такие как связь с психофизиологическим состоянием человека.


Ключевые слова: лингвистика, когнитивная лингвистика, сознание, познание, речевое общение, речевая ситуация, средства познания, эмоциональная выразительность.

Annotation. This article discusses the meaning, formation, development of the linguo-cognitive direction in applied linguistics, its types, place and tasks in speech communication. The formation, types, characteristics of cognitive means, their practical aspects, such as connection with the psychophysiological state of a person, were also discussed.

Keywords. linguistics, cognitive linguistics, consciousness, cognition, speech communication, speech situation, means of cognition, emotional expressiveness

In World linguistics, cognitive linguistics began to emerge as a complex field in the first half of the 20th century. It has been described by linguists about the object of study, subject and its relationship to other disciplines of the field of cognitive linguistics. For example, comparing the data in A. Vebiskaya's research with other sources, then we can cite ideas such as objective learning has become important in the coverage of the subject being seen. The linguistic meanings of cognitive terms, which they mean in linguistics, were also used as one additional source in science





from The "Concise Dictionary of cognitive terms", created in the collection of co-authors about their brief explanations. Including I. N. Gorelov's psycholinguistic theories, studies with views related to the mechanisms, principles of sending, receiving and processing information in a linguistic device are of paramount importance.

In the following years, in the field of cognitive linguistics, scientific literature was developed, in which information related to the interaction of language and thinking was reflected.

Knowledge is a product of the process of cognition, which is considered one of the manifestations of human activity. And knowing is the perception of reality in the human mind. Accordingly, we can conclude that the production of concepts, ideas that represent the properties, sign and essence of objects is a process. For example, when creating puzzles, people go through a series of learning steps to search for their answers. The object in the hidden question is addressed on the basis of a number of issues, for example, how an event expresses its signs and characteristics, reacts and, together, in the relationship it expresses, an approach based on national culture, the lifestyle of a particular nation. It is a clear example of the interaction of language and thought.

Cognitive linguistics is the product of such cross-disciplinary information. It is difficult for such information to go quickly, easily, without discord. Therefore, the content of cognitive linguistics as an independent direction is also a complex process, it is also inevitable that any field of science that chooses an extremely complex object of analysis, such as Lyon, will remain in the scope of complex problems. Getting rid of such coverage and entanglement requires consistency in research, multi-inclusiveness of non-stop being, regularity in the use of practical tools (methods and method-actions), and reliance on a solid theoretical framework.

While a number of scientific sources detail cognitive linguistics, aspects of its study, the work done on cognitive orientation at the level of the Uzbek language is numerical. As a primary source, we can mention Sh.Safarov's research.

The study describes the study of linguocognitology in World linguistics as well as the fullness of the content and meaning of cognitive units. Scientific views on cognitive analysis of linguistic phenomena also served as the basis for the coverage of science. In addition, N.M.Djusupov, I.Azimova's scientific research describes the importance of linguocognitology, linguoculturology and psycholinguistics that arose as a complex science today, the role of the language system in the process of cognition, analyzes about the linguistic landscape of the world.






In research on cognitive linguistics, the subject, tasks, importance, content and content of this linguistics are studied in general, depending on the nature of each language. Cognitive linguistics is a complex of closely related approaches to the study of language as a mental phenomenon. It is a basic method of grammar-based use, emphasizing symbolic and semantic definitions of theoretical concepts that are traditionally analyzed only syntactically.

Cognitive grammar is associated with broader movements in modern linguistics, particularly in cognitive linguistics and functionalism. According to many researchers, cognitive linguistics and linguoculturology are at the forefront of the anthropocentric paradigm. We are also in favor of advancing the idea that the field of psycholinguistics should be included in this line in recognition of this idea. After all, cognitive linguistics and linguoculturology intersect with psycholinguistics at many points. It should also be noted that the artistic text, which is the object of our study, is directly involved in psycholinguistic factors. According to the authors of the book "Fundamentals of psycholinguistics" I.N.Gorelov, K.F.Sedovs, psycholinguistics forms the core of anthropocentric orientation in linguistics. Therefore, the main goal of this study is to research Uzbek texts in three aspects, namely on the basis of cognitive-semantic, psycholinguistic and linguocultural characteristics. Prose and poe texts in Uzbek, created in an artistic style, were chosen as objects of research. The cognitive-semantic, psycholinguistic and linguocultural characteristics of texts in Uzbek form the subject of research.

Cognitology is a discipline that arises at the crossroads of various fields of Science, and its field of research is defined as "research into methods of collecting and applying knowledge". Cognitology is the science of thinking, the focal point of which is linguistics. Linguistic analysis is a type of cognitive analysis, its manifestation in a certain way. The science of cognitive linguistics emerged in the second half of the 20th century as a science seeking answers to questions, in an observation on the tools of the "artificial intelligence" system, which arose as a result of the development of Information Technology. This science is also part of the disciplines involved in human cognitive activity. A science that studies language as a cultural phenomenon, examining the construction of knowledge and experience of a person, is cognitive linguistics.

Cognition, that is, cognitive activity, encompasses the activity of receiving, presenting and creating information, these actions will undoubtedly be in contact with the Lyon, indirectly or directly. In this respect, the ability to know coincides with the linguistic ability of a person. In cognitology, the study of knowledge resulting from cognitive activity, methods of collecting and applying them, is the object of





cognitive analysis, a language system that is the source of obtaining and maintaining knowledge, its practical application and transmission, and finally the tool that shapes it. Accordingly, the nature and essence of knowledge and cognition form the basis of this science, while as the subject of learning, it is possible to indicate the properties of language in the manner of a general mechanism for the formation, use, storage, transmission and processing of knowledge. The object of study of linguistic research in all directions is the language system, that is, linguistic activity and its product.

Currently, research in the disciplines of linguistics, psychology, philosophy, artificial intelligence, anthropology, Neurology shows that it was concluded that science, which comprehensively studies the language system and linguistic activity, serves to highlight in detail the signs and characteristics of specific phenomena, combines different areas of linguistics in itself, creating a generalization analysis system for all of them, is undoubtedly cognitology.

Disciplines such as linguistics, cultural studies, sociology, psychology combine cooperation in cognitive activity itself. It is necessary to emphasize the place of thinking, which is considered the result of a person's knowledge of the world, reality, his purposeful activity in his perception. When thinking is a way of receiving, collecting, processing and organizing information about reality, language is a weapon of perception and knowledge of reality. The formation of speech units and their understanding are related to consciousness, that is, the result of mental activity. Mental activity, on the other hand, cannot be a targeted process without linguistic knowledge. In this respect, cognitive linguistics is viewed as a science that explains the composition of linguistic ability. The object of study of cognitive linguistics includes the structure of perceptions of knowledge and their interpretation of language possibilities in various cognitive processes (understanding, analysis, construction of language information), while studying their occurrence. The consideration of language capabilities as a process of communicative dynamics in the system of internal cognitive structure, information processing is seen as pressing problems. In cognitive analysis, the study of methods and tools surrounded by mechanisms that reveal the linguistic expression of logical structures that occur in the process of knowledge of the universe comes to the fore . It is known that a person carries out activities that have a number of logical-mental actions in the knowledge, perception of things and objects, phenomena. "...first of all, the thing is studied in live observation, directly by means of observation, its property, edge, side are determined, as a result of which this



feature, evidence, phenomenon is collected, sorted; ... the need to switch to a method of mental dialectical analysis arises".

A number of modern directions dealing with the issues of practical use of linguistics began to appear – such as sociolinguistics, Psycholinguistics, linguocognitology, pragmalinguistics, computer linguistics, linguoculturology, neurolinguistics, corpus linguistics. One such new direction that has emerged in our linguistics is the cognitive sweetening of our language. "The cognitive theory of language application, like other cognitive disciplines, arose as a result of research on the way to creating artificial intelligence, deals with the examination of the concept as structural types and their compatibility with language, the physiological basis of language and mind, metaphorical and metonymic attitudes in language".


In each lexical unit there is a set of knowledge in which this language is formed by society. The linguistic unit assessed from the point of view of this set of knowledge will be in the status of a cognitive concept. Knowledge in the framework of the cognitive concept is formed on the basis of this scenario, and its perception takes place on this basis. Observation, comparison, classification and judgment steps in stages – are the main and important stages of knowledge generation. So, this way of researching the grammatical essence of linguistic signs, the cognitive pattern encourages the grammar system to move away from the traditional idea of an abstract image - scheme of reality. This system is a content structure that is formed as a result of human cognitive activity

From the above points, it can be said that today our linguistics has stepped from the study of linguistic units to the study of speech units, to the stage of observing the phenomena of linguistic capabilities. Cognitology is one such area. I did not have the opportunity to fully cover any of the issues I applied, after all, the range of analysis of cognitive linguistics is wide .

REFERENCE LIST:

1. Vejbiskaya A. Язык. Кultura. Poznanie. –M.: Russkie slovari, 1997.
2. Kratkiy slovarь kognitivnykh terminov / E.S.Kubryakova, V.Z.Демьянков, YU.G.Pankras, L.G.Luzina. – M.:1966.
3. Gorelov I. N. Основы psixolingvistiki. – M.: 1997. -S. 224.
4. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
5. Djusupov N. M. Ligvokognitivnye aspekt issledovaniya simvola v xudojestvennom tekste: Avtoref. diss... kand. filol. nauk.





6. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. – T., 2008.

7. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. – T.: Mumtoz so'z, 2008. -B. 59.

8. Muxayyo Karimovna Xakimova. Abstraction and its expression in the lexical tier of the uzbek language. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 24.04.2020

9. Muxayyo Karimovna Xakimova. ANTHROPOCENTRIC ANALYSIS OF ABSTRACT WORDS IN UZBEK LANGUAGE. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Vol. 10, Issue 12, December 2020.

10. Umurzakova M. The semantic-structural description of segmented constructions of the uzbek language and the problems of their study. Theroretical and Applied Science. 30.05.2020. – P. 685-688 https://www.researchgate.net/publication/342162466_THE_SEMANTIC-STRUCTURAL_DESCRIPTION_OF_SEGMENTED.



OMONIMLARNING SHAKLLANISH OMILLARI

Lafasova Mavjuda Tulqin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'qituvchisi*

E-mail – mavjudaxon2022@gmail.com

Eshmurodov Egamshukur

*Fil.fan. nom.dotsent. Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat
universiteti dotsenti, fil.fan. nomzodi.*

Annotatsiya: *Omonimlar turli davrlarda turli olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ularning qay tarzda shakllanishi masalasiga katta ahamiyat berilmagan, omonimlarning turli parametrlardagi samaradorligi, leksikografik talqini va tamoyillari yetarlicha o'rganilmagan. Ilmiy-nazariy jihatdan kompleks tarzda ularning o'ziga xos jihatlari yetarlicha nazariy asoslab berilmagan. Bu esa ushbu mavzuni tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.*

Maqola o'zbek tilidagi omonimlarning hosil bo'lish jarayoni tahliliga bag'ishlangan. Ma'lumki, omonimlar turli usullar bilan hosil bo'ladi. Ushbu maqolada omonimlar hosil bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *omonimlar, shakldoshlik, idrok, semantik usul, omoforma, omoleksema, polisemiya.*

Аннотация: *Хотя омонимы изучались разными учеными в разные периоды, вопросу о том, как они образуются, не придавалось большого значения, недостаточно изучена эффективность омонимов по разным параметрам, лексикографическая интерпретация и принципы. С научно-теоретической точки зрения их конкретные аспекты недостаточно теоретически обоснованы. Это определяет необходимость исследования данной темы.*

Статья посвящена анализу процесса образования омонимов в узбекском языке. Известно, что омонимы образуются по-разному. В данной статье рассматриваются факторы, вызывающие образование омонимов.

Ключевые слова: *омонимы, сходство формы, восприятие, семантический прием, омоформа, омолексема, полисемия.*

Abstract: *Although homonyms have been studied by different scientists in different periods, the issue of how they are formed has not been given much importance, the effectiveness of homonyms in different parameters, lexicographic interpretation and principles have not been sufficiently studied. From a scientific-*



theoretical point of view, their specific aspects have not been sufficiently theoretically substantiated. This determines the need to research this topic.

The article is devoted to the analysis of the formation process of homonyms in the Uzbek language. It is known that homonyms are formed in different ways. This article discusses the factors that cause the formation of homonyms.

Key words: *homonyms, similarity of form, perception, semantic method, omoform, omolexema, polysemy.*

Omonimlarni vujudga keltiruvchi hodisalar turlicha bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. O'z qatlamga mansub bo'lgan ba'zi so'zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo'lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: *ot (ism) - ot (hayvon) - ot (harakat); o't (o't-o'lan) - o't (olov) - o't (harakat)* kabi omonim so'zlardagi o va o' unlilari tarixan o'zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo'lgan. Biroq hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi ma'no bog'lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, *ko'k* so'zi, dastlab, ko'k rang (sifat) tushunchasiga ega bo'lgan. Keyinchalik bu so'z metafora (o'xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o'rtasidagi bunday ma'no bog'lanish yo'qolib, omonim so'z hosil bo'lgan. Xuddi shunday holatni *dam* so'zining *nafas, hordiq, harorat, bosqon* ma'nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3. Umumturkiy yoki asl o'zbekcha so'zlar o'zga tillardan so'z o'zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo'lib qolishi mumkin. Masalan, *bog'* (mevazor) va *bog'* (bog'langan narsa, beda bog'i); *tok* (uzum novdasi) va *tok* (elektor toki), *tom* (uy tomi) va *tom* (kitob jildi) so'zlari o'zbekcha-tojikcha hamda o'zbekcha rus va yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so'zlardir.

4. Ma'lum bir so'zning o'zak-negizidan qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasalishi natijasida shakldosh so'zlar hosil bo'ladi. Masalan: *oylik olmoq, oylik reja* birikmalaridagi *oylik* so'ziga qo'shilgan *-lik* qo'shimchasi asosida shakldosh so'z hosil bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

Omonimlarning yuzaga kelishi til taraqqiyotining qonuniyatlariga va mexanizmlariga to'la mos keladi. Omonimlar ichki va tashqi omillarga bog'liq holda yuzaga keladi, ular til sistemasini uchun fakultativ holat emas, balki tilning leksik va grammatik sistemasini to'ldiruvchi omil sifatida baholanishi metodologik jihatdan asosli hisoblanadi.



Ifoda jihati teng leksemalar omoleksemalar deyiladi (*yunoncha homos -bir xil*). Omoleksemalarni belgilashda talaffuz jihatidan bo'ladigan bir xillik ham, harfiy (grafik) ifoda jihatidan bo'ladigan bir xillik ham hisobga olinadi.

Masalan,

tuy- I (kukun holatga keltir-) leksemasi bilan

tuy - II (his et-) leksemasi,

yon- I (predmetning o'ng yoki chap tomoni) leksemasi bilan

yon- II (o't ol-) leksemasi o'zaro bir xil talaffuz qilinadi va yoziladi.

Omonimlar (shakldosh so'zlar). Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi: *yoq, o't, ol, yon, bor, til, soch, tut, tik, yosh, qo'y, ko'k va b.*

Omonim. Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi so'zlar bilan bir xil shakl hosil qilishi natijasida:

atlas-atlas, etik-etik, tok-tok.

2. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida:

dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig'in), kengash(harakat), kengash(yig'in).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo'shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: *Biz yoqqan o'tlarimizni o'chirdik. Biz ekan o'tlarimizni o'rdik.*

Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan bu so'zlar ko'proq badiiy uslubda modal, uslubiy ma'nolarni anglatishda vosita bo'ladi.

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,

Men vafosi va'dasidin shodmen,

Ul vafo, bilmanki, qilmas yo qilur

Yana bir misol:

Charxi kajraftor elidin yozamen,

Chiqmadim hijron qishidin yoza men.

Bir meni yorliq bilan yod etmas ul,

Har necha ul shahga qulluq yozamen.

Omonim so'zlar yordamida shoirlar adabiy uslubda tuyuq janrini yaratadilar. Ikkinchidan, ular og'zaki so'zlashuv nutqida askiya janri uchun katta material beradi.



Polisemiya va omonim bir-biriga shaklan o'xshaydi. Ko'p ma'noli so'zlar omonim so'zlardan quyidagicha farqlanadi:

1. Ko'p ma'noli so'z bir so'zning bir necha ko'chma ma'noda kelishidir. Omonim esa bir xil shaklga ega bo'lgan birdan ortiq (bir necha) so'zdir. Masalan,

- o't (olov);
- o't (o'simlik);
- o't (harakat);
- o't (inson a'zosi).

2. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari o'rtasida bog'lanish seziladi. Omonim so'zlar ma'nolari o'rtasida yaqinlik sezilmaydi.

Omonim (shakldosh so'z)lar:

rang I – unvon ; rang II – bo'yoq

salla I – boshga o'raladigan mato; salla II – o'rama pishiriq nomi

rasta I – do'kon peshtaxtasi ; rasta II – balog'atga yetgan, o'spirin

banda I – qul; banda II – inson; banda III – to'da

savag'ich I – savash moslamasi; savag'ich II – o'simlik

nota I – shartnoma; nota II – musiqa matni.

Omoleksemalar turli grammatik shakllarga kirishi nuqtayi nazaridan yondashib omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar deb ajratiladi. Omonim omoleksemalar barcha muqobil grammatik shakllarida teng keladi.

Masalan,

qovoq- I (ko'z ustidagi qovoq)

qovoq- II (o'simlik nomi),

chaq- I (zarb bilan yor-, parchala-)

chaq- II (nayza sanchib ozor ber-) kabi.

Birinchi juft ham, ikkinchi juft ham o'zaro barcha muqobil shakllarida teng keladi:

- *qovoqni I – qovoqni II,*
- *qovog'ini I – qovog'ini II,*
- *qovoqlarimni I – qovoqlarimni II;*
- *chaqdi I – chaqdi II,*
- *chaqadi I – chaqadi II,*
- *chaqibdi I – chaqibdi II kabi.*

Omonim omoleksemalar, asosan, bir turkum leksemalari bo'ladi. Bunday omonimiya ko'pincha ot, fe'l turkumi leksemalarida uchraydi:

Oy – I (planeta nomi) - oy II (yilning o'n ikkidan bir qismi),



Chop – I (yugur-) – chop II (yer sathini qirqib agʻdar) kabi.

Omonim omoleksemalar sifat turkumi leksemalarida ham uchraydi:

Och – I (ochqagan) - och- II (meʻyorga yetmagan- rang haqida: och koʻk) kabi.

Har xil turkum leksemalari oʻzaro omonim omoleksema boʻlishi uchun ular grammatik shakllanishga ega boʻlmasligi kerak:

Masalan,

albatta I (Albatta boraman – ravish)

albatta II (Boraman, albatta – modal birlik). Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻatida ushbu soʻzlarga quyidagicha taʼrif beriladi:

ALBATTA

albatta I [arabcha- uzil-kesil, qatʼiy] ravish (hol vazifasida keladi). Hech qanday shak-shubhasiz, soʻzsiz, hech ikkilanmay, qatʼiy [обязательно, безусловно, непременно]. Oshirilgan majburiyatni ham a l b a t t a bajaramiz. Ziyofatga a l b a t t a boring. U a l b a t t a otasiga munosib boʻlmogʻi kerak. Sharof Rashidov. Qudratli toʻlqin.

Albatta II [< albatta I] modal soʻz (kirish soʻz vazifasida keladi). Harakat-holatning yuz berishi ishonchli ekanini bildiradi [конечно, разумеется]. Fikrimcha, sizga , a l b a t t a , bu masalalar yechib boʻlmaydigan jumboq boʻlib tuyulgan. A l b a t t a , shaxsan men kamtarlik tarafdoriman. Xalq qizlarimizning ana shu fazilatini sevadi, a l b a t t a. Sharof Rashidov. Qudratli toʻlqin.

Omonimik munosabat *balki I* modal birligi bilan *balki II* bogʻlovchisi orasida ham yuzaga kelgan. Omoforma omoleksemalar deb oʻzaro baʼzi grammatik shakllaridagina teng keladigan omoleksemalarga aytiladi:

Burun - I (kishi tanasidagi aʼzoning nomi)

burun- II (payt ravishi - ilgari);

soʻz- I (musiqqa asbobining nomi)

soʻz- II (yaxshi) kabi.

Birinchi juftda ot leksema bilan ravish leksema oʻzaro bir necha shaklida teng keladi (*burun I – burun II, burundan I – burundan II, burunlari I – burunlari II* kabi), lekin boshqa shakllarida farqlanib turadi: ot leksemada *burnim, burning, burnimni* kabi shakllanishlar voqe boʻlsa, ravish leksemada *burunroq* kabi shakllanish voqe boʻladi, demak, bu ikki leksema faqat ayrim grammatik shakllaridagina teng keladi.

Ikkinchi juftda esa ot leksema bilan sifat leksema oʻzaro ikki shaklida teng keladi (*soʻz- I – soʻz- II, soʻzlar I – soʻzlar II*), boshqa shakllarida esa farqlanib turadi: ot leksemada *soʻzni, soʻzim, soʻzlarimni* kabi shakllanishlar yuzaga kelsa, sifat leksemada *sozroq, juda soz* tarzida shakllanadi.



Yuqoridagi omoleksemalarning lugʻatga kiritilish shakllari bir xil, shunga koʻra ular lugʻatlarda hisobga olinadi. Omoforma omoleksemalar deb faqat shunday hodisalarnigina nazarda tutish yetarli emas: lugʻatga kiritish shakli har xil omoforma omoleksemalar chetda qolib ketadi. Vaholanki, bularning mohiyati avvalgilari bilan bir xil.

Masalan,

soʻz- I – soʻz- II lugʻatda koʻrsatiladi-yu,

tut- I (daraxt turi va uning mevasi) – tut- II (ushla-) holati umuman hisobga olinmaydi, chunki feʼl lugʻatga - *moq* affiksini qoʻshgan holatda (tutmoq shaklida) kiritiladi.

Omoforma omoleksemalar ot leksema bilan feʼl leksema orasida (Bular umumtil lugʻatida aks etmaydi), ot leksema bilan feʼldan boshqa biror turkum leksemasi orasida voqe boʻladi (Keyingi tur omoleksemalar umumtil lugʻatida aks etadi). Omonim omoleksemalar asli leksemalar omonimiyasi boʻlib, ularga bir xil grammatik koʻrsatkichlar qoʻshiladi:

qovoq- I (-im, -ing, -ning, -lar, -i, -imiz, -ingiz, -lari, -ni, -dan, -ga, -da)

Omoforma omoleksemalarda esa omoleksemalarga omomorfemalar qoʻshiladi:

Tut I (-lar, -im, -ing, -l, -imiz, -ingiz, -lari, -ning, -dan, -ga, -da

Tut II (-ay(in), -gin, -ing, -sin, -aylik, -ingiz, -inglar, -laring, -sinlar).

Leksemalar turli grammatik koʻrsatkichlar olishi bilan leksemashakllar yuzaga keladi; ana shunday leksemashakllar orasida ham omonimiya yuzaga kelishi mumkin. Bularni omoleksemashakllar deb yuritimiz.

Masalan, *qovogʻim I bilan qovogʻim II, tuting I bilan tuting II* omoleksemashakllar boʻlib, birinchisi omonim omoleksemalar asosida, ikkinchisi omoforma omoleksemalar asosida yuzaga chiqadi. Omoleksemashakllar nutq birliklari orasida hosil boʻladi, shunga koʻra ular omoleksemalar doirasi bilan cheklanmaydi.

Nutqda omoleksema shakllarning rang-barang koʻrinishlari yuzaga keladi: *terim I* (ter- ot leksemasi –im nisbatlovchisi = leksema-shakl) – *terim II* (teri- ot leksemasi - m nisbatlovchisi = leksema-shakl); *yer I* (ot leksema-shakl) – *yer II* (ye-feʼl leksemasi – r sifatdosh shakli yasovchisi: zamon shakli yasovchisi = leksema-shakl); *yoqamiz I* (yoq- feʼl leksemasi a zamon shakli yasovchisi + miz tuslovchisi = leksema-shakl) – *yoqamiz II* (yoqa- ot leksemasi - miz nisbatlovchisi = leksema-shakl) va shunga oʻxshash boʻladi.

Koʻp maʼnoli soʻzlarning yuzaga kelishida polisemantik soʻz va yasovchi affikslarning ham alohida oʻrni bor. Masalan, *tuzsiz taom, tuzsiz gap* birikmalari



tarkibidagi -siz ko'p ma'noli affiksi va o'zak birligi ko'p ma'noli so'zning yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Polisemantik so'zlar, qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Agar ular o'rtasidagi ma'no bog'liqlik davrlar o'tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so'zlar o'zaro omonimga aylanadi.

Masalan, gap-fikr, mulohaza; *gap-tengdoshlar, hamkasblar yig'ini, ziyofati; ko'k-rang, ko'k-osmon* kabilar.

Gap I [tojikcha] ot. 1. Talaffuz qilingan (yoki yozilgan) so'zlar, nutq [пазговоп]. *Gapdon, gapirmoq, gap-so'z, gap-so'z bo'lmoq. Gap sotmoq. Gapni cho'zmoq. Gappa tushmoq. Bir-ikki og'iz gapim bor. Gap desang – qop-qop, ish desang Samarqanddan top. Maqol. Ibrohimov ustod xursand bo'lganini ko'rib, g'o'za to'g'risidagi gapini boshladi.* Abdulla Qahhor, Qo'shchinor.

Gap II [tojikcha gap I asosida o'zbek tilida yuzaga kelgan] ot. Ulfatlar, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar orasida galma-gal o'tkazilib turiladigan ziyofat, gurung kechasi. *Gap-gashtak, gapxona, gap bermoq, gap yemoq. Kelasi yil gap siznikida bo'ladi. Chol bilan ikki yigit hayoti nihoyat yaqin ulfatlarning gap-gashtagiga o'xshab qoldi.* Hamid G'ulom. Binafsha atri.

Xulosa qilib aytganda, omonimlar hosil bo'lishida turli xil omillar mavjud. Biz yuqorida ularning asosiylarini ko'rib o'tdik va tahlilga tortdik.

ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent. O'qituvchi, 1984
3. Xolmanova Z. Hozirgi o'zbek tili.-T., 2013.
4. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'qituvchi, 1980



ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM MUHITINING DIDAKTIK VOSITALARI ORQALI TALABALARNING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Bahromova Yulduz Farxodjon qizi.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika fakulteti pedagogika tarixi va nazariyasi yonalishi magistranti

Annotatsiya: *Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashda o'qituvchining (Tutor) o'rni har bir talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini yanada moslashuvchan tarzda boshqarishga imkon beruvchi o'quv jarayonining koordinatori va tashkilotchisi sifatida ayniqsa ortib bormoqda.*

Kalit so'z: *Kommunikativ, jamiyat, model, muvaffaqiyat*

Kommunikativ usul ta'lim jarayonini aloqa jarayonining modeli sifatida qurishni o'z ichiga oladi. Natijada, biz aloqa mazmuni faoliyat yuritadigan shaklni topishimiz kerak, bu nutq materiallarini tanlash va tashkil etish uchun etarli asos bo'ladi. Chet tilda muloqot qilishni o'rganishning muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan jamoaviy ish to'g'ri tashkil etilgan va umuman olganda o'quv jarayonining kommunikativ yo'naltirilgan qurilishi bo'ladi. Shubhasiz, talaba va o'qituvchining birgalikdagi faoliyatidan olingan muvaffaqiyat asosan ushbu faoliyatni tashkil etishga bog'liq. Va bu erda mustaqil ish oldinga chiqadi. Chet tilini samarali bilish, birinchi navbatda, tilni o'rganish, o'z bilimlarini saqlab qolish va doimiy ravishda to'ldirish, ko'nikmalarni takomillashtirish, kommunikativ va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha mustaqil ishlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, samarali til ta'limining asosi sifatida talabaning mustaqil ta'lim faoliyati muhim tarkibiy qismga aylanadi [4, p.7].

OTMdagi zamonaviy o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyati talabaning mustaqil mustaqil ishi bo'lib, uning imkoniyatlari bugungi kunda kengaytirildi, shu jumladan, zamonaviy axborot-ta'lim muhitidan foydalanish hisobiga. Jamiyatni axborotlashtirish bilan taqqoslaganda, Internet tarmog'ida professional muloqotni virtualizatsiya qilish haqida gapirish mumkin; tilsiz universitet talabalarini professional madaniyatlararo muloqot uchun o'qitish tizimi mutaxassislarining madaniyatlararo muloqotining kompyuter/elektron/virtual muhitiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak [2, p. 51]. Dunyoning barcha mamlakatlaridagi o'qituvchilar ta'lim sohasida zamonaviy AKTdan mohirona foydalanish imkonini beradigan afzalliklardan tobora xabardor. AKT quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi: ta'lim jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim natijalari va motivatsiyasini



oshirish, tarmoqda muloqot qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish. Va bu ajablanarli emas, chunki AKT innovatsion iqtisodiyotni va zamonaviy jamiyatni rivojlantirish uchun taqdim etadigan imkoniyatlar ta'lim uchun ham mavjud bo'ldi [5]. O'qituvchilar oldida talabalarning ta'lim faoliyatini eng katta motivatsiyani ta'minlaydigan tarzda tashkil etish muammosi mavjud. Jamoaviy vazifalarni bajarish orqali talabalar o'z e'tiborini so'z shakliga emas, balki tarkibga qaratadilar. Shu bilan birga, birgalikdagi faoliyatning maqsadi-yangi axborotni o'rganish va tuzatish, uni baholash, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, muammoli vazifalarni birgalikda muhokama qilish, muhokamada ishtirok etishdir. Interaktiv topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar mustaqillik va ijodkorlikni namoyon etadilar va nutq harakatlarining passiv ijrochilari emas. Interaktiv ta'lim shakllari bunday vaziyatlarni modellashtirishga imkon beradi. Ma'lumki, chet tilini o'qitish-yozish, o'qish, tinglash va gapirishni o'rganishdir. Va bu eng qiyin vazifalardan biri bo'lgan nutqni o'rganishdir. O'qituvchilar orasida tobora ko'proq qiziqish o'quv forumlari bilan ishlaydi, chunki forum chet tilidagi mavzularni muhokama qilish uchun mo'ljallangan, muhokamani o'tkazish uchun juda yaxshi, u talabalarning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, mutaxassislik tilining so'z birikmalaridan foydalanishni faollashtiradi. Aloqa muvaffaqiyatiga bog'liqligini ta'kidlaymiz: a) aloqada bo'lish istagi mavjudligidan, ya'ni. boshqa odamlar bilan o'zaro tushunishni o'rnatishga imkon beruvchi paydo bo'lgan nutq niyatini amalga oshirish; b) tilning turli darajalarida tizimli va tizimli tuzilmalarga ega bo'lish darajasidan va ularni tegishli aloqa sharoitlarida ishlatish qobiliyatidan; c) og'zaki protseduralarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yozma va og'zaki nutqni tashkil etuvchi formulalar to'plamiga ega bo'lishdan. Yuqorida sanab o'tilgan shartlardan nafaqat ularning taniqli amaliy maqsadlari (so'zning zaruriyati va sababini rag'batlantirish, taxminlar va farazlarni ilgari surishga yordam berish), balki aqliy faoliyatni faollashtirish, o'quv jarayonini tabiiy muloqotga yaqinlashtirish xususiyati bilan izohlanadi. Shuning uchun o'qituvchi (teutor) kommunikativ aloqa sharoitlarini yaratishi va nutq klışelerini nutqqa keltirishi, turli xil yozish formatlarini tuzishi, o'qishdan ma'lumotlarni olish va qayta ishlash qobiliyatini yaratishi, o'quvchilarni chet tilida muhokama qilish uchun tayyorlashi kerak. Shunday qilib, auditoriyada dasturiy mavzularni o'rganib chiqib, o'qituvchi (tyutor) forumda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish mavzusini tanlaydi. Bu mutaxassislik tilining turli mavzulariga ega bo'lishi mumkin: IT texnologiyalari, bank, tashkilotning asosiy tamoyillari, biznes tashkilotlari, biznes tuzilmalari shakllari va kompaniyalari, qonun va boshqalar. O'qituvchi (o'qituvchi) belgilangan mavzuni muhokama qilishda talabalar ishtirok etishi kerak bo'lgan muddatni belgilaydi. Talabalarning javoblari



takrorlanmasligi kerak. Muammo-bu savodli bayonotni yaratishdir. So'zni yaratish qobiliyati, albatta, a, B, C (advanced, intermediate, Pre-intermediate) guruhining darajasiga bog'liq. Baholash mezonlari aniqlik, savodxonlik va javobning to'liqligi, ushbu mavzuga muvofiqiqligi. Kuchli "a" guruhidagi talabalarning javoblari munozaraning mohiyatini muammoning jamoatchilik muhokamasi sifatida to'liq ifodalaydi. "C" guruhlarida to'liq ma'noda munozaralar hali amalga oshirilmaydi, chet tilida bahs-munozaralarni o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni davom etmoqda. O'qitishda bu talabalarni o'z so'z birikmalaridan faol foydalanishga, ingliz tilida nutq qobiliyatini rivojlantirishga rag'batlantiradi Talabalarning mustaqil ishining mohiyati shundaki, ular Internet imkoniyatlaridan foydalanib, javobni tayyorlash, jumalarning tuzilishi va matnini tekshirish imkoniga ega va o'qituvchi (tyutor) ularni turli funktsiyalardan foydalanib tuzatishi mumkin: stress, matndagi nutq xatosini tanlash, jumladagi so'zlar tartibini o'zgartirish va H.K. o'qituvchi talabani mavjud materiallarga yuborishi, shuningdek tinglovchilarda kunduzgi mashg'ulotlarga e'tibor berishi mumkin. Forumda ishlash jarayonida talabalar ingliz tilida yozma nutqning vakolatini aniq shakllantiradilar. Talabalar keyinchalik haqiqiy nutqga olib boradigan yanada kengroq, murakkab dizaynlardan foydalanadilar. Talaba javobni tayyorlash, jumalarni tuzish va imloni tekshirish imkoniyatiga ega-qisqasi, forum orqali muloqot qilishda psixologik to'siq o'chiriladi, talabalar chet tilidan qo'rqishni to'xtatadilar. Shunday qilib, forum-bu mazmunli suhbatni olib borish, darslarning vaqtini buzish imkonini beruvchi asenkron aloqa vositasidir. Onlayn tizimda forumda ishlashda talabalar chet tilini o'rganishga bo'lgan g'ayratini oshiradilar, shu bilan ular o'z ijodiy faoliyatini oshiradilar, shuningdek madaniyatlararo muloqotni shakllantiradilar. Chet tilini o'rganishda bu talabalarni o'z so'z boyliklaridan faol foydalanishni rag'batlantiradi, chet tilida nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi Forumning asosiy vazifasi ingliz tilida muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Ko'rinib turgan g'ayrioddiy forumlarga qaramasdan, bizning fikrimizcha, xorijiy tilni o'rganish uchun muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Biznes aloqasining vakolatlarini shakllantiradigan va keng tarqalib borayotgan yana bir innovatsion shakl webinarlardir. Webinar (ingliz tilidan. o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv web-based seminar'dan)-o'qituvchiga (tyutorga) ma'lumot, topshiriqlarni va ishtirokchilarga ma'lumot olish va dunyoning istalgan nuqtasida bir - birlarini eshitish va ko'rish imkoniga ega bo'lgan virtual sinf orqali o'rganish imkonini beruvchi onlayn seminar. Ushbu seminarining imkoniyatlari ayniqsa muhimdir: ishtirokchilarga taqdimot ko'rsatish, virtual taxtaga chizish, faol so'rovlar o'tkazish va ko'proq interaktivlik uchun ishtirokchilar onlayn chat oynasida savollar berishlari mumkin. Webinar veb-illovasi bilan ishlaydi. Zamonaviy Smarttexnologiyalarni qo'llash orqali talabalar bilan



muloqot qurishning ushbu muqobil formati talabalarni masofadan turib o'qitish, shuningdek, videokonferensiyalarni onlayn tarzda tashkil etish imkonini beradi. Yangi aloqa shaklidan foydalanish yosh tomoshabinlarning mashg'ulot va seminarlarga qiziqishini oshirish, ularning ishtirokini oshirish, vaqtni tejash imkonini beradi. Webinarlar talabalarni chet tillarini masofaviy o'qitishni boy namoyish vositalari bilan tashkil etish uchun samarali vosita hisoblanadi. Har qanday formatda, jumladan, rasm va videolarda ma'lumotni ko'rsatishning qulay usuli suhbatdoshni eshitish va ko'rish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, bunday texnologiya xorijiy tillarni o'rganishda har doim juda muhim bo'lgan to'liq vaqtda uchrashuvga to'liq muqobil ekanligini ta'kidlash mumkin. Shunday qilib, ingliz tilini onlayn o'rganish katta auditoriyaga etib borish va "elektron" ta'limning maksimal imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi. Internetga kirish bilan jihozlangan dunyoning istalgan nuqtasida bilim olish va ularni tezkor nazorat qilish mumkin. Webinar texnologiyasi ta'lim olish uchun eng qulay va arzon narxlardagi echimlardan biri, shu jumladan xorijiy tillardan biri bo'lib chiqdi. Bu sizning bir-biringizni eshitish va ko'rish, muloqot qilish va ularni interaktiv rejimda birgalikda ishlashga imkon beruvchi texnologiya bo'lib, muloqotni haqiqiy jonli muloqotga imkon qadar yaqinlashtiradi. Og'zaki muloqot tinglash kabi bunday nutqsiz amalga oshirilmaydi. Bu og'zaki nutqni o'zlashtira boshlagan muloqotning asosidir. U tovushlarni farqlash, tinglash vaqtida ularni xotirada saqlash, ularni semantik komplekslarga integratsiya qilish, ehtimoliy prognozlashni amalga oshirish va aloqa holatiga asoslanib, qabul qilingan ovozli zanjirni tushunish qobiliyatidan iborat. Shu bilan birga, idrok jarayoni ma'lum bir til uchun xos bo'lgan ma'lum bir an'anaviy sur'atda, turli manbalardan, nutq va noaniq tabiatning tabiiy aralashuvidan o'tadi. Oliy maktab o'qituvchilarining yangi o'quv yurtlariga bo'lgan qiziqishi zamonaviy apparat va dasturiy ta'minotning xorijiy tilda tinglash va yozma nutqni o'qitish jarayonida ta'lim imkoniyatlarini ko'rish imkonini beradi. Bugungi kunda veb-saytlar bo'lgan tarmoq jurnallari (bloglar), ularning asosiy mazmuni muntazam ravishda qo'shilgan yozuvlar yoki omma oldida e'lon qilingan boshqa ma'lumotlar shakllari bo'lib, ular sharh qoldirishi mumkin. Chet tillarni o'rganish jarayonida sinf bloglari (Eron Campbell klassifikatsiyasi) deb ataladigan narsalardan foydalanish eng samarali hisoblanadi. Sinf blogida o'qituvchilar va talabalar asosiy auditoriyaga ma'lumot berishlari mumkin. Ushbu turdagi blog darsdan tashqari sinf bo'lib xizmat qiladi va auditoriyadan tashqari jamoaviy ish uchun eng mos keladi. Anik sinf blogi asenkron aloqa turi sifatida siz o'qitish kursining vaqtini kengaytirishga, har bir talabaga chet tilida muloqot jarayonida faol ishtirok etishga, ta'lim olishda individual yondashuv tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi. Bloglash jarayonida



talabalar quyidagi sohalarda vakolatlarga ega: mutaxassislik tilining turli mavzularida chet tilida uqsin materiallarni tinglash, chet tilida yozma nutq; yaratish va chet tilida blog; jahon tarmog'ida chet tilida berilgan mavzu bo'yicha ma'lumot qidirish. Shunday qilib, hozirgi kunda talabalarni eng yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda muhokama qilishni o'rgatish kognitiv faollikni rivojlantirishga yordam beradi, o'qishga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi va yaxshi natijalar beradi. Chet tillarni o'qitish-bu til bilimi shakllanishiga qaratilgan o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligining maqsadli va tashkiliy jarayonidir. Bu chet tillarni o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligi bo'lib, u talabalarning til, madaniyatlararo va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu nafaqat o'quv jarayonining ta'rifi va uni amalga oshirish shartlari, balki chet tillarni o'qitishning yangi modellarini yaratish, o'qitishning eng yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. Videokonferentsiyalar ushbu jarayonning yana bir muhim metodik komponentiga aylandi. Forumlar va veb-seminarlar, videokonferentsiyalar kabi xorijiy tilda mazmunli suhbat o'tkazish, darslarning vaqtini kengaytirish, xorijiy tilda mavzularni muhokama qilish, shuningdek, talabalar o'rtasida munozaralarni shakllantirish uchun mo'ljallangan. Videokonferentsiyaning asosiy vazifasi forumning vazifalari bilan bir xil – chet tilida muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, chunki muloqot paytida psixologik to'siq o'chiriladi, talabalar chet tilidan qo'rqishni to'xtatadilar, virtual muloqot vaqtida ular yanada murakkab, batafsil dizaynlardan foydalanadilar, keyinchalik haqiqiy nutqqa o'tkaziladi. Zamonaviy ta'lim muhitining shartlari talabalarga turli xil elektron resurslardan foydalangan holda turli darajadagi farqni ta'minlash uchun tilda mustaqil ishlash uchun katta imkoniyatlar beradi. Bu sizga individual traektoriyani ishlab chiqishga imkon beradi va talabani amalga oshirish va takomillashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, eng yangi axborot texnologiyalari orqali talabalarni o'qitish ta'lim olish uchun motivatsiyani oshirish, ularning bilim faolligini rivojlantirishga yordam beradi, o'rganishga qiziqish va ijodiy o'z-o'zini anglash darajasini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, an'anaviy metodologiyaga nisbatan muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda yaxshi natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Zamonaviy ta'lim muhiti" 2020
2. "axborot texnologiyalari" 2018
3. "mutaxassislik tili" 2007



FUNCTIONAL FEATURES OF TERMS IN PRESENT DAY ENGLISH

Xakimova Malika

Ergasheva Fayoz

English teacher at UzSWLU

Linguistic functionalism is the direction towards linguistics, whose representatives believe that the fundamental properties of language cannot be described and explained without appeal to language functions. The main idea of functionalism is to explain linguistic form by its functions.

In world linguistics, three functions of the word are taken into account: nominative, emotional and representative. If the words borrowed from other languages correspond to these three functions, they easily enter the language paradigm of the language, combined with its grammatical and phonetic features.

The emotional function of the terms is usually performed in artistic texts. But we should not forget about the multimedia sectors, where the terms very brightly used, performing an emotional function. At modern newspapers, TV shows, advertisements, etc. no terms literally not enough. It is very difficult to find an article that does not use terms. They have become the most dynamic lexical units in speech. This means that the function of the term in the language is also determined by frequency of use, degree of entry into the language paradigm (presence or absence of derivative words), phonetic and graphic mastery of the term.

The main function of the term is to express as accurately as possible special concepts, as well as the term must have a social communicative nature. The term is the bearer of the collective professional-scientific memory. According to this point of view it turns out that another function of the term is informative.

The informativeness of the term determines the frequency of its use in various branches of science and human social activity. For example, there are words-terms that can be called general scientific. Such terms generally belong to the scientific style (membrane (membrane), cellulose (cellulose), etc.). And there are words that have other meanings than in terminology. For example, the word scorpion (scorpion) in English in zoology means the name of an insect. But then it acquired other terminological meanings, for example, the sign of the zodiac "Constellation Scorpio"

Nominations of this kind emphasize the specifics of the national information and language reflection.






As a special subsystem of the lexical layer of each language, terminological vocabulary has constant and continuous contact with general literary language, resulting in an exchange of lexical units. Polysemantic words (words, having several meanings related to a single semantic core).

This is because the terms are specifically organized in each field and in microfields included in it: they are limited by the specifics of the field, its idiomatic. The use of the term in the context is the area of its usage, the belonging of a term to a field is the area of its existence as a term.

When considering the function of the term, it should also be noted nominative, giving grounds to assert that the terms more nouns than terms represented by others parts of speech. This view is held by the majority modern linguists. Not only nouns, but also other parts of speech, at the same time nominative the function is inherent only in nouns and phrases based on them. Therefore, the nominative function is not always inherent in the term. The term pine (pine) in botanical terminology is used as a noun, in a phrase pine snake (pine snake) is an adjective and refers to zoology. Similarly, nut (nut) is a noun, in the phrase nut pine (cedar) is an adjective, and in pine nut (pine cone) – again noun. Thus, the presented botanical terms prove that the value agreed between specialists can be interpreted only in a certain speech situation. Majority linguists agree that the meaning of the term is not identical designated concept. This state of affairs must, firstly, the emergence of common vocabulary in lexical units □ terminological meanings, and secondly, the multidimensionality of the denoted terms of concepts and, consequently, the variation of the meaning of the term. Being the bearer of collective professional and scientific memory, the term contributes to the scientific and cognitive activity of man and has increased communicative value. There is also an increased denotative orientation of terms due to their creation for naming special denotations, □ as a result of this they are advanced in their development compared with the words of the general vocabulary, have lost touch with traditional denotations and cannot be understood apart from the new special denotations □. This remark suggests the significative function of the term, expressed in the designation of the concept.

V.M. Leichik [2, 15], speaking about the connection between the term and the concept, emphasizes that "the concept, which is denoted by the term, is interconnected with other concepts of the same areas ... and, therefore: the term is interconnected with other terms, is an element of the terminological system □. Thus, terms, thanks to their nominative and significative functions, serve to naming concepts, and are systemic not only because of the reflection function scientific





knowledge, but also morphologically. The definitive function distinguishes terms from common vocabulary.

It is also worth considering the functional aspect from a different point of view. from the point of view of functional grammar. According to A.V. Bondarko [1, 45], functional grammar has its own subject - the functioning of grammatical units (forms and structures) and language means interacting with them in the utterance.

Functional-grammatical research seeks to reveal a special kind of system ... - a system of interaction of grammatical form, vocabulary and context, a system of patterns and rules for the functioning of language means that serve to convey the meaning of the utterance. Taking this the subject of functional grammar, described by A.V. Bondarko [1] for the main thing, we can say that the function of a terminological unit depends on its external grammatical form. The term "grammatical form of the word" often understood as a synonym for the term "word form". However, the term "grammatical form of the word" has a deeper meaning. Under the grammatical form of the word is usually understood as a complete system formal means of expressing its grammatical meaning.

So, by means of expressing the numerical value of a noun are in the aggregate: 1) noun endings: book, books; 2) indicators located outside the noun, for example endings of words that agree in number with this noun: your book, your books.

Formal indicators of the latter type are especially important in those cases where the grammatical meaning of a word cannot be expressed by its endings; cf.: powerful nuclear power plant (singular) - powerful nuclear power plants (plural); our elder (feminine) - our elder (masculine).

After analyzing the scientific and methodological material on the topic of the main concepts of terminology, one general concept can be distinguished for realities, existing in different areas is very difficult. The concept of "term" varies depending on the scientific field in which it operates.

This phenomenon also applies to other concepts studied by us, such as a "multi-component term", "terminological combination", etc.

In connection with this, the work separately takes out those concepts that will be used in this work.

In the framework of this study, the term "term" means a separate specific word nominating a concept or a reality, belonging to the field of chemical technology terms. As a result of studying the works devoted to the complication of the structure of the term, this paper reveals that at this stage the separation of the concepts of "multicomponent term" and "terminological combination" is not significant. Now






among there is no consensus among scientists about the issue of multicomponent and its types, therefore, in this study, the concept of "term-phrase" denotes the same reality as the concept of "multicomponent term". For this reason, in what follows, we will use the notion "multicomponent term", by which we mean polylexemic terminological combination with the number of separately issued fully-valued components equal to or more than two.

Terms are the product of the secondary nomination of concepts by using the means of nomination that already exist in the language in the new for them a nominative function. Word marks become a means preservation in them of non-linguistic information, information, knowledge, data about the surrounding world. Consciousness can reflect in the process of thinking various aspects of reality in their dynamics and development, but with it uses a fairly limited set of tools and is subject to reproductive nature of language technology. In fact, speech is correlation of new images with patterns already existing in the language. Application of ready-made language meanings to new images - real the process of functioning of the language, when the adaptation of meanings occurs words and constructions to the meaning of the statement, and the possibility of rethinking There are always meanings for words in a language. Secondary nomination can be spontaneous, but not random and takes into account the motivating feature of the word and nomination result. A condition for rethinking the meaning of the word is the statement itself, in the context of which the subject and conceptual correlation of the word. For terminology rethinking the meaning of the word is due to the peculiarities of the industry logical-conceptual system. Secondary nomination in terminology has predictive outcome that serves to fulfill cognitive and communication tasks.

By the term "terminological system of the petrochemical industry" we mean dynamically developing set of terms that performs communicative function. Terms and term systems are a form implementation of the scientific and scientific-technical picture of the world, specific cognitive infrastructure in which special knowledge. General functional functions are associated with human cognition. language features for special terminology needs.

The unification of terminology, the approval of common criteria for terms has of great importance for terminology, for the cognitive process itself, process of cognition and special communication. Functional features play an important role in the formation and use of terms, in their cognitive structure. On the one hand, science is constantly evolving, and the terminological lexicon is changing, on the other hand, for the scientific communication, training and information exchange is





necessary certain stability, stability, continuity and traditional terms. The stability of the term is synchrony, stability-diachrony; sustainability includes succession; the traditional character of the term reflects its stability. This is, however, does not mean that a stable, traditional term retains its structure forever. Term formation is a regulated process, whose participants are both experts in a certain field of knowledge, and beginners. The stability of terms can and should be promoted consistently using them in the author's editions (by different authors), but the term may lose stability due to rethinking of the meaning or archaization of the basic concept that defines the term itself.

REFERENCE:

1. Бондарко А. В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. Л., 1983. 208 с.
2. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 5-е. М.: Книжный дом «Либроком», 2009. 256 с.
3. Реформатский А. А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики 1967. М.: Наука, 1968. С. 103–125.



SHUHRAT MATKARIMOVNING “INDAMAS” QISSASIDAGI LINGVOMADANIY METAFORALAR TAHLILI

Qodirova Mashhura

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvomadaniy o'xshatishlarning lisoniy tahlili haqida fikr yuritiladi. Tilshunoslikdagi umumxalq va xususiy o'xshatishlar Shuhrat Matkarimovning “Indamas” qissasi orqali tahlil qilinadi. O'xshatishlarning xususiyatlari izohlab beriladi.*

Kalit so'zlar: *O'xshatishlar, xususiy o'xshatishlar, umumxalq o'xshatishlari, metaforik frazeologizm.*

Tilimizda o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan hisoblanib, ular o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. O'xshatishlarning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotda tutgan o'zni, uning lingvistik tabiati hamda mohiyatini V.Maslova, S.L.Naveleva kabi tilshunoslar atroflicha tadqiq qilgan.[5:2,3] Xususan, o'zbek tilshunosligida o'xshatishlar haqida ilk tadqiqot M.Mukarramov tomonidan nazariy jihatdan o'rganilgan, N.Mahmudov tomonidan ham lingvistik o'xshatishlar chuqur asoslab berilgan.[4:4] Hatto boshqa tasviriy vositalarga nisbatan u birmuncha mukammal va atroflicha tadqiq qilingan.

Bugungi o'zbek adabiyotining sermahsul ijodkorlaridan hisoblangan Shuhrat Matkarim asarlarida ham o'xshatishlar o'z badiiy uslubi bilan tilimiz go'zalligini namoyon eta olgan. Adibning deyarli barcha asarlarida o'xshatishlarning go'zal namunalariga duch kelamiz. O'xshatishlar asarning ta'sirchanligini va jozibasini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, “Indamas” qissasida ham o'ziga xos o'xshatishlarni kuzatish mumkin. Asarda ular quyidagi shaklda qo'llanilgan:

1. Xususiy-muallif o'xshatishlari.
2. Umumxalq o'xshatishlari.

Qissada tilimiz boyligi hisoblangan turg'un o'xshatishlar ham, yozuvchi badiiy tafakkurining mahsuli bo'lgan muallif o'xshatishlari ham ma'lum bir maqsadni ifodalashga xizmat qilgan. Asardagi turg'un o'xshatishlar ko'p hollarda tasviriylikni yaratish maqsadida qo'llanilgan. Ular tavsiflanayotgan obyektning shundoqqina o'quvchi ko'z oldida gavdalantiradi. Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi.



Serqirra ijodkorning qissada qoʻllagan xususiy-muallif oʻxshatishlarini quyidagi misollar orqali koʻrishimiz mumkin:

Oʻldirilgan-toʻygan toʻqliday dum-dumaloq, kuchi ichiga sigʻmay, betlaridan qon tepchib turgan bir devday odam boʻlsa.

Bilamizki, 7-8 oydan oshgan qoʻzi “toʻqli” deb ishlatiladi. Qoʻzi toʻygan paytda qorni dumaloq shaklga kelib qoladi. Asarda semizlikni boʻrttirib ifodalash maqsadida ushbu ibora qoʻllanilgan. Odatda, badavlat, chorvasi koʻp boʻlsin degan maqsadda majoziy maʼnoda yigitlarga Toʻqlibek, Toʻqliboy deb ism qoʻyishadi.

Ammo Sherali ularning har ikkalasining ham hafsalalarini pir qildi. Hatto hech kimga kerakmaydigan, oʻzlaridan boshqa hech kim oʻqimaydigan nashrda ham, zigʻircha obroʻ orttirolmadi. Bu hol esa oʻgʻlini toparman-tutarman, mard va magʻrur, bir soʻzli, tutgan yeridan qon oladigan qilmoqchi boʻlgan Sherpa momo uchun doʻzaxning xuddi oʻzi boʻldi. Parchada qoʻllangan “tutgan yeridan qon oladigan” birikmasi adabiy “tildagi tutgan yerini kesadi” iborasining dialektal varianti hisoblanadi. Asarda qatʼiyatli va choʻrtkesar maʼnosini ifodalash uchun ishlatilgan. Aslida Xorazm hududida “Tutgan yeridan bir qisim tuproq oladigan” iborasi faol qoʻllaniladi. Adib “tuproq” soʻzi oʻrnida “qon” soʻzini qoʻllash orqali xususiy-muallifiy oʻxshatishning nodir namunasini yaratgan.

Metaforalogik frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, maʼnaviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan boʻladi.[1:29] Quyidagi misolda buni yaqqol koʻrishimiz mumkin:

Bu qumdan na biror imorat va na biror shakl yasashning imkoni yoʻq. Ota-onasi esa uni hamon qoyadan yoʻnilgan mahobatli Buddaday koʻrish istagidan voz kechmagan edilar. Buddizm dinida Budda haykaliga ibodat qilinadi va shu dinga eʼtiqod qiluvchilar uchun juda muqaddas hisoblanadi. Qissadagi ota-onaning ogʻlini mahobatli, muqaddas boʻlish istagini Buddaga oʻxshatish orqali Shuhrat Matkarim ijodkorona qobiliyatini namoyon qilgan. Odatda, nutqimizda bunday oʻxshatish uchramaydi.

Umumxalq oʻxshatishlari xalq tilida turli maʼnolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Adib asarni taʼsirchanligini oshirish va xalq tiliga yaqin boʻlishi uchun bunday turgʻun birikmalardan mahorat bilan foydalangan.

Tafsilotlar oydinlasha borgan sari eshitganlarning koʻzlari dahshatdan olayib, tillari kalimadan qolardi. Oʻzingiz oʻylang, oʻldirgan igna yutgan itday qiltiriq, tekis yoʻlda ham qoqilib yuradigan bir kas boʻlsa. “Igna yutgan itday qiltiriq” juda ozgʻin maʼnosida qoʻllanilgan. Qiltiriq Xorazm vohasiga xos dialekt boʻlib, ozgʻin maʼnosini ifodalaydi. Unga igna yutgan itday birikmasini qoʻshish orqali Shuhrat Matkarim jozibadorlikni yana-da oshirishga harakat qilgan.



Ilhom parisini ko'rish bilan muharrirning shoirligi tutib qolardi. Shunda u ishq-muhabbat haqidagi bachkana she'rlarini jo'shib, salkam og'zidan ko'pik sochib o'qiy boshlardi.

O'xshatishlar nutqda hamisha badiiy-estetik qiymatga ega bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, unumdorligi, ifodaviyligi hamda ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Nizomiddin Mahmudov aytganidek: "O'xshatishlar behad muhim mantiqiy kategoriya, u tilda o'z aksini topadi". [2:160,161]

Shunday etib, ikki savol bilan o'risning akademigini jonsarak etibdi Qilich. O'ris Xorazmda necha kun yursa, boshiga cho'qmor bilan urilgan laqqaday melong yurgan emish, hech o'ziga kelmabdi.

Baliq tozalash jarayonida uning ko'p tipirchilashi ish unumiga salbiy ta'sir qiladi. Uni tinchlantirish uchun bosh qismiga qattiq jism bilan urilsa, baliq alanglab qoladi. Asar qahramonining holatini ifodalash maqsadida yozuvchi xalq tilidagi ushbu o'xshatishdan o'rinli va ta'sirli foydalangan.

O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir.[3:229] Xullas, hokimiyatga boribdilar. Qilich ota qarasa, bir o'ris o'tiribmish mung'ayib. Igna yutganmi va yo qo'tir bosgan kuchukday emish. Shu darajada aftoda emish ko'rinishi. Ushbu o'xshatish bunga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari qissada quyoshdan qochgan kalamushday, pilla po'stining ichkarisidek, uchakdan po'stak tashlaganday, og'zidagini oldirib o'tiradigan kabi o'xshatishlardan ham foydalanish orqali qahramonlar holati, voqea-hodisalar jonli tarzda tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, o'xshatishlar, asosan, nutqiy hodisa hisoblanadi. Ular o'zida ijtimoiy, tarixiy, madaniy, axloqiy axborot saqlaydi. O'tkir qalam sohibi Shuhrat Matkarimovning "Indamas" qissasidagi o'xshatishlar ham xalq milliyligini, an'analarini aks ettiruvchi bejirim va ta'sirli ma'noni o'zida mujassamlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.-T.: 2019.
2. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rne / Til tilsimi tadqiqi-Toshkent: Mumtoz so'z. 2017.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I.,... O'zbek tili stilistikasi.-T:O'qituvchi,1983.
4. Mahmudov N. A. Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir. O'zbek tili va adabiyoti. 1987.



5. Bozorova G. Badiiy o'xshatishlarning lisoniy xususiyatlari. T.:2022.



TECHNOLOGICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION IN THE SPIRIT OF HUMANITY IN THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS

Tashmetova Shakhla Khusanovna

*Senior teacher of the Department of General Pedagogy
TSPU named after Nizami*

Abstract. *This article is devoted to the issue of forming a culture of interpersonal communication among students who will become teachers. This is a complex, multifaceted process, and it is important that the purposeful pedagogical interaction of the subjects of the educational process is carried out in the cultural environment of the university.*

Keywords: *communication culture, communicative culture, pedagogical conditions, vector dialogues, reflexive analysis, problem situation, discussion.*

INTRODUCTION


Communication culture of the future teacher is a component of general pedagogical culture. His professional skills, as well as his acting as a condition for the success of the pedagogical process, are of urgent importance. Communicative culture is the main component of professional culture, because the formation of professional culture takes place in the educational process, where communicative culture is the carrier of information and the subject of learning. "Students - future teachers see communication culture as a set of knowledge, values, norms and patterns of human behavior formed in society and as the ability to accept it in the daily practice of communicating with other people, society and oneself" [2].

MATERIALS AND METHODS

In order to successfully form a culture of communication among future teacher students, it is necessary to create a certain cultural environment based on the psychodidactic principle using problematic dialogic methods that are part of the educational environment at the university. The cultural environment of the university is a space for the cultural development of the student body, which forms the culture of communication, interpersonal relations, attitude to things and their activities, values, moral principles, etc.

The educational potential of the university in forming the communication culture of the future teacher implies the openness of the higher education system in the society, the humanistic direction of the process of training students, and the expansion of their creative and social activity. The conceptual model of forming the





communicative culture of the future teacher in higher education is aimed at the communicative development of a person as a subject of professional activity, his inclusion in joint creative activities and communication with other participants of this process.

RESULTS AND DISCUSSION

The conceptual basis of the proposed model for the formation of the communicative culture of the future teacher is the main methodological approaches, such as systematic, cultural, competence-based, activity-based and student-oriented.

In the development of a model for the formation of communicative culture among university students, the most effective communicative culture of future teacher students is formed in the conditions of university education built on the basis of the psychodidactic principle: didactic and psychological integration, content based on the principle of generalization, developing innovative dialogic methods of its implementation [3]. All components of the communicative culture formation model are interrelated and represent a whole system. Thus, the goal of forming the communicative culture of the future teacher determines its psychological and didactic content, which requires certain methods, means and forms of encouraging and organizing the process of forming the communicative culture.

Each component is present at all stages of the formation of communicative culture and at a certain time is the leader and the main one.

After analyzing the existing approaches, we can distinguish seven main components in the structure of communication culture: knowledge, activity, motivational-regulating, purposeful, organizational, evaluation and effective. Including:

- the knowledge component, which implies both the existence of mono-subject (didactic, psychological, methodological) knowledge and the formation of integrative psychodidactic professional knowledge;
- the activity component, which includes the system of professional communication skills, which is implemented in the style of pedagogical communication of future teachers with a group of students, in the skills of organizing joint production activities of the subjects of the educational process;
- the motivational-regulatory component of the future teacher's communication culture determines the system of value professional orientations that transforms the determination of the teacher's professional goals into the direction of personal development of students in the educational process.



- the goal component includes understanding and setting the goals of education and professional activity;
- the organizational component reveals the ability to involve and organize students in various types of communicative activities;
- the assessment component includes self-assessment of educational and professional (communicative) activity results;
- the effective-organizational component reveals the ability to involve and organize students in various types of communicative activities;
- the assessment component includes self-assessment of educational and professional (communicative) activity results;
- the effective component describes the effectiveness of the professional communicative activity course [5].

CONCLUSION

The introduction of the psychodidactic principle into the educational process leads to the development of a culture of mutual communication and a positive relationship between the teacher and the student (future teacher). Cooperation between the teacher and the student: treating each student according to their psychology, creating conditions depending on the situation, taking into account the age and group characteristics of the student body is important for achieving the intended goal.

Thus, the goal of pedagogical education is not only to educate the future teacher as an educated specialist, but also to form a cultured person who has mastered the culture of communication, is perfect in all respects, and has a high level of competence.

REFERENCES:

1. Menkina, S.M. Communicative competence: from theory of formation to practice / S.M. It's mine // Medium. prof. education. – 2011. No. 12. – P. 3–5.
2. Nikitin, A.F. Law and politics / A.F. Nikitin, N.G. Suvorova, T.I. Tyulyaev. - 2nd edition. - M.: Education, 2010. - 128 p.
3. Nikishina G.V. Pedagogical communication / G.V. Nikishin. - Omsk: OmGPU publishing house, 2015. - 186 p.
4. Nikonova, E. Pedagogical communication culture / E. Nikonova, N. Patkova // Teacher. - 2019. - No. 5. - P. 65–68.
5. Ovchinnikova O.S. Communicative competence of the teacher in the overall structure of professional and pedagogical competence / All-Russian





materials, scientific and practical. conference, 02.12.2018 / Intern. Acad. sciences ped. education, Shadr. state ped. in-t. - Shadrinsk: Shadr. Press House, 2008. - S. 116-118.

6. Rashidov Dilovar Najmiddinovich. (2023). increase jobs for transport companies in uzbekistan by increasing the purchase of products manufactured by people with disabilities. American Journal of Business Management, Economics and Banking, 12, 128–130. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/854>



YAPON MULOQOT JARAYONIDA INKOR SHAKLLARNING BILVOSIDA IFODALANISHI

Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi

*“Sharq tillari” fakulteti magistranti
Samarqand davlat chet tillar instituti
(Samarqand, Uzbekiston)*

Yaponiya jamiyatida insonlar bir-birlari bilan uyg'un munosabatlarni rivojlantirib, oraliq masofani saqlagan holda yashash tarziga odatlanishgan. Inkor qilish doirasini tahlil qilayotgan vaqtimizda ko'plab olimlar ko'plab fikrlar berganini va har xil tajribalar o'tkazganiga guvoh bo'lamiz. Bu qarashlarning hech bir to'liq tugallangan fikr deb aytib bo'lmaydigan va kelajakdagi qilinadigan ishlar uchun zamin yaratadi. Inkor qilish doirasi inkor qilish strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Agarda jumlamiz standart inkor formasi orqali inkor qilinib biz inkor qilish formasini o'zgartirsak ham bunda gapning ma'nosiga hech qanday ta'sir o'tkazmasdan faqat shakl o'zgarishiga olib keladi. Muloqot jarayonida inkor etishning usullari va strategiyalari ham mavjud bo'lib bular haqida ma'lumotlar berishga harakat qilinadi. Avvalo bilvosita inkor etish usullarini ko'ramiz

- Afsusni bildirish orqali bilvosita inkor etish (zannendesuga, moushi wakwarimsen)

- Uzrli sabablarni tushintirib inkorni ifodalash (tsugouga waruindesuga)

- Alternativ inkordan foydalanish. Bunda A ishning o'rniga B ishni qila olishi mumkin ekanligini aytib rad etish.

- Iltimoslarni bundan keyin bajarishga va'da berish (kondowa shimasu, yakusokuha shimasu)

- Siz bilan suxbatlashayotgan sherigingizni berayotgan savol vaziyatini va o'z fikridan tashqari boshqa fikrlarni ham qo'shishga harakat qilgan holda inkorni ifodalash. Suxbatdoshimizni havotirdan holi qilish (shinpai shinade), aniq bo'lmagan xulosalar bilan fikrni chalg'itish, o'zining biror yumushni bajara olishiga nisbatdan ishonchi komil amas ekanligini ifodalash.

- Suxbat mavzusini o'zgartirib savolga inkor javob berishdan qochish

- Hazil tariqasida gapirib inkorni namoyon etish

- Sizga berilgan savolning muxim bir qismini suxbatdoshga takrorlash orqali norozilikni bildirish

- Jimlik orqali aytarli javobingiz yo'q va siz buni maqullamasligingizni ifodalashlar orqali inkorlar namoyon qilinadi.



- Bizda kechayotgan ijobiy fikrlarni ochib berish uchun (sorewa ii kangaedaga...) ishlatiladi.

- Kirish so'zlarni to'xtam bilan aytish ham bizda inkor ma'noni ifodalash uchun yaxshi vositalardan biri bo'lib hizmat qiladi. (E ttoo, u...n..., soudana, anou) kabilarni cho'zib va biroz hayratni ovoz toniga qo'shsak bizda ikkilanish borligini va aniq inkor etish hoxshi yo'q ekanligini namoyon qiladi.

Bundan tashqari biz inkorni to'liq emas qisman ishlatgan holda ham inkorni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Uzrli so'z + sabab +te/ de.

Uzrli so'z + muommoli aytish + kara

Uzr + sabab+ shi/shi + ne

Ijobiy so'z + kedo/ ga

Alternativ javob + ga/keredo/mo kabi ifodalashlar mavjud. Gapimiz oxirida ne ishlatsak ko'p vaziyatlarda bizga qaraganda mavqei pastroq bo'lganlar bilan muloqotda bo'layotganligimizni ifodalaydi. Yaponlar o'zlaridan mavqei baland kishilarga suxbat vaqtida qo'pol gapirish va bevosita inkordan ko'ra bilvosita inkorlar va to'liqsiz javoblardan foydalanishni o'zlariga ma'qul ko'rishadilar.

ちよっと.... Chotto..... Haligi

美味しいんだけど、大丈夫oishiindakedo, daijoubu mazali, ammo yetarli bo'ldi. Bu yuqorida aytib o'tganimizdek atrofimizdagilar bilan ijobiy munosabatlarimizni saqlab qolishni bildiradi. いいえ va いや bularning har ikkalasi ham rad etish uchun ishlatiladi. Ko'rib turganingizdek yaponcha yo'q deyishning bir qancha usullarini o'rganib chiqishga harakat qilamiz. Inkor qilish doirasini tahlil qilayotgan vaqtimizdan ko'plab olimlar ko'plab fikrlar berganini va har xil tajribalar o'tkazganiga guvoh bo'lamiz. Bu fikrlarni ko'rib har doim bir nazaryaga qarshi ikkinchi bir nazarya borligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Bu qarashlarning xech bir to'liq tugallangan fikr deb aytib bo'lmaydigan va kelajakdagi qilinadigan ishlar uchun zamin yaratadi.

いいえ iie yo'q degan ma'noni anglatib inkor qilishning xushmuomala usullaridan biridir. いいえ ni hali ham rasmiy yo'q deyish uchun kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Biz bu sizni talaffuz qilish vaqtimizda bo'g'ini tufayli いいえ deb aytmaydiyu いえ deb qisqagina talaffuz qilamiz. Ammo birinchi usul muloqatda to'g'riroq va ko'p qo'llaniladi. いいえ to'g'ridan to'g'ri mavzuga yoki umuman olganda siz bilan kimningdir umuman muloqat qilmasligini anglatadi. Odatda yaponlar bilvosita javob beradigan xalq bo'lib, bevosita inkorni kamdan-kam hollardagina ishlatishadi. Biroq siz bu so'zdan foydalana olmaysiz degani emas.



Biror ma'lumotni aniqlashtirish yoki tuzatish uchun ishlatish usuli ham mavjud. Bundan tashqari yaponlar sizga rahmat aytishlari uchun ham standard javob いいえ dan foydalanishadi. Shu ma'noda qaraydigan bo'lsak "xush kelibsiz", "xech qisi yo'q" va "xavotir olmang" kabi tarjima qilinib boshqa odamdan hijolat hissini olib tashlashga ko'maklashadi. Bundan tashqari "xush kelibsiz" va "bezovta bo'lmang" ma'nosini beruvchi いいえいえ so'zidan muloqot jarayonida foydalanishadi.

Yapon tilida inkor qilishning bir nechta bilvosita usullari mavjud bo'lib bular kim bilan gaplashayotganimizga va vaziyatimizga qarab farqlanadi. Bularni sanab o'tadigan bo'lsak.

Ko'rib turganimizdek yo'q deyishning o'ndan ortiq bilvosita usullari mavjud bo'lib, bularning har birini o'z qo'llanish usuli mavjud. Kontekst ichida har bir so'z har xil vaziyatda qo'llaniladi.

ちょっと rad etishning eng oson usullaridan biridir. Bu so'z ko'p ma'nolarni anglatadi kuting, biroz, kechirasiz, kontekst ichida hattoki hey ma'nosini ifodalab ham keladi. Bu usul to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasdan rad etishning ajoyib ko'rinishidir. Suxbatdosh bilan uyg'unlikni saqlovchi yaponlar uchun bilvosita inkor etishning eng ajoyib usulidir. Bu iboradan foydalanish vaqtlarida suxbatdoshni fikriga javoban o'zingizda uning fikrini qabul qilish uchun sababingiz borligini ifodalaydi.

Yaponiyada oila a'zolari va do'stlar davrasida yo'q deyish uchun suxbat vaqtida だめ [dame] va できない [dekinai] dan foydalanadilar. Suxbat vaziyatida kelishmovchiliklarga va rad etishning oddiy usulidir. だめ [dame] so'zi inkorni ifodalash uchun moslashuvchan so'z bo'lib uni do'stingiz va oila a'zolari uchun ishlatsa qo'pol hisoblanmaydigan so'z hisoblanadi. できない [dekinai] bu aniq javobni ifoda etadi, yoqtirmaslikni va qattiq inkorni ifodalaydi. Bunda biz qilmoqchi bo'lgan lekin to'g'ri kelmay qolgan vaziyatlar uchun pushaymonni inkorni ifodalaydi.

Muloqot jarayonida insonlarga nisbatdan 難しい [muzukashi] suxbat vaziyatida ifodalayotgan so'zingizga yoki bo'lmasa javobingizga ishonchingiz komil bo'lmasa bu so'zni ishlatishingiz maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari bu aqliy faoliyat uchun qiyin bo'lganligini ham ifoda etadi. Bu bilan siz bu harakatni bajara olish uchun suxbatdosh uchun yetarli darajada qiyin ekanligini ifoda etadi. Siz buni ish jarayonida xamkasblaringiz va boshliqlaringiz uchun ham ishlatishingiz mumkin bo'ladi.

たいへん [taihen] so'zi ham 難しい [muzukashi] so'zi bilan teng qiymatda inkor ma'noni ifodalaydi. Faqatgina siz bu so'zni jismonan qiyinchilik tug'diradigan ishlarni va takliflarni rad etish uchun ishlatsangiz ma'quldir. Misol qilib aytadigan bo'lsak



sizni ko'chaga chiqishga taklif qilishdi va siz bu taklifni qabul qilish uchun qulay vaziyatda emas bo'lgan vaqtlaringizda ishlatasiz.

すみません[Sumimasen] kechirasiz iborasi vaziyatga qarab kamtarligingizni namoyon qilishning ajoyib usullaridan biri hisoblanadi. Bu so'z bilan rad etayotgan vaqtingizda siz ularga qo'shila olmayotganingizdan juda afsuslanayotganingizni ijobiy so'zlar bilan yo'q inkorini yanada yumshoqroq ifodalashga erishasiz .

だいじょうぶ [daijoubu] hammasi yaxshi, hammasi joyida, xech qisi yo'q kabi o'zbek tilida ishlatiladi va bu ham katekstda ijobiy usulda rad etishning ajoyib namunasidir. Kimdir sizga yuklaringizga yordam berib yuborishini taklif qilganda siz daijoubu dam foydalansangiz yo'q rahmat szdek ma'noni aks ettiradi. Bu jarayonda siz iliqlik va do'stona munosabatlarni saqlab qolgan bo'lasiz. Ammo rasmiy vaziyatlarda daijoubuga qaraganda けっこうです[kekkoudesu] ko'proq ishlatilib bu juda rasmiy ibora bo'lib odatda ish joylarida bu iboradan ishlatiladi. O'qituvchilar, bir-birini tanimaydigan biznesmenlar, firma xodimlari va bozorda savdo xodimlari sizga taklif qilgan narsalarni rad etish uchun foydalanish holatlari ham mavjud.

じゃない[ja nai] - inkor qo'shimchasi o'zi qo'shila oladigan har bir so'z va gaplarni antonimiga o'zgartirish xususiyatiga egadir. Bunda musbat ishorali sizni manfiy ishorali ekvivalentiga, manfiy ishorali sizni musbat ekvivalentiga o'zgartirish xususiyati bor. -ja nai qo'shimchasi odatda ot va sifat so'z turkumlaridan inkorni yasaydi va u -ja nai ning o'rniga -dewa nai shaklda ham ishlatilib nisbatan muloyimroqdir. Tortishuvlar chog'ida qarshi bo'lgan faktlarni ochib berish uchun ishlatilib bu degani har bir so'zni bu shaklda inkor etamiz degani emas. Har bir so'zning o'zini inkor etilish shakllari mavjud.

Ko'p ishlatiladigan shakllaridan biri bu ちがう[chigau] farq qiladi, unday emas bu suxbatdoshimiz tomonidan berilgan bayonotni yoki ma'lumotni rad etib uning bu qarashlari to'g'ri emas ekanligini ifodalovchi jumalardan biri hisoblanadi. Buning ishlatish usuli いいえ iie kabi qonun qoidalarga bo'ysinadi. Har bir inkor etuvchi qo'shimchani o'zini ta'sir doirasidagina inkorni ifoda etadi. Muloqot matnida yoki muloqot jarayonida boshqa ma'noni anglatib kelishi holatlari mavjuddir.

いそがしい[isogashi] band bo'lmoq, vaqti yo'q kabi tarjima qilinadi. Bu so'z asosan biror bir o'zimiz haqimizdagi kundalik ma'lumotlarimizni berayotgan vaqtimizda ishlatiladi va xech qanday inkorni ifodalaydigan so'z emas. Ammo bizga berilgan taklifni sababini ko'rsatib rad etadigan bo'lsak bu so'z o'sha vaziyatda inkor ma'noni beradi. Bu so'zni ishlatishimiz suxbatdoshimiz bizga boshqa xech qandaybo'sh vaqtingiz bor yo'qligi terisida savollarga xojat qoldirmasdan javob berishdir. Muloqot jarayonida inkor shakllaridan foydalanishning o'ziga xos usullari



borligi ko'rib chiqildi va faqatgina inkor so'zlar bilan inkorni ifodalamasdan inkor shakliga aloqador bo'lmagan so'zlar orqali ham muloqotda o'zgacha inkorni ifodalanishi mumkin degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Roy Andrew Miller. The Japanese Language. - - Tokyo: Charles E. Tuttle company, 2009. - 128p
- 2 Nyberg. Negation in Japanese Stockholms universitet. 2012. (42p)
- 3 Joacim Nyberg. Negation in Japanese Stockholms universitet. 2012. (44p)
- 4 Miestamo, Matti. 2005a. Standard negation: The negation of declarative verbal main clauses in a typological perspective (Empirical Approaches to Language Typology 31). Berlin/New York: Mouton de Gruyter.
- 5 М.Киэда Грамматика японского языка УРСС Москва. 2002
- 6 Японский глагол. Большой словарь-справочник [Текст]/Сост.
- 7 『どんな時どう使う日本語表現文型辞典』 ア日本国語大辞典編集委員会 (1972)
- 8 『日本国語大辞典』 第十卷小学館 (1972)
- 9 森 英樹. 日本語否定命令文の歴史的変遷 福井県立大学論集 第40号 2013. 2



YASUSI INOUE BADIY MEROSIDA “BUYUK IPAK YO‘LI”

G B. Sattorova

SamDChTI magistranti

Badiiy so‘z ustasi Yasusi Inoue badiiy merosida muhim o‘rin tutgan mavzulardan biri “Buyuk ipak yo‘li” mavzusiga e‘tiborimizni qaratamiz. Zotan, bu mavzu Yasusi Inoue ijodiyotida maxsus qo‘yilgan masalalar qatorida turadi. Xilma-xil janrlarga mansub badiiy durdonalarda ijodkorning mavzuga oid qarashlari barcha jihatlar bilan to‘liq va yorqin namoyon bo‘lgan. Agar lirik she‘rlarda mavzuga oid masalalar maxsus qo‘yilib, aniq xulosalar bayon qilinsa, asarlardagi voqea va obrazlarni ana shu fikr va mulohazalarning badiiy in‘ikosi deb aytish mumkin. Yasushi Inoue juda ko‘p vaqtini “Ipak yo‘li” mamlakatlarini o‘rganishga sarflagan. O‘rta Osiyo, Sinzyan va Xitoy tarixi bilan jiddiy shug‘ullangan. “Buyuk Ipak yo‘li” mavzusi rang-barangligi va o‘ziga xosligi bilan o‘ziga jalb qilgan. U Xitoy haqida yozgan, Dunxuanni tasvirlagan. Muallif Xitoyga birinchi marta tashrifidan keyin hayratda qolgan: “U mening tasavvurimdagi narsa”⁹⁵. Yasushi Inouening Xitoy adabiyoti bo‘yicha bilimi juda keng bo‘lgan. Xitoy mutaffakkirlarining to‘liq tarjimada va aslyatda asarlari uning kutubxonasida bo‘lgan. Ayniqsa tarixiy romanlarni qadrlagan. Masalan, daosizm rohibi Chan Chunning XIII asrga tegishli “Siyyuyzi” – “G‘arbdagi eslatmalar” asari fikrimizning dalilidir. Chan Chun Chingizxonning taklifiga binoan Samarqandga tashrif buyurgan va Mo‘g‘uliston, Sibir, zamonaviy Shinjon, Qozog‘iston va Markaziy Osiyo bo‘ylab sayohatni asarida batafsil tavsiflagan. Uning “Siyyuyzi” – “G‘arbdagi eslatmalar” idagi yozuvlari mo‘g‘ullar istilosi davrida Osiyo tarixiga oid klassik manbadir. Mamlakatimizda Palladiyning tarjimasi qayta yozilganiga ko‘ra emas, balki asl nusxasida juda kam ma‘lum bo‘lganligi bilan muhim. Bertshnaydarning tarjimasi deyarli keng kitobxon uchun mavjud emas. Chan Chun haqida ma‘lumotlarni O‘rta asrlar Qozog‘iston tarixiga oid har qanday darslikdan topish mumkin bo‘lsa ham, matnning o‘zi hali tahlil qilinmagan, Chan Chun kundaligi Sharqdan G‘arbgacha qarashdir va daosistik falsafa va psixologiyaning yevropaliklar tomonidan anglash o‘ziga xos va qiyin bo‘lgan xususiyatlardan biri. Ko‘rinib turibdiki, asarda o‘sha vaqtdagi ba‘zi belgilarining dunyoqarashiga oydinlik kiritadigan tarixiy manba sifatida o‘rganishning maxsus istiqbollari mavjud. Yapon yozuvchisi Chang Chunning “Siyyuyzi” – “G‘arbdagi eslatmalar” asarini yaxshi bilgan. Yasushi Inouening qalamiga “Buyuk Ipak yo‘li”

⁹⁵井上靖『遺跡の旅・シルクロード』新潮社、2007年。



mavzusidagi bir nechta asarlar tegishli. Ushbu mavzudagi “Quyoshli kunda” nasriy she’rini 1965 yil Yangi yil kuni Asahi Shimbunda nashr ettirgan:

学生のころ、私は中央アジアで一番古い街サマルカンド、へ行きたいと、思った。何日もかかって無銭旅行の計画を立てた。かつてアレキサンダー大王が、ジンギスカンが、チムール大帝が、兵団を率いて、この街にはいったように、とある日没時、私は一頭の騎馬をひいて、シル河の支流沿いにこの街にはいるはずであった。不規則な狭い道路、古い回教寺院、そこを歩いている侵略者や被侵略者の後裔たち。長い興亡の歴史の菊りの中を、私は隊商商人のように歩いてみたかったのだ。『井上靖全集』第1巻より。

Talabalik vaqtlarimda Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shahar - Samarqandga borishni xohlardim. Monetar bo‘lmagan sayohatni rejalashtirish uchun bir necha kun kerak bo‘ldi. Buyuk Iskandar, Chingizxon va Buyuk Temur bir korpusni quyosh botishida shaharga olib kirishganidek, men ham ot tortdim va Sirdaryo daryosining irmog‘i bo‘ylab bu shaharga bordim⁹⁶.

Yozuvchining talabalik vaqtlarida Markaziy Osiyoga, “Buyuk Ipak yo‘li” mamlakatlariga borish orzusi 1965 yil may-iyun oylarida (birinchi marta) va 1968 yil may-iyunida (ikkinchi marta) amalga oshgan. Har bir sayohat o‘sha paytdagi G‘arbiy Turkistonning sovet hududi bo‘ylab bir oy davom etgan. Yasushi Inoue birinchi marta Toshkent, Samarqand, Panjakent, Buxoro, Dushanbe, Ashxobodga tashrif buyurgan.

それから三十余年、いまでも私はサマルカンド行きの夢を棄てていない。昨年の元旦も一昨年の元旦もそうであったように、今年もまた、今年こそそこへ行きたいものだと思っている。無銭旅行を企らむには既に老いたが、金と時間の工面に、何日か、を費やす情熱はまだ残っている。

とある晴れた日に、私は空力、ら天山の麓のその古い都へはいつて行くだろう。もはや土に埋もれた石にも、古い城壁の蔓草にも、さして心は動かさない。私はその町で、黒髪や肌の色を異にした父親や、おふくろや、息、子や、娘たちが、一つの卓を囲んでいる一家の団撲を見たいのだ。『井上靖全集』第1巻より。

⁹⁶ Yasushi Inoue to‘liq asarlari to‘plami, 1-jild, b.125.



Oradan o'ttiz yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham, men hali ham Samarqandga borish orzuimdan voz kechganim yo'q. O'tgan yilgi Yangi yil kuni va o'tgan yilgi kabi, bu yil ham u erga borishni istayman⁹⁷.

Ikkinchi marta Moskva, Leningrad va Kiev atrofiga hamda Toshkentdan boshlanib, Ipak yo'li shaharlari (Andijon, Namangan, Farg'ona, Qo'qon, Panjakent va boshqalar) ga sayohat qilgan. Keyin ham bir necha marotaba bu hududlarga sayohat qilgan. Yasushi Inoue G'arbiy Turkistonga qilgan beshta sayohatini tasvirlaydigan "Ipak yo'li bo'ylab sayohat" asarini yozgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иноуэ Ясуси // Япония от А до Я. Популярная иллюстрированная энциклопедия. (CD-ROM). — М.: Directmedia Publishing, «Япония сегодня», 2008. — ISBN 978-5-94865-190-3.

2. 朝日賞 1971—2000年度. 朝日新聞社. 2022年9月2日閲覧。

3. 『グッドバイ、マイ・ゴッドファーザー』 文藝春秋、1991年、p108-116頁

。

4. 井上靖、ノーベル賞候補だった 川端康成受賞翌年の1969年朝日新聞
2020年1月21日

5. 井上靖 『遺跡の旅・シルクロード』 新潮社、2007年。

6. Yasushi Inoue to'liq asarlari to'plami, 1-jild,

⁹⁷ Yasushi Inoue to'liq asarlari to'plami, 1-jild, b.128.



YASUSHI INOUE ASARLARINING BADIY MATNIDA GIDRONIMLARNING QO‘LLANISHI

G. B. Sattorova

SamDChTI magistranti

Ilmiy adabiyotlarda suv ob'ektlari va shunga mos ravishda gidronimlar uchun alohida o'rin tutadi, degan fikr bir necha bor ifodalangan. Bu o'ziga xos gidrosentrik tizimdir. Ijodkor asarlarida gidronimik onomastikadan faol foydalanadi. Kitoblarida suv elementining muhim va hatto ko'pincha syujet yaratuvchi roli maxsus tadqiqotlarsiz ham ko'rinadi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, ijodkor badiiy asarlaridagi umumiy toponimik lug'at tarkibidagi gidronimlarning ulushi haqiqatan ham ancha yuqori.

Avvalo, Inouening adabiy gidronimiyasini umumiy toponimik tasnifga ko'ra kichik sinflarga ajratamiz. Eng yirik kichik sinflar potamonimlar (daryolar, soylar, buloqlar, kanallar nomlari) va limnonimlar (ko'llar, hovuzlar, suv omborlari nomlari). Muallif matnlarida 974 ta qo'llanishda 153 ta potamonim va 381 ta qo'llanishda 56 ta limnonimni topdik. Biz 145 ta foydalanishda 41 ta pelagonimlarni (dengizlar va okeanning boshqa qismlari, shu jumladan turli joylar nomlari) hisobladik. Qolgan kichik sinflar soni jihatidan kam: sharsharalar va daryo oqimlarining 24 ta nomidan 15 ta, gelonimlar (botqoqlar nomlari) 84 ta foydalanishda 14 ta, okeanlar bilan bog'liq 6 ta nom 39 ta foydalanishda, bitta suv tizimining 1 ta nomi. Eng ko'p gidronimlar Inouening sayohat va avtobiografik asarlaridan o'rin olgan. Butun toponimik lug'at tarkibidagi gidronimlarning so'z qo'llanish ulushini tahlil qilib, u yoki bu asarning shartli gidrosentriklik darajasini aniqlash mumkin. Adib asarlarida gidronimlarning o'rtacha ulushi 24,9% ni tashkil etadi. Syujet xususiyatlariga va tasvirlangan joylarning geografik xususiyatlariga moslashtirilgan yuqoridagi ma'lumotlar yozuvchi Inouening atrofdagi voqelikning ma'lum shakllariga poetik qiziqish darajasini raqamlar bilan ko'rsatishi mumkin. Har birimiz sayyoramizda mavjud bo'lgan o'nlab dengizlarni va hattoki barcha okeanlarni nomlashimiz mumkin, ammo har bir mutaxassis bo'lmagan sayohatchi ikki yuzdan ortiq daryo va ko'llarning nomlarini bilmaydi va nihoyat, noyob ijodkor bunday bilimlardan juda faol foydalanadi. Haqiqiy san'at har doim ma'lumning takrorlanishi emas, balki kashfiyotdir. Takroriylik - bu hunarmandchilik. San'atkor, fikrimizcha, hayot haqiqatini idrok etish jarayonida yo o'zida paydo bo'lgan obrazga, yoki unga yangi va kutilmagan qirralarda ochilgan haqiqatga ergashadi. Va yana Sharq va G'arbning o'zaro bog'liqligi haqida fikrlar ham mavjud. Ma'naviy hayot va adabiyot



tarixini o'rganishda odatiy "G'arb" va "Sharq" atamalarini, mos tushunchalarni belgilaydigan ilmiy ta'riflar imkoniyat darajasida qabul qilinishi mumkin. Atamalar, ehtimol, ko'proq darajada cheklovchi ma'noga ega bo'lgan ramzlar yoki konventsiyalar sifatida, ko'proq samoviy jismning harakati bilan - quyoshning chiqishi va botishi bilan bog'liq tushunchalar sifatida ko'rib chiqilishi keralozimdir. Shu bilan birga, badiiy ijodda qo'llanilgan toponimlar tasodifiy emasligini, hattoki bunday ta'sirli toponimik leksika to'plami ham juda qat'iy tanlov natijasi ekanligini ko'rsatadi. "Uch hikoyadagi" "Toshqin" hikoyasi fikrimizga yaxshi misoldir.

Ijodkorning "Seiki monogatari" qissasida daryolar tasviriga ham keng o'rin berilgan: "O'rta Osiyodagi ikki mashhur daryo-Amudaryo va Sirdaryo tarixda Oks va Jaksart (Sayxun)nomlari bilan mashxur. Ular cho'lga xos daryolar. Sirdaryoni oqim bo'ylab tepadan ko'rganman, uning suv hajmi juda katta. Shunday bo'lishi ham aniq edi, zero u paxta dalalarini sug'oradigan Farg'ona vodiysidagi kanallarni to'ldiradi, biroq kimdir uning quyi yo'nalishlarini kuzatsa, masalan Qizilqumdagiday, irmoqlardan kattaroqday tuyuladi. Darhaqiqat, buning sababi daryo oqim bo'ylab oqar ekan, suvi nafaqat yorqin quyosh nurlarida bug'lanadi, balki sahroning o'zi va daryo qirg'oqlarida o'sayotgan daraxtlar tomonidan yutiladi. Shunday holat Amudaryoda ham, men uni pastga tomon oqqanini ko'rdim. Shunday qilib, ular pastga oqib irmoqlardan suv to'ldirib bora-borguncha kengayadigan daryolardan bora-borguncha suvi kamayib torayaverishi bilan farqlanadi.

Zarafshon daryosi Tyan-Shan tog'idan oqib tushadigan daryo bo'lib, daryo vodiysining Panjakent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlaridan o'tadi, hatto Zarafshon ham aytishlaricha, sahro qumlarida yo'qolmoqda - achinarli taqdir har bir sahro daryosida bo'ladi. Biroq hozirda Zarafshonning sahrodan o'zboshimcha oqib qumlar orasida yo'q bo'lib ketishiga ruxsat berilmayapti: O'zbekiston daryo suvini yig'adigan ajoyib sun'iy ko'l yaratgan" [6-bet].

Shuni hisobga olish kerakki, Inoue tomonidan "tabiatdan" ko'plab eslatmalar suv omborlari va kanallarning ommaviy qurilishidan oldin, ko'p joylar suv ostida qolishidan oldin va shunga mos ravishda ularning ba'zi nomlari unutilgan. Yozuvchi bu o'zgarishlarni juda yaxshi biladi. Haqiqiy toponim hujjatli ijod kontekstida ham kuchli stilistik vositaga aylanishining yaqqol misoli. Ijodkor nomlarning, shu jumladan gidronimlarning kelib chiqishi bilan juda qiziqadi va o'quvchi bilan yangi bilimlarni baham ko'rishi aniq. Ko'pincha yozuvchi ba'zi gidronimlarning etimologiyasi haqida o'z taxminlarini aytadi.

Gidronimlar ma'lum darajada qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, baliqchilik va o'rmon xo'jaligi haqida ma'lumot beradi. Adibning toponimik materiallarini kartografik qayta ishlash tilshunoslik, tarix, arxeologiya va antropologiya uchun



alohida qiziqish uyg'otadi. Etnotarixiy tadqiqot uchun barcha geografik nomlar ichida gidronimlar o'zining arxaik tabiatiga ko'ra eng ishonchli va foydali hisoblanadi. Ular antik davrda, asosan aholi punktlarining aksariyat nomlari paydo bo'lishidan oldin rivojlangan. Ular ko'proq darajada tabiiy muhitning xususiyatlarini aks ettiradi va etnik guruhlarning o'zgarishi davrida o'zgarishlarga duchor bo'lgan.

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иноуэ Ясуси // Япония от А до Я. Популярная иллюстрированная энциклопедия. (CD-ROM). — М.: Directmedia Publishing, «Япония сегодня», 2008. — ISBN 978-5-94865-190-3.

2. 朝日賞 1971—2000年度. 朝日新聞社. 2022年9月2日閲覧。

3. 『グッドバイ、マイ・ゴッドファーザー』 文藝春秋、1991年、p108-116頁

。

4. 井上靖、ノーベル賞候補だった 川端康成受賞翌年の1969年朝日新聞
2020年1月21日

5. 井上靖『遺跡の旅・シルクロード』新潮社、2007年。

6. Yasushi Inoue to'liq asarlari to'plami, 1-jild,



BIZ BILGAN VA BILMAGAN ASAL

B.M.Do‘monov

Andijon davlat Pedagogika insitituti dotsenti

O.X.Ashiraliyeva

Andijon davlat Pedagogika institutini o‘qituvchisi

Z.A.Azizova

Andijon davlat Pedagogika insitituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barchamizga tanish b'lgan va k'pchilik sevib iste' mol qiladigan asalning kimyoviy tarkibi hamda foydali xususiyatlari haqida keng yoritilgan.

Kalit s'zlar: Asal, asalarichilik, uglevod, saxaroza, fruktoza, maltoza, dekstrin, kraxmal, antioksidant, aminokislota, kislotalar.

Аннотация: В этой статье подробно описан химический состав и полезные свойства меда, который всем нам знаком и любим многими.

Ключевые слова: Мед, пчеловодство, углеводы, сахароза, мальтоза, декстрин, крахмал, антиоксидант, кислоты.

Abstract: In this article, the chemical composition and useful properties of honey, familiar to all of us and loved by many people, are discussed in detail.

Key words: Honey, beekeeping, carbohydrate, sucrose, maltose, dextrin, starch, antioxidant, acids.

Kirish: Juda tez suratlarda rivojlanib borayotgan hozirgi davrda barcha sohalarda katta yutuqlarga erishilmoqda. Shuningdek, taboabat sohasida ham yangi dori vositalari keng q'ollanilmoqda. Lekin tabiiy mahsulotlarga b'lgan ehtiyoj har qanday davrda ham 'zgarmaydi.

Hozirgi kunda asalarichilik sohasini keng miqyosda rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan katta sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda tabiiy asal yiliga 6 tonnaga yaqin ishlab chiqariladi va boshqa davlatlarga eksport qilinadi.

Avvalo biz asalni elsport qilishimiz uchun uning kimyoviy tarkibini, jahon standartlariga t'laqonli javob bera olishi va sifati haqida k'oproq ma'lumotga ega b'lishimiz zarur.[1]

Bugungi kunga kelib tabiiy asalning 80-90% tarkibi uglevodorodlar ($C_6H_{12}O_6$, fruktoza, maltoza va boshqalar) dan iborat. Mahsulotning turi va yetukligiga nisbatan suv 18%ni, shifobaxsh va antioksidant xususiyatlarni



ta'minlovchi mikroelementlar hamda turli xildagi polifenol birikmalar 2-3% ni, s axaroza esa 5% gacha miqdorni tashkil etadi.

Asal 27-320°C haroratda suyuqlanadi va 14-240°C haroratda juda tez kristallanadi.

Murakkab tuzilishga ega бўлган asal dekstrinni (kraxmalning xali tóliq parchalanmagan holati) óz tarkibiga oladi. Asal tarkibida 2-5% bazida ,14% gacha uchraydi. Suvda yaxshi erib, asal erishiga tósqinlik qiladi.

Órta hisobda tarkibning 0,4-0,8% ini ózida azot moddasi бўлган oqsil moddalar tashkil etadi. Moddalarning barchasi suvda yaxshi eriydigan бўlib, ichakda yengil sóriladi.

Asalarilar tóplagan ósimlik gulining hidi uning sharbati orqali asal tarkibiga ótadi. Tabiiy asalda hid beruvchi moddalar 120 tagacha бўlishi aniqlangan. Spirtlar, aldegidlar, ketonlar, kislotalar, efirlar va organik kislotali spirtlar hid beruvchi moddalar sarasiga kiradi. Asalning xushbóyligi achiganda, uzoq va qattiq qizdirilganda, sun'iy invertlangan shakar, shakar qiyomi va h.zo, shuningdek asalarilar shakar qiyomi bilan boqilganda yóqoladi.

Vitaminlar asal tarkibining kóp qismini tashkil qilmasada organizmga foydali yondosh moddalarga qóshilgan holda uchraydi va katta ahamiyat kasb etadi. 3.0 mkg pirodoksin (B6) 3,1 mkg niatsin (PP), 3,8 mkg biotin (B), 30 mkg askorbin kislota va 10 mkg tokoferol kabi vitaminlar 1 gr asal tarkibida uchraydi.

Asal- insonlar tomonidan sevib iste'mol qilinadigan mahsulot бўlibgina qolmay, foydali xususiyatlari ham ancha talay.

Asalda inson suyak tóqimalari uchun 20 dan ziyod aminokislotalar bor. Bu esa kalsiy moddasining sórilishiga yordam beradi. Bundan tashqari aminokislotalar asab tizimini bir me'yorda ishlashini ta'minlaydi. Stress va dipressiyaga qarshi kurashuvchanlikni oshiradi, xotirani mustahkamlaydi.

Oshqozon-ichak tizimida ham asalning roli bebaho. Chunki asal ichaklarda kaliy moddasini tóplshga yordam berib, suyuqlik zaxirasini tóldirib beradi. Bu xususiyati bilan asal oshqozon faoliyati buzilishi va diareyada yordam beradi.[2]

Asaldan keyin yumshoq suv iste'mol qilinganda asal qon oqimiga tez tarqaladi. Undagi erkin qand molekulari miya faoliyatini yaxshilaydi, chunki miya qandni eng kóp iste'mol qiladigan a'zo hisoblanadi. Ótkazilgan tadqiqotlarga kóra, qandlarning yagona aralashmasi holsizlikni ketkazish va yengil harakatni faollashtirish uchun eng samarali vosita sifatida yordam beradi. Asal qonni tozalashga yordam beradi va qon aylanishini tartibga solishda ijobiy ta'sirlarga ega. Shuningdek, qon tomiri kapillyar muammolari hamda arteriosklerozga qarshi himoya vazifasini ham bajaradi.



Asalning xalq tabobatida foydali xususiyatlari.

-Ogzi chaqa b6lgan bolaning ogzini asal sharobi bilan yoki asal suvi bilan yuvilsa, maqsadga muvofiq b6ladi.

-Gohida bola uyqusida xurрак otadi. Bunday vaqtda yanchilgan zigir urugini asalga q6shib yalatish yoki asal bilan qorilgan zirani yalatish kerak.

-Nordon narsa yeb aziyat chekadigan kishi asal ist'emol qilishi tavsiya etiladi. Bu muolaja (oldin yeyilgan) narsaning yetilishidan va hazm b6lishidan oldin qilinishi lozim.

-Asal suvi bilan qaynatilgan anjir qoqisi keksalarda ichni yumshatuvchi tabiiy vosita hisoblanadi . Shuningdek, keksalarda t6qimalar va b6ginlar ogridi paydo b6lishini oldini oladi.[3]

"Asalning ham ozi shirin "degandek har narsada me'yorni bilish zarur. Tabiiy asal olish va undan foydalanish uchun asalarichilik sohasini keng miqyosda rivojlantirish zarur. Undan tashqari asalari qutilarini iqlimi m6tadil va togli hududlarga joylashtirishimiz mumkin. Shunda biz kutgan tabiiy va shifobaxsh hamda yuqoridagi barcha talablarga t6laqonli javob bera oladigan asal olishga muvaffaq b6lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR R6YXATI:

1.A. I.Isamuhammedov, X.Q.Nikadambayev "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Toshkent - 2013.3-7-betlar.

2.my.medic.uz.Salomatlik."Asal foyfasi shifobaxsh xususiyatlari, zarari, tanlashning 7 oltin qoidasi.

3.Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari"1-jild.A Abdulla Qodiriy nomidagi merosi nashriyoti -1993.114-bet.



QADIMGI O`RTA OSIYO XALQLARINING ILK TOSH DAVRI QUOLLARI EVOLUTSIYASI

Shodmonov Anvar

Termiz davlat universiteti doktoranti

Quollar tufayli inson tashqi dunyoda harakat qiladi va mavjud bo'ldi, tirikchilik qiladi yoki hatto atrofidagi dunyoni ehtiyojlariga moslashtiradi. Insonlar omon qolishi uchun turli ijtimoiy taraqqiyotlarni bosib o`tdi. Insoniyatning tafakkuri rivojlanishi natijasida tashqi dunyo elementlarini qurollarda aks ettirdi. Yirtqich hayvonlarning tishlari o`ljani o`ldirishga imkon bergani va shuning uchun ilk ibtidoiy odamga qurol yasashda yirtqich hayvonlarning tish shaklidan kelib chiqib hayvonlarni oson ovlash uchun qurol shakllari vujudga keldi.

Tosh asboblarni tayyorlash jarayonida asosan ikkita asosiy bosqich o'z ichiga olinadi: birlamchi bo'linish va ikkilamchi ishlov berish. Birlamchi bo'linish paytida kichikroq bo'laklar - **chiplar** - asl tosh bo'laklaridan kesilgan. Keyinchalik, bu chiplar asl shaklida ishlatilgan yoki qo'shimcha, ikkilamchi qayta ishlangan, ular asl shaklini u yoki bu darajada o'zgartirgan. Birlamchi bo'linish dastlab toshning toshga oddiy zarbasi bilan amalga oshirildi. Keyinchalik uning yanada murakkab va mukammal usullari paydo bo'ldi, Ikkilamchi qayta ishlash xuddi shu tarzda amalga oshirildi, lekin ko'pincha mahsulotlarning faqat qirralari ta'sirlandi, natijada **kichik tarozilar** parchalanib ketdi. **Kichik tarozilarni** olib tashlash orqali asboblarni bunday tugatish **retush** deb ataladi va agar olib tashlash hajmi **2 sm dan oshsa, ular odatda retush emas, qoplama deb tushunish mumkin**. Siliqlangan asboblarda ko'p hollarda retush yordamida shakllantirildi, lekin qoplama (va keyin tez-tez retushlangan) asosan tosh bo'laklaridan asboblarda yasash uchun ishlatilgan, masalan, qo'l boltalari. Ikkilamchi qayta ishlashning boshqa turlari ham mavjud edi, ammo ular paleolitning keyingi bosqichlarida allaqachon keng tarqalgan va ular bundan keyin ham muhokama qilinadi.

Olduvay davri taxminan qayta ishlangan buyumlar bilan ajralib turadi. Chopper Olduvay davrining eng xarakterli tosh mahsulotidir. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Olduvay asboblari to'plamida tana go'shti terisini tozalash, go'sht va o'simlik materiallarini kesish va yog'ochni qayta ishlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan.

Albatta, Olduvay davrida yog'ochdan yasalgan asboblarda bo'lgan. Hatto shimpanzalar ham tayoqlar, shoxlardan tez-tez foydalanadilar, ularning hajmi va shaklini o'z ehtiyojlariga moslashtiradilar. Agar toshlar kabi o'simlik moddalari ham saqlanib qolgan bo'lsa, unda, ehtimol, eng qadimgi arxeologik yodgorliklarda



topilgan yog'och buyumlar soni har doim tosh buyumlar sonidan sezilarli darajada oshib ketgan bo'lar edi. Biroq, bunday ob'ektlarning mavjudligiga shubha bo'lmasa ham, ularning qanday ko'rinishi, nima uchun xizmat qilgani va qanday yaratilganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu savollarga oydinlik kiritadigan materiallar yo'q. O`rta Osiyo miqyosida olduvay davri yodgorliklari uchramaydi.

Ashell davri taxminan 1,6-1,5 million yil oldin Olduvay davriga xos bo'lgan artefaktlar asta-sekin yangi turdagi buyumlar bilan almashtiriladi, ularning eng ko'zga ko'ringanlari uchi uchli, ikki tomondan butun yuza bo'ylab qayta ishlangan yirik asboblari - o'qlardir. Ularning paydo bo'lishi, aslida, arxeologlar uchun Ashell davrining boshlanishini anglatadi.

Ashell boltalari va boshqa yirik ikki tomonlama asboblari (ba'zan ular birgalikda **"bifaces"** deb ataladi) go'yo ulardan oldingi mahsulotlarning Olduvay shakllarining, birinchi navbatda, maydalagichlarning mantiqiy rivojlanishidir. Chopperlar maydalagichlar bilan bir xil konturlarga ega bo'lishi mumkin, ammo ikkinchisidan farqli o'laroq, ular ikkala yuzada ham to'liq qayta ishlanadi va faqat ba'zan retush yoki undan qo'polroq bilan o'tkirlashadi.

Boltalar nayzasimon, yuraksimon, bodomsimon va boshqa shakllarda bo'lib, ularning qirralari profilda ko'rib chiqilganda, odatda, burma konturga ega. Nomidan farqli o'laroq, boltalar nafaqat kesish uchun, balki, qirib tashlash va boshqa operatsiyalar uchun ham xizmat qilgan. Bu odamlar tomonidan turli maqsadlarda va turli vaziyatlarda ishlatiladigan ko'p **funktsiyali** vositalar edi. Eng qadimgi boltalarning muhim vazifalaridan biri yog'ochga ishlov berish edi.

Ashell uchun xarakterli bo'lgan va oldingi davrda noma'lum bo'lgan ikkinchi turdagi ikki yuzli qirg'ishlardir (ba'zan rus tilida ularni kliver deb ham atashadi). **Klivers** ko'pincha katta bo'laklarda qilingan. Ular o'qlardan, birinchi navbatda, qo'shimcha ishlovga ega bo'lmagan keng ishlaydigan uchi bilan ajralib turadi.

Ashellda tosh va yog'och bilan bir qatorda suyak ham asboblari yasashda ishlatilgan. Ammo Olduvayda bo'lgani kabi suyaklar hech qanday qo'shimcha ishlovsiz asbob sifatida ishlatilgan.

O`rta Osiyodagi Selung`ur g`ori ham eng ahamiyatlisidir. Farg'ona shahridan tahmiman 100 km janubiy g'arbda, joylashgan. Bu ulkan g'orning uzunligi 120 m, kengligi 34 m va balandligi 25 mdir. G`orda O`.Islomov tomonidan qazish ishlari olib borilgan bo'lib, g`or 5 ta madaniy qatlamdan iborat. Bu davr yodgorligidan topilgan ashyolar insoniyatning "go'daklik" davri" - ilk paleolitning so`ngi davrlariga oidligi bilan xarakterlanadi⁹⁸. Bu yerda tosh qurollari hayvon suyaklari va apxantroplarning

⁹⁸ Choriev.Z., Shaydullayev.SH Inson tafakkur taraqqiyotining qutlug' qadamlari **Jahun jurnali 200...** B-19-31



suyaklari topildi. Qurollar asosan tabiiy jins va siniqlaridan tayyorlangan⁹⁹. Selugurdan qo'l cho'qmori, to'mtoq bolta, chopper, kata tosh qirg'ich, pichoq, kop miqdordagi tishli o'yiqlik-qurollar ponaga o'xshash va tuxumsimon qurollar mavjud¹⁰⁰.

Selungur makonidan paleoantropologik, paleofaunistik va paleofloristik qoldiqlardan tashqari 5000 ga yaqin tosh buyumlar qo'lga kiritilgan (Islamov, Kraxmal, 1995). Mazkur tosh buyumlarni toshga ishlov berish texnikasiga ko'ra 2 turga ajratilgan: 1) birlamchi ishlov berish ya'ni toshni sindirish (chaqmoqlash) natijasida o'zaklar (nukleus), yo'nilg'i (plastina) va tosh uchirindilar (otshep) olingan. Demak, yodgorlikning tosh industriyasida ilk paleolit davriga xos yirik va qo'pol, zarb maydonchalari keng uchirindilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Plastinalar deyarli uchramaydi. Levallua (paleolit davriga xos toshga ishlov berish, chaqmoqlash texnikasining bir turi) turidagi uchirindilar juda kam. Nukleuslar to'plamda ko'p emas, ular asosan gardishsimon, sharsimon, bir zarb maydonli, ikki zarb maydonli va kichik xajmdagi o'zaklardir. Selungur o'zaklariga xos bo'lgan jixat shundaki, ular asosan haddan tashqari ishlov berilgan tashlandiq ko'rinishlarga ega. 2) Ikkilamchi ishlov berilgan (o'sha sindirib, chaqmoqlab olingan yo'nilg'i va uchirindilarga ishlov berish-retushlash orqali uni biror mehnat yoki ov quroliga aylantirish tushuniladi) tosh buyumlar foizi yodgorlikdagi umumiy toshlarning o'ndan birini tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida chopperlar, choppinglar, to'g'ri yoki bo'rtib chiqqan qirrali qirg'ichlar, tishsimon retushli, o'yib-kertib ishlangan hamda kompozit qurollar, retushlangan tosh bo'laklar va uchirindilar mavjud. Bundan tashqari, to'plamda tosh boltalar (kliverlar), ikki taraflama ishlangan qo'l cho'qmorlari (bifaslar), tosh randalar, paykonlar va ikki tig'li paykonlar (limaslar) uchraydi¹⁰¹.

Musteriya va unga aloqador turdagi sanoatlar dunyoning ko'p qismida tarqalgan. Bu sohalarni umuman quyi paleolitdan va xususan, ashelldan ajratib turadigan asosiy xususiyat bu asboblarning yorilishdagi rolining ortib borishi bo'lib, ular hozirgi vaqtda nafaqat oldingiga qaraganda ancha ko'payib bormoqda, balki juda mukammal va ifodali bo'lib bormoqda. Oldindan belgilangan shakldagi chiplarni olish uchun yadrolar paydo bo'ladi, bu ta'sir qilish joylari va parchalanish yuzasini ehtiyotkorlik bilan tayyorlashni talab qiladi. Bunday yadrolar Levallois deb ataladi

⁹⁹ Исломов У.И., Крахмаль.К.А. Палеэкология и следы дрейневшего человека в Центральной Азии. Тошкент 1985 С 26

¹⁰⁰ Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Ўзбекистон энг қадимги ва қадимги даврларда. Палеолит даври-мил. V аср. Тошкент, 2014. Б-22

¹⁰¹ Омонов А.М. Марказий Осиёнинг ilk палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) Ўтмишга назар 2021 №9 б-72-85



O'zbekiston hududida o'rta paleolit davri yodgorliklari (Obiraxmat, Xo'jakent, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Qayroqqum, Omonqo'ton) dan topilgan tosh qurollarning boyligi bilan jahon tarixida munosib o'ringa egaligi bilan farq qiladi. Jumladan, Teshiktosh g'orining madaniy qatlamlaridan 2228 ta tosh buyumlar topib o'rganilgan. Ular tarkibida asosan kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan bo'lib, tarkibida nukleuslar, qirg'ichlar, paykonlar, kesgichlar, retushlangan uchirindilar va plastinalar mavjud.

Quyi paleolit sanoatining umumiy ko'rinishini belgilab bergan boltalar, kesgichlar va boshqa yirik asboblardan ko'pincha yo'q bo'lib ketadi yoki ancha kam uchraydi, shu bilan birga ular mavjud bo'lgan joylarda ularning o'lchamlari tez-tez kichrayib, qayta ishlash chuqurroq bo'ladi. Ko'pgina Musteriya boltalari va o'qlari tog' jinslaridan emas, balki parchalardan, retush yordamida qilingan¹⁰².

Yuqori paleolit. Yuqori paleolit o'rta paleolitdan, birinchi navbatda, tosh va suyaklarni qayta ishlash texnologiyalaridagi ko'plab yangi muhim xususiyatlar bilan, va shuningdek, suyakka ishlov berilib rasm solina boshlanganligi bilan ajralib turadi.

Tosh qurollari ishlash uslubi o'zgargan. Yorma texnika usuli ilk bosqichda keng qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda **retushlash usuli**¹⁰³ ixtiro qilingan. Bu qurollar turini ko'paytiribgina qolmay, ularning mayda, ya'ni ixchamlashtirishga olib kelgan. Bu usul juda murakkab bo'lib, salgina ehtiyotsizlik qilinsa, qurol sinib ketgan. Retushlangan nukleuslar to'g'ri pichoqsimon shaklga kirgan va yupqalashgan. Tosh pichoqiyar paydo bo'lgan. Bu davrda eng muhim mehnat qurollari tosh kesgich va tosh qirg'ich bo'lgan. Tosh kesgich qattiq materiallarni ishlashda foydalanilgan. Tosh qirg'ich uzunchoq parrakcha bo'lib, bir uchi yoysimon tig' bo'lgan, muste davridagi qirg'ichdan ancha farq qilgan, undan yumshoq materiallarni ishlashda foydalanganlar. Asosiy ov quroli chaqmoqtoshdan yasalgan nayza bo'lgan¹⁰⁴. Mustye davri qurollaridan asosiy farqi toshlarni chaqmoqlash texnikasining o'zgarishi, mehnat qurollarida prizmatik shaklning paydo bo'lishi bilan farqlanadi.

So'nggi paleolit davrining eng noyob yodgorligidan biri hisoblanadigan Samarqand makonidan chaqmoqtosh, xalsedon, diorit, amfibolit, rogovik kabi tosh jinslaridan yasalgan qurollar kolleksiyasi topiladi. Qirg'ichlar, kesgichlar, sixlar, pichoqchalar, disksimon nukleuslar, uchirindilar, ushatgichlar, boltalar, yupqa

¹⁰² Вишняцкий Леонид Борисович. Введение в преисторию. Проблемы антропогенеза и становления культуры. Курс лекций. Издание второе, исправленное и дополненное. Кишинёв. Высшая Антропологическая Школа. 2005. С 189.

¹⁰³ Retushlash deganda chaqmoqtosh qurolni suyakdan yasalgan ingichka va uzun tayoq bilan bir necha ming marta urib yupqa tosh paraqalar uchirib, kerakli shaklga keltirish tushuniladi.

¹⁰⁴ Эгамбердиева Н. Археология. Тошкент, 2011. Б. 32-33.



paraqalar va boshqalar. Bular orasida hayvon terilarini ishlash uchun mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar, suyakdan yasalgan mehnat qurollari diqqatga sazovordir. Tosh boltalar va yo'ng'ichlar o'ziga xos ravishda ishlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ibtidoiy insonlarning taffakkuri rivojlanishi natijasida kichik farq bilan bo'lsada, evolutsion yo'l bilan o'z ehtiyoji uchun qurollar yasab yangilikga intilganlar. O'rta Osiyoda ilk paleolit davrida, qo'l cho'qmorlari, toshqirg'ich, tosh parchalari, chopper - daryo toshlaridan ishlangan qurollar, o'rta paleolit davrida, tosh qirg'ich, tosh parrakcha, nayzasimon tosh uchi, nukleus, o'tkir paykonlar, qo'l chopqichlari, kurakchalar va so'ngi paleolit davrida esa nayzasimon, tosh chopqich, tosh parrakcha kabi qurollar faoliyat yuritgan.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР:

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: Lesson press, 2019. – 279 б.
2. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Akademiya, 2009.
3. Абдусин Д.А. Основы Археологии учебни для вузув по спец. “История”.- М: 1989
4. Алманов.К, Элмуродов Б, Ахмедов Ж. Сўнги палеолит даврининг ўрганилиш тарихи. Археология Ўзбекистана. 2018. № 2.(17) Б-179
5. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015.
6. Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Предварительные итоги работы узбекско-российской археологической экспедиции (1998-2008) // O'zbekiston tarixi. – 2008. – Vol. 3. – С. 3-9; Кривошапкин.А Фан ва турмуш № 3-4-5, 2008 Б-29
7. Кривошапкин.А Обираҳмат одами: эволюция жумбоғи // Фан ва турмуш. – № 3-4-5, 2008 Б-29
8. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Ўзбекистон энг қадимги ва қадимги даврларда. Палеолит даври-мил. V аср. Тошкент, 2014.
9. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёштадқиқотчилар талқинида ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси МАТЕРИАЛЛАРИ ЎЗР ФА Археология институтида 2013-йил 27-28 мартда 21-бет



MILLIY MAFKURANING MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYASI – JAMIYATDA TINCH-TOTUVLIK VA BARQARORLIK OMILI.

Jo'raev Akram Namozovich
Azizqulov Ozodbek Odina o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
huzuridagi Malaka oshirish markazi
Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiali
o'qituvchisi
Tel: +998977449890

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'llar, erishilgan ulkan yutuq va marralar, ularning mohiyati va ahamiyatini har tomonlama bilish, uni zamondosh ongiga singdirish va fuqarolarda mustaqil hayotda erishilgan natijalarni his qilib yashash tafakkurini shakllantirish bugungi tobora globallashib borayotgan, jarayonlarga to'la davrda katta ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanox puxta ishlab chiqilgan, uzoq kelajakka mo'ljallangan, ezgu maqsadlarga hizmat qiladigan milliy g'oya va mafkurasini yaratganligi yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *polietnik va monoetnik, millat va elat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, kommunikativlik, milliy mafkura, diniy e'tiqod, globallashuv, milliy g'oya, demokratik taraqqiyot, kompromiss, konsensus va tolerantlik.*

Ma'lumki, hozirgi davlatlar etnik jihatdan asosan ikki turga – polietnik(ko'p elatli) va monoetnik(bir elatli) davlatlarga bo'linadi. O'zbekiston davlati polietnik davlatlar jumlasiga kiradi. Chunki, bugungi kunda mamlakatimizda 136 ta millat, elat, xalq vakillari yashaydi. Bunda o'zbeklar mamlakat aholisining 80% ni, qolgan millat va elat vakillari esa 20% ni tashkil qiladi. Demak, mamlakatimizdagi ichki siyosiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishning o'zgaruvchanligi o'zbeklar bilan birgalikda yashayotgan boshqa millat va elat vakillarining o'zaro munosabatlariga bog'liq. Shuning uchun ham, millatlar o'rtasidagi munosabatlarni odilona hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy



nazar, qonun oldida tengdirlar”¹⁰⁵,–deyilgan. Bu qonun-qoida millatlar o’rtasidagi munosabatlarni hal etishning huquqiy asosi – tamal toshi hisoblanadi.

Millatlararo totuvlik g’oyasi deb – muayyan mamlakatda yashayotgan ko’pchilikni tashkil qiluvchi asosiy millat bilan ozchilikni tashkil etuvchi boshqa elat va millat vakillarining yagona maqsad yo’lida birlashib, o’zaro tenglik, hamkorlik, ahillik, inoqlik bilan bir birlarining tili, diniy e’tiqodi, urf-odatlarini, an’ana va milliy qadriyatlarini hurmat qilib, e’zozlab yashashlarini tarannum etuvchi fikrlar va amaliy xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Millatlararo totuvlik bag’rikenglik, kommunikativlik, muloqot uchun ochiqlik va tayyorlik kabi shaxs uchun asosiy bo’lgan fazilatlarini tarbiyalashni taqozo etadi. Millatlararo totuvlik turli ijtimoiy institutlar xatti-harakatlarining o’zaro birikishini anglatadi.

Milliy mafkura tizimida millatlararo totuvlik g’oyasining mustahkam o’rin egallashi, mamlakatimizda tashkilot va ijtimoiy qatlamlar, turli institutlar o’rtasida o’zaro hamkorlik aloqalarini ta’minlash zarurati bilan izohlanadi.

Millatlararo totuvlik jamiyatning barcha sohalarini va strukturalari o’rtasida kechadigan demokratik hodisa bo’lib, shartli ravishda uning quyidagi shakllarini keltirish mumkin:

- millatlararo totuvlik va hamjihatlik;
- din va konfessiyalararo bag’rikenglik;
- shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat; (sotsial strukturalar)

Millatlararo totuvlik g’oyasi quyidagi konstitutsiyaviy tamoyillarga:

birinchidan, fuqarolarning qanday millat, elatga mansubligidan qat’iy nazar qonun oldida tengligi;

ikkinchidan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi;

uchinchidan, mamlakat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an’analari hurmat qilinishi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berilishi kabilarga asoslanadi. Mamlakatimizda bu tamoyilga amal qilinishi esa, barcha millatlarning ravnaqi, gullab - yashnashi uchun xizmat qilishi tabiiydir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qaysidir ko’p sonli millatlar:

birinchidan, o’zlarining moddiy - ma’naviy ehtiyoj va manfaatlarini boshqa kam sonli millat va elatlar hisobidan qondirish;

ikkinchidan, ularni har xil bahonalar bilan jismoniy jihatdan yo’q qilish yoki boshqa joylarga badarg’a etish;

¹⁰⁵ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston,2012. – B.6.



uchinchidan, ularning tili, dini, urf-odatlarini, an'analarini taqiqlash yoki kamsitish; *to'rtinchidan*, ularni sun'iy ravishda bioijtimoiy omillar asosida boshqalarga qo'shib yuborish siyosatini olib borsa bunday g'ayriinsoniy etnik siyosat yurgizayotgan mamlakatda hech qachon tinchlik va barqarorlik bo'lmaydi.

Ana shunday buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar haqida gap ketar ekan, O'zbekistonda millatlararo totuvlik nafaqat, o'zining tarixiy ma'naviy-madaniy asoslariga, balki, ayni paytda, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, odamlarimizda ertangi kunga ishonch hissini mustahkamlashdek ezga maqsadlarimizga qaratilgan real huquqiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy zaminlariga ham ega ekanini anglash mumkin.

"Biz istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilgan, mashhur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli yildan-yilga ilgari borganimiz sari o'zini amalda oqlab, naqadar to'g'ri va puxta ekanini isbotlamoqda, deb aytish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar ayniqsa dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko'rsatmoqda"¹⁰⁶.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, 2012 yilda mamlakatimizni, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, millatlararo totuvlikning mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Globalashuv bosqichi ijtimoiy hayot sohalarining bir-biriga bog'liqlik, ulardagi o'zaro ta'sir va taqozolanganlik darajasining yuqoriligi va kuchli dinamik o'zgaruvchanligi bilan boshqa davrlardagidan ajralib turadi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyot mezonlarini belgilashda o'ta ziyraklikni shart qilib qo'ymoqda. Zotan, har bir ijtimoiy guruh, qatlamlarning o'ziga xos manfaatlari bo'lib, ularning faoliyatlari ana shu manfaatlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Shunday sharoitda ularni yagona umummilliy manfaatlar yo'lida ham faoliyat yuritishlariga erishish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹⁰⁶ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. –28-b.



Bu yo'lda ijtimoiy guruh va qatlamlarning o'zaro munosabati markaziy o'rin egallaydi. Zero, ular o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatilmas ekan, jamiyatning har tomonlama olg'a siljishiga erishib bo'lmaydi. Millatlararo totuvlik ana shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan demokratik hodisadir.

Ijtimoiy guruh, sinf, qatlamlar manfaatlarining himoyasi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash, dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal etish, demokratiyani chuqurlashtirish, huquqiy davlat va ochiq demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash millatlararo totuvlikdan ko'zlangan asosiy maqsadlarni tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik siyosati faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasigagina emas, balki, turli guruh va qatalamlar, davlat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari ishtirokida shartnoma va kelishuvlar, siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni bajarish kabi muhim masalalarga ham yo'nalgan bo'ladi. Bunday qarorlarni qabul qilish jarayonida kishilarning katta guruhlari, mehnat jamoalari, aholi punktlari va hududlarning vakillari ishtirok etadi. Bunda, hokimiyat strukturalari aksariyat hollarda, muzokara yoki kelishuv jarayonining tashkilotchisi sifatida chiqadi.

Millatlararo totuvlik O'zbekiston jamiyati mafkuraviy tizimining asosiy g'oyalardan biridir. "Jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshiliklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli o'laroq, millatlararo totuvlik g'oyasi bu tabiiy bang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo'ysundiradi"¹⁰⁷.

Zero, zo'ravonlik ishlatilmaydigan dunyoni barpo etish butun insoniyatga daxldor masaladir. Biz XXI asrdagi urushlar natijasida butun insoniyat yo'q bo'lib ketishi mumkinligini anglaymiz. Bugungi kunda jahonda barqarorlikni saqlab qolish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini nazar-pisand qilmaslik tanglik, nizoli vaziyatlar va og'ir mojarolarni bevosita yoki bilvosita sabablari sanaladi. Fuqarolik jamiyatining muhim xususiyati shuki, unda mavjud ijtimoiy ziddiyatlar, manfaatlar to'qnashuvi madaniy-ma'rifiy yo'llar bilan hal qilinadi.

Umuman olganda, millatlararo totuvlik turli-tuman manfaatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashning rivojlangan shakllarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Zero, davlat va jamiyat o'rtasidagi chinakam hamkorlik munosabatlari, tenglik asosidagi dialog huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yanada mustahkamlashning muhim shartlaridandir.

¹⁰⁷ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 57-b.



Milliy mafkuraning millatlararo totuvlik g'oyasi – jamiyatda tinch-totuvlik va barqarorlik omili ekanligini hisobga olgan holda quyidagi xulosalar shakllandi

- Milliy mafkuraning maqsadlaridan biri – jamiyatni modernizatsiya etish jarayonida kuchli fuqarolik jamiyatini tasavvur etish, xalqimizga ruhiy jihatdan quvvat berish, ma'naviy oziqlantirish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rnatishga doir islohotlar jarayonlarida fuqarolarning safarbarligiga erishish, fuqarolik jamiyatining xalq farovonligi, davlat mustaqilligi kafolati ekanligi g'oyasini fuqarolar ongiga singdirishdir.

- Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir. Bu tamoyil bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli guruh va qatlamlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir.

Milliy g'oya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra barcha kishilarning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi. Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi hamkorlik, totuvlik, hamjihat munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotining shartidir.

Demokratik taraqqiyot yo'li tom ma'noda murosa falsafasiga tayanadi. Hozirgi davr mohiyat e'tibori bilan insoniyatning ko'p asrlik orzusining amalga oshib borayotgan bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, hozirda turli omil va sabablar asosida ming yillar mobaynida kechgan qirg'in-barot urushlar, ziddiyatlarga barham berish, o'zaro hamfikir, hamjihat bo'lib yashash uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanib borishi bilan millatlararo totuvlik barcha jamiyatlar uchun birdek ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatga aylanib bormoqda.

Albatta, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy voqielik hozirda ham jamiyat barqarorligiga xavf solayotgan turli tahdidlarning hamon mavjud ekanini ko'rsatmoqda. Bu esa, millatlararo totuvlikka bo'lgan ehtiyojni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Chunki, ob'ektiv xarakterga ega tahdidlarning oldini olish, zararli ta'sirini kamaytirish jamiyat a'zolari, guruhlar va qatlamlari o'rtasidagi hamjihatlik, hamkorlikni taqozo etadi. Binobarin, kelajak, undagi ma'naviy barqarorlikka hozirgi davrdagi amaliy harakatlar orqali zamin yaratiladi.

Shuning uchun, bu borada barcha yo'nalishlardagi o'zaro munosabatlar millatlararo totuvlik tamoyillari asosida qurilishiga alohida e'tiborni qaratish jamiyat a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.



Umuman olganda, yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar yuzasidan olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar bayon qilingan:

1. Millatlararo totuvlik kishilik jamiyati mavjudligining birlamchi shartlaridan hisoblanadi. Zero, ijtimoiy birliklar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik tufayli jamiyatni harakatga keltiruvchi mexanizm – ijtimoiy munosabatlar qaror topadi. Millatlararo totuvlik qonuniylik, ixtiyoriylik, demokratiya, o'zaro ta'sir, sog'lom raqobat, kompromiss, konsensus va tolerantlik tamoyillari asosida shakllanadi. Shu ma'noda, demokratik jamiyat millatlararo totuvlikning hosilasidir.

2. Hamkorlik munosabatlari ehtiyojlar, resurslar va sotsiotizimlar kabi bir-biriga, ham butunlik doirasida, ham har bir jarayonga alohida ta'sir ko'rsatadigan muhim omillarning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Shu tariqa, u har biri qo'shimcha ravishda nomuvofiq ehtiyoj va resurslarga ega bo'lgan mintaqaviy, sohaviy, sohalararo, professional, hududiy, individual darajadagi munosabatlarni vujudga keltiradi. Bu yo'nalishda amaliyotda, ayniqsa, mintaqaviy darajadagi millatlararo totuvlik tizimining shakllanishida ijobiy natijalarga erishilganini ko'rsatadi. Bunda, hamkorlik munosabatlarining institutlari va sub'ektlari, hamkorlik qilish modellarining aniqlangani, o'zaro ta'sirning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarining shakllangani e'tiborga molik.

3. Millatlararo totuvlik ijtimoiy kuchlarning o'zaro ta'sirlashuvining jamiyat uchun minimal yo'qotishlar evaziga turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va ziddiyatlarni tartibga solish imkoniyatini beruvchi universal shakli sifatida namoyon bo'ladi. Millatlararo totuvlikning qaror topish dinamikasi mehnat munosabatlari va siyosatdagi alohida strukturaviy elementlardan mukammal o'zaro ta'sirlashuv tizimi tomon rivojlanishni, o'z navbatida, ushbu tizimning o'zaro munosabatlardagi keskinlikni bartaraf etish va jamiyatni barqarorlashtiruvchi mexanizmga aylanishini ifodalaydi.

4. Millatlararo totuvlik g'oyasi ziddiyat nazariyasining turli manfaatlarning kelishuvini, kompromiss va konsensusga erishish yo'llarini izlashga bag'ishlangan qismidan kelib chiqadi. Shu ma'noda, millatlararo totuvlik jamiyatni jipslashtiradigan, ijtimoiy yaxlitlikni shakllantiradigan asosiy kuchdir. U ijtimoiy mehnat taqsimotining, ya'ni kishilarning kasblarga taqsimlanishi va ixtisoslashishining mantiqiy hosilasi sifatida vujudga keladi. Hamkorlik, hamjihatlik ijtimoiy guruh yoki jamiyat a'zolarining umumiy maslak va tuyg'ulari majmui bo'lgan ijtimoiy ongga asoslanadi. Jamoaviy ong xalqni, uning ideallari va an'analari xarakterini aks ettiradi.

5. Jamiyat hayoti sohalarining kengayib borishi sharoitida turli manfaatlarni muntazam ravishda muvofiqlashtirib borish kun tartibidagi asosiy masala hisoblanadi. Bu esa, tabiiyki, murakkab vazifadir. Millatlararo totuvlik jamiyatning



ijtimoiy mohiyatini chuqur ijtimoiy falsafiy tahlil asosida ochib berish, millatimiz, jamiyatimizning porloq istiqbolini ta'minlash uchun belgilab olingan g'oyalarimizning bunyodkor mazmunini jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlarimiz orasida maqsadga muvofiq tarzda targ'ib etishning samarali vositasidir.

6. Turli millat vakillari yashaydigan O'zbekiston uchun millatlararo totuvlik birlamchi zaruriyatdir. Shuning uchun, fuqarolar o'rtasida millatlararo totuvlikni buzishga qaratilgan har qanday urinishlar eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy yo'llar orqali bartaraf etilishi kerak. Bunga faqatgina siyosiy qarorlar orqali erishib bo'lmaydi. Zero, hamkorlikka intilish har birimizning ong va qalbimizdan mustahkam o'rin olishi, milliy g'urur va qadriyatlarimizning asosiy tamoyillaridan biriga aylanishi zarur.

7. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlat strukturalari, tadbirkorlik sub'ektlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik, hamkorlik asosiy omil hisoblanadi. Zero, faqat ijtimoiy sheriklikgina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishuvni ta'minlaydi, ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniga ega hisoblanadi hamda aholining huquq va erkinliklarini himoya etadi, turli manfaatlarni davlat yoki boshqa qatlam manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi va jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi huquqiy tayanchdir.

Shuningdek, millatlararo totuvlik ijtimoiy strukturalar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizo va ziddiyatlarning oldini olish yo'lidagi sa'y-harakatlar orqali takomillashib boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir sohada hamkorlikka intilish jamiyat barqarorligining mustahkam asosidir.

Umuman olganda, ushbu umumiy xulosalar quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

1. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik tamoyili tinch-totuv yashash omili hamda barqaror taraqqiyot kafolati ekanligini hisobga olib, yoshlarni bag'rikenglik va o'zaro manfaatli hamkorlik, teng huquqli sherikchilik ruhida tarbiyalash maqsadida oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar blokida "Millatlararo totuvlik asoslari" fanini o'qitish va bu fan doirasida darslik, qo'llanmalar chop etish.

2. Turli millat va dinga mansub kishilar o'rtasida hamjihatlik, hamkorlikni mustahkamlash, vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizo va ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan mahalliy hokimliklar qoshida "Millatlararo totuvlik markazlarini" tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Mehnat sohasidagi millatlararo totuvlik munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan mahalla, fuqarolik yig'inlari huzurida mehnatga layoqatli yoshlarning ish bilan bandligini muntazam ravishda monitoringi bilan shug'ullanadigan bo'limlar



tashkil etish va barqaror mehnat munosabatlarini shakllantirishda kasaba uyushmalarining rolini kuchaytirish zarur.

4. Radio va televidenie orqali millatlararo totuvlikning fuqarolik jamiyatini mustahkamlashdagi ahamiyati, jamiyat ijtimoiy qatlamlari o'rtasida barqaror aloqalarni ta'minlashdagi o'rnini yoritib berishga mo'ljallangan ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy mazmundagi ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash zarur hamda internetda bir vaqtning o'zida bir necha tillarda yuritiladigan, milliy ma'naviy xususiyatlarimizni har tomonlama ochib berishga mo'ljallangan, masalan, www.millatlararototuvlik.uz, nomidagi veb-saytlar tashkil qilish.

6. Oila va mahallaning millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o'rnini hisobga olib, mahallalarda "Hamfikir mahalladoshlar" klublarini tashkil etish; ba'zi kishilarga xos bo'lgan loqaydlik, yon-atrofdagilar hayotiga beparvolik, daxlsizlik illatlarining oldini olish maqsadida "Mahalla – demokratiya darsxonasi" mavzusida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish. Bu mahalladoshlar o'rtasida millatlararo totuvlik ruhini mustahkamlaydi.

7. Respublika baynalmilal madaniyat markazi tomonidan olib borilayotgan turli millat vakillari do'stligi, hamkorligiga qaratilgan tadbirlarni yanada rivojlantirish va targ'ib etishni kuchaytirish maqsadida OAVda shu mavzuga doir ko'rsatuvlar mazmunini takomillashtirish.

Bulardan tashqari, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashning asosi va eng muhim omili bu ko'p millat vakillari o'rtasidagi birlikni, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlay olishdir. Millatlararo totuvlik masalasini nazariy o'rganishni chuqurlashtirish va bu borada erishilayotgan ilmiy natijalarning amaliy tadbirini yo'lga qo'yish mamlakatimizda tinch va osuda hayotni mustahkamlashning hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.



THE LINGUISTIC FEATURES OF MODERN ENGLISH COMPOUND WORDS

f.f.d (DSc) Rasulov Zubaydullo Izomovich
Bafayeva Shakhnoza Bakayevna

Master of the Department of English Linguistics of BSU; email:
shaxnozabafayeva436@gmail.com; Tel: 998934552858

Annotation: *This article discusses about the linguistic features of modern English compound words.*

Key words: *word formation, modern compound words, linguistic features.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ АНГЛИЙСКИХ СЛОЖНЫХ СЛОВ.

ф.ф.д (DSc) Расулов Зубайдулло Изомович
Бафаева Шахноза Бакаевна

магистр кафедры английского языкознания БГУ; email:
shaxnozabafayeva436@gmail.com ; Tel: 998934552858

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические особенности современных английских сложных слов.

Ключевые слова: словообразование, современные английские сложные слова, лингвистические особенности

ZAMONAVIY INGLIZ TILI QO`SHMA SO`ZLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.


f.f.d (DSc) Rasulov Zubaydullo Izomovich
Bafayeva Shaxnoza Bakayevna

BDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida magistranti; :
shaxnozabafayeva436@gmail.com ; Tel: 998934552858

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning lingvistik xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Tayanch so'zlar: *so'z yasalishi, ingliz qo'shma so'zlar, lingvistik xususiyatlar.*





A compound word is a word that is formed by combining two or more bases in the process of morphological word production. For example, toothbrush is a toothbrush, biophysics is biophysics. How Meshkov O.D. notes in his work *Compounding in modern English*: "The problem of identifying a compound word in the English language is extremely complex and can, obviously, "claim to be" one of the most difficult in linguistic science. Its complexity is multifaceted and multifaceted¹⁰⁸."

The linguistic features of modern English compound words include¹⁰⁹:

1. Two or more words: Compound words are formed by combining two or more words to create a new, single word. For example, "laptop" is a compound word made up of "lap" and "top."

2. Stress pattern: The stress pattern of compound words generally falls on the first syllable. For example, in "laptop," the stress falls on "lap."

O'zbekiston, AQSH, Belarus, Janubiy Koreya, Ispaniya, Isroil, Malayziya, Pol'sha, Rossiya, Xitoy, Estoniya, Yaponiya, Qozog'iston, Armaniston kabi davlatlardan 100 dan ortiq gimnastikachi g'oliblik uchun bahslashdi.

Jahon kubogi bosqichining alohida gimnastika predmetlari yordamida mashq bajarish bo'yicha

shaxsiy bahslarda o'zbekistonlik sportchilar Anastasiya Serdyukova to'p va tasmada mashq bajarishda ikkita bronza medalini qo'lga kiritgan bo'lsa, Yelizaveta Nazarenkova bulavada mashq bajarish bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi.

Shaxsiy bahslarda Nuriniso Usmonovanning arg'amchi, halqa va to'p bilan bajargan mashqlari uchta bronza medalga loyiq topildi. Yana bir o'zbekistonlik





gimnastikachi Milana Tyan bulavada mashq bajarishda bronza medal` bilan taqdirlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Gimnastika i metodika prepodovaniya. Fiz-ra institutlari uchun darslik / V.M.Smolevskiyning tarixida. M f va S, 1987G.
2. Gimnastika fiz-ra institutlarining ped. Fakul`etlari uchun darslik. Toshkent, o'qituvchi nashr, 1982. O'zbek tilida, tarjima.
3. Gotovtsev P.I.Dolgoletie i fizicheskaya kul`tura M,F va S, 1985. str-96.
4. Lisitskaya T.S ritmicheskaya gimnastika (230 mashqlar) M,F va S, 1986.
5. Popova YE.G, Proizvodstvennaya gimnastika. Metodik ko'rsatma. Len-d 1986.
6. Mixaylova E.M, Ivanova YU.I ritmicheskaya gimnastika, spravochnik, M, 1987.
7. Rekomendatsii k provedeniyu zanyatiy ritmicheskoy gimnastikoy. Tashkent, TashGu, 1988.
8. Polievskiy S.A, Startseva I.D, fizkultura i profesiya. M, F i S, 1988 .
9. Usmanaliev T.B va boshqalar. Ritmik gimnastika. Chimkent, 1987.
10. Chernyaevskiy V.D fizkultura na otdixe. Tashkent, meditsina, 1988.



MEHNAT NIZOLARI KOMISSIYASINING YAKKA MEHNAT NIZOLARINI KO'RIB CHIQUISH VA HAL ETISHDA TUTGAN O'RNI

Saloxiddinova Sadaf Latifjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi

Mehnat huquqi yo'nalishi talabasi

Tel: +998934563225

Mamlakatda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining — Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ayrim toifadagi fuqarolik nizolarini sudgacha hal etish tartibini joriy etish nazarda tutildi¹¹⁴. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli "Nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi soha rivoji uchun muhim amaliy qadamlardan biri bo'lganligini e'tirof etish lozim¹¹⁵.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoiti yanada takomillashib borayotgan bir paytda taraflar o'rtasida konfliktlar, nizolar paydo bo'lishi muqarrar hisoblanadi va ulardan qochib qutulish emas, aksincha, mazkur kelishmovchilikni nizolashayotgan har ikki tomon maqsadlarini ifoda etgan holda ijobiy hal etish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Huquqshunos olim M.Raxmonning fikricha, hozirgi asrning o'tgan asrdan asosiy farqi XX asrda yuzaga kelgan nizolar asosan sud tartibida hal etilgan bo'lsa, XXI asr shunday asr bo'lib qoladiki, unda barcha nizolar faqat muqobil yo'llar yordamida hal etiladi¹¹⁶.

Nizolarni muqobil hal etish uzoq tarixga borib taqalishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, yunon faylasufi Aristotel o'zi ishtirokchi bo'lgan nizolarni hal etishda kuch ishlatish bilan emas, ko'proq taraflarning fikrini eshitish bilan qaror chiqarish mumkinligini e'tirof etgan. Aristotel nizolarni hal etishda qonuniy yo'llardan

¹¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4751561>

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4754-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/485943>

¹¹⁶ Ханукова Т.Э. Трудовые споры о праве: сравнительный анализ правовых норм Российской Федерации: Дисс... канд.юрид.наук. Москва, 2017 С-79



emas, aksincha muqobil yo'llardan (arbitr, mediatsiya) foydalanishni afzal ko'rishini, bunga sabab esa, arbitr masalaga teng yondashishi, har ikki tomonning ham mulohazalarini chuqur o'rganib chiqishga astoydil intilishi, sudya esa, faqat qonun doirasida ishni ko'rib chiqishi va xulosa chiqarishga majbur ekanligini bildirdi¹¹⁷. Nazarimizda, Aristotilning eramizdan oldingi asrlarda nizolarni hal etish yo'llari haqida bildirgan fikr-mulohazalari bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Bugungi kunda huquqiy nizolarni muqobil yo'llar bilan hal etish tartibi dunyo davlatlarining aksariyati uchun yangilik emas. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida konfliktlarni hal etishning noyuridik, mahalliy metodi sifatida keng foydalanib kelingan. Ilk bor fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni sudda emas, balki alternativ yo'l bilan (mediatsiya) hal etish Amerika Qo'shma Shtatlarida va G'arbiy Yevropada XX asrning o'rtalarida qo'llanila boshlangan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida nizolarni hal etishda muqobil yo'llarning jadallik bilan rivojlanishiga muhim omillardan biri sud tizimida ish yuklamalarining haddan ziyod ko'pligi va nizolarni sud orqali hal etishning qimmatligi bilan tavsiflanadi. Qisqa fursatlar ichida nizolarni hal etishda foydalaniladigan muqobil yo'llarning barcha shakllari AQSh kongressi, Amerika Advokatlar Assotsiatsiyasi, ko'p sonli sudyalari va soha olimlari tomonidan qo'llab-quvvatlana boshlandi¹¹⁸.

Aytib o'tish joizki, mehnatga oid nizolarni muqobil yo'llar bilan hal etish nizolarni sud protsessida hal etishning odatiy usulidan ancha farqli bo'lgan innovativ usulidir.

Muqobil yo'l bilan hal etish tizimining asosiy maqsadi huquqiy konfliktlarni samarali ravishda tartibga solish va qisqa vaqt ichida ko'rib hal etish hisoblanadi. Eng muhimi mazkur jarayonga taraflar o'z xohishi bilan ishtirok etishi va jarayon natijalaridan qoniqishi lozim.

Shuni alohida qayd etish lozimki, nizolarni muqobil yo'l bilan hal etish metodi korxonalar rahbariyati va jamoasi uchun juda foydali bo'lib, nizolashayotgan taraflar o'rtasida kelgusida ham korxonada birgalikda ishlab keta olishimiz mumkin degan ichki ishonchni shakllantiradi¹¹⁹.

¹¹⁷ Rwodze N.T.. The use of alternative dispute resolution mechanisms in labour relations in the workplace in south africa

¹¹⁸ Нагайцев В.В. Современные технологии альтернативного разрешения социальных конфликтов <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tehnologii-alternativnogo-razresheniya-sotsialnyh-konfliktov/viewer>

¹¹⁹ 1 Managing Workplace Conflicts in Business Environment: The Role of Alternative Dispute Resolution (ADR). European Journal of Business and Management. ISSN 2222-1905 (Paper) ISSN 2222-2839 (Online) Vol.6, No.36, 2014. Chrome extension://ohfgljdgelakfkefopgkclcohadegdpjf/http://eprints.covenantuniversity.edu.ng /8422/1/17353-19953-1- PB.pdf



Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari mehnat munosabatlaridan yuzaga kelgan nizolarni hal etishda turli xil maxsus jarayonlar va muqobil yo'llarning mavjud bo'lishini o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, qator xulosalarni bayon etdi.

Xususan, uning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi:

- Birinchidan, taraflarda yuzaga kelgan nizoni hal etishda muqobil yo'llarni solishtirib ko'rish va tanlash imkoniyati;

- Ikkinchidan, taraflarda har bir taklif etilayotgan muqobil yo'ning afzalliklaridan va kamchiliklaridan yaxshi xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi;

2020 yilda mamlakat bo'ylab yakka mehnat nizolari komissiyalari soni jami 52,084 tani tashkil etgan. Shundan davlat mulkida 23, 380 ta, xususiy korxonalar mulkida 1, 924 ta, fermer xo'jaliklarida 20, 691 ta, aksiyadorlik jamiyatlarida 1,093 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda 231 ta, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarda 229 ta, boshqa mulkchilik shakllarida 1, 536 tani tashkil etmoqda. Mazkur komissiyalar tomonidan jami 13, 765 ta yakka mehnat nizosi ko'rib chiqilgan bo'lsa, ularning 12, 698 tasi ijobiy hal etilgan¹²⁰. Ushbu statistik ma'lumotlardan ham anglash mumkinki, bugungi kunda mehnat huquqiy munosabatlardan yuzaga kelgan nizolarni mehnat nizolari komissiyada ko'rib chiqish va hal qilish tartibi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki, mavjud kelishmovchilikning komissiyada ko'rib chiqilishi uni hal qilish jarayonining tezlashishiga, zaruriy materiallarni va ish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida to'planishida, guvohlardan ko'rsatmalarning olinishida o'ziga xos qulayliklarni yaratadi.

Yakka mehnat nizolari komissiyasi korxonada yuzaga kelgan yakka mehnat nizolarini ish beruvchi va xodimlar o'rtasida ko'rib chiqadigan va hal etadigan jamoaviy organ hisoblanadi hamda huquqning boshqa sohalarida uchramaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 34-bobida yakka mehnat nizolarini mazkur komissiyada ko'rib chiqishning prosessual qoidalari belgilab o'tilgan. Mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyalar quyidagi masalalarga taalluqli nizolarni ko'rib chiqadi:

1. Belgilangan ish normalari va ishbay baholarning qo'llanishi, shuningdek ish normalarining bajarilishini ta'minlovchi mehnatningsharta-sharoitlari;
2. Boshqa ishga ko'chirish va unda mehnatga haq to'lash;
3. Mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusidan tashqari bekor qilinishi;

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Mazkur ma'lumot dissertasiya ilovasida taqdim etilgan



4. Ish normasi bajarilmagan, bekor turib qolingan va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgan hollarda mehnatga haq to'lash;
5. Ish vaqtidan tashqari soatlar va tungi vaqtda ishlaganlik uchun haq to'lash, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun kompensasiya berish;
6. Ishdan bo'shatilganda nafaqa to'lash;
7. Maxsus ish kiyimi, maxsus poyafzal, individual himoya vositalari, sut yoki shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari berish¹²¹.

Garchi, bugungi kunda mehnatga oid kelishmovchiliklar, nizoli ishlarni sudgacha hal etish yoxud nizolarni hal qilishning muqobil shakllarini kengaytirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilayotgan bo'lsa ham, mamlakat bo'ylab mehnat nizolari komissiyalari faoliyati, ya'ni unda qaysi turdagi nizolar ko'p uchrayotganligi, komissiya qaroridan norozi bo'lgan taraflarning sudga murojaat qilganlik va komissiya qarorining sud tomonidan qayta ko'rib chiqilganligi holati yuzasidan jamoatchilikka ochiq axborotlarning berib borilmasligi achinarli holat sifatida baholanmog'i lozim¹²². Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy

saytida mehnat nizolari komissiyalarining yillik faoliyati haqida umumiy statistik ma'lumotlar taqdim etib borilishi taklifini ilgari suramiz.

¹²¹ Mehnat huquqi: Darslik / M.A. Usmanova, O.A. Kamalov, T.N. Tillaev, O.J. Xolmuminov –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. B-155.



IDISH YUVISH VOSITALARINIG ZARARI.

A.I.Abdurazoqova.

Farg'ona sog'liqni saqlash tibbiyot instituti

Tibbiyot va biologik kimyo kafedrası

Annotatsiya: Barchaga ayonki bugun kimyo fanining yutuqlari va joriy etilayotgan yangiliklari xalq xo'jaligining barcha jabhalariga keng kirib bormoqda. Albatta bu jarayonning ikki tomoni borligiga e'tibor qaratmoqchimiz. Biri u talaygina qulaylik yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomoni inson sog'lig'iga yetkazayotgan zarari, deb aytish mumkin. Ushbu maqolada, idish yuvish vositalari zarari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yevroittifoq, idish yuvish vositalari, Sintetik, zararlari, gel, jarayon, inson, sog'lik, kimyoviy modda, sintezlanish, foydalanish, salbiy ta'siri.

Idish yuvish gellari qanchalik odamlar, ayniqsa bolalar sog'lig'iga putur yetkazishini hech o'ylab ko'rganmisiz. Har bir idish yuvish vositalarining tarkibida yuzaki aktiv moddalar mavjud bo'lib, geldagi limon, olma va boshqa hid beruvchi qo'shimchalar, gel tarkibidagi zaharli kimyoviy moddalarning hidini yashirish uchun qo'llaniladi. Bugun har bir ayol o'z oshxonasini zamonaviy idish yuvish vositalarisiz tasavvur qila olmaydi. Bir-ikki tomchi dastmolga tomizilgan kimyoviy vosita har qanday yog'liqlik darajasi mavjud idishni top-toza qiladi. Ammo uning qay darajada o'zi va oila a'zolarining sog'lig'iga ta'sir qilishi haqida kamdan-kam ayollar o'ylab ko'rishadi. Ko'pchilik idish yuvish vositalari bilan yuvilgan idish-tovoqni kamida yetmish marotaba chayqash zarurligini bilishmaydi. Aksariyat holatda vosita tarkibidagi zaharli kimyoviy moddalar idish yuzasida qolib, ovqat bilan inson organizmiga tushadi va bir qancha og'ir kasalliklarni keltirib chiqaradi.


Bugungi kunda qator xorijiy mamlakatlarda kimyoviy idish yuvish vositalariga qat'iy talablar qo'yilmoqda. Masalan, Yevroittifoqda maxsus reglamentga muvofiq idish yuvish vositalarining yorliqlarida tovar va uning tarkibi haqida to'liq ma'lumot berilishi zarur. Bundan tashqari ba'zi bir ingredientlar ularning kontsentratsiyasidan qat'i nazar sanab o'tilishi lozim. Misol uchun hid beruvchi moddalar. Rossiyada 2010 yilda qabul qilingan texnik reglamentga muvofiq, yuvish vositalari tarkibini to'liq sanab o'tish shart emas. Bundan samarali foydalangan ishlab chiqaruvchilar aksariyat holatlarda eng toksik va zaharli moddalarni "unutib" qoldirishadi. AQShda "antibakterial" degan yozuvi bo'lgan kimyoviy idish yuvish vositalari bilan birgalikda sovunlar, cho'milish gellarining sotishi taqiqlanish arafasida. Ko'p yillik tadqiqotlar



ularning tarkibida inson sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan 19 ta komponentni topishdi. Ularning eng asosiylari triklokarban va triklozan bo'lib, shu paytgacha mazkur moddalarga virusli va boshqa kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarni o'ldiradi, deb qaralar edi. Antimikroblilik triklozan jigar tsirrozi va fibrozni keltirib chiqarishga qodirligi esa yaqinda aniqlandi. Ekspert markazi rahbari Janet Vudokning fikriga ko'ra triklozanning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'liq aniqlangan. Birinchi galda yuvish vositasi inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lishi zarur.

Havoning ifloslanishi allaqachon juda muhim darajaga yetdi, shuning uchun toksik moddalarning tanaga ta'sirini kamaytirish juda muhimdir. Bu, ayniqsa, ichki havo uchun to'g'ri keladi. Uy kimyoviy moddalari, garchi uy ishlarida ajralmas yordamchi bo'lsa ham, kuchli havo ifloslantiruvchi moddalarga tegishli. Tozalash, yuvish, kir yuvish vositalari hayotni osonlashtiradi, lekin ayni paytda inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladi va saraton, gipertoniya, allergiya, asab kasalliklari va boshqalar kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Arzon yuvish vositalari ayniqsa zararli, ular tarkibida dermatitga olib keladigan fosfor qo'shimchalari va metabolizmni buzadigan zararli sirt faol moddalar mavjud. Tozalik muxlislari uyni kuniga bir necha marta yuvishsa, surunkali kasalliklarga duchor bo'lishlari va immunitetning umumiy pasayishi xavfi bor. To'g'ri, reklama ba'zan yolg'on gapirmaydi, ba'zan esa 10 plastinani yuvish uchun bir necha tomchi oladi. Biroq, plastinkada to'g'ridan-to'g'ri tomizmang, suv yoki nabugku uchun etarli miqdorda vosita. Sintetik detarjan idishlarni yuvish vositasi bilan yuvib tashlash kerakligini va kamida 15 soniya davomida idishning sirtini bir marotabadan tozalash etarli emasligini yodda tuting. Biz sifatli vosita haqida suhbatlashdik va agar soxta topilgan bo'lsa, nima sodir bo'lishi mumkin, hatto qo'rqinchli tasavvur qiling. Operatorlarning xabar berishicha, bunday asbob bilan deyarli har 10 ta shisha soxta. Ba'zida hatto sotuvchilar ham o'zlarini soxta sotganlarini bilishmaydi, chunki ular tovarlarga sertifikat olishni talab qilmaydi va ularning kelib chiqishi bilan qiziqmaydi. Har qanday idish yuvish vositasi tarkibida qatronik, ionli bo'lmagan, anion sirt faol komponentlariga ajralib turadigan sirt faol moddalar mavjud bo'lib, ular aslida yuvish jarayonining sifatini oldindan aniqlaydi. Sirt faol moddalarning tabiiy moddalari muhim rol o'ynaydi: masalan, karboksimetilseluloz, qayta sintezlanishni (yoki yuvilgan idishlarni mahsulotning o'zidan ikkinchi darajali ifloslanishini) oldini oladi; hidrotroplar, sirt faol moddalarning eritilishini kuchaytiradi. Idish yuvish vositalaridan tozalash vositalarini yaxshilaydigan yordamchi qismlar ham mavjud. Peroksi kislotalarning tuzlari, zaif noorganik kislotalarning tuzlari (natriy silikatlar, turli kompozitsiyali natriy bikarbonat fosfatlar), dezinfektsiyalash va sayqallash xususiyatlariga ega.





Oddiygina kundalik turmushda foydalanilayotgan yuvuvchi vositalar uy bekalarining ishini yengil qilib, beminnat yordamchisiga aylandi. Yuvish vositalari, ayniqsa kislotalar bilan oqartiruvchi vositalarni aralashtirish mumkin emas, bunday aralashmalar zaharli, o'ta xavfli gazlarni hosil qiladi.

Xo'sh, inson nima qilsa ularning foydasi ko'p, zarari kam bo'ladi? Qanday qilib ehtiyot bo'lish mumkin?

Ehtiyot choralari:

- Belgilangan yo'nalish va me'yorida foydalanish;
- yuvish vositalaridan foydalanayotganda rezina qo'lqop kiyish;
- yuvish vositalari, ayniqsa kislotalar bilan oqartiruvchi vositalarni aralashtirmaslik;
- kimyoviy vositalarni qo'llashdan oldin ularning o'ram qog'ozlaridagi xavfsizlik talablarini diqqat bilan o'qib chiqish.

Xulosa o'rnida, ba'zi yuvish suyuqliklari yuviladigan yuvilgan oqsillarni ifloslantiruvchi moddalarni, ko'pikli stabilizatorlar va tabiiy bakteritsidlarni olib tashlashga qodir fermentlarni o'z ichiga oladi. Biroq, dietanolamin har qanday qobiliyatli vositani o'z ichiga oladi va bu komponent jigarda zarar ko'radi. Bundan tashqari, deyarli barcha yuvish suyuqlari xlorini o'z ichiga oladi, bu bilan biz nafas olamiz, shundan keyin bosh og'rig'i, ko'zlardagi hissiyot, nafas olish qiyinligi, charchash va odatdagi idishlarni yuvishdan keyin bularning hammasi bo'ladi. Odatda bu tarkibiy qismlar "parfyumeriya" uchun tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun yuvilgan idishlar har doim juda xushbo'y hidlanadi. Ko'pgina Evropa davlatlari 20 yil oldin zararli tarkibiy qismlardan voz kechib, toza ekologik tarkibiy qismlarga o'tdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muftaqov A. G. Umumiy kimyo Toshkent, 2018y
2. Teshaboev S, Nishonov M. Anorganik kimyo Toshkent 2020 y.
3. Mirzayev P. N, Mirzayeva M.P. Kimyo Navoiy 2010y.
4. Mirkomilova M. "Analitik kimyo". O'zbekiston, Toshkent–2017 y. 5.
5. Fayzullayev O. "Analitik kimyo asoslari". 2015 yil.



QILICHBOZLARNING TEZKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xudayberganova Sevila Abduvoxitovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

QB-51-21 guruh talabasi

Annotatsiya. *Tezkorlik sifatlarni rivojlantirishni orqali Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilish va o'tkazish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy imkoniyat, sportchi, jismoniy sifatlar, tezlik, tezkorlik, energiya, tezkor-kuch.*

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani hech kimga sir emas. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish borasida Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarining qabul qilinishi sohaga e'tiborning tasdig'idir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan bugungi kunda olib borilayotgan chuqur islohatlar yosh avlodni har tomonlama aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya va sport asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib, millat genafondini asrash, oilada, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va madaniyat darslarining sifatini yaxshilash, maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va ularni samaradorligini oshirish, sport turlarini rivojlantirish va ommaviylikini oshirish, iqtidorli sportchilarni tanlash hamda yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi. Qilichbozlarning tezkorlik sifatini oshirishda vosita va usullarini to'g'ri tanlash.

Jahon miqiyosida tobora kuchayib borayotgan raqobat, turli mamlakatlarning etakchi sportchilarining teng bellashuv olib borishi va murabbiylarning noto'g'ri hisob-kitoblari ko'pincha xalqaro musobaqalarda yuqori darajadagi sportchilarning rejadan tashqari mag'lubiyatlariga va ularning sport natijalari barqarorligining pasayishiga olib keladi. Ushbu holatlar sportchilarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni, shu jumladan murabbiylardan raqobatbardosh faoliyatning barcha asosiy jihatlarini talab qiladi. O'z navbatida, bu jarayon faqat sportchilarning




individual raqobatbardosh harakatlarining mazmuni va tuzilishini belgilaydigan omillar to'g'risida har tomonlama ma'lumot mavjud bo'lganda samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda malakali sportchilarining mashg'ulot jarayonida ishlatiladigan texnik va taktik tayyorgarlik vositalarining yo'nalishi va raqobatbardosh faoliyatning tuzilishi o'rtasida sezilarli darajada takrorlanuvchi mashqlar mavjud bo'lib, bu ko'pincha ushbu faoliyat samaradorligini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Ma'lumki, mashg'ulot jarayonida barcha texnik taktik harakatlarni favqulotli va o'zgaruvchan vaziyatlarda tezkor shiddat asosida ijro etish talab qilinadi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda, texnik taktik harakatlarga o'rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o'zgaruvchan yo'nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilish va o'tkazishga bog'liqdir. Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda, sportchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, texnik va taktik tayyorgarligini bilish zarurdir shu bilan birgalikda yosh sportchilar misolida tezkorlik sifatini rivojlantirishda innovasion mazmunli harakatli o'yinlar va ixtisoslashtirilgan pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan fikrlarni to'laqonli amalga oshirish uchun murabbiydan kerakli bilim va mahorat talab qilinadi.

Sportchilarning tezkorlik sifatlarni rivojlantirish deganda biz sportchilarga maxsus harakat faoliyatini ta'minlab beruvchi jismoniy imkoniyatlarni tushunamiz. Ko'p yillardan beri mutaxassislarining izlanishlari sportchilarning musobaqa faoliyatining asosiy unsurlari, uning kechishidagi o'ziga xosliklar o'z aksini topadigan maxsus testlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Hozirda sportchilarning tezkorlik sifatlarni rivojlantirish darajasi musobaqa faoliyatining asosiy o'lchamlarini modellashtiradigan maxsus testlar yordamidagina baholanishi mumkinligi barchaga ma'lum. Sportchilarning tezkorlik sifatlarni rivojlantirishini baholashda turli pedagogik va tibbiy-biologik testlar qo'llanilib, ularning asosini mashg'ulotlarda sherikni yiqitishlar (yiqitishlarga miqdoriy va sifatiy baho beriladi) hamda berilgan yuklamaga organizmdagi turli tizimlarning reaksiyasi o'zgarishlarini o'rganish tashkil etadi. Bir necha yillar davomida turli mutaxassislar sport sportining har xil turlarida tezkorlik sifatlarni rivojlantirishni baholash bo'yicha ko'plab testlarni, shuningdek, testlarning bajarilishi natijalarini hisoblash formulalarini ishlab chiqdilar.

Insonning harakat masalalarini jadal sur'atlarda bajara olish imkoniyatini ifodalash uchun bir necha yillar davomida «tezkorlik» atamasi ishlatilib kelingan. Harakat tezkorligining ko'plab shakllari mavjudligini va ularning o'ziga xosligini e'tiborga olib, bu atamasi so'nggi vaqtlarda «tezlik qobiliyati» tushunchasiga





almashtirildi. Tezlik qobiliyati – bu minimal vaqt oralig'idagi sharoitda harakatlarning bajarilishini tasdiqlovchi inson xususiyatlarining funksional majmuasi.

Tezkorlik sifatlarni rivojlantirishni baholash uchun bugungi kunda testlarning miqdori yetarlicha bo'lsa ham, bu muammoni hal etilgan deb bo'lmaydi. Ko'pgina olimlar va pedagoglar sportchilarning musobaqa bellashuvlarini olib borishlarida sezilarli tafovutlar mavjudligini takror-takror qayd etganlar va bu tafovutlarni hisobga olish hamda o'quv-mashq jarayonida ulardan foydalanish zarurligini ta'kidlaganlar. Lekin, garchi testlarning axborotga boyligi ularning muayyan sportchilar faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlar va sharoitlarga nechog'lik yaqinligi bilan o'lchanishi ko'pchilikka ayon bo'lsa-da, hozirgacha ma'lum bo'lgan testlar sportchilarning musobaqa bellashuvlarini olib borishdagi alohida harakat xususiyatlarini hisobga olmay yaratilgan. To'g'ri, o'z testlarini amaliyotda qo'llashni taklif etgan ayrim mualliflar o'zlari ishlab chiqqan testlar umuman olganda sportchilarning harakat xususiyatlariga mos ekanligini aytib o'tgan bo'lsalar-da, lekin bu fikr yetarlicha faktik ma'lumotlar bilan mustahkamlanmas edi. Tabiiyki, bunday holatda foydalaniladigan testlar doim ham sportchilar uchun mos bo'lavermaydi va ularning jismoniy tayyorgarligi to'g'risida noto'g'rit asavvur paydo bo'lishiga olib keladi.

Qilichbozlarning tezkorlik sifatlarni rivojlantirish harakatlanish sifatlarini sportchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlari tomonidan qo'yiladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida mumkin bo'lgan turli murakkabliklarni jalb qilgan holda musobaqa mashqlari qo'llaniladi. Bunday murakkablashtirilgan mashqlar sportchi organizmiga bo'lgan ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, og'irroq vazn toifasidagi sherigini tashlash, sheriklarni almashtirgan holda o'quv-trenirovka bellashuvlari bajariladi va h.k. Mana shu tanlashlar energiya ta'minotining u yoki bu mexanizmlarini shakillanishiga kompleks holda ta'sir ko'rsatadi, hamda bir vaqtning o'zida uning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshiradi.

Jismoniy tayyorgarlikning ko'rsatilgan barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Trenirovka jarayonida biron bir jismoniy tayyorgarlik turlariga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratini oshishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun trenirovka jarayonida ko'rsatilgan jismoniy tayyorgarlik turlarining optimal nisbatiga rioya qilish juda muhimdir. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rishi tanlangan sport turini o'ziga xos talablariga javob bera oladigan jismoniy sifatni tarbiyalash jarayonidan iboratdir. Ma'lumki sportning har bir turi, sportchining jismoniy sifatlari maxsus talablar qo'yadi, xilma xil jismoniy sifatlari o'ziga xos uyg'unlashgan bo'lishi va namoyon etilishini talab qiladi. Masalan, sportchidan avvalo tezkor-kuchlilik sifatlarning maxsus nisbatda bo'lishi (ba'zan uni kuch-quvvat



deb ataladi), shuningdek, mushak qisqarishining energetik resurslaridan anaerob (kislrod yetishmagan holda) foydalanishga asoslangan tezlikka chidam talab qilinadi. Turli jismoniy sifatlarni o'ziga xos ravishda namoyon etish va uyg'unlashtirishga asoslangan ana shunday spesifik qobiliyatlarni tarbiyalash sportchi maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rishi orqali erishiladi.

Yosh sportchilarni tayyorlashda maqsadga muvofiq rejalashtirilgan jismoniy tayyorgarlik mahoratni shakllantirishda va musobaqa davomida yuksak natijaga erishish nihoyatda muhim omillardan biridir. Lekin, sport amaliyotida har doim ham rejalashtirilgan jismoniy mashqlar muvofiq harakat sifatlarini rivojlantirishda kutilgan natijani bermaslik holatlari tez-tez uchrab turadi. Buning asosiy sabablaridan biri mashg'ulotlarda qo'llanilgan u yoki bu jismoniy mashqlarning hajmi va shiddati, hamda ushbu ko'rsatkichlarni shug'ullanuvchilar organizmiga ta'sir etish darajasi ob'yektiv ravishda baholanmasligidadir. Shuning uchun ham o'quv-trenirovka jarayonida qo'llanilayotgan jismoniy yuklama (jismoniy mashqlar)ning shug'ullanuvchilar organizmining funksional imkoniyatlariga muvofiqligi e'tiborga olinishi shu yuklamalarning maqsadga muvofiq rejalashtirish imkonini boradi.


Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar bilan uzoq muddat mobaynida muntazam shug'ullanish natijasida sportchilarning texnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli darajada shakllanishi mumkinligini tadqiqot asosida isbot qilib berganlar.

Xulosa. Qilichbozlarning tezkorligini tarbiyalashda vosita va usullarni to'g'ri tanlash lozim. Tezkorlikni rivojlantirishda markaziy asab tizimi qo'zg'aluvchanligining optimal holatiga faqat shug'ullanuvchilar oldingi faoliyatdan toliqmagana bo'lsalargina erishish mumkin. Shuning uchun tezkorlik mashqlarini mashg'ulot boshida bajarish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev, M Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, 1-qism, (darslik)/ Abdullayev, M- T. "TURON-IQBOL", 2020, - 204b.
2. Berdiyev F. O. ERKIN KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK BOSQICHIDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 61-67.
3. Ochilovich B. F., Abduvoxitovna X. S. QILICHBOZLARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 1038-1041.





4. Ochilovich B. F. BELDAN OSHIRIB TASHLASH USULINI BAJARISHDA ERKIN KURASHCHILARNING TEZLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 6. – С. 161-165.

5. Ochilovich B. F. YOSH ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 539-543.

6. Бердиев Ф. О. СВЯЗЬ ЭМОЦИЙ С ПСИХИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ БОРЦОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-3.

7. Бердиев Ф. О. и др. ОРГАНИЗАЦИЯ КИКБОКСЕРСКИХ КЛУБОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ ПРИВЛЕЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ К ОЛИМПЕЙСКОМУ СПОРТУ //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 107-110.



**METAN MOLEKULASINI OKSIDLOVCHI ISHTIROKISIZ SHAROITDA
PALADDIY MIKROG‘OVAKLI METALI YUTTIRILGAN KREMNIY VA ALYUMINIY
OKSIDLARIDA YUQORI UGLEVODORODLARGA KATALITIK O‘ZGARISHINI
O‘RGANISH**

Narkulova Gulnoza Xolbo‘tayevna

*Toshkent davlat texnika universiteti, neft va gaz fakulteti dekani
professor O‘rinov Ulug‘bek Komiljonovich*

Annotatsiya; Metan (CH_4) katalitik oksidlashi uchun, kremniy va alyuminiy oksidlarida yuqori uglevodorodlar bilan bir qator reaksiyalar o‘tkazilishi mumkin. Bu reaksiyalarni o‘rganish uchun detallangan laboratoriya va soha tadqiqotlari talab qilinadi, shuningdek har bir katalizatorning xususiyatlari va optimal sharoitlari ko‘rib chiqilishi kerak. Kremniy va alyuminiy oksidlarni metan oksidlovchilari sifatida qo‘llash va ularda yuqori uglevodorodlarni oksidlash, esa katalitik o‘zgarishlarini o‘rganishning bir nechta tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: metan molekulasini, oksidlash, paladdiy, kremniy, uglevodorod, katalitik o‘zgarishi, alyuminiy, mikrog‘ovakli.

Абстрактный; Для каталитического окисления метана (CH_4) можно провести ряд реакций с высшими углеводородами на оксидах кремния и алюминия. Изучение этих реакций требует детальных лабораторных и полевых исследований, а также рассмотрения свойств и оптимальных условий каждого катализатора. Применение оксидов кремнезема и алюминия в качестве окислителей метана и окисление в них высших углеводородов, изучение каталитических превращений включают несколько концепций.

Ключевые слова: молекула метана, окисление, палладий, кремний, углеводород, каталитическая конверсия, алюминий, микропоры.

Abstract; For the catalytic oxidation of methane (CH_4), a number of reactions can be carried out with higher hydrocarbons on silicon and aluminum oxides. Studying these reactions requires detailed laboratory and field studies, as well as consideration of the properties and optimal conditions of each catalyst. The application of silica and aluminum oxides as methane oxidizers and the oxidation of higher hydrocarbons in them, and the study of catalytic transformations, include several concepts.

Key words: methane molecule, oxidation, palladium, silicon, hydrocarbon, catalytic conversion, aluminum, microporous.



Kirish

Kremniy va alyuminiy oksidlarning yuqori uglevodorodlarga katalitik o'zgarishi, oksidlovchi ishtirokisiz sharoitda paladdiy mikrog'ovakli metalli yuttirilganda olib borilgan. Bu protsess katalizatsiya deb ataladi, va u oksidlarning molekulyar tuzilishiga kiritilgan metani oksidlash yoki shuningdek yuqori uglevodorodlar bilan reaksiya ketishini ta'minlaydi. Paladdiy mikrog'ovaklarida katalitik reaksiyalarni olib borish o'zgaruvchanliklari va reaksiyalarni tezlashtirish imkonini beradi. Paladdiyning bu xususiyati uning elektron tuzilishiga, yoki elektronlarni qabul qilish va qaytarishga, juda oson bo'lishi bilan bog'liq. Bu, paladdiyning molekulyar ta'qiqlanuvchanligi va aktivligini oshiradi.

Metan (CH_4) katalitik oksidlashi uchun, kremniy va alyuminiy oksidlarida yuqori uglevodorodlar bilan bir qator reaksiyalar o'tkazilishi mumkin. Bu reaksiyalarni o'rganish uchun detallangan laboratoriya va soha tadqiqotlari talab qilinadi, shuningdek har bir katalizatorning xususiyatlari va optimal sharoitlari ko'rib chiqilishi kerak. Kremniy va alyuminiy oksidlarni metan oksidlovchilari sifatida qo'llash va ularda yuqori uglevodorodlarni oksidlash, esa katalitik o'zgarishlarini o'rganishning bir nechta tushunchalarni o'z ichiga oladi, masalan:

- Paladdiy (Pd) mikrog'ovakli metalli, metan oksidlanish reaksiyasini katalizator sifatida ishlatishda juda samarador bo'ladi. Kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy niqobli katalizatorlar sifatida yutqazilishi mumkin. Bu niqoblarda paladdiy partikullari kichik o'lchamdagi toz shaklida joylashgan bo'lib, ularda katalitik reaksiya uchun yuqori yo'g'li maydon yaratiladi.


- Kremniy oksid (SiO_2) va alyuminiy oksid (Al_2O_3) esa inorganik materiallar hisoblanadi, va ularning yuqori temperaturada kuchli qayta-ishqalash xususiyatlari mavjud. Bu oksidlar katalitik materiallar sifatida ishlatilishda, ularga paladdiy mikrog'ovakli metalli qo'shish orqali ularning katalitik faoliyati oshiriladi.

Yuqori uglevodorodlar bilan katalitik o'zgarish reaksiyalari ko'p o'rniga ishlatiladi, masalan, metan, etan, propan, butan va undan ko'p karbon atomli uglevodorodlar bilan. Ular katalizatorlar va qayta-ishqalash sharoitlari orqali katalitik o'zgarishga uchraydilar. Kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy mikrog'ovakli metalli katalizator sifatida qo'llash, yuqori uglevodorodlarni yuqori temperaturalarda oksidlash vaqti va temperaturani pastlashgan holatda o'zgarishlarini keltiradi. Bu jarayonlar bilan ilgari tafsilotlarga va katalitik o'zgarishning o'ziga xos reaksiyalarga kirishish uchun katalitik kimyo va metallar kimyosi sohasidagi ko'nikmalar bilimini o'rganishingiz kerak.

Kremniy va alyuminiy oksidlarining uglevodorodlarga katalitik o'zgarishi haqida so'zlashishdan oldin, "metan" so'zi va "oksidlovchi" degan terminlarni to'g'ri



tushunishimiz kerak. Metan, eng sodda uglevodoroddur va asosan gidrokarbon qo'llaniladigan gazdir. Oksidlovchi esa, oksigen bilan oksidlangan bo'lishi ma'nosini beradi. Bu haqida bilmagan bo'lsangiz, qisqa ma'lumot berayotganman. Metan (CH₄) oksidlovchi sharoitda, ya'ni oksigen bilan aloqador bo'lganda, oksidlanishi mumkin. Bunday oksidlash jarayoni yonma-yon ko'rsatkichli reaksiyaga olib keladi:



Ya'ni, metan va oksigen reaksiyasi natijasida karbondioksid (CO₂) va suv (H₂O) hosil bo'ladi. Bu reaksiya birinchi navbatda tez va yaqin reaksiya bo'lib, qator qo'llanilgan katalizatorlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Paladdiy (Pd) mikrog'ovakli metali, metan oksidlanish reaksiyasini katalizator sifatida ishlatishda juda samarador bo'ladi. Kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy niqobli katalizatorlar sifatida yutqazilishi mumkin. Bu niqoblarda paladdiy partikullari kichik o'lchamdagi toz shaklida joylashgan bo'lib, ularda katalitik reaksiya uchun yuqori yo'g'li maydon yaratiladi.

Kremniy oksid (SiO₂) va alyuminiy oksid (Al₂O₃) esa inorganik materiallar hisoblanadi, va ularning yuqori temperaturada kuchli qayta-iskratash xususiyatlari mavjud. Bu oksidlar katalitik materiallar sifatida ishlatilishda, ularga paladdiy mikrog'ovakli metali qo'shish orqali ularning katalitik faoliyati oshiriladi. Yuqori uglevodorodlar bilan katalitik o'zgarish reaksiyalari ko'p o'rniga ishlatiladi, masalan, metan, etan, propan, butan va undan ko'p karbon atomli uglevodorodlar bilan. Ular katalizatorlar va qayta-iskratash sharoitlari orqali katalitik o'zgarishga uchraydilar. Kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy mikrog'ovakli metali katalizator sifatida qo'llash mumkin.

Paladdiy mikrog'ovaklarida katalitik reaksiyalarni olib borish o'zgaruvchanliklari va reaksiyalarni tezlashtirish imkonini beradi. Paladdiyning bu xususiyati uning elektron tuzilishiga, yoki elektronlarni qabul qilish va qaytar

Metan (CH₄) katalitik oksidlashi uchun, kremniy va alyuminiy oksidlarida yuqori uglevodorodlar bilan bir qator reaksiyalar o'tkazilishi mumkin. Bu reaksiyalarni o'rganish uchun detallangan laboratoriya va soha tadqiqotlari talab qilinadi, shuningdek har bir katalizatorning xususiyatlari o'rganib chiqiladi.

Kremniy va alyuminiy oksidlarni metan oksidlovchilari sifatida qo'llash va ularda yuqori uglevodorodlarni oksidlash, esa katalitik o'zgarishlarini o'rganishning bir nechta tushunchalarni o'z ichiga oladi, masalan:

1. Adsorpsiya: Metan molekullari oksidlovchi yuzasiga adsorobiladi (tutashadi) va katalitik reaksiya uchun amalga oshiriladi. Adsorpsiya jarayoni metan



molekulalari bilan kremniy va alyuminiy oksidlarining yuzasidagi kimyoviy aloqalarga olib keladi.


2. Aktivatsiya: Metan molekulalari adsorbiyada, ularning kimyoviy aloqalari oksidlovchi sharoitda o'zgaradi. Bu aloqalar metanning kimyoviy aloqalarini o'zgartiradi va reaksiya uchun ulgurjaydi.

3. Oksidlash: Aktivatsiyalangan metan molekulalari, oksidlovchi oksidlar bilan reaksiya ketib, oksidlash jarayonini boshlaydi. Bu reaksiyada karbon va gidrogen atomlari ajralib ketadi, natijada karbon monoksida (CO) va suv (H₂O) hosil bo'ladi.

Yuqori uglevodorodlar (masalan, etan, propan, va butan) ham oksidlovchi reaksiyalarga qo'llanilishi mumkin. Ularning oksidlovchi reaksiyalari oksidlovchi oksidlar va yuqori uglevodorodlar orasidagi kimyoviy aloqalar asosida sodir bo'ladi. Bu katalitik o'zgarishlarni tushunish va optimallashtirish uchun laboratoriya va soha tadqiqotlari davom etmoqda. Katalizatorning tarkibi, miqdori, molekulyar tuzilishi, temperatura va boshqa sharoitlar, reaksiyaning yorqin jarayonida o'zgarishlarni ta'minlash uchun muhim o'zgaruvchilar hisoblanadi.

Paladdiy mikrog'ovakli metali, yani paladdiy nanozarralari, katalitik faoliyatni oshirish uchun keng qo'llaniladigan katalizatorlar hisoblanadi. Bu tarkibiy metallar uchun asosiy afzalliklari, ularga xossalangan bo'lish va yuqori faoliyatga ega bo'lishlari hisoblanadi. Bu xossaliklar, katalitik o'zgarishlarda muhim bo'lgan molekulalar bilan aloqani o'zgartirish, ularga adsorblash, atomlar orasidagi aloqani hosil qilish, yoki reaksiyalar uchun kerakli energiya yengillarini pastlashtirish kabi jarayonlarda o'zini namoyon qiladi. Kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy mikrog'ovakli metalining katalitik o'zgarishi, yuqori uglevodorod molekulalarining oksidlant (yoki oksidlanuvchi) sifatini ifodalaydi. Bu jarayonni eng yaxshi tushuntirish uchun biror bir reaksiya misolini ko'rsatish mumkin.

Misol uchun, paladdiy mikrog'ovakli metalining katalitik faoliyati orqali karbon monoksid (CO) va suv (H₂O) gazlarining karbongidrida (CH₄) o'zgarishi ko'ramiz:




Bu reaksiya, metan molekulasini oksidlovchi (yoki gidrokarbonlarni reduksiyalovchi) bir reaksiyadir. Uglevodorodlarni oksidlantlar (masalan, CO) bilan hidrokarbonlarga (masalan, metan) o'zgarish katalitik faoliyat asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon katalitik qismi (paladdiy nanozarralar) yordamida sodir bo'lishi mumkin.

Paladdiy mikrog'ovakli metalining katalitik o'zgarishi bu misol bilan chegaralangani, kremniy va alyuminiy oksidlarida yuqori uglevodorodlarga



(masalan, metan) o'zgarishi muhim bo'lgan kimyoviy jarayonlarda katalitik aktivlikka ega bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu tarkibiy metallar katalitik reaksiyalarni tezlashtirish, energetik chegaralarni pastlashtirish va kerakli o'zgarishlar uchun ko'rsatkichlar sifatida xizmat qilishlari bilan ajralib turadi. Paladdiy mikrog'ovakli metalli, katalitik oksidatsiya reaksiyalari uchun o'rnatilgan bir qismidir. U oksidatsiya-reduksiya katalizatorlari bo'lib, u olamidagi bir nechta kimyoviy reaksiyalarni faollashtiradi.

Metanol molekulasini oksidlash uchun paladdiy mikrog'ovakli metalli katalizatori keng qo'llaniladi. Metanolni oksidlash jarayoni oxide-reduksiya reaksiyasi bo'lib, quyidagicha ifodalash mumkin:



Bu reaksiya mikrog'ovakli paladdiy katalizatori orqali amalga oshiriladi. Paladdiy metalli va yuqori ko'prik oksidlari, masalan, kremniy va alyuminiy oksidlari, birgalikda ishlatiladi. Bu, katalitik oksidatsiyani yaxshilanadir va reaksiyani tezlashtiradi. Paladdiy mikrog'ovakli metalli, oksigen molekulalari bilan o'zaro aloqani yaratadi va bunday aloqalar orqali oksigen atominin elektronlarini ulaydi. Buning natijasida oksigen atomi yuqori uglevodorodlar, masalan, metanol bilan aloqalanadi va oksidlanadi.

Paladdiy mikrog'ovakli metalli katalizatori, kremniy va alyuminiy oksidlari bilan birgalikda ishlatilganda, bu oksidlar katalizator yuzasida oksigen molekulalari bilan aloqada bo'lishi uchun oksidatsiya jarayoni ko'proq yuqori tezlanadi. Bu, yuqori uglevodorodlarni katalitik o'zgarishini oshiradi. Bundan tashqari, kremniy va alyuminiy oksidlari paladdiy metalli katalizatorining strukturasi sifatida xizmat qiladi. Ular paladdiy metalli molekulalari orasida yuqori povernost yaratadi va reaksiya yuzasi sifatida xizmat qiladi. Bu ko'rsatkich, paladdiy metalli va oksidlarning birgalikda ishlatilishi orqali oksidatsiya jarayonida faol bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, paladdiy mikrog'ovakli metalli va kremniy oksidlari kombinatsiyasi yuqori uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishishni tezlashtiradi va bunday reaksiyalar bilan aloqada bo'lgan kishilotlarni oshiradi.

XULOSA

Kremniy va alyuminiy oksidlar, paladdiy mikrog'ovakli metalli bilan birgalikda ishlatilganda, katalitik o'zgarishning amalga oshirilishida muhim rol o'ynayadi. Paladdiy metalli, yuqori uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishadi. Paladdiy metalli, kremniy va alyuminiy oksidlarida katalitik o'zgarishni o'rnatilganda, molekulalar o'rtasidagi elektronlararo o'zaro aloqalar yaratadi. Bu aloqalar, katalizator va uglevodorod molekulalari orqali yuzaga keladi.

Yuqori uglevodorodlar, paladdiy mikrog'ovakli metalli yutqazilgan kremniy va alyuminiy oksidlarda adsorblanishi mumkin. Adsorblanish, molekulalar o'rtasidagi



elektronlararo aloqa yaratadi va molekulalar orasidagi reaksiyani oshiradi. Bu katalitik o'zgarish, yuqori uglevodorodlar bilan kremniy va alyuminiy oksidlarining yuqori temperaturda reaksiyasini kuchaytiradi. Bundan tashqari, kremniy va alyuminiy oksidlarida paladdiy mikrog'ovakli metalli yutqazish, oksid materiallarining yuzlab muhit bilan aloqasini kuchaytiradi. Bu aloqalar katalitik faollik uchun kerakli molekularning yuzasini kengaytiradi va reaksiyani tezlashtiradi. Umuman olganda, paladdiy mikrog'ovakli metalli yutqazish, kremniy va alyuminiy oksidlarida yuqori uglevodorodlarga katalitik o'zgarishni oshiradi va reaksiyani tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Панченков Г.М., Лебедев В.П. Химическая кинетика и катализ. М. МГУ.2001, 551с.
2. Каталитическая переработка углеводородного сырья А.С. Султанов, А.К. Хасанов, А.С. Сафаев и др./ вып. 2, М. 1995 с.3-14.
3. Бреслоу Р. Механизмы органических реакций. М. Мир. 2008. 280с.
4. И.И. КУЛАКОВА, Г.В. ЛИСИЧКИН. Каталитическая химия.
5. Ройтер В.А. Голодец Г.И. Введение в теории кинетики и катализа. Киев. 2001.
6. Методы исследования катализаторов и каталитических реакций. Новосибирск, «Наука» 2001. 152с.
7. Галимов Ж.Ф., Дубинина Г.Г., Масагутов Р.М. Методы анализа катализаторов нефтепереработки. М. «Химия», 1993, 191с.
8. Бремер Г., Вендландт К.-П. Введение в гетерогенный катализ. М. «Мир», 1991, 359с.
9. Гельбштейн А.И., Аветисов А.К. Катализ в технологии органических производств. Хим. пром-сть. 1989. 11, с. 653.
10. Слинько М.М. Кинетика и катализ. 1995. т. 36. №6 с. 930.
11. Андреев Л.С., Хаджиев С. Химия и технология топлив и масел. 1991. №12. С. 25.
12. Уильям Л. Леффлер. Переработка нефти. ЗАО «Олимп – бизнес». М., 2001. 416с.



ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОТА-ОНАНИНГ РОЛИ

Нигора Мулласодиқова

*Ўзбекистон Халқаро ислом академияси,
Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар кафедраси
катта ўқитувчиси, PhD*

Аннотация: *Мақолада ўзбек оилаларида фарзанд тарбиясининг аҳамияти ҳақида фикр юритилади. Фарзанд тарбиясида ота ва онанинг ўрни, хусусан, отанинг бола тарбиясидаги роли муҳимлиги ислом талаблари асосида ёритилади.*

Таянч иборалар: *ислом, оила, ота-она, фарзанд, ибрат, қадриятлар, таълим -тарбия, масъуллик, ватанпарварлик, ҳалоллик, меҳрибонлик.*

Исломда оила жамиятнинг энг кичик ва энг муҳим бўғини ҳисобланади. Шунинг учун оилага, ундаги муҳитнинг соғломлигига, оиланинг ҳар бир аъзосининг ҳаётига алоҳида эътибор қаратилади. Оилавий муҳитнинг соғломлиги кўп жиҳатдан катталарга боғлиқ. Улар ўрناق бўладиган хулқлари билан кичикларга ибрат мактабини ўтайдилар. Катталар жорий қилган оилавий урф-одатлар, қонун-қоидалар ўзларининг амал қилишлари билан кичикларнинг турмуш тарзига айланиб бораверади. Оилада фарзанднинг дунёга келиши катталарнинг зиммасига янада кўпроқ масъулият юклайди. Ота-она фарзанднинг нафақат қорнини тўйдириши, балки унга маънавий озуқа бериши ҳам жуда зарур. Кўпчилик оилаларда “фарзанд тарбияси билан оналар шуғулланиши керак, чунки оталар яшаш учун пул топиши зарур”, деган фикр учрайди. Яъни, оналар фарзандининг қорнини тўйдириши, кийим-кечакларини тоза тутиб, яхши парвариш қилишлари, ёшига қараб маълум одоб нормаларини ўргатишлари зарур, бу масала эрақки чалғитмаслиги керак деб қаралади. Бу масалада ҳар ким ўз тушунчаси билан ҳақлигини исботлашга ҳаракат қилади.

Фарзанд тарбияси исломда ҳар қандай вазият ва ҳолатда энг муҳим вазифа этиб белгиланади. Фарзанд ҳаётнинг давомчиси, умид учқуни, катталарнинг кўз қувончи, эртанги кун эгаси деб ҳисобланади. У ота ва онанинг фаҳри, оила шаъни ҳимоячиси ва ислом маданиятининг тирик тимсоли сифатида гавдаланади. Шариатда фарзандлар тарбияси учун ота ҳам, она ҳам бирдек масъул қилиб белгиланган. Яхши тарбия топган болага “ота-онанга раҳмат!” деб айтилишининг ҳақиқий сабаби ҳам ота-она тарбияга



баробар масъул экани исботидир. Шу билан бир қаторда жамиятнинг келажаги айнан фарзаандларга бериладиган бугунги тарбияга боғлиқлиги ҳам динимизда алоҳида эътироф этилади. Шунинг учун фарзанд тарбиясига “сен кўпроқ масъулсан” деб ёндашиш қораланади.

Фарзанд тарбияси учун бола туғилишидан аввал ота-она илк ва жуда муҳим қоидаларини амалга ошириб дастлабки қадамларни қўйиб бошлайдилар. Аслини олганда, исломда фарзанд тарбияси ота-она оила қуришдан аввал бошланади деб айтиш мумкин. [1.1] Фарзанд тарбияси учун ота энг аввал нима қилиши зарур деган саволга исломда “фарзанднинг онасини тўғри танлаш” деб жавоб берилади. Ҳар бир йигит оила қуриш арафасида ўзига рафиқа танлаш учун унинг ҳусни, насаби, бойлигига эмас, билими, динида собитлигига қараши зарурлиги айтилади.

Отанинг фарзанди тарбиясига масъуллиги масаласида пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) шундай деганлар: “ Отанинг фарзандига бериши мумкин бўлган энг қимматбаҳо совғаси бу унинг яхши тарбиясидир, фарзандини гўзал хулқ эгаси этиб тарбиялашидир. Гўзал хулқ фарзанд учун дунёдаги жамики бойликлардан ҳам бебаҳо бойлик бўлиб қолади” деб айтганлар. Бошқа бир ҳадисда эса “оталарнинг фарзандларига қандай тарбия берганлари, нималарни ўргатгани қиёмат куни аввал оталардан, кейин фарзандлардан сўралиши ҳақида айтадилар”. [2.2.]

Фарзандларнинг тарбиясида отанинг ўрнини алоҳида кўрсатувчи далиллардан яна бири Али (р.а.)нинг оталарга “фарзандларингизга тарбия беринг, чунки сизлар уларнинг тарбиясига масъулсизлар” деб айтган гапларини ҳам мисол тариқасида келтириш мумкин [3.3.].

Эркак киши фарзанди тарбияси учун қуйидаги ишларни амалга оширади: Дунёга келган фарзандни ҳаётда ўз ўрнини топиши, ҳақиқий ҳимоячи, бунёдкор бўлиб етишиши учун ота унга ҳаёт сабоқларини ўргатиши зарур.

1. Солиҳа аёлни танлаб уйланиш: аёл солиҳа бўлиши янги оила аъзолари билан муносабатда фаҳм-фаросат билан ёндошадиган, сабр-қаноатли, билимли бўлиб, бўлғуси фарзанди тарбиясига масъулиятли, диний-маърифий тарбия бера оладиган бўлиши зарур. Бу ҳақда жуда кўп ҳадислар келтирилади, масалан: солиҳа аёлни кўрсанг, уни ёқтириб қоласан, йўғингда ўзини, молингни асраб авайлайди. Яқинларингга хушмуомала бўлади, у билан уйинг обод бўлади... [4.4.]

2. Ота фарзанд дунёга келгунча онани тинч-ҳотиржам яшаши, соғлом бўлиши, ҳомиладорлик бошлангунча ва ҳомила даврида мунтазам илм олиш билан шуғулланиши, ҳаётнинг ҳамма гўзалликларидан баҳра олишини



таъминлаш зарур. Чунки Пайғамбаримиз “ оналар ҳомиладор бўлишидан аввал илм олишни бошласинлар” деб айтганлар.

3. Фарзандларга чиройли исмлар бериш ота-онанинг бурчидир. Уларга берилган исм маъносидан уялишлари керакмас, балки, шундай исм танлаш керакки, бу исм унга ҳам фаҳр ҳам масъулият юклаши лозим.

4. Улғайиб бошлаётган фарзандларга энг муҳим миллий ва диний қадриятларни ўргатиб бошлаш;

5. Фарзандларга дастлабки кўникмаларни, хусусан, ҳаром ва ҳалолни, яхши ва ёмонни ўргатиб бориш, шу билан бирга амалга ошириши зарур бўлган мажбуриятларини ўргатиш: фарзандлар илм олиши унинг комил инсон бўлиб етишиши учун етарли эмас. Улар яна одоб, инсонийлик, узаро ҳурмат, бир-бирини қўллаш, катталарга икром, кичикларга иззат кўрсатишни, оила муқаддаслиги, оилада аёлнинг алоҳида ўрни, унинг ҳимоячиси оиладаги эркаклар эканини англаши ва шунга амал қилиши зарур. Бу отанинг турмуш тарзи орқали ибрат тариқасида ўргатиб борилади. Ота яна фарзандларига бағрикенглик ва ватанпарварликни ҳам ўргатиши зарур бўлади.

6. Ибратли ҳикоялар билан таништириш

7. Миллий урф-одатларни, атрофдагилар билан хушмуомала бўлишни, ёлғондан тийилишни, сабрли, қатъиятли бўлишни, ўртоқларига бағрикенг бўлишни сингдириш ва албатта ватанпатварликни ўргатиш

8. Илм олишга қизиқтириш.

Оталар аввал ўзи ахлоқ-одоб ўргата бошласа, бир муддатдан кейин унинг илм олишига алоҳида эътибор қаратиши лозим. Бу ўринда шариатда фарзандларга кичик ёшлигидан Қуръони Карим сураларидан ёдлатиш тавсия қилинади. Бу ишни боланинг тили чиққанидан бошлаш жуда ўринли ҳисобланади. Бу вақтда боланинг хотираси барча маълумотларни яшин тезлигида ўзлаштириб олаверади. Шундан кейин дунёвий илмларни ўргатиш тавсия қилинади. Чунки боланинг хотираси анча сайқалланган бўлади. Илм-фаннинг турли соҳаларини ривожлантиришда улкан ҳисса қўшган мутафаккир алломаларимиз ҳам тахминан 10 ёшларигача Қуръонни ёд олганлари бунинг исботидир. Оталар ўз фарзандларига дунё илмларини ўрганишлари учун зарур шарт-шароитни яратишда масъулдирлар.

9. Бўш вақтларини фойдали нарсаларга сарфлашни ўргатиш: Бу вазифани отанинг бир ўзи тўла адо этолмайди. Унга рафиқаси, ота-онаси, атрофдаги кўни-кўшни ва қариндошлар ҳам ёрдамлашадилар. Оталарга энг аввал оналар энг яқин ёрдамчи бўладилар. Оналар фарзанд тарбияси учун ҳар нарсадан воз кечишлари, ўзлари орзу қилгандек ақлли-ҳушли қилиб



тарбиялаш учун бор куч-қувватларини, билим ва малакаларини сарфлашлари табиий. Оналар зиммасига ҳам фарзандларини жисмонан соғлом тарбиялаш билан бирга, уларга маърифат эшигини очиш, руҳан тетик ва соғлом қилиб тарбиялаб беришдек оғир ва машаққатли вазифа юкланган. Бу машаққат эвазига жамиятга соғлом, жисмонан бақувват, қўрқмас, ватанпарвар, илмли фарзанд тарбиялаб берадилар. Фарзанднинг юриш-туришида ота-онанинг сарфлаган кучи, бутун меҳри намоён бўлади. Бугунги кунда ота-оналарнинг бу машаққатли вазифани амалга оширишларида ҳукуматимиз болаларнинг мактабгача тарбия мактаблари, билагон бола тўғараклари, турли маърифий ўқув марказлари ташкил этган. Мактабларда бепул таълим берилиши, болаларнинг иқтидорига қараб касб-хунар коллежлари ёки академик лицейлар фаолияти кучайтирилмоқда. Мақсад бир, фарзандларнинг жисмонан ва руҳан соғлом бўлиб ўсишлари, илм олишлари, ватаннинг энг чекка чегараларидан то оилаларигача ҳимоя қилишларини таъминлаш, бирор синовга дуч келса муаммони ақл билан еча олиши, ҳаётда ҳалол меҳнат қилиб, юрт равнақи учун ўз ҳиссасини қўшадиган фарзанд қилиб тарбиялашдир. Бу тарбияни беришда оналар фарзандларини билан бирга зарур жойларга боришлари, биргаликда ҳаракат қилишлари, улар билан дарс қилишдан чарчамасликлари талаб қилинади. Бу оналарнинг ўз ватани ривожига қўшган улкан ҳиссаси бўлади.

Психологларлар ҳар бир болани алоҳида шахслигини ҳисобша олган ҳолда қуйидагиларни таъкидлаб ўтадилар:

1. Ҳар бир бола 2 ёшга тўлиши билан ўзининг шахс эканини намоён қила бошлайди. Шунинг учун оталар исломий ва миллий қадриятларга таянган ҳолда фарзандларини аста, ҳеч қандай таъқиқларсиз, мулойимлик билан ростгўйликка, саҳийликка, мурувватли бўлишга, ҳалимликка, атрофдагиларга ёрдамини аямасликка ўргатиб боришларини тақлиф қиладилар. Агар ота-оналар фарзандларига қаттиққўллик билан тарбия беришса бу акс натижа келтириши мумкинлигини алоҳида уқтирадилар.

2. Фарзандлар қалбида атрофдагиларга меҳр-муҳаббат туйғусини шакллантириш лозим. Зеро, фарзандлар ўзлари ҳам теварак-атрофдагилардан меҳр кутиб турадилар. Агар ота-она фарзандини ўз вақтида таом бериб овқатлантиргани каби меҳр билан озиқлантирмаса фарзанд бу меҳрни ташқаридан қидира бошлайди. Ота-оналар мана шу ҳолатга йўл қўймаслиги шарт. Бу хусусда Абу Хурайра ривоят қилган ҳадисни мисол қилишимиз мумкин: Ақраъ: - менинг 10 та фарзандим бор, мен улардан



бирортасини эркалаб ўйиб қўймаганман,- деди. Шунда пайғамбаримиз: “ кимки меҳр кўрсатмаса, меҳр кўрмайди” деб айтдилар. [5.5]

3. Оталар фарзандларининг хоҳишига қараб ўйин ўйнашларига қарши бўлмасликлари, аксинча уларни қўллаб-қувватлашлари ва турли саёҳатлар уюштиришлари, улардаги фаолликни ривожлантиришлари лозим. Бу болаларнинг қўшимча ҳаётий тажрибага эга бўлишлари, ҳаётлари давомида дуч келишлари мумкин бўлган қийинчиликларни енгиб ўтишларида ёрдам бўлади. Айрим ота-оналар фарзандларига зарар етишидан қўрқиб бу каби сайр-саёҳат ва ўйинларда иштирок этишни қатъий ман қиладилар. Бу фарзандларнинг тушуниб идрок этишлари ҳамда ўрганишлари учун катта тўсиқ бўлади. Турли ўйинлар ўйнаш орқали бола эпчилликни, стратегия қилишни, одамлар билан келишиб ишлашни ўрганеди ва интеллектини ривожлантиради. Боланинг имконияти, иқтидорини, ижодкорлик хислатини шакллантиришга, ўз устида ишлаб ривожлантиришга сабаб бўлади.

4. Оталар фарзандларига суянчиқ бўлгани каби, фарзандлар ҳам уларга зарур бўлганда суянчиқ бўла олишларини амалда кўрсатиш лозим.

Хулоса қилиб айтганда исломда ота фарзанд тарбияси учун онадан кўпроқ масъул. Фарзанд тарбиясида асосий вазифа оталарга юкланади. Она эса фарзандга ота яратиб берган имкон асосида кучи етганча таълим ва тарбия беришга ҳаракат қилади. Она насл давоми учун энг машаққатли иш – фарзандни дунёга келтириб бергани унинг бу вазиятдаги энг катта хизмати деб баҳоланади.

Фойдаланилган адабиёт

1. اسلام ويب . أفكار هامة لتربية الأطفال. 29.12.2016
2. المهنذب. Усмон ал-Хотибийдан аз-Заҳабий ривоят қилган 2\1016 :
3. مجموعة من العلماء. الموسوعة الفقهية الكويتية. الطبعة 2. الكويت. ص.: 169- جزء 45
4. الترغيب والترهيب. الرивоят Саъд бин Абу Ваққосдан Мунзирий ривоят : 3\92
5. صحيح ابن حبان 5594

қилган.



МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ “РАБИЪУ-Л-АБРОР” АСАРИНИНГ МУҲОДАРА ИЛМИДАГИ ЎРНИ

Пирмухамедов Баҳодир Баҳрамович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси,
“Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар” кафедраси
катта ўқитувчиси
E-mail: bahodir2674@gmail.com

“Жоруллоҳ”, “Устозул араб ва ажам”, “Фаҳру Хоразм” каби улуғ номларга сазовар бўлган Маҳмуд Замахшарий ислом цивилизациясига ҳисса қўшган юртимизнинг буюк алломалардан бири ҳисобланади. Забардаст олим Маҳмуд Замахшарий ўзининг сермаҳсул ҳаёти давомида олтмиш олтита йирик асарлар яратди. Улар тилшунослик, луғатшунослик, адабиётшунослик, халқ оғзаки ижоди, фалсафа, ислом тарихи, география бошқа фанларга оид асарлардир.¹²³

Аллома араб бўлмаса ҳам, юқорида зикр қилинган илмларни мукаммал эгаллаган бўлиб, бу кўпгина олимлар томонидан юқори баҳоланиб эътироф этилган. Жалолиддин ас-Суютий у ҳақда: “У жуда илми ва фазилат эгаси, ниҳоятда зукко, истеъдодли ва ҳар бир илми мукаммал эгаллаган”.¹²⁴ Ибн Халикон: “Тафсир, ҳадис, наҳв, тил ва баён илмининг буюк имоми эди. У ўз асрининг буюк олими ва ўзи эгаллаган илмларда барчани ўзига тортар эди”.¹²⁵

Замахшарий тафсир, ҳадис, фикҳ ва бошқа диний илмлар билан бирга тил, грамматика, лексикология, балоғат каби илмларга бағишланган бебаҳо асарлар яратди. Унинг “Рабиъу-л-аброр ва нусусу-л-ахёр” асари муҳодара(маъруза) илмидаги муҳим манба ҳисобланади. Муҳодара илми араб илмлари сифатида таснифланган бўлиб, ўрта аср олимлари уларни қуйидаги 12 та илмга тақсимлаганлар:

1. Луғат илми(лексикология)
2. Сарф илми(морфология)
3. Наҳв илми(грамматика)
4. Маъоний илми
5. Баён илми
6. Бадиъ илми

¹²³ Маҳмуд Замахшарий. Мукадимату-л-адаб./Нашрга тайёрловчи З. Исломов-ТИУ. Т.:2002. – Б. 4

¹²⁴ جلال الدين السيوطي بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة ج2، ص 279
¹²⁵ ابن خلكان "وفيات الأعيان" ج 5، ص 168 دار صادر بيروت. 1969



7. Аруз илми
8. Қофия илми
9. Ёзув қоидалари илми
10. Ўқиш қоидалари илми
11. Рисола ва хутбалар ёзиш илми
12. Маърузалар илми, у тарих илмларини ҳам қамрайди.¹²⁶

Маърузалар илми араб илмларининг муҳим йўналиши бўлиб, бу йўналишда кўпгина олимлар ижод қилиб, жуда қимматли асарлар яратганлар. Маъруза илми қандай илм ва нималарни ўз ичига олишини кўриб чиқамиз.

Ўрта аср араб адабиёти дунё халқлари адабиётидан ўзининг турли хиллиги ва серқирра жанрлари билан ажралиб туради. Унда Жоҳилия даври қасида ва “муаллақа” лари ва араб халифалиги даврида, яъни VIII-IX асрларда кенг ривож топган юнон, форс ва сурёний тиллардаги асарларни таржималари билан бойитилган маълумотларни кўришимиз мумкин. Маърузалар илми (علم المحاضرات) га келсак, бу йўналиш наср ва шеър жанрида ёзилган адабий китоблар, шунингдек, араб ва мусулмонлар эгаллаган барча илмлар бўйича ёзилган китобларни англатади. Ҳожи Халифа бу илмни шундай таърифлайди:

"هو علم يحصل منه ملكة إيراد كلام للغير، مناسب للمقام، من جهة: معانيه الوضعية أو من جهة: تركيبه الخاص"¹²⁷.

“Бу илм орқали бирор кишининг гапини зарур вазиятда ўзига хос услубда етказиш малакасига эга бўлинади”.

Бу илм араб илмлари ичида муҳим ва жуда манфаатлидир. Унда Қуръони карим, ҳадис, шеър, мақол, фразеологик бирикмалар, араб ва ажам олимларининг муаян мавзулар бўйича фикрлари келтирилади. Ибн ал-Хатиб бу илм аҳамияти ҳақида шундай фикрларни билдиради:

علم المحاضرات علم نافع في أنواع المحاورات، وهو علم عال من العلوم العربية، وفن فاخر من الفنون الأدبية، يحتاج إليه طوائف الأنام، ويرغب فيه العلماء العظام¹²⁸.

“Маърузалар илми муҳовара турларидаги фойдали илмдир, у араб илмлари ичидаги юксак илм, адабиёт санъатлари ичидаги нафис санъатдир. Унга барча тоифа одамлари муҳтож бўлиб, унга буюк олимлар мурожаат қилишган”.

¹²⁶الشيخ محمد بن عبد الباري الأهدل. "الكواكب الدرية على متممة الأجرومية"، ص 24. مؤسسة الكتب الثقافية، بيروت 1990.
¹²⁷كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون: مصطفى بن عبد الله المعروف بحاجي خليفة، دار الفكر بيروت 1982 م 2 ص 1609
¹²⁸روض الأخبار المنتخب من ربيع الأبرار: محمد بن قاسم بن يعقوب الأماصي المعروف بابن الخطيب، دار القلم العربي، ص 12.



Маърузалар илмига оид асарлар яратиш ўрта асрларда кенг тарқалган. Уларга талаб ва эҳтиёж юқори бўлган. Бу йўналишда яратилган машҳур асарлар қуйидагилардир:

- Абу Амр Аҳмад бин Муҳаммад бин Абду Раббих (мелод. 940 в. э.) нинг “ал-Иъқду-л-фарид” асари

- Абу Али ал- Муҳсин бин Али ат-Танухий (мелод.994 в.э.) нинг “Нишвару-л-муҳодара ва ахбару-л-музакара”

- Абул Фараж ал-Муаъфий бин Закария ан-Наҳраваний ал-Жаририй (мелод. 1000 в.э.) нинг “ал-Жалис-у-солиҳу-л-кофий ва-л-анису-н-носиҳу-ш-шофиъ” асари

Маҳмуд Замахшарий ҳам араб илмларига оид бошқа асарлари билан бир қаторда араб илмларининг яна бир муҳим йўналиши бўлмиш маърузалар илми бўйича “Рабиъу-л-аброр ва нусусу-л-ахбор” асарини яратган. Мазкур асар алломанинг асар муқаддимасида келтирган маълумотига кўра машҳур “ал-Кашшоф” асаридан кейин, яъни мелод.1134 йили алломанинг Маккадалик даврида ёзилган. Аллома бу хусусда қуйидагича ёзади: “Бу китобни, “ал-Кашшоф” ўқувчилари зеҳнига дам бериш, билим ва қобилиятларини фикрлашга ишлатиб, бундан толиққан дилларига ором бериш, зерикканларида ўқиб завқланишлари учун ёздим... Ундан Касир бин Абдурахмоннинг Иззага ёзган ғазаллари ва Жамил бин Абдуллоҳнинг гўзал шеърларини ўқийсан. Яхши суҳбатдош ҳоҳласанг, ундан яхши суҳбатдош йўқ, янги хабар керак бўлса, ундан яхши хабарчи йўқ. Ҳузнга мойил бўлсанг, кўз ёшингни шашқатор оқизар, шодон кулги керак бўлса, ундан ичак узди латифалар топасан”.¹²⁹

Мазкур асар таркибий жиҳатдан 98 бобдан, баъзи манбаларда ёзилишича, 92 бобдан иборат (Кашфуз-зунун). Асар “Вақт, дунё ва охираат ҳақидаги” боб билан бошланиб, “Ҳашоротлар, ер юзидаги бошқа ҳайвонлар ва улар билан боғлиқ нарсалар ҳақидаги” боб билан яқунланади. Асардаги мавзулар тартиби алифбо тартибида тузилган. Асар дин, ахлоқ, география, наботот ва бошқа илмларни қамраб олган. Ҳар бир боб Қуръони оятлари ва мавзуга оид ҳадислар, алломалар фикри ва шоирлар шеърлари билан ёритилган. Замахшарийнинг мазкур асари араб илмлари таснифига кирувчи маърузалар илмида яратилган муҳим манбалардан ҳисобланади. Олимлар бу асарнинг кўпгина мухтасар шаклларини яратиб, у кўпгина тилларга таржима қилинган. Шунингдек, бу асардан маъруза илми ёки бошқа йўналишда ёзилган

¹²⁹ربيع الأبرار ونصوص الأخبار: محمود الزمخشري، م1، ص27



китобларда истефода қилиниб, иқтибослар олинади. “ал-Мустатриф фи кулли фанин мустазриф” асари муаллифи Баҳроуддин ал-Ибшиҳи(мелод. 1446 й. в.э.) мазкур асари муқаддимасида ”Замахшарий ўзининг Рабиъу-л-аброр ва нусусу-л-ахбор китобида келтирган кўпгина маълумотлардан фойдаландим” дейди.

Замахшарийнинг “Рабиъу-л-аброр ва нусусу-л-ахбор” асари жуда ҳам муҳим манба бўлиб, ундаги маълумотлар ҳозирги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмай кўпгина олим ва изланувчиларнинг эътиборини тортиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Маҳмуд Замахшарий. Муқадимату-л-адаб./Нашрга тайёрловчи З. Исломов-ТИУ. Т.:2002. –Б. 4

2. جلال الدين السيوطي بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة

3. ابن خلكان "وفيات الأعيان " دار صادر بيروت. 1969

4. الشيخ محمد بن عبد الباري الأهدل. "الكواكب الدرية على متممة الأجرومية"، مؤسسة الكتب الثقافية ،

بيروت 1990

5. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون: مصطفى بن عبد الله المعروف بحاجي خليفة، دار الفكر

بيروت 1982

6. روض الأخيار المنتخب من ربيع الأبرار: محمد بن قاسم بن يعقوب الأماصي المعروف بابن الخطيب،

دار القلم العربي.

7. أبو القاسم محمود بن عمر الزمخشري-ربيع الأبرار ونصوص الأخبار-تحقيق عبد الأمير مهنا-الطبعة

الأولى-1992م-مؤسسة الأعلمي للمطبوعات البيروت



ҲАДИСЛАРДА ҚУРЪОНИ КАРИМНИ ГЎЗАЛ ОВОЗДА ҲҚИШЛИК ҲАҚИДА

Раҳматов Иқболжон Иззатулло ўғли
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
“Исломшунослик ва ислом цивилизациясини
ўрганиш ICESCO”кафедраси таянч докторанти

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur’oni karimni tilovat qilishda tarannumga ya’ni go’zal ovozda o’qish haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu mavzuga doir oyat va hadislardan ko’plab misollar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Qur’oni karim, hadis, tag’anniy, tarannum, oyat, chiroyli ovoz.

Alloh taolo O’z kalomi Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi:

"...و رتل القرآن ترتيلا"

"...Qur’onni tartil bilan (dona-dona qilib) tilovat qiling!" (Muzammil surasi 4-oyat)¹³⁰

Ushbu oyatda ulamolar Qur’oni karimning o’qilishidagi qoidani ya’ni tajvid ahkomlarini hamda uni ziynatlashda yaxshi ovoz bilan o’qish kerakligi haqida izohlaganlar.

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: إِنَّ لِكُلِّ شَيْءٍ حَلِيَّةً وَحَلِيَّةَ الْقُرْآنِ الصَّوْتُ الْحَسَنُ. رَوَاهُ عَبْدُ الرَّزَّاقِ فِي الْمُصَنَّفِ وَالضَّيَاءُ الْمَقْدِسِيُّ فِي الْأَحَادِيثِ الْمُخْتَارَةِ وَقَالَ: أَخْرَجُ إِسْنَادَهُ صَحِيحًا

Anas ibn Molik roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: **“Har bir narsaning ziynati bo’ladi. Qur’onning ziynati chiroyli ovozdir”** Abdurazzoq “Musannaf”da, Ziyo Maqdisiy “Al-ahadiysul-muxtaro”da rivoyat qilgan va: *“Isnodining oxiri sahih”, degan.*

Hadisi sharifda qiroatning go’zal bo’lishi inson ovoziga bog’liqligi, uni bezashida ahamiyati yuqoriligi ko’rsatilgan.

Baro ibn Ozib roziyallohu anhu rivoyat qiladi:“Men Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning:”Qur’onni ovozingiz bilan go’zal qiling! Chunki, go’zal ovoz Qur’onning go’zalligini ziyoda qiladi”,- deganlarini eshitdim”.(Dorimiy, Hokim va Bayhaqiy rivoyat qilgan, isnodi sahih).

Ushbu hadisda Qur’on tilovatida inson ovozining sifati haqida va uning tilovatda muhimligini ko’rishimiz mumkin.

Bu haqda Rosululloh s.a.v quyidagilarni aytganlar:

¹³⁰ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent. 2014.



عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: لَيْسَ مِنْ مَنْ لَمْ يَتَعَنَّ بِالْقُرْآنِ. رَوَاهُ
الْبُخَارِيُّ وَأَبُو دَاوُدَ وَالدَّارِمِيُّ وَأَحْمَدُ وَالْبَيْهَقِيُّ وَالطَّبْرَانِيُّ

Abu Hurayra roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: **“Qur’onni tag’anniy (tarannum) bilan tilovat qilmagan bizdan emas”**.
Imom Buxoriy, Abu Dovud, Dorimiy, Ahmad, Bayhaqiy va Tabaroniy rivoyatlari.

Ush bu hadisni sharifda inson o’z xohishi bilan, qasddan ovoz mahorati orqali Qur’onni tag’anniy-tarannum bilan o’qishligi va bu ish maqbulligi ko’rsatilgan.

Boshqa bir hadisda esa ovoz bilan ziynatlashga urg’u berilgan:

عَنْ الْبَرَاءِ بْنِ عَازِبٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: زَيَّنُوا الْقُرْآنَ بِأَصْوَاتِكُمْ. رَوَاهُ
أَبُو دَاوُدَ وَالنَّسَائِيُّ وَالدَّارِمِيُّ وَابْنُ مَاجَةَ وَأَحْمَدُ وَالْحَاكِمُ وَابْنُ خُرَيْمَةَ وَابْنُ حِبَّانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ.

Baro ibn Ozib (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi: **“Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Qur’onni ovozlaringiz bilan ziynatlangiz”**,-dedilar”. *Imom Abu Dovud, Nasoiy, Dorimiy, Ibn Moja, Bayhaqiy va boshqalar rivoyat qilganlar, (isnodi sahih hadis).*

Bu hadisda ham inson ovozining sifatida muhim ahamiyat borligi va buni shaxs oz bilim va iqtiddori orqali qilishi bayon etilgan.

Shu ma’noda yana bir boshqa hadisga e’tibor qaratamiz:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: إِنَّ لِكُلِّ شَيْءٍ حِلْيَةً وَحِلْيَةُ الْقُرْآنِ الصَّوْتُ
الْحَسَنُ. رَوَاهُ عَبْدُ الرَّزَّاقِ فِي الْمُصَنَّفِ وَالضَّيَاءُ الْمُقَدِّسِيُّ فِي الْأَحَادِيثِ الْمُخْتَارَةِ وَقَالَ: آخِرُ إِسْنَادِهِ صَحِيحٌ

Anas ibn Molik roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: **“Har bir narsaning ziynati bo’ladi. Qur’onning ziynati chiroyli ovozdir”**
Abdurazzoq “Musannaf”da, Ziyo Maqdisiy “Al-ahadiysul-muxtaro”da rivoyat qilgan va: “Isnodining oxiri sahih”, degan.

Hadisi sharifda qiroatning go’zal bo’lishi inson ovoziga bog’liqligi, uni bezashida ahamiyati yuqoriligi ko’rsatilgan.

Tarannumning o’ta zarur jihat ekanligini quyidagi hadisdan bilib olish qiyin emas:

عَنْ ابْنِ أَبِي مُلَيْكَةَ قَالَ: سَمِعْتُ عُبَيْدَ اللَّهِ بْنَ أَبِي نَهْيِكٍ يَقُولُ: بَيْنَمَا أَنَا وَاقِفٌ وَعَبْدُ اللَّهِ بْنُ السَّائِبِ بْنُ أَبِي
السَّائِبِ إِذْ مَرَّ بِأَبِي نُجَابَةَ فَاتَّبَعْنَاهُ حَتَّى دَخَلَ بَيْتَهُ فَاسْتَأْذَنَاهُ فَأَذِنَ لَنَا فَأَذَا رَثَّ الْمَتَاعِ رَثَّ الْحَالِ فَقَالَ: مَنْ أَنْتُمْ فَانْتَسَبْنَا
لَهُ فَقَالَ: مَرْحَبًا وَأَهْلًا تُجَارَ كَسْبَةَ فَسَمِعْتُهُ يَقُولُ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: لَيْسَ مِنْ مَنْ لَمْ يَتَعَنَّ بِالْقُرْآنِ
قَالَ ابْنُ أَبِي مُلَيْكَةَ: فَقُلْتُ: يَا مُحَمَّدُ أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَكُنْ حَسَنَ الصَّوْتِ قَالَ: يُحْسِنُهُ مَا اسْتَطَاعَ. رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي السُّنَنِ
الْكُبْرَى وَالطَّبْرَانِيُّ فِي الْكَبِيرِ وَرِجَالُهُ ثِقَاتٌ.

Ibn Abu Mulaykadan rivoyat qilinadi: **“Men Ubaydulloh ibn Abu Nahiyk: “Men Abdulloh ibn Soib ibn Abu Soib bilan turganimda oldimizdan Abu Luboba o’tib qoldi. Biz uning orqasidan yurib bordik. U uyiga kirganida undan ruxsat so’radik. Abu Luboba kirishimizga izn berdi. Qarasak, uning uyi xaroba, o’zi og’ir ahvolda hayot kechirar ekan. U: “Sizlar kimsizlar?” deb so’radi. Biz unga nasabimizni aytdik. U:**



“Kasaba savdogarlari xush kelibsiz!” dedi. Men uning: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Qur'onni tag'anniy qilmagan bizdan emas!” deganlar”, deb aytganini eshitdim”, deganini bilaman”. Ibn Abu Mulayka aytadi: “Ey Muhammad, qara, agar kishida chiroyli ovoz bo'lmasa, (u holda nima qiladi)” deb so'ragandim, u: “Qodir bo'lganicha chiroyli qiladi”, dedi” (Bayhaqiy “As-aunanul kubro”da va Tabaroniy “Kabiyr”da ishonchli roviylardan rivoyat qilgan).

Bu hadisda inson imkon boricha Qur'on tilovatida ovozini chiroyli qilishi nazarda tutilgan

Bu ma'noda boshqa bir hadisi sharifni misol qilishimiz mumkin:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: مَا أَدِنَ اللَّهُ لَشَيْءٍ مَّا أَدِنَ لِلنَّبِيِّ أَنْ يَتَغَنَّى بِالْقُرْآنِ. رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَمُسْلِمٌ وَأَبُو دَاوُدَ وَالنَّسَائِيُّ وَالذَّارِمِيُّ وَأَحْمَدُ وَالْحَاكِمُ وَابْنُ جَبَانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَالطَّبْرَانِيُّ وَفِي رِوَايَةٍ مُسْلِمٍ وَغَيْرِهِ قَالَ: مَا أَدِنَ اللَّهُ لَشَيْءٍ مَّا أَدِنَ لِلنَّبِيِّ حَسَنَ الصَّوْتِ يَتَغَنَّى بِالْقُرْآنِ يَجْهَرُ بِهِ

Quyidagi hadis Qur'onni tarannum bilan o'qishlik nafaqat insonlarga,

balki Alloh taoloning O'ziga ham mahbub bo'lishligiga misol bo'la oladi:

Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabi sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: “Alloh Nabiyning Qur'onni tag'anniy bilan o'qiganiga quloq solganchalik boshqa narsaga quloq solmagan” (Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Nasoiy, Dorimiy, Ahmad, Hokim, Ibn Hibbon, Bayhaqiy va Tabaroniy rivoyati. Muslim va boshqalar rivoyatida: “Alloh chiroyli ovozli payg'ambar Qur'onni tag'anniy bilan ovoz chiqarib o'qiganiga quloq solganchalik boshqa narsani eshitmagan”, deyilgan).


عَنْ أَبِي مُوسَى الْأَشْعَرِيِّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: اسْتَمَعَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قِرَاعَتِي مِنَ اللَّيْلِ فَلَمَّا أَصْبَحَتْ قَالَ: يَا أَبَا مُوسَى اسْتَمَعْتُ قِرَاعَتَكَ اللَّيْلَةَ لَقَدْ أُوتِيتَ مِرْمَارًا مِنْ مِرْمِيرِ آلِ دَاوُدَ قُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ لَوْ عَلِمْتُ مَكَانَكَ لَحَبَّرْتُ لَكَ تَحْبِيرًا. رَوَاهُ الْحَاكِمُ وَابْنُ جَبَانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ.

Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. U zot aytadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam tunda qiroatimni tinglabdilar. Tong otgach u zot: “Ey Abu Muso, kecha tunda qiroatinga quloq tutdim. Senga Dovud oilasi naylaridan biri berilgan ekan”,- dedilar. Shunda men: “Ey Rasululloh, agar sizning borligingizni bilganimda sizni yana ham hayratga slogan bo'lardim”,-dedim”. (Hokim, Ibn Hibbon va Bayhaqiy rivoyat qilgan. Rivoyat sanadi sahih).

Yana bir hadisga etiboringizni qaratamiz:

عن معاوية بن قرة قال : سمعت عبد الله بن مغفل يقول : قرأ رسول الله ؟ عام الفتح في سيره سورة الفتح Muoviya على راحلته فرجع فيها قال معاوية : لولا أنني أكره أن يجتمع الناس علينا لحكيت قراءته . متفق عليه ابن Qurra rivoyat qiladi:”Men Abdulloh ibn Mag'falning shunday deganini eshitdim:”Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) fath yili ulovlari ustida ketayotganlarida Fath surasini ohang bilan qiroat qildilar”,-Muoviya aytadi-Agar





atrofimizga odamlar to'planishini karih ko'rmaganimda, u zot (sollallohu alayhi vasallam)ning qiroatlarini o'qib berardim".

Bu hadisi shariflarda ham Qur'on tilovatida uni ovoz bilan ziynatlash, tag'anniyning zarur omillardan ekanligi ko'rsatilgan.

Bu hadisda Rosululloh s.a.v hattoki ulovda bo'lishlariga qaramay tilovat qilishni go'zal ohangda bo'lishini istadilar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni karim.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 6-juz.
3. Hadis va hayot – Qur'on fazilatleri kitobi Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
4. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2014.



ФУНКЦИЯ ЭНДОТЕЛИЯ У ПАЦИЕНТОВ С ГОЛОВОКРУЖЕНИЕМ НА ФОНЕ ГИПЕРТОНИЧЕСКОЙ ЭНЦЕФАЛОПАТИИ

Баходиров Жахонгир Шавкатжон угли

Клиник ординатор СамГМУ Самарканд Узбекистан

ЦЕЛЬ РАБОТЫ: исследование функции эндотелия у пациентов в межприступном периоде вестибулярного синдрома, страдающих гипертонической энцефалопатией.

МАТЕРИАЛ И МЕТОДЫ Обследованы 45 пациентов (15 мужчин и 30 женщин) в межприступном периоде вестибулярного головокружения, получающих лечение на базе Клиники СаГМУ г. Самарканд. Средний возраст пациентов исследуемой группы составил $56,2 \pm 3,1$ года. В первую группу (23 человек) включены пациенты с первой стадией гипертонической энцефалопатии, во вторую (22 человек) – пациенты со второй стадией энцефалопатии. Контрольная группа состояла из 10 пациентов с гипертонической энцефалопатией без вестибулярного головокружения и была сопоставима по половому и возрастному критериям и включала первую и вторую стадии энцефалопатии. Исследование вазорегулирующей функции эндотелия проводилось по методу D.S. Celermajer et al. (1992). Измерения диаметра плечевой артерии осуществляли с помощью линейного датчика 7 МГц на ультразвуковой системе «Medison SonoAce X8». Толщину слоя интима-медиа определяли на задней стенке общей сонной артерии. Обработка полученных данных проводилась с помощью программы Statistica 10.0.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ У больных основной группы в ответ на манжеточную пробу была зафиксирована эндотелийзависимая вазодилататорная реакция. Из них у пациентов I группы величина вазодилататорной реакции была однотипно направленной и составляла 11,7%, а во второй группе – 7,1%, но при этом у 2 из 22 человек реакция фактически отсутствовала и ещё у 2 была парадоксальной, т. е. отмечена вазоконстрикция. Это даёт возможность выявить наличие эндотелиальной дисфункции сосудистой стенки. В контрольной группе только у 31% пациентов наблюдалось снижение вазодилататорной реакции на величину от 8,8 до 9,6%. У 56% всех обследованных пациентов наблюдалось увеличение толщины слоя интима-медиа сосудистой стенки. В контрольной группе она была у 31%, в первой группе – у 43,2%, во второй группе – у 86,4% пациентов.




ЗАКЛЮЧЕНИЕ У пациентов с первой стадией гипертонической энцефалопатии в межприступном периоде вестибулярного синдрома отсутствуют изменения эндотелиальной функции, а у людей со второй стадией дисфункция эндотелия определяется достоверно. Однако структурные изменения слоя интима-медиа развиваются гораздо раньше, чем функциональные расстройства эндотелия.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Рахманов К. Э. и др. Результаты хирургического лечения больных узловым зобом //Завадские чтения. – 2017. – С. 145-148.
2. Тияков А. Б. и др. Использование лапароскопических технологий в лечении хилезного перитонита //Роль больниц скорой помощи и научно исследовательских институтов в снижении предотвратимой смертности среди населения. – 2018. – С. 155-156.
3. Хакимов Э. А. и др. Оценка эффективности профилактики и лечения синдрома полиорганной недостаточности у тяжелообожженных //Журнал Неотложная хирургия им. ИИ Джанелидзе. – 2021. – №. S1. – С. 65-66.
4. АЧИЛОВ М. Т. и др. МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ ТРАВМАТИЧЕСКИХ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПЕЧЕНИ //Т [a_XW [i [S US S_S^ [ÿe YfcS^. – Т. 34. – С. 174.
5. Даминов Ф. А. и др. Синдром кишечной недостаточности и его коррекция у тяжелообожженных //Журнал Неотложная хирургия им. ИИ Джанелидзе. – 2021. – №. S1. – С. 20-21.
6. Даминов Ф. А. и др. Диагностика и лечение интраабдоминальной гипертензии при ожоговом шоке //Журнал Неотложная хирургия им. ИИ Джанелидзе. – 2021. – №. S1. – С. 19-20.
7. Даминов Ф. А. и др. Особенности лечебного питания для ранней профилактики желудочнокишечных осложнений у обожженных //Журнал Неотложная хирургия им. ИИ Джанелидзе. – 2021. – №. S1. – С. 21-21.
8. Даминов Ф. А., Рузибоев С. А. ПРИМЕНЕНИЕ ЗОНДОВОЙ ПИТАНИЙ-В ПРОФИЛАКТИКЕ ЭРОЗИВНО-ЯЗВЕННЫХ ПОРАЖЕНИЙ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА У ТЯЖЕЛООБОЖЖЁННЫХ //Advances in Science and Technology. – 2020. – С. 15-16.
9. Юсупов Ш. А. и др. Отдаленные результаты оперативного лечения узловых образований щитовидной железы //Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – 2017. – №. 1. – С. 80-84.





10. Даминов Ф. А. и др. Хирургическая тактика лечения диффузно-токсического зоба //Академический журнал Западной Сибири. – 2013. – Т. 9. – №. 1. – С. 21-21.

11. Даминов Ф. А. и др. Хирургическая тактика лечения диффузно-токсического зоба //Академический журнал Западной Сибири. – 2013. – Т. 9. – №. 1. – С. 21-21.



ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БОШҚАРУВ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ.

И.ф.д., профессор Иминов Т.К
Абдимўминова С.Т.

Ривожланган мамлакатлар иқтисодий ривожланиш жараёнида суғурта соҳасининг аҳамияти юқори ўрин эгаллайди. Суғуртанинг давлат томонидан тартибга солиниши ва ўз-ўзини бошқаришнинг оптимал нисбати соҳанинг бугунги ривожланиш даражасини белгилайди. Жаҳон тажрибасида давлат назоратининг икки ҳил усули мавжуд бўлиб, булар административ бошқарув ва иқтисодий усуллардир. Административ бошқарув тизими суғурта қонунчилиги асосида давлат назоратини ўрнатиши тушунилади. Иқтисодий усуллар эса билвосита усул ҳисобланиб суғурта соҳасига молия тизимининг бошқа соҳалари орқали билвосита таъсири тушунилади, мисол учун солиқа тортиш, Марказий банк сиёсати ва бошқалар. Ўзбекистон суғурта соҳасини ҳар иккала усул орқали бошқарилишини кўришимиз мумкин.

Умуман олиб қаралганда, давлат томонидан тартибга солиш суғурта компанияларини лицензиялашга асосланади, бунда суғурта турлари бўйича фаолият юритиш белгиланади. Жаҳон амалиётида, хусусан Ўзбекистон суғурта бозорида ҳам, суғурта фаолияти ҳаёт ва ҳаёт бўлмаган суғурта тармоқларидан иборат. Давлат назоратини амалга оширишда иккита усули мавжуд, булар административ бошқарув усуллари ва иқтисодий усуллар. Административ бошқарув тизими суғурта қонунчилигига асосланади ва суғурта назорати органи томонидан амалга оширилади. Иқтисодий усуллар билвосита усул ҳисобланиб суғурта бозорига молия тизимининг бошқа тармоқлари орқали таъсир этиши ҳисобланади (солиқа тортиш, Марказий банк сиёсати ва бошқалар).


Давлат томонидан тартибга солиш суғурта компанияларини лицензиялашга асосланади, бунда суғурта турлари бўйича фаолият юритиш белгиланади. Жаҳон амалиётида, жумладан Ўзбекистонда ҳам, суғуртани ихтисослашган ҳаёт ва ҳаёт бўлмаган суғурта тармоқларига бўлинади. Суғурта фаолиятини бу каби тармоқларга ажартиш ривожланган мамлакатлар суғурта тажрибасида кўп йиллар мобайнида шаклланган бўлиб, кейинчалик қонуний тус олган ва унинг асосий мақсади шахснинг соғлиғи ва ҳаёти билан боғлиқ суғурта турларининг кафолатини таъминлашга қаратилган.



Ўзбекистон мустақиллик даврларининг илк босқичларида суғурта бозорини бошқаришда либераллаштириш жараёни тезлашиб кетди ва натижада бозор бошқарувининг давлат томонидан тартибга солиш механизми суғурта соҳасида ўз позицияларини бўшаштира бошлади, асосий эътибор ўз-ўзини бошқаришга қаратилди. Бироқ, ўз-ўзини бошқариш бундай эркинликка етарли тайёр эмаслиги кўриниб қолди. Бу, энг аввало, улар ўртасидаги соғлом рақобатнинг носоғлом шаклига ўтишида намоён бўлди. Хусусан, ваколатли органнинг суғурталовчилар фаолиятига қонуний асосда белгиланган кўрсаткичларни чеклаб экстенсив кўрсаткич ҳисобланган йиллик ўсиш сурати орқали баҳо бериши бозорда носоғлом рақобатни авж олдирди. Суғурта тарифларини белгилашда молиявий барқарорлик тушунчалари иккинчи планга ўтиб, демпинг сиёсати устунлик қила бошлади. Бу мижоз учун ўта фойдали ҳисобланасада, шуни унутмаслик керакки, суғурта компанияси мажбуриятларини бажаришида уни қоплай олиш салоҳияти муҳимдир. Бунда албатта актуар ҳисоблар ёрдамида суғурта операциясини ва фойда даражасини таҳлил қилиш зарур. Мижозга жуда оз маблағ ҳисобига ўз рискларини суғурта ҳимояси билан қоплаш имкониятини бериш билан бир қаторда суғурталовчининг молиявий имкониятларини назардан четда қолдириш мумкин эмас. Чунки компания тўпланган мукофотдан ўз харажатларини қоплаши, эҳтимоли кўзда тутилган суғурта ҳодисаларини ёпиш учун етарли миқдорда захиралар шакллантириши, ташкилотни кенгайтириш учун маблағ жамғариши, қолаверса, фойда кўриб ўз таъсисчиларига дивидендлар тўлаш имкониятига эга бўлмоғи лозим. Суғурталовчи оладиган маблағ шу мақсадларга етарли бўлиши шарт. Афсус, бугунги кунда бозорда фаолият юритаётган суғурта ташкилотларининг аксариятида молиявий имкониятни таҳлил қилиш етарли эмас. Бу, ўз навбатида, суғурта қопламасини тўлай олмасликка, фаолият рентабеллигининг пасайиши ва оқибатда суғуртанинг халқ ўртасида обрўи тушиб кетишига сабаб бўлмоқда. Киритилган инвестицияларга берилаётган дивидендлар кўламининг пастлиги эса соҳанинг инвестицион жозибдорлигини тушириб юбормоқда.

Давлат томонидан тартибга солиш ва ўз-ўзини бошқариш тизими ўртасида ривожланишнинг ҳар палласи учун оптимал нисбат бўлиши, бу нисбат ўта зукколик билан кузатиб турилиши ва унинг кўрсаткичлари аста-секинлик билан ўз-ўзини бошқариш фойдасига ўзгариши лозим. Аммо, охириги ўн йилликда бунинг акси кузатилди. Ўз-ўзини бошқаришнинг бош элементи бўлмиш Ўзбекистон суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари уюшмасининг фаолияти сусайиб бормоқда. Йирик компанияларнинг бу





ҳолатни ўнглаш бобида қилган ҳаракатлари натижа бермади. Компаниялар ҳатто Уюшмага аъзолик бадалини тўлашдан ҳам ўзини четга ола бошлади.

Шундай экан, мамлакатда суғурта муносабатлари мажмуаси қандай кўринишда бўлмоғи керак деган савол туғилади.

Биринчи навбатда носоғлом рақобат яратилишига йўл қўйилмаслик зарур. Суғурта бозорининг яна бир жиддий муаммоси суғурта агентлари фаолияти ва уларга тўланаётган ҳақ миқдори билан боғлиқ. Очигини айтганда, бозордаги аксарият нохушликлар, ҳатто коррупция белгилари шу асосда пайдо бўлмоқда. Бу масалалар Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан тасдиқланган “Суғурта агентлари тўғрисида”ги низом орқали меъёрлаштирилган. Мазкур низом 2003 йил қабул қилинган бўлиб, ўтган давр мобайнида унинг кўп бандлари эскирган, уларнинг амал қилиши жиддий нуқсонлар келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Айтиш жоизки бу борада регуляторнинг изчил сиёсати мавжуд эмас. Суғурта компанияларининг инвестициявий қобилияти самарали ишламайди. Республика ялпи ички маҳсулотда суғуртанинг улуши узоқ йиллардан буён 0,3-0,6 фоиздан ошмаяпти. Ҳолбуки, бу кўрсаткич Марказий Осиёнинг бошқа давлатларида анча юқори. Бу борада ваколатли орган ҳамда бозорни ўз-ўзини бошқариш тизими томонидан тегишли сиёсат шакллантирилиши лозим.

Бундан ташқари, мамлакат суғурта бозори қайта суғурталаш салоҳияти етарли қувватга эга эмас. Шу сабаб катта рисклар қайта суғурталаш учун чет эл компанияларига бериб юборилмоқда. Бу эса, ўз навбатида, катта валюта маблағларининг хорижга чиқиб кетишига сабаб бўлмоқда. Мазкур муаммонинг ечими битта, яъни мамлакатда қудратли қайта суғурта компаниясини ташкил этиш керак. Бунинг учун давлат ва суғурта компаниялари молиявий имкониятларини қўшиш мақсадга мувофиқ.

Суғурта фаолиятида актуар ҳисоб-китобларга амал қилинмаслиги сабаб кўп нохушликлар юзага келмоқда. Натижада, суғурта ҳодисасига тўловлар кўп ҳолларда амалга ошмай қолаяпти. Оқибат, суғурталанувчилар томонидан соҳа ташкилотларига нисбатан кескин эътирозлар билдирилишига ҳамда уларга нисбатан ишончсизлик пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда. Бугунги кунда бозорда мавжуд носоғлом рақобат сабабли, мунтазам равишда дивиденд тўлайдиган ҳамда суғурта қопламаларини сўзсиз ва ўз вақтида амалга оширадиган суғурта ташкилотлари сонини бармоқ билан санаш мумкин. Аслида эса, бунинг акси бўлиши керак. Соҳада фаолият юритаётган ҳар бир суғурта ташкилоти барча мажбуриятларини ўз вақтида ва тўлиқ миқдорда бажариши шарт. Хорижий амалиётда актуарийлар фаолияти қонуний



меъёрлар билан ўрнатилади ёки амалиётдан келиб чиқиб шаклланган. Бунда актуарийлар бир вақтнинг ўзида суғурта компаниясининг ходими бўлиши билан бирга менежментдан қатъий назар бевосита регуляторга ҳисоб беради. Бунда, ПҚ 4412-сонли Президент қарори билан белгиланган 2019-2020 йилларда Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини жадал ривожлантириш бўйича Йўл харитасида суғурталовчиларнинг юқори турувчи бошқарув органларига тўғридан тўғри бўйсунадиган, шунингдек, суғурталовчи тўлов қобилиятининг йўқлиги аломатлари ва нормативларнинг бузилганлиги аниқланган тақдирда ваколатли давлат органига бевосита мурожаат қилиш ҳуқуқига эга бўлган, суғурта ташкилотларида алоҳида актуарий штатини ташкил қилишни назарда тутувчи «тайинланган актуарий» институтини жорий этиш ечимини кутаётган муҳим вазифа ҳисобланади.

Суғурта соҳасини қийнаб келаётган яна бир муаммолардан бири — бу бозор учун кадрлар тайёрлаш ва уларни қайта тайёрлаш тизимининг кучсизлигидир. Олий ва ўрта ўқув юртларида соҳа учун кадрлар тайёрлаш сон ва сифат жиҳатдан талабга жавоб бермайди, вилоятларда эса жуда кам. Суғуртачилар уюшмаси қошида ташкил этилган соҳа ходимлари малакасини ошириш курслари ҳам маблағ йўқлигидан ўз фаолиятини тўхтатиб қўйди.

Биз суғурта бозорида мавжуд муаммоларнинг айримларигагина тўхталиб ўтдик. Шу ўринда суғурта соҳасида хорижий тажрибани қўллаган ҳолда меъёрий-ҳуқуқий асосни тубдан такомиллаштириш, суғурта ташкилотларининг капиталлашув даражасини ошириш ва шу асосда уларнинг тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш, суғурта бозорида ўз-ўзини бошқариш тизими учун бутунлай янги механизмларни яратиш, мижозларга тўла қулайлик яратиш, соҳада замонавий ахборот технологияларини кенг қўллаш, соҳани кадрлар билан таъминлаш борасида тегишли ишларни амалга ошириш, соҳада носоғлом рақобатга чек қўйиш ва сифатли суғурта хизматларини кўрсатиш тизимини жорий қилиш, мамлакат аҳолиси, шу жумладан чекка ҳудудларда яшовчиларга суғурта хизматларини тўлақонли кўрсатиш тизимини йўлга қўйиш ўта аҳамиятлидир.

Бу борада давлат регулятори ҳамда бозорни ўз ўзини бошқариш тизими қанчалар имкониятга эга. Бизнингча, энг аввало бошқарувнинг бу икки йўналишини зудлик билан қайта ислох қилишдан бошлаш лозим. Давлат регулятори суғурта бозоридан бир мунча ажралиб қолган. Холбуки бозор учун ўта талабчан, шу билан бирга компаниялар манфаатларини изчил ҳимоя қила оладиган регулятор зарур. Регулятор ҳисобланган Молия вазирлиги Суғурта бозорига нисбатан “Қолдиқ фаолият” сифатида қарамоқда. Кўплаб МДХ



давлатларида регуляторлик вазифаси Марказий банкка юклатилган. Регулятор ва ўз-ўзини бошқариш тизими компаниялар учун салмоқли аҳамиятга эга бўлиши лозим.

Хорижий амалиётга кўра давлат томонидан тартибга солишнинг энг аҳамиятли жиҳатларидан яна бири бу суғурта қоидалари ва шартномларининг намунавий шакллари ҳамда суғурта тарифлари бўйича чегараларнинг белгиланиши ҳисобланади. Бундан асосий мақсад, суғурта шартларини бир қолипга келтириш ва суғурта тарифлари бўйича демпинг сиёсатни олдини олишдан ва шу йўл билан суғурталанувчи манфаатларин ҳимоя қилиш ҳамда суғурталовчининг рақобат шароитида тўлов қобилиятини йўқотишини олдини олишдан иборат.

Давлат томонидан амалиётга пруденциал назорат жорий қилинмас экан, давлат назорат органлари компания молиявий ҳолати билан боғлиқ муаммоларда аралашуви зарур бўлиб қолади. Ўзбекистонда пруденциал нормативларга риоя этиш “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуннинг 48-моддасида келтирилган.

Давлат томонидан тартибга солишнинг яна бир муҳим жиҳати бу суғурталовчининг инвестиция фаолиятини назорат қилишдир. Айниқса, суғурта захиралари ҳисобига амалга оширилаётган инвестиция тартибини қаттиқ назоратини ўрнатиш зарурий чора ҳисобланади. Бу борада, давлат томонидан тартибга солишда суғурталовчилар активларни жойлаштиришга оид талаблар, инвестиция фаолиятига оид талаблар, суғурта захираларини ҳисоблаш усуллари ва шакллантириш тартибини Суғурта назорати халқаро ассоциациясининг асосий суғурта тамойиллари ва стандартларини инобатга олган ҳолда такомиллаштириш муҳимдир.

Хулоса қилиб, суғурта бозорининг ҳозирги ривожланиш тенденциясини ҳисобга олган ҳолда давлат томонидан тартибга солиш ва ўз-ўзини бошқаришни рационал нисбатини таъминлашда қуйидагиларни муҳим деб ҳисоблаймиз:

-носоғлом рақобат яратилишига йўл қўймаслик, бу билан суғурталовчиларнинг даромадларини таъминлаш ва бозор ҳажмининг асоссиз тушиб кетишининг олдини олиш;

-меъёрий ҳужжатларда назарда тутилган суғурта агентлари тўғрисидаги низомни ишлаб чиқиш вазифасининг ижроси сифатида:

- суғурта профессионал иштирокчилар уюшмаси таркибида Ягона ўқитиш марказини ташкил қилиш ва агентларни сертификатлаш;





- аттестациядан ўтган ва сертификатланган агентларнинг ягона базасини ташкил қилувчи махсус интернет сайтни жорий қилиш;
 - тайинланган актуарий институтини жорий этиш бўйича меъёрий ҳужжатларни ишлаб чиқиш;
 - мамлакатда қудратли қайта суғурта компаниясини ташкил этиш, бунда давлат ва суғурта компаниялари молиявий имкониятларини қўшиш;
 - суғурта компаниялари молиявий барқарорлигини назорат қилишда халқаро стандартларга мослашиш ва бунда халқаро директив Solvence II га асосланиш;
 - суғурта операцияларида кэшбек амалиётини қонунийлаштириш орқали суғурта операциялар назоратини юритиш;
 - хорижий тажриба асосида лицензиялашда суғурта қоидаларига ва суғурта тарифларига қатъий чегаралар ўрнатиш ва намунавий шартлар белгилаш, бунда чегаралар ва намунавий шартларни малакавий мутухассисларни жалб қилган ҳолда жаҳон тажрибаси ҳамда миллий менталитетни ҳисобга олиб ва актуар ҳисоблар асосида ишлаб чиқиш.



THE ROLE OF SPORTS IN EDUCATION OF PERFECT PERSONALITY

Kadirov Shaxrux Ne'matovich

Senior teacher of Bukhara State University

Qurbonov Hakim Haydarqulovich

Senior teacher of Bukhara State University

Instilling love for physical education and sports begins from childhood. A healthy generation means a healthy country. The goal of education is all the abilities in the body of students while ensuring their healthy growth, their brains and bodies preparation for the cocktail, as well as for the defense of the homeland. According to Abdulla Awlani, it is necessary to train the body in order to have a healthy mind, good morals and knowledge. Physical training has a great effect on people, strengthens their health, increases the ability to work, and training a long body is necessary and helps. Sport is a means of training and maintaining strength at any age. A healthy generation refers to people who are both physically and spiritually mature, hardy, able to work, with advanced culture. The nation, which is bringing up a generation with such unique qualities, looks to the future with open eyes, bright eyes, and great confidence. Today, in our independent country, our compatriots who are showing off the sport of our republic to the world are increasing day by day. In our country, a perfect ground has been created for the development of physical education and sports, as well as for the formation of a healthy generation. A healthy child is the joy of parents. There is not a single parent in the world who does not wish for their child to be healthy, strong, resilient, and fit! A child cannot become healthy, strong, resilient, and healthy on its own. In the growing organism, it is necessary to learn how to adapt to the changing conditions of the external environment in time. Children tolerate heat and cold easily, they are much less likely to suffer from colds, pneumonia, and do not suffer from rickets. As a result of exercise, the heart becomes stronger, the activity of the respiratory organs and the nervous system, metabolism improves.

There are simple (morning gymnastics) and complex (training in selected types of sports) forms of physical training for children.

1. Morning gymnastics
2. Morning special gymnastics
3. Physical minutes
4. General physical training
5. Participation in competitions



6. Take a walk
7. Fitness exercises
8. Hygiene
9. Action games
10. Sports games

Which form of training should be used depends on the child's health, age and individual characteristics, physical fitness and inclination. Morning gymnastics: Parents the first part of the day they should start with morning gymnastics. This is intended the goal is for the child to transition from a sleep state to a state of endurance supply of the nervous and muscular system of the body to increase productivity, to keep it fresh during the day is to increase the possibility. Morning exercises pay attention to the hygienic condition of the room before starting must Room air purity, cleanliness and moderate temperature serves to make physical exercises effective and useful for the child's body. It is advisable to do morning gymnastics for 10-15 minutes. During this time, 7-8 exercises are performed and all muscle groups (arms, body, legs) are involved. To achieve high results, all family members (parents and children) must do the exercises together.


The main components of morning gymnastics should include:

- A) Walking on tiptoes while standing (1-1.5 minutes)
- B) Light jogging while standing (3-5 minutes)
- C) Exercises for neck, shoulder and arm muscles
- G) Exercises for trunk muscles
- D) Jumping movements and walking.

It is recommended to repeat each exercise at least 10 times.

Exercises in a rhythm and with light breathing is done. In spring, summer and autumn, exercises can be held outdoors, on sports grounds. Including running the duration of the exercises in the open air lasts 8-10 minutes. After the exercise, 1-2 minutes of walking and general mobility exercises are performed. Then special morning gymnastics begins with breathing regulation exercises. The age and individual characteristics of children are taken into account when performing special morning gymnastics exercises in the family. Attention is paid to: strengthening the child's health, training their body parts, developing the basic types of movements, creating conditions for the development of activities that keep children refreshed and prevent them from getting tired. To develop the small muscles of the fingers, to develop some skills of walking and movement. The following is recommended as a special form of gymnastics: Crawling. Crawl to the desired distance, under the seat





and ring, 1m. climbing long stairs with the help of adults and in it to develop the small muscles of the fingers, to develop some skills of walking and movement.

The following is recommended as a special form of gymnastics:

1. Crawling. Crawl to the desired distance, under the seat and ring, 1m. length ladder with the help of adults exit and exit.

2. Walking. Walking without support in a straight direction on a board lying on the ground, on a sidewalk, on an inclined (10-15 cm raised) board, climbing and descending on a level 10 cm high. The floor is on the ground or at a height of 5-10 cm being able to walk over a rope, beam or board.

3. Running. Running in the right direction.

4. Use of sports equipment: rolling a ball and a ball from a small hill, throwing it forward and up.

Physical minutes usually last 5-6 minutes at home and end with 4-5 exercises focused on the muscle group that carries the static load. Also, physical minutes are focused on improving the condition of tired muscles in the musculoskeletal system and restoring their functional state. General physical training can be done under the guidance of parents or independently, and does not have to be based on a specific rule or instruction. It is not recommended to immediately run and jump long, run 100 m or perform acrobatic exercises without having a certain physical fitness. Any physical training consists of 3 parts.

1. Preparation

2. Main

3. Finisher

During the preparatory phase, exercises are performed to help coordinate the circulatory and respiratory organs and the locomotor system. During the initial preparation, the elasticity and elasticity of bone joints, muscles and ligaments change, and the body temperature increases. The main part of the training is focused on solving a number of tasks. Including: strength, endurance, speed, agility, physical qualities such as flexibility and running techniques, walking, jumping, throwing and many other movement skills and abilities are practiced. The exercises in the final part are focused on bringing the body to a calm, pre-work state. Free walking, slow running, and relaxing exercises help this. Therefore, physical culture and sports occupy a large place in the children's study, work and leisure schedule. Physical education is necessary for the harmony of the mental, physical, and spiritual development of a person. Through physical education, it helps to instill feelings such as national pride and pride in the life of the people and





creates the necessary opportunities for all-round physical training. After all, a healthy child is the joy of parents.



HARBIY XIZMATCHILAR ONGIDA AHLOQIY TARBIYANING SHAKLLANISH MEZONLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA AHLOQIY TARBIYA. HARBIY AHLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Xakimov Ziyod Zaidovich
IIV Akademiyasi Saf qismi kurs boshlig'i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalariga rioya qilishi, harbiy xizmatchining Vatanga muxabbati va harbiy qasamyodga sodiqligi haqida so'z boradi. Shaxsning odob-axloqi, tarbiyasi va fazilatlari uning axloqiy madaniyatini ko'rsatadi. Harbiy axloq harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruxiy o'zgarishlarda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida, o'zaro nizomiy munosabatlarda shakllanib borishining asosiy shartlari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, mardlik, axloqiy tarbiya, buyruq, harbiy burch, jangovar o'rtoqlik, axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlar.*

KIRISH

Qism va bo'linmalarda asosiy qoidalar va tartibni tashkil qilish Umumharbiy nizomlar bilan qat'iy belgilanadi. Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomi harbiy xizmatchiga o'z davlati Konstitustiyasiga va qonunlariga katiy rioya qilish, Umumharbiy nizomlar talablarini bajarish vazifasini yuklaydi. Umumharbiy nizomlar, shuningdeq harbiy burchni bajarishda rostgo'y, intizomli, mard va jasur bo'lish, oqilona tashabbuskorlikni namoyon etish, komandir (boshliq)larga so'zsiz buysunish va ularni jangda himoya qilish, harbiy qism Jangovar Bayrog'ini avaylab-asrashni talab qiladi.

Qurolli Kuchlar Umumharbiy nizomlarida bayon etilgan ushbu va boshqa vazifalar, talablar shaxsiy tarkib faoliyatining huquqiy asosini yaratadi, harbiy xizmatchilar harakati, shuningdek, komandir qarorlarining huquqiy me'yorlarini ta'minlab beradi.

Komandirning qarori va buyruqlarida jangchilarning kundalik amaliy faoliyatidan ko'zlangan maqsad, ularga erishish yo'llari va usullari, ichki tartib, kun tartibi, moddiy va texnik ta'minot, qo'shin xizmatini tashkil etish va o'tash tartibi, shaxsiy tarkib hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar belgilanadi.

Buyruq - bu buysunuvchi uchun qonun. U so'zsiz, aniq va belgilangan muddatda bajarilishi kerak, deb ta'kidlanadi Intizom nizomida. Buyruqning bajarilmasligi, tinchlik vaqtida ham, urush vaqtida ham eng og'ir harbiy jinoyat sifatida baholanadi.



Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev rahbar siyosiy etukligi, yuksak axloqiyligi, munosibliigi, tashabbuskor, ijodkor va yangilikka intiluvchanligi bilan ajralib turishi kerak, deb bir necha bor bejiz ta'kidlamagan. Bularning barchasi Qurolli Kuchlarimiz ofisterlariga ham bevosita taalluqlidir. Hayot, harbiy xizmat, mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning xarakteri harbiy kadrlarimizdan g'oyaviy toblanganlik va siyosiy etuklik, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat, yuksak kasbiy mahorat, intizomlilik va ijrochilik, jangovar texnika va qurol-aslahani mukammal bilish, murakkab sharoitlarda qism va bo'linmalarni boshqara olish, irodalilik va tashkilotchilik qobiliyati, shaxsiy tarkib bilan ishlay olish, respublika rahbariyati, Mudofaa vazirligi qo'ygan har qanday vazifani bajarishga shaylik, xalqi, Vatani va Prezidentiga, Harbiy qasamyodi, harbiy burchiga sadoqatni talab etadi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqish va tashkil etish usullariga qarab, ularda muayyan turdagi harakatlar va ruhiy ko'nikmalar vujudga keladi. Axloqni bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rne va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o'qituvchilik ixtisosiga qarab — pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab — shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab — yurist axloqi; Qurolli Kuchlar ixtisosiga qarab — harbiy axloq va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar axloqi — vatanparvarlik mardlik eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rne mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar - dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan iborat.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi - xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, bu ularning jamiyatdagi, kundalik turmushdagi, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va odatlarida, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik qarashlari, kechinmalari shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, ular Vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy iftixor,



vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, g'ypyp, ezgulikka intilish, g'amxo'rlik, samimiyat hissiyotlaridir.

Axloqiy amaliyot — kundalik faoliyatda aniq bir maqsaddan ko'zlangan tegishli vositalar, insoniylikka mos keluvchi ishonch, o'zaro hurmat, xushmuomalalik, samimiyat, kun tartibiga qat'iy rioya qilish, komandir va boshliqlar buyruqlarini o'z vaqtida bajarish va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy munosabatlar — harbiy jamoalar va harbiy xizmatchilar o'rtasida amal qilinadigan qonunlar, nizomlar va buyruqlarda o'z ifodasini topgan axloqiy me'yorlar bilan chegaralangan aloqalar va ta'sirlarda namoyon bo'ladi. Axloqiy munosabatlar boshliqlar va buysunuvchilar, kattalar va kichiklar, xizmat lavozimlari va unvonlari teng bo'lgan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muloqotlardan tashkil topadi.

Axloqiy kodekslar, qoidalar va me'yornlarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, kasbiy axloqlar tizimi borligining guvohi bulamiz. Kasbiy axloqiy me'yorlar zaminida kasbning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab, uning sharoitlari, nizom va qoidalari hamda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti mujassamlangan.

Kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Unda umuminsoniy axloq me'yori va qoidalariga tayangan holda insonlarning turli ijtimoiy sohalardagi faoliyati namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham kasbiy axloq umuminsoniy me'yori qo'shimcha talablar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy xizmat axloqi xalqimizning o'n ming yilliklar davomida to'plagan urf-odatlar, an'analari, axloqiy me'yorlariga tayangan holda harbiy xizmatni tashkil qilish va o'tash jarayonlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy tarbiyasi shakllanadi.

Harbiy xizmatchining Vatanga muhabbati, ma'naviy mas'uliyati, or-nomusi, g'ururi va boshqa jihatlari kasbiy faoliyatning shart-sharoitlari, tashkil qilinishi, huquqiy asoslari va yo'l-yo'rig'ini belgilab beradi hamda kundalik faoliyati jarayonida aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Kasbiy axloqning ijtimoiy vazifasi - harbiy burch va majburiyatlarni bajarishning ma'naviy-axloqiy sharoitini yaratishdir.

Harbiy xizmatni tashkil qilishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalarida boshqa umuminsoniy axloqiy talablardan farqli o'laroq mutaxassis uchun maxsus aniq talablar qo'yiladi. Shu bilan birga, axloqiy me'yorlar bir tizimga keltirilib, qonun, nizom, buyruq va ko'rsatmalarda qat'iy belgilab qo'yiladi.

Harbiy xizmatning vazifalari, umuminsoniy axloqiy me'yornlarning talablari harbiy xizmatchilar faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, kasbiy ehtiyojlarni to'ldiradi hamda an'ana, marosim va ko'nikmalar, harbiy xizmatga bog'liq ichki va tashqi fazilatlar, kishining o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi.



Vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, botirlik, qat'iyatlilik, insonparvarlik harbiylarga xos xususiyatlardir. Undan tashqari, qonunlar, buyruqlar, Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlar talablari harbiy xizmatchilar axloqiy tarbiyasi shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kundalik xizmat faoliyatini tashkil etish, xizmatni o'tash, jangovar va dala mashg'ulotlari, jangovar navbatchilik kabi harbiy xizmatga xos bo'lgan jarayonlar ham asosiy o'rin egallaydi.

Shaxsning odob-axloqi, tarbiyasi va fazilatlari uning axloqiy madaniyatini ko'rsatadi. Harbiy axloq harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy o'zgarishlarda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida, o'zaro nizomiy munosabatlarda shakllanib boradi.

Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari o'z axloqini o'zbek xalqining ma'naviy merosi va qadriyatlari, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, mardlik, samimiylik, insoflilik, diyonatlilik, rostguylik, xalollik, or-nomus, poklik, vazminlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, iymonlilik va boshqa axloqiy fazilatlari bilan boyitib borishadi.

Harbiy xizmat boshqa kasblardan o'zining vazifalaridan kelib chiqqan jihatlari bilan ajralib turadi. Ya'ni, qonun-qoidalar, qat'iy xizmat tartibi, buyruq berish va bajarish, vatanparvar bo'lish kabi omillarga tayanadi. Harbiy xizmat, bu - Vatan himoyachisining kasbidir. Vatanning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, xavfsizligi, xalqimizning tinch-osuda hayotini himoya qilishdir.

Shunday ekan, ularning sharaflari va muqaddas burchlari harbiy xizmatchilar oldiga alohida axloqiy talablar qo'yadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik kabi Vatan himoyachisiga xos bo'lgan axloqiy me'yorlarni shakllantirishni taqozo etadi va harbiy xizmatchilarning xizmati jarayonida takomillashib boradi. Shu bilan birga, qahramonlik, mardlik, jasurlik, botirlik, o'zaro ko'makdoshlik kabi xususiyatlar ham harbiy xizmatchilarga xosdir.

Mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni SH.M. Mirziyoev aytganidek, biz bugun armiyamizni haqiqatan ham mutlaqo yangicha, zamonaviy negizda, avvalambor, yuksak ma'naviy asosda tashkil qilmokdamiz. Ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq, tartib-intizom, vatanparvarlik, askariy do'stbirodarlik xususidadir. Aynan ma'naviy sog'lomlik, axloqiy tozalik yangilanishga va taraqqiyotga keng yo'l ochib beradi. Bunday jamiyatda Qurolli Kuchlar xalqning jon-tani, mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi, tinch hayoti va yaratuvchilik mehnatining kafolati, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashnint katta maktabi bo'lib qolaveradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya qator jihatlarga ega bo'lib, ko'proq shaxsning emostional-ruhiy hislatlariga aloqador sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga



ta'sir ko'rsatadi. Shu bois jangchi Vatan himoyachisi uchun zarur bo'lgan quyidagi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

-jangchilarga xos hissiyot, tasavvur, xarakter jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beruvchi tarix, madaniyat, san'at, etika hamda estetika sohasidagi belgilangan bilimlarni;

-ushbu bilimlar doirasida ma'naviy-axloqiy sifatlarni, ehtiyojlar, shaxsiy xulq-atvorlarni shakllantirish va takomillashtirishni.

Xalq tarixi - millat ma'naviy kuchi va axloqiy sog'lomligining yorqin manbaidir. Uni chuqur o'rganish ma'naviy me'yor hisoblanmish mardlik, intizomlilik, halollikdir. Shu bilan birga, sotqinlik qilmaslik kabi sifatlarni shakllantirishning negizidir.

Bizga mamlakatimizning muqaddas ramzlari bo'lmish Davlat gerbi, Davlat bayrog'i, Davlat madhiyasi juda qadrlidir. Ular ma'naviyatimizning muhim ramzlari hisoblanib, cheksiz hurmat va faxr-iftixor tuyg'usini tarbiyalaydi.

Bizning boyligimiz, mustaqilligimiz hamda ajoyib kelajakka ishonchimizning bosh manbai ona erimizdir. Buyuk ajdodlarimiz hoki yotgan ushbu muqaddas zaminga muhabbat ma'naviyatning bitmas-tuganmas bulog'i bo'lib xizmat qiladi. Ona erimizni qo'riqlash - muqaddas va sharafli majburiyatdir.

Bugungi O'zbekiston jangchisi To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari buyuk ajdodlarimizning qahramonliklarini e'zozlaydi va sharaf bilan munosib davom ettiradi.

O'zbekiston jangchisining burchi — ajdodlar an'analarini e'zozlash, munosib davom ettirish va boyitish, mustaqil Vatanimiz xavfsizligi uchun shaxsan javobgarlik hissini sezish, Vatan himoyachisi degan yuksak nomni sharaf bilan oqlash, Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlar talablariga qat'iy rioya qilishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi mukammal askar hayotini xatarga qo'yib bo'lsa-da, safdoshidan yordamini ayamaydi, uning uchun xuddi o'z tug'ishgan aka-ukasidek qayg'uradi.

O'zbekiston jangchisi uchun milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an'analariga sodiq bo'lish, shu bilan birga, eng zamonaviy talablar va andozalarga mos keladigan armiyamiz jangovar shayligini oshirishga hissa qo'shish ulkan ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yuksaltirish, har qanday vaziyatda ham murakkab sinovdan sharaf bilan chiqish harbiylardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak aql-idrok, intellektual salohiyat, alohida ruhiy-ma'naviy xususiyat va fazilatlarga ega bo'lishni, eng zamonaviy qurol-yarog'lar sir-asrorlarini puxta egallashni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy



tarkibining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, mustahkam irodasi, fidoyiligi, ona yurtga mehr-muhabbati va sadoqatiga so'zsiz bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jangovar tayyorgarlikni va shaylikni oshirishda hamda harbiy iitizomni mustahkamlashda axloqiy tarbiyaning alohida o'rni bor. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, «Harbiy islohotlar harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, professional tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning butun tizimini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Bu - jangchilarimizda Vatanga muhabbat va sadoqatni, yuksak ma'naviy fazilatlar va mustaxham irodani tarbiyalashga, professionalizmni, a'lo jangovar tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilishi lozim».

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi - harbiy xizmatchilar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va singdirish, buyuk ajdodlarimizning boy madaniy-tarixiy meroslari bilan faxrlanish, an'analarga sodiqlik, milliyligimizni anglash, ular qalbida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat ruhini qaror toptirish va doimo o'z burchlarini munosib o'tash uchun tayyorlashga qaratilgan.

Harbiy axloqning quyidagi asosiy tushunchalarini ko'rsatish mumkin:

1. Harbiy burch;
2. Harbiylarning axloqiy mas'uliyati;
3. Harbiy qahramonlik;
4. Harbiy intizom;
5. Talabchanlik va ijrochilik;
6. Mardlik;
7. Jonkuyarlik;
8. Jangovar o'rtoqlik va boshqalar.

Harbiy burch - bu O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining sharaflil burchidir. Konstitustiyamizning 52-moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar» degan so'zlar mustahkamlangandir.

Bundan kelib chiqadiki, Vatanni, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning tinch-osoyishta hayoti va xavfsizligini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining konstitustiyaviy burchi va muqaddas vazifasidir. Biz Qurolli Kuchlarda xizmat qilishni sharaflil burch deb ataymiz. Chunki, ona-yurti himoya qilish qadim-qadimdan sharaflil ish, deb hisoblab kelingan.

Bu bilan xalq va davlat tomonidan Vatan himoyasi bo'yicha fuqarolarga yuklangan va yuklanayotgan alohida mas'uliyat ta'kidlangan. Konstitustiyamizning 125-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston



Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi», deb yozib qo'yilgan. Vatan himoyachisi oldiga O'zbekiston Konstitustiyasi qo'yayotgan bu sharafl va mas'uliyatli vazifalarni bajarish, har bir harbiy xizmatchining sharafl burchi hisoblanadi.

Harbiy qahramonlik - bu mardlikning yuksak ko'rinishi bo'lib, jangchining Vatan dushmanlari bilan qurolli kurashda yuksak jangovar faollik va ma'naviy mas'uliyati tarzida namoyon bo'ladi.

Biz uzoq vaqt davomida Vatanimizda o'zligimizga begona bo'lib yashadik. Bugungi hurriyatimizga erishgunimizga qadar ming-minglab ziyoli, xalqni etaklovchi bobolarimiz shahid ketishdi.

Mana shu ulkan baxtimizni ko'ra olmayotgan, erkimiz, tinchligimizga rahna solmoqchi bo'layotgan manfur dushmanlar ham bu haqiqatni anglab etishgan bo'lsa ajabmas. Chunki, sarhadlarimizga qora niyat bilan qadam bosgan ekstremistik guruhlarning tuprog'imizda it o'limini topganligi hech kimga sir emas. Buni Bo'stonliq va Yangiobodagi, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi janglar tafsilotidan ham bilsak bo'ladi. Bu janglarda yigitlarimiz qaxramonliklar ko'rsatib, dushmanni tormor qilishdi.

Mardlik - bu insonning chidamlilik, uddaburonlik, qatiyatlilik qobiliyatini xarakterlaydigan ma'naviy-jangovar sifatidir.

Jangovar o'rtoqlik - bu jangovar jamoaning jipsligi va jangovarlik qobiliyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy-huquqiy norma hisoblanadi. Uning asosiy xarakterli jihatlari o'zaro elkadoshlik, o'qishda va xizmatda o'zaro ko'makdoshlik kabilarda namoyon bo'ladi.

Askariy o'rtoqlik o'zbekistonlik jangchilar uchun ularning xizmat va o'zaro munosabatlaridagi o'zgarmas qonun bo'lib, Qurolli Kuchlardagi eng ajoyib udumlardan biri hisoblanadi. Vatan himoyasi uchun bo'lgan barcha urush va to'qnashuvlarda ular mislsiz mardlik va jasorat, fidokorlik va matonat, askariy jipslik va jangda ko'makdoshlik namunalarini ko'rsatganlar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida «Harbiy xizmatchi askariy birodarlikni e'zozlashga, o'z hayotini ayamasdan o'rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga so'z va ish bilan yordam berishga, har birining ornomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, o'ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ko'pollik va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga majburdir», deb yozilgan.

Jangchilar xizmat faoliyatlarida askariy o'rtoqlikning muhimligini idrok etishlari uchun eng avvalo umumiy tarzda bo'lsa ham, ularni askariy o'rtoqlikning tarixiy ildizlaridan voqif qilish zarur.



Vatan mustaqilligi va milliy manfaatlari uchun olib borilgan jang maydonlarida shakllangan askariy o'ртоqlik - asrlar qa'ridan bizgacha etib kelgan jangovar an'analardan biridir. U bizgacha xalqimiz qahramonona o'tmishining o'chmas yulduzi sifatida etib keldi.

Buyuk sarkarda Amir Temur janglarda jangchilarning do'stligi, ularning o'zaro yordam va ko'makdoshligini yuksak qadrlagan. «O'zing o'lsangda, o'rtog'ingni qutqar!» shiorini oldinga surgan. Bu shior o'sha davrda ham, keyinchalik ham Vatan himoyachilarining shiori bo'lib qoldi.

Askariy o'ртоqlik jangovar an'ana, axloqiy tamoyil hamda jangchilar hayot tarzi va xizmatining o'ziga xos hislati sifatida insoniyat tarixidagi eng dahshatli ikkinchi jahon urushida sinovdan o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangchilari askariy o'ртоqlik an'anasini mustahkamlashmoqda va asrab-avaylashmoqda. Do'stiga, safdoshlariga yordamga kelish, o'z hayotini ayamasdan ularni har qanday xavf-xatardan olib chiqish an'anasi vaqt o'tishi bilan nafaqat o'z aksini saqlamoqda, balki yangi qirralar bilan boyib bormoqda.

Taktik o'quv mashg'ulotlari va o'quv sinflarida, poligonlar va tankodromlarda, zangori osmonda — askariy o'ртоqlik yuksak jangovar mahorat, mustahkam intizom va tashkilotchilikka erishishni taqozo etayotir. Bu borada bo'linmaning hayoti va jangovar o'quvidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Har bir harbiy jamoa - qism va bo'linmadan tortib O'zbekiston Qurolli Kuchlarini butunlay ahil jangovar oila darajasida saqlash - muhim vatanparvarlik vazifasidir.

Harbiy intizom - bu qonunlar va harbiy nizomlar bilan o'rnatilgan tartib va qoidalarga barcha harbiy xizmatchilar tomonidan qat'iy va aniq rioya qilinishidir.

Harbiy intizom zamirida davlatimiz qonunlari, Qurolli Kuchlarimiz nizomlarida mustahkamlangan xalq irodasi ifodalanadi.

Xalqimizning halol mehnati, jipsligi, uyushqoqligi va intizomi nafaqat islohotlarning belgilangan yo'nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, xalq farovonligi, uning umumiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini ham yaratadi.

Vatan himoyasi sharaflig va muqaddas burch. Bu so'zlar zamirida juda katta ma'no va mazmun bor. Vatan, bu — ajdodlarimiz yashagan, biz yashayotgan muqaddas zamindir. Shuning uchun, uni ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylashimiz ham qarz, ham farzdir.

Tarixdan ma'lumki, yurtimiz boshiga og'ir sinovli kunlar tushganda uning ozodligi, tinchligi va osoyishtaligini himoya qilishga qodir mard farzandlari ko'ksini qalqon qilib yovga qarshi chiqdilar. Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan



ajdodlarimizning qahramonliklari bugungi kunda barchamizni ona yurtimizni qadrlashga, tinch va osoyishta hayotimizni munosib himoya qilishga da'vat etib turibdi.

Shu o'rinda Prezidentimiz SH.M. Mirziyoevning «Milliy armiyamiz - mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir» nomli risolasidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir: «Xalqimizning eng ishonchli tayanchi va suyanchi, faxri va iftixori bo'lish milliy armiyamizni barpo etish davlatimiz va jamiyatimiz, Vatanimizning taqdiriga befarq qaramaydigan har qaysi insonning muqaddas burchiga aylanishi zarur».

Bugungi kunda ulg'ayib kelayotgan yosh avlod O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishni o'zlarining muqaddas va sharafli burchi deb bilishlariga erishish, ularning ongiga vatanparvarlik, o'z burchiga sodiqlik, Vatani, xalqi va Prezidentiga sadoqat kabi tuyg'ularni singdirish asosiy vazifalardandir. Armiyamiz safida xizmat qilishga har bir yosh ongli ravishda, yuksak mas'uliyatni his etgan holda kelishiga erishmog'imiz kerak.

Milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan harbiylar harbiy xizmatni shunchaki majburiyat emas, balki Vatan va xalq oldidagi, buyuk ajdodlarimiz va oila a'zolari oldidagi, muqaddas burch, deb bilishlari, bunday sharafli va mashaqqatli vazifani bajarayotganlaridan g'ururlanishlari, Vatan himoyachisi degan nomga dog' tushirmasliklari lozim.

Armiyamiz saflaridagi harbiy xizmatchilar nafaqat yuksak jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, shu bilan birga yuksak aql-zakovat, mustahkam iroda va ruhiy jihatdan yaxshi tayyorgarliklari bilan ham ajralib turishlari kerak.

Buning uchun harbiy xizmatchilar o'zlarining ma'naviyati, tafakkuri va ongiga milliy istiqloq g'oyasini chuqur singdirib, har qanday ma'naviy qashshoqlikka yo'l qo'ymasliklari lozim.

«Vatanga xizmat - oliy sharaf» degan so'zlar har bir harbiy xizmatchining shioriga aylanishi, har bir harbiy xizmatchi mana shunga qat'iy amal qilmog'i shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir» deyilgan. Vatan himoyasi - muqaddas burch. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz saflarida xalqimizning minglab farzandlari o'z burchlarini sharaf bilan ado etmoqdalar.

Burch - insonga ob'ektiv, ya'ni mehnat qilish, xizmatni o'tash, ijtimoiy hayot qoidalariga rioya qilish, davlat mulkini saqlash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Konstitustiya va qonunlarga bo'ysunish, boshqa insonlarning huquqi, erkinligi, sha'ni va g'ururini hurmat qilish singari jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan tushunchadir.



Harbiy burch - ofister, serjant va askarlar uchun muhim ma'naviy mezon bo'lib, ularning barcha xatti-harakatlari, vatanga sadoqati, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari, jangovar mahoratlarini muntazam takomillashtirishlari, Umumharbiy nizomlar va Harbiy qasamyod talablarini so'zsiz bajarishlaridir.

Bularning barchasi harbiy xizmatchilarga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu - Vatan himoyasi, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini, xalqning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatidir.

Umumharbiy nizomlar talablarini bilish va ularga qat'iy rioya qilish - har bir harbiy xizmatchining burchi va majburiyatidir. Jangchining o'qishi, xizmati, madaniy-maishiy hayoti, qo'yingki, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi hayoti va faoliyatining qay bir qirrasini olmaylik, ularning barchasi nizomlarda o'z ifodasini topgan va belgilab qo'yilgan. Aynan shuning uchun ham har bir harbiy xizmatchi Umumharbiy nizomlar talablarini yaxshi bilishi va ularga qat'iy rioya qilishi shart.

Barcha nizomlar Konstitutsiya asosida qabul qilingan bo'lib, Ichki xizmat nizomi, Intizom nizomi, Garnizon va qorovul xizmati nizomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan. Ular harbiy xizmatning barcha qirralari va huquqiy asoslarini ochib beruvchi hujjat sifatida harbiy xizmat to'g'risidagi qonunlar majmuasi hisoblanadi. Qurolli Kuchlar Saf nizomi ham harbiy xizmat qonuni hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 1996 yil 14 oktyabrdagi buyrug'iga muvofiq amalga kiritilgan.

Nizomlar harbiy xizmatchilarning kundalik hayoti va faoliyatini, madaniy-maishiy turmushini, turli o'quv sharoitlar va jangovar vaziyatlarda xizmatni o'tash tartib-qoidalarini belgilab bergan rasmiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardir. Ularda mamlakatimiz rahbariyatining harbiy qurilish, Qurolli Kuchlarni isloh qilish, jangovar shaylikni oshirish masalalari va harbiy intizomni mustahkamlash yo'llari o'z ifodasini topgan.

Umumharbiy nizomlar mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va qonunchilik hujjatlari kuchiga egadir. Umumharbiy nizomlar harbiy xizmatchilarga o'z majburiyatlarini aniq bajarishlarida, turli vaziyatlarda oldiga qo'yilgan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishiga yaqindan yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki xizmat nizomi qo'shinlarning barcha kundalik hayoti va faoliyatini belgilaydi, harbiy xizmatchilarning majburiyatlarini aniq ifodalaydi. Oddiy askardan tortib, barcha harbiy xizmatchilar lavozim majburiyatlari darajasini, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarni, buyruq berish va uni bajarish tartibi, harbiy axloqiy qoidalar hamda harbiy xizmatchilarning



jamoat joylarida va harbiy jamoada o'zlarini qanday tutishlari lozimligini belgilab beradi.

Harbiy xizmatchi majburiyatlarida harbiy xizmatchini o'z davlati Konstitusiyasiga va qonunlariga qat'iy rioya qilishga, harbiy nizomlarning talablarini so'zsiz bajarishga majburligi belgilab berilgan.

Ichki xizmat nizomining 14-moddasida shunday deyilgan: «Harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi himoyachisi oliy unvonini sharafla oqlashga, Qurolli Kuchlarning, o'z harbiy qismining or-nomusi va jangovar shon-shuhratini va o'z harbiy unvoni obro'sini e'zozlashga majburdir».

Intizom nizomi Qurolli Kuchlarda yakkaboshchilik tamoyilini belgilaydi. Intizom nizomining 9-moddasida «Yakkaboshchilikning asosiy prinsipi komandir (boshliq)ning buyruq berish huquqi va uning qo'l ostidagilarning so'zsiz bajarishiga asoslanadi», deb ta'kidlangan.

Harbiy xizmatchilar axloqi — vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni xayotining so'nggi daqi-qalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasi-ni topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat axolisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar — dushman tajovo'zidan ximoya qilish bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan iborat.

Xarbiy xizmatchilarning axloqiy ongi — xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, qarash, ishonch, tuyg'u kabi xissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, bu ularning jamiyatdagi, kundalik turmushdagi, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlari, xis-tuyg'ulari va odatlarida, siyosiy, xuquqiy, axloqiy, estetik qarashlari, kechinmalari shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, ular Vatanga bo'lgan muxabbat, vatanparvarlik, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy iftixor, vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, g'urur, ezgulikka intilish, g'amxo'rlik, samimiyat xissiyotlaridir.

Axloqiy amaliyot — kundalik faoliyatda aniq bir maqsaddan ko'zlangan tegishli vositalar, insoniylikka mos keluvchi ishonch, o'zaro xurmat, xushmuomalalik, samimiyat, kun tartibiga qat'iy rioya qilish, komandir va boshliqlar buyruqlarini o'z vaqtida bajarish va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi. Axloqiy munosabatlar — harbiy jamoalar va harbiy xizmatchilar o'rtasida amal qilinadigan qonunlar, nizomlar



va buyruqlarda o'z ifodasini topgan axloqiy me'yorlar bilan chegaralangan aloqalar va ta'sirlarda namoyon bo'ladi. Axloqiy munosabatlar boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, xizmat lavozimlari va unvonlari teng bo'lgan xarbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muloqotlardan tashkil topadi. Axloqiy kodekslar, qoidalar va me'yorlarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, kasbiy axloqlar tizimi borligining guvohi bo'lamiz. Kasbiy axloqiy me'yorlar zaminida kasbning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab, uning sharoitlari, nizom va qoidalari xamda jamiyatning moddiy va ma'naviy xayoti mujassamlangan. Kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Unda umuminsoniy axloq me'yorlari va qoidalariga tayangan xolda insonlarning turli ijtimoiy soxalardagi faoliyati namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlarga qo'shimcha talablar qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy xizmat axloqi xalqimizning o'n ming yilliklar davomida to'plagan urf-odatlarini, an'analari, axloqiy me'yorlariga tayangan xolda harbiy xizmatni tashkil qilish va o'tash jarayonlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy tarbiyasi shakllanadi. Harbiy xizmatchining Vatanga muxabbati, ma'naviy mas'uliyati, or-nomusi, g'ururi va boshqa jixatlari kasbiy faoliyatning shart-sharoitlari, tashkil qilinishi, xuquqiy asoslari va yo'l-yo'rig'ini belgilab beradi hamda kundalik faoliyati jarayonida aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Kasbiy axloqning ijtimoiy vazifasi — harbiy burch va majburiyatlarni bajarishning ma'naviy-axloqiy sharoitini yaratishdir. Harbiy xizmatni tashkil qilishning xuquqiy-me'yoriy xujjatlari va yo'riqnomalarida boshqa umuminsoniy axloqiy talablardan farqli o'laroq mutaxassis uchun maxsus aniq talablar qo'yiladi. Shu bilan birga, axloqiy me'yorlar bir tizimga keltirilib, qonun, nizom, buyruq va ko'rsatmalarda qat'iy belgilab qo'yiladi. Harbiy xizmatning vazifalari, umuminsoniy axloqiy me'yorlarning talablari harbiy xizmatchilar faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, kasbiy extiyojlarni to'ldiradi hamda an'ana, marosim va ko'nikmalar, harbiy xizmatga bog'lik ichki va tashqi fazilatlar, kishining o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, botirlik, qat'iyatlilik, insonparvarlik harbiylarga xos xususiyatlardir. Undan tashqari, qonunlar, buyruqlar, Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlar talablari harbiy xizmatchilar axloqiy tarbiyasi shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kundalik xizmat faoliyatini tashkil etish, xizmatni o'tash, jangovar va dala mashg'ulotlari, jangovar navbatchilik kabi harbiy xizmatga xos bo'lgan jarayonlar ham asosiy o'rin egallaydi.

Shaxsning odob-axloqi, tarbiyasi va fazilatlarini uning axloqiy madaniyatini ko'rsatadi. Harbiy axloq harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruxiy o'zgarishlarda, ijtimoiy



munosabatlar jarayonida, o'zaro nizomiy munosabatlarda shakllanib boradi. Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari o'z axloqini o'zbek xalqining ma'naviy merosi va qadriyatlari, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, mardlik, samimiylik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, xalollik, or-nomus, poklik, vazminlik, ota-ona va kattalarni xurmat qilish, mexnatsevarlik, o'tmishga xurmat, iymonlilik va boshqa axloqiy fazilatlari bilan boyitib borishadi. Shuni xulosa qilib aytish joizki Harbiy xizmat boshqa kasblardan o'zining vazifalaridan kelib chiqqan jixatlari bilan ajralib turadi. Ya'ni, qonun-qoidalar, qat'iy xizmat tartibi, buyruq berish va bajarish, vatanparvar bo'lish kabi omillarga tayanadi. Shunday ekan, ularning sharafli va muqaddas burchlari harbiy xizmatchilar oldiga aloxida axloqiy talablar qo'yadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik kabi Vatan Ximoyachisiga xos bo'lgan axloqiy me'yorlarni shakllantirishni taqozo etadi va harbiy xizmatchilarning xizmati jarayonida takomillashib boradi. SHu bilan birga, qaxramonlik, mardlik, jasurlik, botirlik, o'zaro ko'maqloshlik kabi xususiyatlar ham Harbiy xizmatchilarga xosdir.

XULOSA

Qurolli Kuchlar Garnizon va qorovul xizmati nizomida harbiy xizmatchilarning garnizon va qorovul xizmatini o'tashlarini tashkil etish masalalari bayon etilgan. Ta'kidlash joizki, qorovullik xizmatini o'tash - jangovar vazifani bajarish hisoblanishi nizomda aniq belgilab berilgan.

Qurolli Kuchlar Saf nizomi harbiy xizmatchilarning saf tortish oldidan va safdagi majburiyatlari, saf tortish usullarini bajarish qoidalari, harbiy xizmatchilar, bo'linma va qism saf tortishi, saf ko'riklarini o'tkazish qoidalari o'rgatadi.

Barcha harbiy xizmatchilarning qonuniylikka, huquqiy tartibga so'zsiz bo'ysunishi mamlakatimiz qonunlari, Umumharbiy nizomlarga qat'iy bo'ysunishiga bevosita bog'liq.

Umumharbiy nizomlar talablarini bilish, uning zaruratini anglab etish va qat'iy ijro etish, bu - mustahkam harbiy intizomga poydevor hisoblanmish uch muhim omillardir.

Qurolli Kuchlarning darajasi va taraqqiyoti, zamonaviy jang harakatlari xarakteriga mos bir qancha muhim shartlarning naqadar muvaffaqiyat, faollik va davomiylik bilan hayotga tatbiq etilishiga ham bog'liqdir.

Ushbu shartlar quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan qattiq talabchanlik, ijrochilik va ijro ustidan nazorat harbiy xizmatning tashkiliy tuzilishini paydo qiladi.

*Ikkinchi*dan, xizmatni aniq tashkillashtirish va qat'iy nizomiy tartib. Bular harbiy intizom mustahkamligi, barqarorligining eng muhim shartlaridir. Askarlarga nizomiy



hayot va harbiy xizmat shart-sharoitlari yaratib bermasdan, undan nizom qoidalarini bajarishni talab qilib bo'lmaydi.

Uchinchidan, askarlarning xatti-harakatlariga harbiy jamoaning e'tiborli va talabchan munosabati. Qaerdaki harbiy xizmatchilar yig'ini haqiqatan ham demokratik shaklda bo'lib, unda harbiy xizmatning eng muhim, eng dolzarb masalalari muhokama etilsa, o'sha erda nizom qoidalarini buzishga intiladiganlarga, nizomga zid o'zaro munosabatlarga aslo o'rin bo'lmaydi.

To'rtinchidan, komandirlar ishida ishontirish va majburlash usullarini mohirlik bilan uyg'unlashtirib olib borish.

Tarbiyaning asosi - *ishontirish usulidir*. Komandirning ochiq-oydin, samimiy so'zi, o'z qo'l ostidagilarni anglay olish mahorati, ular bilan samimiy munosabat o'rnatishi - tarbiyaning asosi hisoblanadi. So'z bilan, yanada samarasi ko'proq ish bilan ishontirish mumkin. So'z va ish birligida katta qudrat mavjud. Komandirning shaxsiy namuna ko'rsatishining ham ahamiyati katta.


Bizning asosiy burchimiz - kundun-kunga o'zimizning jangovar mahoratimizni, kasbiy malakamizni oshirish, harbiy intizom, uyushqoqlik va nizomiy tartibni mustahkamlash, o'zimizning, bo'linma va qismimizning jangovar shayligini muntazam yuksaltirib borish, doimiy xushyorlikdan iborat.

Milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularga oila va maktabda olib ulgurmagan bilim va tarbiyani o'rgatadigan, o'z Vatani, xalqi va Prezidentiga sadoqat, jasorat va matonat maktabi vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR QO'LLANMALAR:

1. Xarbiy xizmat axloqi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risidagi qonuni» 2001 yil
3. Komandirlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinbosarlariga metodik tavsiyalar. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tarbiyaviy ishlar boshqarmasi.
4. «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligining infarmatsion blyutenlari.
5. Vatanparvar gazetasi maqolalari.
6. O'zbekiston Respublikasining "Umumxarbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent 2003 y
7. I.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». 1996 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi QK «Umumharbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.





9. “Axloqshunoslik” fanidan mustaqil ta’lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil,
Pulatova D.A.

10. Estetika “Nafosatshunoslik” Toshkent 1995 yil, E.Umarov.

